

Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna
Boliyeva Lola Shukurovna

MAKTABGACHA TA`LIMDA
TASVIRIY FAOLIYAT

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna
Boliyeva Lola Shukurovna

MAKTABGACHA TA'LIMDA TASVIRIY FAOLIYAT

O'QUV QO'LLANMA

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lim

Ta'lim sohasi: 110000 – Ta'lim

Ta'lim yo'nalishi: 60110200 – Maktabgacha ta'lim

2023 yil

UO'K 373;741/744
KBK74.2;85.14
X-27

T.L.Xurvaliyeva, L.Sh.Boliyeva/ Maktabgacha ta'limda tasviriy faoliyat / O'quv qo'llanma.- Chirchiq, "City of book", 2023 – 200 b.

Mazkur o'quv qo'llanmada "Maktabgacha ta'limda tasviriy faoliyat" fanining maqsadi, vazifalari, asosiy mavzulari, metodlari nazariy jihatdan yoritib berilgan.

Shuningdek, o'quv qo'llanmada maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishida tasviriy va ijodiy faoliyatning ahamiyati, tarbiyachining tasviriy faoliyat mashg'ulotlaridagi pedagogik va kasbiy mahorati, kompetentligi, tasviriy faoliyatga o'rgatish metodlari, turli yosh guruhlarda rasm chizish, applikatsiya, loy ishi, qurish-yasash mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi haqida mavzular yoritilgan.

O'quv qo'llanmada jumladan tasviriy faoliyat turlari rasm chizish, applikatsiya loy ishi va qurish-yasash bo'yicha noan'anaviy usullar haqida, tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini yashkil etishda STEAM texnologiyasidan foydalanish va robototexnika haqida ham ma'lumotlar berilgan

Ta'lim yo'nalishi: 60110200 – Maktabgacha ta'lim


Mas'ul muharrir: Ibragimov X.I - Pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

B.S. Axmadaliyev- ChDPU "Maktabgacha ta'lim" fakulteti o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari P.f.f.d. (PhD)

G.A. Gaynazarova- Toshkent davlat pedagogika universiteti "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedra o'qituvchisi, P.f.f.d. (Phd).

ISBN 978-9910-751-62-2



© T.L.Xurvaliyeva va b., 2023

©«City of book», 2023

Kirish

Bugungi kunda ilmiy kuzatish va tadqiqotlar natijasida inson o'z hayoti davomida oladigan barcha ma'lumotning yetmish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi aniqlangan.

Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida "Biz maktabgacha ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarib, bu borada katta ishlarni boshladik. Agar shu ishni har tomonlama puxta o'ylab amalga oshirmasak, butun ta'lim tizimida sifat o'zgarishiga erishishimiz, ta'limning uzluksizligini ta'minlashimiz qiyin bo'ladi" degan edi. Darhaqiqat, bu davrda inson bolasi dunyoni anglaydi, o'z ona tilini o'zlashtiradi, ota-ona, oila, mahalla, Vatanga mehri uyg'onadi, umr davomida oladigan bilimlarga zamin hozirlaydi. Shu bois mamlakatimizda aynan maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas bo'lagiga, ta'bir joiz bo'lsa, uning debochasiga aylanganligining guvohi bo'lib kelmoqdamiz.

Bu borada davlatimiz tomonidan ko'plab qaror va qonunlar ishlab chiqildi, jumladan, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilib, uni amalga oshirishni ko'zlovchi "Yo'l xaritasi"da 2019—2024 va 2025—2030-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari belgilandi.

Konsepsiya o'rta va uzoq muddatli istiqbol uchun maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadlari, vazifalari, ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab berdi. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi. Xususan, tizim tashkil etilgandan keyin, ya'ni 2017-2021-yillarda amalga oshirilgan ishlarning naqadar sezilarli o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Misol tariqasida quyidagi raqamlarga ahamiyat qaratiladi:

2017-yilda respublika bo'yicha 5 211 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari soniga nisbatan besh barobarga oshib, hozir kunda 28 012 tani tashkil etmoqda.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lim tizimni yaratish ko'zda tutildi. Ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim. Zamonaviy ta'limning dolzarb muammolaridan biri har bir bolaning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishdir. Ijodkor shaxsni shakllantirish hozirgi vaqtda pedagogika fani va amaliyotining muhim vazifalaridan biridir. Bu muammoning yechimini topishni maktabgacha yoshdagi bolalik davridan boshlash kerak. Buning eng samarali vositasi tasviriy faoliyat mashg'ulotlaridir. Tasviriy faoliyat maktabgacha ta'lim tizimidagi maxsus tarmoq bo'lib, unda nostandart, innovatsion yondashuvlar, tasvirlarni badiiy timsol qilish texnologiyalarini individual izlash o'qituvchi va talabalar ijodiy faoliyatining doimiy konstruktiv elementi hisoblanadi. Shu sababli, tarbiyachining o'quv jarayonini tashkil etish shartlariga to'g'ri yondashishi bilan bolada tasviriy faoliyatga bo'lgan qiziqish yuqori darajada rivojlanadi, bilim darajasi yuqori bo'ladi. Shaxsning ijodiy rivojlanishi va turli xil yangi ijodiy ob'ektlarni mustaqil ravishda yaratish istagi paydo bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat dasturining takomillashtirilgan ikkinchi nashrida bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari aniq ko'rsatib berilgan. Dasturning 3-bobida: "Rivojlanish sohalari bo'yicha kompetensiyalarni o'zaro bog'liq holda takomillashtirish bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, uning maktab ta'limi bo'lgan keyingi bosqichiga muammosiz o'tishi va unga tayyor bo'lishi, boshlang'ich ta'limda kompetensiyalarni shakllantirishi uchun zarurdir", deya ta'kidlanadi. Shuningdek, dasturda "Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim va tarbiya

jarayonining maqsadi bolaning tayanch kompetensiyalari va rivojlanish sohalarining kompetensiyalarini shakllantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishdir", - deyiladi.

"Ilk qadam" davlat dasturida bola rivojlanishining 5 sohasi "Ijodiy rivojlanish" sohasi bo'yicha ta'lim va tarbiya asosan MTMLarda tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi mashg'ulotlar jarayonida olib boriladi.

Tasviriy faoliyat turlari- bu rasm chizish, loy, applikasiya, qurish-yasash mashg'ulotlaridir.

Bolalar bog'chasida tasviriy faoliyat borliqni tushunishning samarali vositasidir. Ushbu faoliyat ko'rish idroki, tasavvurlar, fazoviy tasavvurlar, xotira, estetik his-tuyg'ular va boshqa aqliy jarayonlarning rivojlanishi hamda shakllanishiga yordam beradi. Tasviriy faoliyat aqliy va jismoniy faoliyatni birlashtiradi. Ishni bajarishda ongliklik, maqsadga muvofiqlik va mustaqillik, qat'iyatlik, ishni oxirigacha etkazish qobiliyati, aniqlik, foydali ishni bajara olish qobiliyati -bu faoliyatlar bola shaxsining qimmatli fazilatlarini rivojlantirish vositasidir. Maktabgacha yoshda bu fazilatlarining rivojlanishi kelajakda o'quv va mehnat faoliyatining har xil turlarini o'zlashtirishni osonlashtiradi. Rasm chizish, loy ishi, applikasiya ham zarur gigiena talablariga rioya qilgan holda jismoniy rivojlanishga hissa qo'shishi mumkin. Tasviriy faoliyat nafaqat aqliy va jismoniy faoliyat eng asosiysi badiiy faoliyat hisoblanadi. Badiiy faoliyat sifatida bolalarda estetik his-tuyg'ular, estetik didni rivojlantiribgina qolmay, tevarak-atrofdagi go'zalliklarni anglay olish va qadrlashga o'rgatadi.

Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyat katta ahamiyat kasb etadi. rasm, loy, qurish materiallari bo'yicha bilim, malakalarini egallash maktabda tasviriy faoliyat darslari va mehnat darslarini muvaffaqiyatli egallashlariga asos bo'ladi. Ularni o'quv faoliyatiga tayyorlaydi: pedagogni tinglashga, uning ko'rsatmalarini bajarishga o'rgatadi.

Tasviriy faoliyatga oid mashg'ulotlar Maktabgacha ta'lim muassasasining barcha guruhlarida rejim asosida uyushtiriladi. Mashg'ulotlar hozirgi vaqtda "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida davlat talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirilmoqda.

I-BOB

MAKTABGACHA TA'LIMDA TASVIRIY FAOLIYAT FANINING PREDMETI, MAQSADI, VAZIFALARI VA BOSHQA FANLAR BILAN BOG'LIQLIGI.

§1. Maktabgacha ta'limda tasviriy faoliyat - maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar badiiy-estetik tarbiyasini rivojlantirishning asosiy vositasi ekanligi.


Tasviriy faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlamma yetuk, barkamol qilib tarbiyalashda katta ahamiyatga ega, jumladan bolalarni aqliy jihatdan tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Birorta predmetni chizish yoki yasash uchun albatta u bilan oldindan tanishish yoki kuzatib chiqish, uning shakli, katta-kichikligini, qismlarining joylashishi, rangini bilish kerak bo'ladi. Bu jarayonda ko'rish, sezish, qo'l harakatlari ishtirok etmay qolmaydi. Bolalar predmet va hodisalarni kuzatish va ko'rib chiqish jarayonida predmetni katta-kichik guruhlariga bolib, uning shaklini o'zgartirib, rangini turli-tumanligi bilan tasvirlaydilar. Shuningdek, tasviriy faoliyat jarayonida bolalar turli xil material (qog'oz, bo'r, plastilin, sho'r xamir, bo'yoqlar) bilan ularning o'ziga xos xususiyatlari, ular bilan ishlash texnikasi bilan tanishadilar. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari jarayonida bolalarda fikr yuritish operatsiyalari (tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish) ning rivojlanishiga imkon beradi, bular, o'z navbatida, bolaning aqliy salohiyatining o'sishiga olib keladi. Bu jarayonda bolalarning nutqi rivojlanadi. Sensor tarbiyani amalga oshirishda tasviriy faoliyatning ahamiyati juda katta. Tasviriy faoliyat bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalaydi. Chunki bolalar o'z ishlarida bizning hayotimizda, jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalami aks ettiradilar, ulardan mamnun bo'lalilar, hayajonlanadilar¹.

Maktabgacha kichik va o'rta yoshdagi bolalarda katta odamlardagidek kuzatuvchanlik qobiliyati yaxshi rivojlanmagan bo'ladi va ular chizayotgan rasmlaridagi obyektlarni real voqelikdagi haqiqiy narsalar bilan solishtirmaydilar. Bolalarning tasvirlash faoliyatlari asosan tasavvurlariga asoslanadi. Masalan, 4-

5 yoshli bog'cha bolasiga onasining rasmini chizish taklif qilinganda, u biron marta ham onasiga qaramay, rasm chiza boshlagan. Undan nega onangga qaramading, deb so'raganlarida, u o'zim juda yaxshi bilaman, deb javob bergan. Bog'cha yoshidagi bolalar **tasviriy faoliyatining** shu qadar sodda bo'lishiga ikkinchi sabab ularda ayrim murakkab harakat malakalarining hali yuzaga kelmaganligidir. Bundan tashqari bog'cha bolalari tasvirlash faoliyati bilan shug'ullanayotganlarida tasvirlayotgan narsalarini real voqelikdagi narsalarga o'xshatishni maqsad qilib qo'ymaydilar. Ular tasvirlash faoliyatini ham o'yin tarzida o'tkazadilar. Ularni tasvirlash faoliyatining natijasi emas, balki tasvirlash faoliyatining o'zi qiziqtiradi, xolos. Bolalarning tasvirlash faoliyatlari rejali, izchil ravishda emas, balki stixiyali ravishda tashkil qilinadi. Shuning uchun bola bunday faoliyat davomidayoq voqelikni chuqur va to'la kuzatmay, o'z tasavvurlarigagina asoslanib qo'ya qoladi. Agar tarbiyachi bolalarning tasvirlash faoliyatlarini izchil tarzda tashkil qilib, bu ishni pedagogik jihatdan to'g'ri yo'lga qo'ysa, bolalarning tasvirlash faoliyatiga bo'lgan munosabatlari o'zgaradi.²

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari kichikintoylarga atrof-olamni o'rganish uchun juda katta yordam beradi. San'at asarlariga, ularning badiiy shaklining ayrim elementlariga, masalan, ritm, mutanosiblik, rangga qiziqish ortib boradi. Chizgan rasmlari, yasagan buyumlari orqali bolalar o'zlarining o'y-kechinmalari, orzularini aks ettiradi. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bolalarda samimiy kayfiyatni, go'zallikka ijobiy munosabatni, mehnatsevarlikni shakllantiradi, idrokni, tafakkurni, diqqatni, sayolni, mayda motorikani rivojlantiradi va eng muhim jarayon bo'lgan nutqning rivojlanishida juda katta ta'sir ko'rsatadi. Yana bir muhim jihati shuki, mashg'ulotlar jarayonida tarbiyalanuvchilarda mehnatga nisbatan iroda shakllanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tiladigan **"Tasviriy faoliyat"** mashg'ulotlari bolalarga beriladigan



¹ M.Sh. Nurmatova, Sh.T. Hasanova "Rasm-buyumlar yasash va tasviriy faoliyat metodikasi" Toshkent "Musiq" nashriyoti. 2010yil

² B. B. Jalilova, B. M. Aripova "Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi" o'quv qo'llanma «Faylasoflar» nashriyoti. Toshkent - 2017 yil

estetik tarbiya masalalarini yechishda katta ahamiyatga ega. Chunki tasviriy faoliyat o'z xususiyatiga ko'ra badiiy faoliyat hisoblanadi. Badiiy faoliyat mashg'ulotlarining barcha turlari bolalarda go'zallikni bilish uchun, borliqqa emotsional-estetik munosabatni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi. Estetik tarbiya bola tarbiyasining ajralmas qismlaridan biri bo'lib, bola ertalab maktabgacha ta'lim muassasasiga kirib kelgandayoq go'zal buyumlarga ko'zi tushishi, bolani qurshab turgan bog'cha muhiti chiroyli jihozlangan bo'lishi kerak. Chunki bola go'zal narsalarni ko'rgandagina go'zallikni his qila oladi va chiroyli narsalarni ijod qilishga harakat qiladi. Bolalar tarbiyachilari bilan birgalikda xonalarni, ayvonchalarni bezatishda, tasviriy faoliyat mashg'ulotlar jarayonida turli badiiy-ijodiy ishlarni bajarishga intiladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarni Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har tomonlama rivojlantirishda **rasm chizishga** katta o'rin beriladi. Rasm chizish jarayonida bolada kuzatuvchanlik, estetik idrok, estetik his-tuyg'ular, badiiy did, ijodkorlik, mavjud vositalardan foydalangan holda mustaqil ravishda chiroyli narsalarni yaratish qobiliyati rivojlanadi. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari atrofdagi hayotda, san'at asarlarida go'zallikni ko'rish qobiliyatini rivojlantiradi. O'z ijodiy faoliyati bolalarga asta-sekin rasm, grafika, haykaltaroshlik, san'at va hunarmandchilik asarlarini tushunishga yordam beradi. Bolalarda tasviriy faoliyat bo'yicha bilimlari tasvirlash usullarining o'zlashtirilishi bilan badiiy va ijodiy xususiyatga ega bo'ladi. Bolalar bog'chasida rasm chizishni o'rgatishning asosiy maqsadi - bolalarni hayot taassurotlarini obrazli aks ettirish vositasi sifatida narsa va hodisalarni tasvirlashga o'rgatishdir. Rasm chizishda bola tasvirlagan ijodini taqdim etish orqali o'z harakatlarini nazorat qiladi va ularni baholaydi. Chizish uchun zarur bo'lgan tasavvurlar idrok jarayonida shakllanadi.




«Tasviriy faoliyat» mashg'ulotlarida **applikatsiya** bo'yicha bajariladigan topshiriqlar maktabgacha ta'lim yoshidagi

bolalarning ta'limi va tarbiyasida katta ahamiyatga ega bo'lib, ularni shaxsiy sifatlarini, psixologik va estetik imkoniyatlarini rivojlantirishga undaydi. Hozirgi zamon pedagog va psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni estetik, aqliy rivojlanishi uchun «Tasviriy faoliyat» mashg'ulotlari zarurligi isbotlanmoqda. Applikatsiya bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish sharoiti mashg'ulotlar doirasidan tashqarida va bolalarning mustaqil faoliyati yoki guruhii faoliyati ko'rinishida amalga oshiriladi. Applikatsiya mashg'ulotlari jarayonida bolalar turli predmetlarning sodda shakllari va ularning qirib yopishtiriladigan bo'laklari, siluet tasvirlari bilan tanishadilar. Applikatsiya mashg'ulotlari bolalarga atrofdagi dunyoning turli xil buyumlar va hodisalarini tasvirlash imkonini beradi. Kichik guruhda, so'ngra o'rta guruhda texnik ko'nikmalarni qanchalik yaxshi o'zlashtirsa, kattaroq guruhlarda mavzuli applikatsiyalar ishlashda har qanday predmet va shakllarni yasashi osonroq va erkinroq bo'ladi.

Bolalarni xalq amaliy bezak san'ati namunalari bilan, turli murakkablikdagi naqshlar bilan buyumlarni bezash usullari bilan tanishtirish bolalar bog'chasida dekorativ applikatsiyani o'rgatish uchun asos bo'ladi. Milliy naqshlarning chiroyli tanlangan ranglari bolani estetik tarbiyalashda rangni va uning uyg'unligini idrok etish qobiliyatini rivojlantirishning eng muhim vositasidir. Ayniqsa milliy naqshlarimizdagi ranglar mutanosibligi, yorqinligi va shakllarning go'zalligi bolaning rang tuyg'usini, yorqin va nafis ranglarni tanlash qobiliyatini shakllantiradi.

Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi «Tasviriy faoliyat» mashg'ulotlarida turli texnik usullardan hamda bolalar uchun qisqartirilgan bo'lgan turli badiiy, tabiiy va tashlandiq materiallardan o'z o'rnida foydalanish applikatsiya mashg'ulotlarining mazmunini yanada boyitadi.

Bolalar bog'chasida **loydan va plastilindan o'yinchoqlar yasash** bo'yicha bajariladigan topshiriqlar maktabgacha ta'lim yoshidagi faoliyat, bu faoliyat jarayonida



bolalar tevarak- atroflaridagi voqelikni aks ettirishi, loy yoki plastilindan foydalanib elementar o'yinchoqlar yaratishi nazarda tutiladi. Bolaning hatto eng oddiy o'yinchoqni yasashi ham ijodiy jarayondir. Chunonchi, loyning sharsimon bir bo'lagi ham jajji go'dakda koptok, apelsin, olma, uchlarlari birlashguncha dumaloqlangan loy ustuncha esa halqa, teshikkulcha bo'lib tuyuladi. Ish vaqtida bola loyni turli shaklga solib o'ynar ekan, uning yumshoqligidan, hajmliligidan zavqlanadi, o'zi yasagan shaklga qarab xursand bo'ladi.

Loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash ham rasm chizish kabi estetik tarbiya tizimida muayyan o'rin tutadi hamda o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Tasviriy faoliyatning har bir turi bolalarda aqliy faollikni, ijodkorlikni, badiiy didni va boshqa fazilatlarni tarbiyalash imkonini beradi. Bunday fazilatlarsiz ijtimoiy faol shaxsning dastlabki asoslarini shakllantirib bo'lmaydi.



Qurish-yasash ishlari bilan bolalar yolg'iz o'zlari va jamoa bo'lib shug'ullanishlari mumkin. Har ikki holda ham qurish-yasash faoliyati bolalarning idrokini, diqqati, kuzatuvchanligini, xotirasini hamda tafakkur qilish jarayonlarini rivojlantirishga yordam beradi. Tarbiyachilar qurish-yasash

o'yinlarini tashkil qilishda bolalarga ko'rsatma va yo'llanma berishi kerak. Bolani tabiatan o'zini tug'ma konstruktor, ixtirochi va tadqiqotchi deyish mumkin. Yaratgan tomonidan inson bolasiga berilgan bu layoqatlar ayniqsa bolalarda tezda yuzaga chiqadi va konstruksiyalovchi fikrlashlar orqali takomillashtiriladi. Chunki bola o'zi mustaqil binolarni, ma'lum bir loyihalarini ixtiro qilish uchun ayni paytda qiziqishi, ijodkorligi tufayli yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bolalarning yasaydigan qurilmalari va inshootlarini ishlatiladigan materialiga qarab, bolalar bog'chasida qurish- yasash quyidagi turlarga ajratiladi;

- qurilish materiallaridan qurish-yasash
- qog'oz, karton, quti, g'altak va boshqalardan iborat qurish-yasash materiallari

- tabiiy materiallar asosida qurish-yasash

Qurish-yasash materiallari bilan o'ynaganda qo'lining mayda muskullari yaxshi rivojlanadi. Qurilish o'yinlarini o'ynash natijasida bolalarning kuzatuvchanligi ortadi, texnikaga bo'lgan qiziqishlari yanada o'sib boradi. Qurilish o'yinlari orqali tarbiyachi bolalarda mehnatsevarlik, mustaqillik, o'z ishiga javobgarlik hissini tarbiyalab borishga harakat qiladi. Qurish- yasash mashg'ulotlari davomida bolalarda mehnatga ijobiy munosabat, kattalar mehnatini qadrlash, milliy an'analariga hurmat kabi tarbiyaviy xislatlar shakllantiriladi.

MTTdagi tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini tashkil etishda kerakli ko'rgazmali jihozlardan oqilona foydalanish ham katta ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa o'zbek milliy madaniyatining ajralmas qismi bo'lgan o'zbek amaliy san'ati namunalari bilan tanishish bolalarda san'atga estetik munosabat, milliy qadriyatlarimizni o'rganish va qadrlashga undaydi. MTTda mashg'ulotlar jarayoniga amaliy san'at turlarining eng sodda elementlaridan foydalanish kelgusida bolalarni kasb-hunarga tayyorlashda hamda mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishda yordam beradi. Mashg'ulotlar xonasida "Milliy burchak"ning tashkil etilishi bolalarda milliy madaniyatimizni, san'atimizni kelajakda rivojlantirish uchun dastlabki bilim, ko'nikmalarni shakllantiradi.

Bolalar rasm, appalikasiya, loy ishi, qirqib yelimlash mashg'ulotlari davomida nafaqat biror ish bilan ma'lum muddat band bo'ladilar, balki yuqorida aytib o'tganlarimizga qo'shimcha ravishda ularda quyidagilar rivojlanadi va shakllanadi:

- tasviriy san'at sohasiga doir qobiliyatlari aniqlanadi va shakllantiriladi;
- qalam, mo'yqalamni ushlash, loy, plastilin bilan ishlash, qaychida ayrim narsalarni qirqib elimlash orqali mayda qo'l mushaklari rivojlanadi;
- bola yozuv texnikasini egallashga tayyorlanadi;
- bola tasviriy faoliyat mashg'ulotlari orqali diqqatini bir joyga taqsimlay olishni va ishini oxiriga qadar bajarishni, o'tira olishni o'rganadi;

- tabiatni, atrof-olamni kuzatishni, uni asrab-avaylashni ardoqlashni, unga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rganadi;
- jamoa bo'lib mehnat qilish, ishni rejalashtira olish, o'rtoqlarini eshita olish va o'zaro fikr-mulohazalarni inobatga olgan holda ishlash malakalari shakllanadi;
- xalqimizning boy madaniy-ma'naviy merosi haqida tushuncha va tasavvurga ega bo'ladi va ularni o'z ishlarida ifodalashga o'rganadi.³

"Tasviriy faoliyat" mashg'ulotlari jarayonida:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy didni tarbiyalash;
2. Amaliy badiiy faoliyat va malakalarni rivojlantirish;
3. Fantaziya, ijodiy fikrlash va tasavvur qilish, idrok qilishni rivojlantirish;
4. Qo'ling aniq harakatlari va barmoqlarning mayda motorikasini rivojlantirish;
5. Kasbiy badiiy-ijodiy faoliyat kurtaklarini namoyon bo'lishi uchun imkon yaratish kabi ta'limiy va tarbiyaviy masalalar hal etib boriladi.

Bolalarda ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishida tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi mashg'ulotlarning o'rni beqiyos ekanligini e'tirof etgan holda bunday mashg'ulotlar ularda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirilishiga ham tamal toshini qo'yishi shubhasizir. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaviy sifatlar —boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi.

Bolalar borliq va atrof-olam bilan tanisha borish jarayonida ularni o'z faoliyatlarida ya'ni o'yinlarida, chizgan rasmlarida, loy ishlarida, hikoyalarda va hokazolarda aks ettirishga harakat qiladilar. Bolalar tasviriy faoliyatda atrof-olamdan olgan taassurotlarini, tasavvurlaridagi timsollarni turli-tuman

materiallardan va aniq shakllar yordamida tasvirlashga harakat qiladilar.

Bolalar ijodiyotida ijodiy faoliyatning boshlang'ich bosqichida o'ziga xos xarakter xususiyatlari mavjud. Bularga avval o'zlashtirilgan ish usullarini yangicha mazmunda qo'llashda, oldinda turgan vazifalarni yangi usullar orqali yechishni, o'z his-tuyg'ularini turli vositalar yordamida ifoda etishlarida faol va mustaqil ishtirok etishlari kiradi.

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar:

Tasviriy faoliyat - MTMda bu rasm chizish, loy, applikasiya, qurish-yasash mashg'ulotlarini o'z ichiga oluvchi badiiy faoliyat bo'lib, mashg'ulotlarining barcha turlari bolalarda go'zallikni bilish uchun, borliqqa emotsional-estetik munosabatni rivojlantiradi.

Ijodkorlik - bu inson g'ayrioddiy fikrlaydigan va o'z faoliyatida noyob, printsiplial jihatdan yangi natijalarni yaratishi mumkin bo'lgan fazilatlar majmuidir

Idrok - Ayni chog'da sezgi organlariga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarni ongimizda yaxlit aks ettirilishidan iborat bo'lgan jarayonga aytiladi..

Fikr yuritish operatsiyalari- taqqoslash, analiz va sintez, abstraksiya va umumiyashtirish, aniqlashtirish, klassifikatsiya va sistemaga solish aqliy operatsiyalarning asosiy turlaridir. Bizda yangi hukmlar ana shu operatsiyalar jarayonida hosil bo'ladi, real olamdagi narsalar va hodisalar to'g'risidagi tushunchalar vujudga keladi

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:

1. Tasviriy faoliyatning turlari qaysi javobda ko'rsatilgan?

- A. Rasm, loy, applikasiya, qurish-yasash
- B. Rasm, applikasiya
- C. Rasm, qo'g'irchoqlar yasash, loy

³ "Maktabgacha ta'lim muassasalarida applikasiya mashg'ulotlari". G.A. Amirova, A.P. Sulaymonov, B.R. Djurayeva. Toshkent. "Fan va texnologiya" nashriyoti 2014-yil

D. Qurish-yasash, loy, o'yin

2. Kichik guruh bolalari bilan ishlashda tarbiyachi asosan nimalar ustida ishlaydi?

A. Bolalar egallagan tasvirlash uquvi va malakasini mustahkamlash ustida

B. Loy bilan ishlash malakasini takomillashtirish

C. So'zlashuv qobiliyatini rivojlantirish

D. Hikoya qilish

3. Tasviriy qobiliyatni joylashuv foni bu?

A. Tasavvur

B. Xotira

C. Xissiy yig'inma

D. Mo'yqalam

4. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bolalarda nimalarni rivojlantiradi?

A. Badiiy did, badiiy faoliyat, fantaziya, ijodiy fikrlash

B. Mayda qo'l motorikasi, tasavvur qilish, idrok

C. Hikoya qilish, nutq, o'yin

D. A va B javoblar to'g'ri

5. Kuzatuvchanlik va texnikaga qiziqish tasviriy faoliyatning qaysi turida rivojlanadi?

A. Rasm chizish

B. Loy

C. Applikatsiya

D. Qurish-yasash

Nazorat savollari:

1. MTTda tasviriy faoliyat mashg'ulotlari necha turga bo'linadi?

2. Rasm chizish mashg'ulotlari orqali bolalarda nimalar rivojlantiriladi?

3. Applikatsiya mashg'ulotlarida qanday materiallardan foydalaniladi?

4. Qurish-yasash mashg'ulotlari materiallariga qarab necha turga bo'linadi?

5. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bolalarda qo'shimcha yan nimalarni rivojlantiradi?

6. Mashg'ulotlarda amaliy san'at namunalaridan foydalanish qay darajada muhim?

7. MTMDa milliy burchakda qanday jihozlar bo'lishi kerak?

8. Bog'cha yoshidagi bolalar tasviriy faoliyatida tasavvurlar qanday ahamiyatga ega?

§2. Maktabgacha ta'limda tasviriy faoliyat fanning predmeti, maqsadi, vazifasi va boshqa fanlar bilan bog'liqligi haqida

"Tasviriy faoliyat metodikasi" fani talabalarga maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida, mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishni o'rgatadi. Mazkur fanni o'zlashtirish jarayonida talabalar tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini muvaffaqiyatli tashkil qilishda zamonaviy metodlar va eng yangi texnologiyalardan samarali foydalanishni o'rgana oladilar. Talabalar maktabgacha yoshdagi bolalarning iqtidorini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o'tkaziladigan dars mashg'ulotlari jarayonida kerakli bilim, ko'nikma va malakalarini puxta o'zlashtirishlari kerak. Bo'lajak tarbiyachilar kelajakda tarbiyachilik kasbiy faoliyatlarida tarbiyalanuvchilarga mashg'ulotlar tasviriy faoliyatning barcha turlariga oid bilimlarni bera olish va amaliyotda qo'llay olish kompetensiyalarini rivojlantirishlari lozim.

"Tasviriy faoliyat metodikasi" fanini o'quv predmeti sifatida o'zlashtirishdan maqsad - talabalarni ijodiy pedagogik faoliyatga tayyorlash, maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy-estetik ta'lim sohasida o'qitish va tarbiyalash bo'yicha amaliy va nazariy bilim, ko'nikma va zarur malakalarni egallash hamda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy-estetik jihatdan tarbiyalashda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Maktabgacha ta'limda tasviriy faoliyat fanining vazifalari:

- Fan bo'yicha psixologik-pedagogik va ilmiy-nazariy bilimlarni hamda o'qitish metodikasining zamonaviy muammolarini o'rganib berish;

- maktabgacha yoshdagi bolalarni uzluksiz badiiy-estetik ta'lim va tarbiyalash tizimida tasviriy faoliyat darslarining

zamonaviy dasturlari, o'quv qo'llanmalari va talablari bilan talabalarni tanishtirish;

- - talabalarining bilim qiziqishlarini rivojlantirishga ko'maklashish, ijodkorlik va axloqiy va irodaviy fazilatlarining mavjudligi (ijodiy ishlarni yaratishda), shuningdek, faoliyatning axloqiy va milliy qadriyat motivlarini tarbiyalash o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikni anglatish;

- - talabalarining pedagogik, badiiy va ijodiy qobiliyatlarini xalq, mumtoz va zamonaviy san'at vositalari orqali, o'z ijodkorligi va turli badiiy faoliyat turlarini uyg'unlashtirish orqali rivojlantirishga ko'maklashish;

- - tabiat va san'atni idrok etish jarayonida talabalarining estetik rivojlanishiga, badiiy asarlarni idrok etishda ham, o'z ijodiy jarayonida ham shaxsiy fikrlarini shakllantirishga ko'maklashish;

- - talabalarining badiiy tafakkurini, fazoviy tasavvurlarini, ijodiy qobiliyatlarini, badiiy didini rivojlantirish;

- - talabalarining tasviriy san'atning obrazli va badiiy tilini uning har xil turlari va janrlari orqali tanishtirish, shuningdek, turli texnik usullar va materiallar haqidagi bilimlarni berish;

- - talabalarining badiiy faoliyatda ijodkorligini rivojlantirishni rag'batlantirish.

- - talabalarni kasbiy pedagogik faoliyatda olingan bilim ko'nikma va malakalardan foydalanishga tayyorlashdan iborat.

Maktabgacha ta'limda tasviriy faoliyat o'quv fani nazariy va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi. Nazariy mashg'ulotlarda talabalarga maktabgacha ta'limda tasviriy faoliyatni tashkil etish mazmuniga oid ma'lumotlar beriladi. Amaliy mashg'ulotlar davomida talabalar o'rgangan nazariy bilimlari asosida amaliy ijodiy ishlarni bajaradilar. Agarda talaba amaliy mashg'ulotlarni yaxshi o'zlashtira olmasa, u mashg'ulotlarni tashkil etishda ijodiy ishlarni bolalarga amalda bajarib ko'rsata olmaydi. Ushbu metodik faoliyat bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar aynan amaliy mashg'ulotlar asosida shakllantiriladi.

Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyat maashg'ulotlari katta ahamiyat kasb etadi. Rasm, loy, qurish-yasa materiallari bo'yicha bilim, malakalarini egallash maktabda tasviriy san'at va mehnat darslarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishlariga asos

bo'ladi. Ularni o'quv faoliyatiga tayyorlaydi: pedagogni tinglashga, uning ko'rsatmalarini bajarishga o'rgatadi. Oldiga qo'yilgan vazifani hal etishda, uning asosiy va muhim hal etish yo'llarini izlab topish bu o'quv faoliyatning asosiy sababchilaridan biridir. Tasviriy faoliyat jarayonida o'z ishini nazorat qilib borish, maktabda vazifalarni bajarishda ham rol o'ynaydi. Shuningdek, bola tasviriy faoliyat jarayonida psixologik jihatdan ham tayyorlanib boradi. Maktabda qiziqishga xohish, yangiliklarni bilishga intilish, maqsad sari intilish, tartibli holda shug'ullanish va shu kabilar. Shunday qilib, tasviriy faoliyat jarayonida olgan malakalar bolalarni maktab hayotiga tezda kirishib ketishiga asos bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasidagi tarbiyaviy ish bolalarning har tomonlama rivojlanishi, ularda turli qobiliyatlarning shakllanishi uchun xizmat qiladi. Barcha faoliyat turlarining bog'liqligi bolalarda kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik, fikrlash, xayol, estetik his-tuyg'u, badiiy did, shu bilan birga, axloqiy sifatlar, mehnat qilish xohishi va ko'nikmasi, boshlangan ishini oxiriga yetkazish, qiyinchiliklarni yengish hissining rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Tasviriy faoliyatning boshqa faoliyatlar — o'yin, badiiy o'qish va hikoya qilish, musiqa va hokazo bilan bog'liqligini sistemali olib borish kerak. Integratsiyalashgan mashg'ulotlar hozirgi zamonaviy talablarga javob beradigan mashg'ulot turi sifatida keng qo'llanilmoqda.

Integratsiya (lot. integratio — tiklash, to'ldirish, integer — butun) so'zidan olingan bo'lib, ta'lim jarayonida bu ma'no alohida bilimlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni ma'nosida qo'llaniladi. Bu o'zaro ta'sir, o'zaro ifodalash va o'zaro amalga oshirish jarayonida, ya'ni voqelikni tabaqalashtirilgan ko'rishdan yaxlit ko'rinishga o'tish jarayonida sodir bo'ladi. **Integratsiyalashgan mashg'ulot** - bu o'quv faoliyati bo'lib, uning maqsadiga turli faoliyatlardagi bilimlarni birlashtirish orqali erishiladi, bu maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan qaratilayotgan masalani amaliy yo'naltirilgan holda yaxlit idrok etishga yordam beradi. Ta'lim sohalarining integratsiyasi bir qator bilimlarni bajarishga asoslanadi va maktabgacha yoshdagi bolalarning atrofida borliq haqida yaxlit nuqtai nazarini shakllantirishdan iborat. Tarbiyachi dastur mazmunining alohida

komponentlari o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirishi va noan'anaviy ta'lim berish bilan tajriba o'tkazishi kerak. Integratsiyalashgan mashg'ulotlarlar:

- tarbiyalanuvchilarning salohiyatini oshiradi, atrofda voqelikni faol bilishni, fikrlashni rivojlantiradi, muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi;

- integratsiyalashgan mashg'ulotlarning o'tkazilish shakli ma'lum bir qolipga solinmagan, yanada qiziqarli; har xil faoliyat turlariga o'tish tufayli bolalarning hattoki charchoqlari ham sezilmaydi, bilishga qiziqishlari yanada ortadi.

- zamonaviy jamiyatdagi integratsiya jarayoni ta'limga integratsiya zarurligini ko'rsatmoqda (zamonaviy jamiyat yuqori malakali mutaxassislarga muhtoj va ma'lumotli mutaxassislarni bolalar bog'chasidan, boshlang'ich maktabdan boshlab tayyorlashni boshlashi kerak, bu maktabgacha ta'lim muassasalariga integratsiyalashuv orqali osonlashtiriladi);

- fanlararo aloqalarning mustahkamlanishi munosabati bilan bolalarning rivojlantiruvchi faoliyati, shuningdek, qo'shimcha amaliy mashg'ulotlar uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan soatlar ajratiladi;

- integratsiya pedagogning ham o'z-o'zini anglashi, o'zini namoyon qilishi, ijodkorligi uchun imkoniyat yaratadi.

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar:

Metod-(lotincha metodus - yo'l so'zidan) - tadqiqot yo'l nazarida, ta'limot deb tarjima qilinadi. Metod - o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalgoshtirish) yo'li.

Ta'lim usuli - o'qitish metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog'lanadi. Usullar yordamida faqat o'quv vazifasining bir qismi hal qilinadi.

Pedagogik faoliyat- yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta'lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o'qituvchilar mehnati faoliyatidir

Integratsiya - (lot. integratio — tiklash, to'ldirish, integer — butun) so'zidan olingan bo'lib, ta'lim jarayonida bu ma'no alohida fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni ma'nosida qo'llaniladi.

Integratsiyalashgan mashg'ulot- bu o'quv faoliyati bo'lib, uning maqsadiga turli faoliyatlardagi bilimlarni birlashtirish orqali erishiladi, bu maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan o'rganilayotgan masalani amaliy yo'naltirilgan holda yaxlit idrok etishga yordam beradi.

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:

1. Tasviriyl faoliyat metodikasi" fanini o'quv predmeti sifatida o'zlashtirishdan maqsad nima?

A. Amaliy va nazariy bilimlar berish, ko'nikma va amalakalarni egallash

B. Pedagogik faoliyatga tayyorlash

C. Kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish

D. Barcha javoblar to'g'ri

2. Integratsiyalashgan mashg'ulot nima?

A. Faoliyat turi

B. Ta'lim jarayoni

C. Turli faoliyatlarni birlashtiruvchi o'quv faoliyat

D. Tildash, to'ldirish

3. Ta'lim usuli va metodning farqi nimada?

A. Hech qanday farqi yo'q

B. C va D javoblar to'g'ri

C. Usul metodning tarkibiy qismi yoki alohida tomoni

D. Usul va metod butun va qism sifatida bog'liq

4. Tasviriyl faoliyat mashg'ulotlari bolalarni maktabga tayyorlashda nimalarga o'rgatadi??

A. Pedagogni tinglashga, uning ko'rsatmalarini bajarishga

B. Tasviriyl san'at va mehnat darslarini o'zlashtirishga

C. Uy vazifalarini bajarishga ko'nikma hosil qiladi

D. Barcha javoblar to'g'ri

5. Turli faoliyatdagi bilimlarni birlashtiruvchi o'quv faoliyati nima?

- A.Mashg'ulot
- B.Sayr
- C.Metod
- D. Integratsiyalashgan mashg'ulot

Nazorat savollari:

1. "Tasviriy faoliyat metodikasi" fani talabalarga nimani o'rgatadi?
2. Tasviriy faoliyat metodikasi" fanining asosiy maqsadi nima?
3. Tasviriy faoliyat metodikasi" fanining vazifalari nimalardan iborat?
4. Tasviriy faoliyat metodikasi" fani qaysi metodik fanlar bilan bog'liq?
5. "Integratsiya" so'zining ma'nosi nima?
6. Integratsiyalashgan mashg'ulotlarning mazmun - mohiyati nimalardan iborat?
7. Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyat maashg'ulotlari qanday ahamiyatga ega?
8. Integratsiyalashgan mashg'ulotlar bolalarda qaysi jihatlarni rivojlantiradi?

I-BOB BO'YICHA XULOSA

- Maktabgacha ta'lim muassasasidagi tarbiyaviy ish bolalarning har tomonlama rivojlanishi, ularda turli qobiliyatlarning shakllanishi uchun xizmat qiladi. Barcha faoliyat turlarining bog'liqligi bolalarning kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik, fikrlash, xayol, estetik his-tuyg'u badiiy did, shu bilan birga, axloqiy sifatlar, mehnat qilish xohishi, ko'nikmasi, boshlangan ishni oxiriga yetkazish, qiyinchiliklarni yengish hissining rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

- Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda fikr yuritish operatsiyalari (tahlil, sintez, taqqoslash umumlashtirish)ni rivojlanishiga imkon beradi, bu, o'z navbatida, bolalarning aqliy salohiyatining o'sishiga olib keladi. Bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlanishida tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi mashg'ulotlarning o'zining beqiyos ekanligini e'tirof etgan holda bunday mashg'ulotlar

ularda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirilishiga ham tamal toshini qo'yadi.

- Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaviy sifatlar — boshlagan ishni oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi.

- bola tasviriy faoliyat jarayonida psixologik jihatdan ham tayyorlanib boradi. Maktabda qiziqishga xohish, yangiliklarni bilishga intilish, maqsad sari intilish, tartibli holda shug'ullanish va shu kabilar. Shunday qilib, tasviriy faoliyat jarayonida olgan malakalar bolalarni maktab hayotiga tezda kirishib ketishiga asos bo'ladi.

- integratsiyalashgan mashg'ulotlar jarayonida tarbiyalanuvchilarning salohiyatini oshiradi, atrofdagi voqelikni faol bilishni, fikrlashni rivojlantiradi, muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi

II-BOB

MAKTABGACHA TARBIIYA YOSHIDAGI BOLALARNING TASVIRIY QOBILIVATI VA IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH.

§3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishida tasviriy va ijodiy faoliyatning ahamiyati

Bolalarning psixik jihatdan rivojlanishida tasvirlash faoliyatlarining roli kattadir. Bog'cha yoshidagi bolalar rasm chizish, loydan yoki plastilindan turli narsalarni yasash, kubiklardan imoratlar, ko'priklar qurishni juda yoqtiradilar. Bolalar o'zlarining tasvirlash faoliyatlarida qandaydir g'ayratiy, xayoliy narsalarni emas, balki tashqi muhitni, undagi narsalarni, jonivorlarni aks ettirishga intiladilar. Bolalarning bunday faoliyatlarida ijodkorlik, yaratuvchanlik elementlari bo'ladi. Bolalar o'zlaridagi istak, xohish, intilishlarni ana shunday tasvirlash, rasm chizish, loy yoki plastilindan bron narsa yasash, applikatsiya ishlari orqali ifodalashga intiladilar. Bolalarning tasvirlash faoliyatlari juda sodda bo'lsa, ular o'zlarining bunday faoliyatlarida atroflaridagi narsa va hodisalarni shunchaki passiv tasvirlash bilan cheklanib qolmay o'zlaridan minalarnidir qo'shib, yangilik yaratishga harakat qiladilar. Ana shuning uchun bolalardagi ayrim qobiliyatlar ularning tasvirlash faoliyatlarida juda erta namoyon bo'la boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bolalar tasviriy faoliyatining shu qadar sodda bo'lishig'ini ikkinchi sabab ularida ayrim murakkab harakat malakalarining ha yuzaga kelmaganligidir.

Bundan tashqari bog'cha bolalari tasvirlash faoliyati bilan shug'ullanayotganlarida tasvirlayotgan narsalarini real voqealardagi narsalarga o'xshatishni maqsad qilib qo'ymaydilar. Ular tasvirlash faoliyatini ham o'yin tarzida o'tkazadilar. Ularni tasvirlash faoliyatining natijasi emas, balki tasvirlash faoliyatining o'zidagi qiziqiradi, xolos. Bolalarning tasvirlash faoliyatlari rejal, izchil ravishda emas, balki stixiyali ravishda tashkil qilinadi.

Ana shuning uchun bola bunday faoliyat davomidayoq voqealarni chuqur va to'la kuzatmay, o'z tasavvurlarigina asoslanib qo'yg'uchini qoladi. Ijod, eng avvalo, insonga imkoniyat beradigan kuchdir. Ijod bu tashqi dunyoda, shu jumladan, insonning o'zini yoki uning atrofidagilarni qiziqitiradigan va estetik ahamiyatga ega bo'lgan vositalar va ichki sezgilar yordamida fikrni erkin amalga oshirish

o'zlarining aqliy jarayoni. Ijodiy fikrlash tufayli har bir kishi bunga natijada o'zi olgan bilimlarni amalda qo'llash, balki muammolarni yechishning yangi, o'ziga xos usullarini, turlarini o'ylab topishga



harakat qilishdir. Ijodkorlik ko'p qirrali, bosqichma-bosqich jarayon. Bola shug'ullanayotgan barcha faoliyatlar hammasi ham, u o'yin, yasash yoki chizish bo'lsin qobiliyatlarining rivojlanishi uchun birday ahamiyatga ega bo'lmaydilar.

Qobiliyatlarining rivojlanishiga yordam beradi. Bunday faoliyat har doim biror yangilik yaratish, o'zi bilan bog'liq va u bilan shug'ullanish uchun, hamda yuzaga keltirilgan qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan zarur faoliyatlar ishga solishga kuchli rag'bat bo'ladi. Bundan tashqari ijodkorlik faoliyati ijodiy o'zini baholashni mustakamlaydi, talablar qanday oshiradi, o'ziga ishonch va erishilgan yutuqlardan mustamul hisssini uyg'otadi. Bolaning tafakkuri tasavvur bilan bog'liqdir. Maktabgacha yosh - bu ertaklar, tasavvurlar davri, shuning uchun aynan shu davrda bolaning ijodi rivojlanish, uni tasavvurini boshqarishga o'rgatish maqbuldir. Maktabgacha yoshdagi bolaga ijodkorlikni rivojlantirishga qanday yordam bera olish mumkin? Buning uchun quyidagi psixologlar tavsiyalarini pedagoglar va ota-onalar uchun juda muhim:

* Bolaning mustaqil fikr yuritishi va harakat qilishiga imkon beradigan ota-onalar bolaning xatti-harakatlari o'ziga yoki boshqalarga o'z fikrini ifodalashi mumkin bo'lgan taqdiridagina aralashib, kuzatib

* Bolaning biror narsani o'zgartirishga, o'z g'oyalarini kiritishga, o'ziga xos tarzda qayta tiklashga intilishini rag'batlantirib tushir. Bolaning dastlab mo'ljallanganidan yaxshiroq ish qilgan bo'lsa, uning qaratilgan kursand bo'ling.

• Bolaning nuqtai nazarini qabul qiling, hurmat qiling, unga bironing fikrini yuklamang. Hatto eng kichigi ham hayotlarining ba'zi daqiqalariga o'z shaxsiy fikriga ega bo'lishi mumkin: ular kashani yoqtirmaydi, ertak juda zerikarli va hokazo.

• Bolalar bilan ijodiy ish olib borish orqali tasavvuringizni ko'rsating. O'yinlar va qo'l ishlari uchun g'ayrioddiy g'oyalar va materiallarni qidiring. Bola bilan har safar yangi narsalarni o'ylab toping. Unga fantaziyaning cheksiz imkoniyatlarini ko'rsating.

• Bolaning ijodiy faoliyati natijalarini tahlil qilishda uni tanqid qilmang va baholamang. Bolaning ishini boshqa bolalar bilan emas, balki faqat o'z tajribasi bilan solishtiring.

• Bolalar ba'zan o'zlarining improvizatsiyalari va eksperimentlari bilan hayratda qolishadi va zavqlanishadi. Biroq, kattalarning har qanday munosabati samimiy bo'lishi kerak. Masxara qilish, hatto hazil, bolani xafa qilishi, unga noaniqlik va o'z-o'zidan namoyon bo'lish qo'rquvini uyg'otishi mumkin.

• Bolaning e'tiborini ijodiy faoliyatda mashg'ulotning o'zi uning natijalaridan ham muhimroq ekanligiga qaring. Bolaning bajargan ijodiy ishi sifati haqida o'ylamasdan, mashg'ulotga tayyorgarlik va borishdan zavq olishga o'rgating.

• Farzandingizga ijodning bir turidan boshqasiga o'tishiga yoki ijodiy faoliyatdan butunlay boshqa vazifalarga chalg'itishiga yordam bering. Bola chindan ham haykaltaroshlik qilishni yaxshi ko'rishga mumkin, ammo uzoq davom etadigan monotonlik uzoq vaqt davomida ortiqcha ishlash va haykaltaroshlikka qiziqishni yo'qotish bilan tahdid qiladi.

• Ijodiy faoliyat va o'yinlar davomida qulay hissiy muhit saqlang. Ovozda xotirjamlik, konsentratsiya, quvonch, xayrixoh intonatsiyalar bolaga yordam beradi, unga o'z kuchiga ishonch beradi. Ularning rivojlanishi insonning faol intellektual faoliyati bilan bog'liq.⁴

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishidagi tasviriy va ijodiy faoliyatning ahamiyati juda ham kattadir.

Qalamdan qoladigan iz nimanidir ifodalashini tushunadigan bolalar o'z xohishi va kattalarning taklifiga ko'ra qandaydir predmetni tasvirlashga harakat qilsa, unda bolaning faoliyati tasviriy xarakter

tusini olgan bo'ladi. Bolada fikr, maqsad bo'lib, ularni namoyon etishga harakat qiladi. Shu tariqa ijodiy jarayonning birinchi bosqichi fikrning paydo bo'lishi- bola faoliyatida ham hosil bo'ladi. Rassomda fikrning paydo bo'lishi bilan odatda mazmunini va bajarish vositalarini o'ylab boradi, ish uchun odatda uzoq vaqt kerak bo'ladi, bolada esa ko'pincha bu bosqichning hosil bo'lishi kuzatilmaydi. Bola qanchalik kichik bo'lsa, u shunchalik o'ylagan narsasini tez tasvirlashga harakat qiladi. U hali o'z ishinin natijasini va uni bajarish yo'lini oldindan ko'ra olmaydi. Avvaldan o'ylab ko'rish va ishni rejalashtirish tasvirlash jarayoni bilan birgalikda amalga oshiriladi. Shuning uchun ham bolalar ijodiyotida faoliyatlar jarayonida ish mazmunini o'zgartirish hollari tez-tez uchraydi. Bola tasvirlayotgan rasmdagi timsollarga umuman taalluqli bo'lmagan detallarni kiritishi mumkin.

Bolalarning tasviriy ijodiyotining o'ziga xos tomonlarini o'rganish uchun pedagogika tarixida bir qator pedagogik va psixologik tadqiqot ishlari olib borilgan. **Ijodkorlik qobiliyati** - insonning tabiiy va ijtimoiy dunyoni voqelikning ob'ektiv qonunlari asosida o'z maqsadi va ehtiyojlariga muvofiq o'zgartiradigan faoliyatidir. Ijod mahsuli bu inson ongining faol mahsulidir. Hozirgi tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalar rams chizish, loy va plastilin o'yinchoqlar yasashda ijodiy faoliyat ko'rsata olishini isbotladi. Albatta, bolalar ijodkorligi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, kattalar ijodkorligi mezonlariga javob bera olmaydi. Ta'lim jarayonida, ertaklar eshitish, har xil rasmlarni ko'rish tufayli bola o'yinchoq yasashdan oldin o'zi bevosita idrok etgan predmetlar doirasiga kirmaydigan narsalarni asta —sekin tasavvur qila boshlaydi. Bolada avval kattalarning og'zaki ta'siri bilan ixtiyoriy tasavvur obrazlari hosil bo'lib, keyinchalik ular bolaning mustaqil fikrlashidan vujudga kelishi mumkin.

Bolalar badiiy ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish yo'llarini o'rgananda, bolalarga berilgan topshiriqlarni 3 bosqichda murakkablashtirib borishimiz mumkin. Birinchi bosqichda bolalarga ulardan ijodiy faoliyatda dastlabki yo'nalishni talab qiladigan topshiriqlar beriladi: Tarbiyachining (o'zing yasa, bir narsa o'yla, qidirib top, o'zgartir kabi) ko'rsatmalari bo'yicha bolalar pedagog bilan birga ishlab, ijodkorlik elementlarini namoyon

⁴ <https://www.razumeykin.ru/publikatsii/tvorcheskie-sposobnosti-doshkolnikov>

etadilar. Ikkinchi bosqichda bolalarni aniq maqsadga muvofiq ishlashga va izlanishga da'vat etuvchi topshiriqlar beriladi. Bola tarbiyachi bilan birga ishlab, o'zlashtirgan ko'nikmalarni kombinasiyalash va o'zgartirish mumkinligini tushuna boshlaydi. Nihoyat, uchinchi bosqich — bolani turli faoliyatda fikrlash bo'yicha mustaqil harakat qilishga, o'z ishlarini rejalashtirishga, tasvirlash vositalarini tanlashga o'rgatadigan topshiriqlardan iboratdir. Tarbiyachi bolalarga topshiriqni emotsional tarzda tushuntiradi. Tarbiyachining izohi bolalarni qiziqtirishi, buning uchun tarbiyachi goho o'yin elementlaridan, o'yin harakatlaridan foydalanishi mumkin. Masalan: ertak personajlarning kutilmaganda paydo bo'lishi bolalarni suyuntirib yuboradi. O'yinchoqlarning harakatlarini ko'rib, bolalar sevinib ketadilar, tarbiyachi ularga qarab murojaat qilayotganidan mamnun bo'ladi. Agar tarbiyachi mashg'ulotda o'yin usulini qo'llayotgan bo'lsa, u mashg'ulot davomida o'yinda qatnashadigan personaj to'g'risida oldindan o'ylab qo'yadi. Masalan, qo'g'irchoq mana shunday personaj rolini bajarib, bolalar qanday ishlayotganligi bilan, topshiriqni kim qanday bajarayotganligi bilan qiziqib ko'rishi mumkin. Keyin u bolalarning hatti — harakatlarini ma'qulaydi, ijodiy ishlashga qiynalayotgan bolalarga yordam beradi va boshqa shunga o'xshagan ishlarni bajaradi. Mashg'ulotda har doim ham bir xildagi o'yin harakatlaridan foydalanmaymiz, har bir mashg'ulot oldidan bolalarning ruhini ko'taradigan, kayfiyatini yaxshilaydigan tadbirlar tashkil qilamiz. Buning uchun bolalarga she'r o'qib berishimiz, qo'shiq aytib berishimiz, topshiriqlar bo'yicha topishmoqlar aytib, kichkintoylarni qiziqtirishimiz lozim.

Qo'llarning mayda motorikasi

“Bolalarning qobiliyat va iste'dodlarining kelib chiqish manbai ularning qo'lida. Ulardan ijodiy g'oyalar manbaini to'ldiruvchi nozik irmoqlar keladi. Boshqacha qilib aytganda: bola qo'lida qanchalik ko'proq mahorat bo'lsa, u shunchalik aqllidir”, - degan edi B. A. Сухомлинский

Maktabgacha yoshdagi bolalarga e'tibor bergan bo'lsangiz 3



yoshli bolalar orasida oyoq kiyimi bog'ichini kamdan-kam bolalar mustaqil bog'lay olishadi. Bu holat mayda qo'l motorikasi bilan bog'liq. Yozish, chizish, poyabzal bog'ichini bog'lash, tugmachalarni taqish - bularning barchasi barmoqlarning aniq ishini o'z ichiga oladi, buni

qo'daklikdan o'rgatish kerak.

Mayda qo'l motorikasi - bu tananing skelet, asab va mushak tizimlarining muvofiqlashtirilgan harakatlari tufayli barmoqlar bilan aniq va kichik harakatlarni bajarish qobiliyatidir. Konstruktor to'plamlar, jumboqlar, mozaikalar bilan ishlash, bola qo'llarining mayda motorikani rivojlantiradi va eng muhim ko'nikmalarni shakllantiradi.

Qo'llarning mayda motorikasini rivojlantirish: xotira, diqqat, harakatlarni muvofiqlashtirish kabi kognitiv (Kognitiv - bu lotin tilidan olingan so'z "bilaman y "bilish" degan ma'noni anglatadi) rivojlanish bilan bog'liq. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, qo'llarning mayda motorikasi nutqning rivojlanishi va tovushlarning ravshanligi uchun javob beradigan. Agar u yaxshi rivojlangan bo'lsa, bolalar bog'chasida bolalar aniq gapirishadi va boshlang'ich sinfda yozishda hech qanday muammo bo'lmaydi. O'yinchoqlar yordamida bog'cha yoshidan qo'llarning mayda motorikasini rivojlantirib boriladi.


Olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, anatomiya nuqtai nazaridan, miya yarim korteksi motor proyeksiyasining butun maydonining taxminan uchdan bir qismini nutq zonasiga juda yaqin joylashgan qo'llarning proektsiyasi egallaydi. Buni hisobga olgan holda, barmoqlarning nozik harakatlari bolaning nutq funksiyasiga shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi degan taxmin paydo bo'ldi. Shu sababli, agar bolani gapirishga o'rgatmoqchi

bo'lsak, nafaqat uning artikulyatsiya apparatini yaxshilashimiz, balki mayda motorikasini ham rivojlantirishimiz kerak.

Ammo yana bir narsani aniq ta'kidlash kerak: qo'llarning mayda motorli ko'nikmalari nafaqat nutqni rivojlantiradi. Bundan tashqari, u fikrlash, tasavvur, vosita va vizual xotira, kuzatish, muvofiqlashtirish va diqqat bilan o'zaro ta'sir qiladi.

Bundan tashqari, mayda motorikani rivojlantirish juda kerak, chunki hali jazzi insonning butun kelajakdagi hayoti undan qo'llar va barmoqlarning muvofiqlashtirilgan va aniq harakatlaridan foydalanishni talab qiladi. Hech bo'lmaganda oddiy harakatlarni bajaring: tugmalar taqish va yechish, poyabzal bog'ichlarini bog'lash, kiyim kiyish va yechish, chizish va yozish, kompyuter bilan ishlash va boshqalar. Bu oddiy ko'rinadi, lekin agar uning mayda motorli ko'nikmalari rivojlanmagan bo'lsa, bularning hech birini to'g'ri bajara olmaydi.

Shunday qilib, chizish qobiliyatini normal shakllanish uchun katta ehtimol bilan bolada qobiliyat bilan birgalikda idrok, qo'l



mayda motorikasi va ayniqsa uning barmoq harakatlarini rivojlantirish, qo'l va ko'zlar harakatini muvofiqlashtirish (chamalash)ni rivojlantirish kerak bo'ladi. Bun tarzda ijodiy yo'nalish texnik ko'nikmalarni mashq qilish va malakalarga ega bo'lish uchun yetarli deb

ta'kidlash mumkin. Ammo amaliyot shuni ko'rsatdiki, ko'p hollarda texnik malakalar yetishmasligi va yordamga muhtojlik bolada ijodiy g'oyalarni rasmning birinchi chiziqlaridanoq amalga oshishiga monelik qiladi.

Tasviriy faolyatda muvaffaqiyatga erishish muammosini ijobiy hal qilish uchun bevosita texnik ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etiladi. Texnik ko'nikmalarni tarbiyachi mashg'ulotlar jarayonida bosqichma-bosqich rivojlantirib boradi. Barqaror ijodiy fikrlash - b

bolada hissiy va irodaviy yo'naltirilgan ko'nikmalar orqali ijodiy ishni yaratish uchun motivatsiya hisoblanadi ⁵

Qo'llarning mayda motorli ko'nikmalari ham bolaning mustaqilligini shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, mayda motorika funksiyalarini rivojlantirish, harakatlarni muvofiqlashtirish, diqqatni jamlash, tanlangan ishni oxirigacha bajarish qobiliyati, bajarilgan ishlardan bahramand bo'lish insonning butun shaxs sifatida shakllanishi uchun juda muhimdir. Mashhur italiyalik o'qituvchi, psixolog va shifokor Mariya Montessori ta'kidlaganidek, bola atrof-muhit bilan aloqa va o'z tadqiqotlari tufayli uning aql-zakovati bilan ishlay oladigan tushunchalar zahirasini shakllantiradi. Busiz mavhumlik qobiliyati yo'qoladi. Aloqa hislar va harakatlar orqali sodir bo'ladi. Qo'lning rivojlanishi bolaning nutqi va tafakkurining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqligi allaqachon isbotlangan. Shuning uchun nozik vosita ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ish bola maktabga kirishidan ancha oldin boshlanishi kerak. Axir, nozik vosita ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, xotira, e'tibor, shuningdek, so'z boyligi rivojlanadi. Mariya Montessori bolalarni yoshga qarab emas, balki rivojlanish darajasiga, materialni o'zlashtirish darajasiga qarab birlashtirish kerakligini ta'kidladi

San'at atrofimizdagi olam go'zalliklarini bilish quvonchini beradi. Bu hissiyotni inson o'z ijodiy imkoniyatlarining natijasi bo'lgan ijod mahsullari bilan kengaytiradi. Tasviriy faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalarning sevimli mashg'ulotidir. U har qanday boshqa faoliyatlar kabi bolalarning aqliy tarbiyasi uchun katta ahamiyatga ega.

Har bir bolada ijodkorlikni rivojlantirishi kerak. Bolalarga tasvir yaratishning turli usullarini o'zlashtirishga yordam berish, ularni ifodali ijro etish vositalari bilan tanishtirish, ushbu hayajonli jarayon uchun sharoit yaratish, estetik his-tuyg'ular va g'oyalarni shakllantirish, tasavvur va tasavvurni rivojlantirishga yordam berish muhimdir.

Tasviriy faoliyatni rivojlantirish va o'qitishda, usul va uslublarini aniqlash pedagog ishining mazmuni bo'lib, ikki yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarda idrok etish, tafakkur va tasavvur jarayonlarini bilish imkonini beradi. Bolalarning yosh xususiyatlariga ko'ra tarbiyalash uchun anatomiya, fiziologiya va gigiena bo'yicha bilimlarga ega bo'lishni talab etiladi; bolaning psixologiyasini bilish uning istaklari va moyilliklarini yaxshiroq tushunishga, xarakter xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi

Shuni esda tutish kerakki, maktabgacha yoshdagi bolalar tez charchash, qo'l- ko'z harakatining yaxshi muvofiqlashmaganligi va analizatorlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan ajralib turadi. Ijod qilish jarayonida bola faoliyatining barcha sohalari ishtirok etadi. Kattalar va tengdoshlar bilan muloqot, nutqni rivojlantirish, o'zaro yordam, tajriba almashish qobiliyati, boshqa bolalarning ishini baholash; atrof-muhit bilan tanishish: predmetlarning tuzilishi, ularning muhim xususiyatlarni ajratib ko'rsatish; shakli, o'lchami, rangi, fazoda va tekislikda joylashishi, qismlarga bo'linishi, sanash haqida elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish; mehnat tarbiyasi: hunarmandchilik, guruhning ichki qismini bezash uchun buyumlar yaratish, ish joyini tayyorlash va tozalash, badiiy buyumlarni tartibda saqlash va h. k. Bolada sabr-toqat, matonat kabi irodaviy sifatlar shakllanadi; idrok, nutq, tafakkur, xotira, diqqat, tasavvur kabi psixik jarayonlar rivojlanadi.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bolaning jismoniy-ruhiy holatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ijodiy jarayonda bola o'z his-tuyg'ularini ifodalaydi, psixo-emotsional stressdan xalos bo'ladi, u tinchlanadi, ichki dunyosini ochib beradi. O'ng va chap qo'llar: o'ng yarim shar - konkret-majoziy fikrlash, chap yarim shar- mavhum-mantiqiy. Qo'l va ko'zni muvofiqlashtirish esa, qo'lni yozishga tayyorlashga yordam beradi.

Bolaning estetik tuyg'ularini tarbiyalashda badiiy ijod muhim rol o'ynaydi. San'at haqiqiy go'zallik olamini ko'rsatadi va o'qituvchi uchun uning mazmunini ifodali shaklda ochib berish, estetik tuyg'ularni rivojlantirish, o'ziga xos emotsional kayfiyat yaratishda muhim ahamiyatga ega. Tarbiyasi tomonidan alohida tanlangan emotsional so'zlarsiz, oddiy tahlil etilsa, bolalarning his-tuyg'ulariga

ta'sir etib bo'lmaydi, ularda o'z ijodiga nisbatan qiziqish paydo bo'lmaydi, natijada har bir bola tug'ilgandan boshlab tabiatga xos bo'lgan ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish lozim bo'lgan -estetik tarbiyaning eng muhim vazifasi bajarilmaydi. Shuning uchun o'qituvchining shaxsiy namunasi, emotsional tarzda tushuntirish, yordam berish, ijodiy bo'lishi kerak. Shuningdek, mashg'ulotlarni tashkil etish, jihozlash, tozalik va tartib, materiallar va jihozlarni to'g'ri saqlash bolalarning estetik tarbiyasini rivojlantiradi. Ko'rgazmali qurollar yuqori badiiy saviyada tayyorlanishi kerak. Bunday muhit, albatta, ijodkorlik bilan shug'ullanish istagini keltirib chiqaradi.

Estetik jihatdan savodli insonlarni tarbiyalamasdan, san'atni anglashni va qadrlashni bilmasdan, o'z qo'li bilan go'zallik yaratishga intilishni tarbiyalamasdan turib, barkamol shaxsni shakllantirish mumkin emas.⁶

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar:

Ijod - bu tashqi dunyoda, shu jumladan, insonning o'zini yoki uning atrofidagilarni qiziqtiradigan va estetik ahamiyatga ega bo'lgan vositalar va ichki sezgilar yordamida fikrni erkin amalga oshirishning aqliy jarayoni.

Ijodkorlik qobiliyati - insonning tabiiy va ijtimoiy dunyoni voqelikning ob'ektiv qonunlari asosida o'z maqsadi va ehtiyojlariga muvofiq o'zgartiradigan faoliyatidir.

Mayda qo'l motorikasi - bu tananing skelet, asab va mushak tizimlarining muvofiqlashtirilgan harakatlari tufayli barmoqlar bilan aniq va kichik harakatlarni bajarish qobiliyatidir.

Kognitiv - bu lotin tilidan olingan so'z "bilaman" va "bilish" degan ma'noni anglatadi.

https://portal.ru/sites/default/files/2018/04/11/znachenie_izodeyatelnosti_dlya_vsestoronnego_razvitiya_rebe

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:

2. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bolaning jismoniy-ruhiy holatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

- A. Qo'l va ko'zni muvofiqlashtiradi
- B. His-tuyg'ularini ifodalaydi, psixo-emotsional stressdan xalos bo'ladi
- C. Ijodiy qiziqishlarni rivojlantiradi
- D. Go'zallikni tushuna boshlaydi.

3. Bolalar ijodkorligi qanday vujudga keladi?

- A. Kattalar og'zaki ta'siri bilan ixtiyoriy tasavvur obrazlari orqali
- B. Mustaqil fikrlash orqali
- C. Idrok qilish orqali
- D. A va B javoblar to'g'ri

4. Ijod qilish jarayonida qanday psixik jarayonlar rivojlanadi?

- A. sabr-toqat, matonat
- B. estetik sezgi, nutq
- C. idrok, nutq, tafakkur, xotira, diqqat, tasavvur
- D. To'g'ri javob yo'q

5. To'liqsiz testni bajaring.

Mayda qo'l motorikasi - _____
tizimlarining muvofiqlashtirilgan harakatlari tufayli
barmoqlar bilan _____ harakatlarni bajarish
qobiliyatidir

Nazorat savollari:

- 1. Bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish uchun pedagog nimalarga ahamiyat berishi kerak?
- 2. Mayda qo'l motorikasi nima?
- 3. Mayda qo'l motorikasi bolalarning psixologik pivojlanishida qanday rol o'ynaydi?
- 4. Italian pedagogi Mariya Montassori bolalarda mayda qo'l matorikasini rivojlantirish bo'yicha nima degan?
- 5. B.A. Suxomlinskiy mayda qo'l motorikasi haqida qanday fikr bildirgan?

6. Bolalarda estetik tuyg'ularni tarbiyalash ta'lim va tarbiya jarayonida qay darajada muhim?

7. Kognitiv so'zining ma'nosi?

8. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bolaning ruhiy holatiga qanday ijobiy ta'sir etadi?

§4. Mashg'ulot jarayonida bolalarning tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish

Rasm chizish, loydan buyumlar yasash, qurish-yasash va applikatsiya — bu tasviriy faoliyat turlari bo'lib, ularning asosiy vazifasi tevarak-atrofni obrazli aks ettirish hisoblanadi. Masalan, shoirning she'ri va rassomning asari. Birorta predmetni chizish yoki yasash uchun albatta u bilan oldindan tanishish yoki kuzatib chiqish, uning shakli, katta-kichikligini, qismlarning joylashishi, rangini bilish kerak bo'ladi. Bu jarayonda ko'rish, sezish, qo'l harakatlari ishtirok etmay qolmaydi. Bolalar predmet va hodisalarni kuzatish va ko'rib chiqish jarayonida predmetni katta-kichik guruhlariga bo'lib, uning shaklini o'zgartirib, rangini turli-tumanligi bilan tasvirlaydilar. Sensor tarbiyani amalga oshirishda tasviriy faoliyatning ahamiyati katta. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy boglanadilar, ularning o'ziga xos sifatleri, shakli, rangi bilan, katta-kichikligi bilan tanishadilar, ularning farqini, o'xshashligini aniqlaydilar, bu esa bolalarni sensor tarbiyalashga, ko'rgazmali, obrazli fikr yuritishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Sezgi va idrok biror maqsadga qaratilgan mazmunli faoliyat jarayonida muvaffaqiyatli rivojlanadi. Samarali faoliyat (rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar, applikatsiyalar yasash) sezgi va idrokning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratibgina qolmay, balki buyumning shaklini, rangini, joyini bilib olishga ham ehtiyoj paydo qiladi. Biror narsaning rasmini chizishdan oldin bolani buyumlarning rangiga sarab taqqoslashga o'rgatiladi, suratlarni ko'zdan kechirishda esa qanday qilib rang yordamida tasvirning haqiqiy ifodaliligiga erishilishini kurish qobiliyati rivojlanadi.

Sensor tarbiya - sezgi va idrokni biror maqsadga qaratilgan holda rivojlantirishdir. "Sensor" so'zi lotincha "sensus" - "tuyg'u", "sezgi", "idrok", "sezish qobiliyati" ma'nolarini anglatadi. Bolalar

ko'rish, sezish, buyumlarning nomlarini o'rganish yordamida tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar to'g'risida tasavvurga ega bo'ladilar. Agar bolaning sezgilari va idroki sensor tarbiya jarayonida takomillashtirilsa, uning tevarak-atrof, olam haqidagi tasavvurlari shunchalik kengayadi. Bolalarning sensor tarbiyasi, ularda sezgi va idrokning rivojlanish darajasi bilish faoliyatining kengayishi uchun muhimdir. Mashg'ulotlarda bolalarning hissiy bilish tajribasini egallab olishlari muhim rol o'ynaydi. Xolbuki shu mashg'ulotlarda bolalarning sezgi, idrok va tasavvurlarini tarbiyalashga jonli rahbarlik qilish uchun barcha sharoitlar yaratiladi. Shuning uchun tarbiyachi bolalarni narsa va hodisalarni idrok qilishga o'rgatib, ularga bajaradigan ishlarining ma'nosini aniq tushuntirib berishi lozim. Shundagina ular ancha tushungan holda idrok qiladilar va u biror maqsadga qaratilgan bo'ladi. Axir, daraxt shoxlari (novdalarini) yaxshilab kuzdan kechirilmasa, uning rasmini chizish ancha qiyin buladi.⁷

Ijodkorlik - bu shaxsning yangi g'oyalarni yaratishga moyilligini, uning iqtidorligini va noyob qobiliyatga ega ekanligini anglatadi. Shaxsning ijodkorligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi va iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, ijodkorlik zehn o'tkirligini ham belgilab beradi.

Bolalarda ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishida tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi mashg'ulotlarning o'rni beqiyos ekanligini e'tirof etgan holda bunday mashg'ulotlar ularda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishiga ham tamal toshini qo'yishi shubhasizdir.

P.Torrens (*Ellis Paul Torrance* - amerikalik psixolog) fikricha, ijodkorlik (ingliz tilida "creative" - yaratish, yaratuvchi, ijodkor) muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish, farazni tekshirish va o'zgartirish, qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash, muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi. Ijodkorlik deganda, Torrens kamchiliklarni, bilimlardagi

⁷ P.Yusupova. "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi" O'quv qo'llanma. Toshkent — O'qituvchi nashriyoti — 1993yil

bo'shliqlarni, disgarmoniyani va hokazolarni idrok etishni kuchaytirish qobiliyatini tushunadi. Uning fikricha, ijodiy harakat muammoni idrok etish, yechim izlash, gipotezalarning paydo bo'lishi gipotezalarni sinab ko'rish, ularni o'zgartirish va natijani topish va shakllantirishdan iborat. Hozirgi vaqtdagi ta'lim jarayonida ham bolalarga erkin ijodiy muhit yaratish uchun ham dunyo miqyosidagi eng yuqori samaradorlikka ega texnologiyalardan foydalanish, jamiyatimizga iqtidorli mutaxassislarni yetishtirish imkonini beradi.

Boshqa har qanday fazilat kabi ijodkorlik ham birdaniga shakllanmaydi. Xo'sh, bolalarda ijodkorlik xususiyatlari qachondan namoyon bo'ladi?

Odatda ijodkorlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko'zga tashlansada, biroq, bu holat ularning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi. Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi har doim olimlarda katta qiziqish uyg'otgan. Bugungi kunda dunyoda maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash jarayoniga badiiy faoliyatning yetarli darajada kiritilgan. Albatta, pedagoglar kundalik faoliyatida jahon pedagogikasi to'plagan barcha ijobiy tajribalarni hisobga olishlari kerak. Bolalar ijodiyotini tushunish va qobiliyatlarni rivojlantirishga yondashuvda ikkita qarama-qarshi yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchisi tarafdorlari ichki impulsni, insonning o'z fikrlari va kayfiyatini ifoda etish istagini ijod manbalari deb bilishadi. Bu jarayonga aralashmaslik, o'z-o'zini ifoda etishga aralashmaslik, tasvirlash usullarini o'rgatmaslik talabi shundan kelib chiqadi, chunki go'yo bolaning o'zi ularni topadi. Yana bir yo'nalish insonning tasviriy



faoliyatga bo'lgan ehtiyojini atrofdagi hayotdan olingan taassurotlarni aks ettirish va ularga o'z munosabatini bildirish usuli sifatida tushunishdan kelib chiqadi. Bolada uni qanoatlantiradigan ob'ektning mos tasvirini yaratish uchun unga tasvir usullarini

o'zlashtirishga yordam berish kerak.

Ijodkor shaxsni shakllantirish hozirgi bosqichda pedagogik nazariya va amaliyotning eng muhim vazifalaridan biridir. Buning uchun eng samarali vosita bu -bolalar bog'chasi va maktabda bolaning tasviriy san'at mashg'ulotlari hisoblanadi. Chizish jarayonida bola turli xil his-tuyg'ularni boshdan kechiradi: u o'zi yaratgan go'zal qiyofadan quvonadi, agar biror narsa amalga oshmasa, xafa bo'ladi, qiyinchiliklarni yengishga intiladi yoki ularga berilib ketadi. U narsa va hodisalar, ularni uzatish vositalari va usullari, tasviriy san'atning badiiy imkoniyatlari haqida bilimlarga ega bo'ladi. Faylasuf va psixologlarning ta'kidlashicha, inson faoliyatining har qanday sohasidagi ijodkorlik ob'ektiv yangi, ilgari yaratilmagan asarning yaratilishidir.

Ko'pgina mutaxassislar bolalar ijodiyotini tahlil qilib, uning katta yoshdagi rassomning ijodiy faoliyati bilan o'xshashligini ta'kidlab, uning o'ziga xosligi va katta ahamiyatini ta'kidladilar. Bolaning bolalar ijodiyoti tadqiqotchisi N.P. Sakulina shunday deb yozgan edi: "Bolalar bog'chada, albatta, rassom bo'lib ketolmayd, lekin ular maktabgacha yoshdagi bolalik davrida bir nechta haqiqiy badiiy tasvirlarni yaratishga muvaffaq bo'lishadi. Ammo bu ularning shaxsiyatining rivojlanishida chuqur iz qoldiradi, sababi ular haqiqiy ijodkorlik tajribasiga ega bo'lib, keyinchalik ular har qanday mehnat sohasiga tatbiq eta oladi. Bolalarning to'liq estetik rivojlanishi va badiiy va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun ma'lum shartlar zarur. Tarbiyachilar quyidagi shartlarga e'tibor berishlari kerak:

□ O'yin, rasm, qurish-yasash, sahnalashtirish va musiqiy faoliyatga ustunlik berish kerak. Bu bolaning shaxsiyatini har tomonlama rivojlantirishga yordam beradi. Bu tarbiyachiga hissiy ijodiy muhitini yaratishga, bolalar hayotini qiziqarli mazmun bilan to'ldirishga imkon beradi.

□ Ta'lim komponenti bolalarni qiziqtirishi kerak, bu turli xil metod va usullardan foydalanishdir.

□ Bolalar bog'chasida badiiy-estetik muhitni yaratish kerak, shu bilan birga bolalar loyihalashda faol ishtirok etadilar, ko'rgazmalarni tizimli ravishda tashkil qiladilar.

□ Pedagogik jarayonga turli o'yinlarni, vaziyatga muvofiq o'yin texnikasini doimiy ravishda kiritib turish foydalidir.

□ Hamma narsada xilma-xillik bo'lishi kerak. Bolalarga taqdim etiladigan o'qitish shakllari, vositalari va usullarini, ish uchun materiallarni turi va sifatini yangilab turish kerak.

□ O'qituvchi mashg'ulotlardan haddan tashqari ta'limiylikni, tasvirni, syujetni hal qilish bo'yicha o'z g'oyasini kiritishni istisno qilishi kerak.

□ Har bir bola diqqatli, xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lishga, uning ijodi va faoliyati natijalarini hurmat qilishga loyiqdir. Ijodiy va do'stona muhit yaratish lozim.

□ Har bir darsda bolalar ijodiyotiga va uning natijalariga o'ta-onalarda bir xil yondashuvni shakllantirish.

□ Pedagog bolaga ishonchini namoyon qilishi, ortiqcha maqto'vni istisno qilishi kerak.⁸

Bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirishning eng oson va eng maqbul usullaridan biri bu ijodkorlik bilan shug'ullanishdir. Bolalarning ijodiy jarayoni - bu o'ziga xos dunyo, bola o'zini, o'z imkoniyatlarini sinab ko'radigan, atrofidagi dunyoni o'rganadigan va unga nisbatan o'z qarashlarini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan dunyo. Garchi bola nutqni to'liq egallamagan bo'lsa ham, o'z maqsadlari, istaklari va ehtiyojlarini aniq "bayon etish" uchun ba'zi maishiy ko'nikmalar orqali nimanidir yetkazishi mumkin. Psixologlarning bolalar bilan ishlash usullarining ko'pchiligi bolalar ijodiyotini tahlil qilishga asoslangan. Rasmlar, applikatsiya, qo'l ishlari va boshqa ijodiy namunalar orqali bolalar va ularning savotirlari, intilishlari, istaklari haqidagi ma'lumotlar ular haqidagi fikrlarimizni kengaytiradi. Bola chizgan rasmga qarab, bolani nima tashvishga solayotganini, u nimani yoqtirishini, kimni sevishini, o'zida unga qanday munosabatda bo'lishini, bu keng dunyoda o'zini qanday his qilishini va eng muhimi u nimadan qo'rqayotganini ko'rishingiz mumkin, chunki bolaning ijodkorligi, uning dunyosi, yashirin "men"ining ichki aksidir. Har bir bolada irod uchqunlari bor, bu ajalmas tabiiy funktsiyadir. Ijodkorlik har doim daholik mahsuli emas, balki ijodkorlik kundalik hayotda, o'qituvchi, oshpazlik mutaxassisi, sotuvchi va hokazolar ishida ham mavjud. "Ijodkorlik, shubhasiz, shaxsiy fazilatdir. Ijodkorlik mahorat, tajriba sifatida

⁸ Развитие творческих способностей у детей дошкольного возраста посредством изобразительной деятельности / авторы Григорьева У.Ю., Андреева Л.Д. <https://scienceforum.ru/2015/section/2015000640>

faoliyatning barcha turlariga, xatti-harakatlarda, atrof-muhit bilan muloqotda yuqori psixik vazifalarni shakllantirishga asoslanadi. *"Ijodkorlik - bu butun tizimni o'z ichiga olgan qobiliyat elementlari: tasavvur, assotsiativlik, fantaziya, xayolot bilan bog'liq jarayondir."*⁹

Bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishda quyidagi shartlarga e'tibor qaratish zarur:

□ ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;

□ bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda mas'uliyatni kuchaytirish;

□ bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

□ bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Odatda bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish avvalo ota-ona, bolalar bog'chasi tarbiyachilari va albatta ta'lim muassasalaridagi o'qituvchilarning ijodkorlik qobiliyatiga ega bo'lishlari va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi.

Shaxsning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har bir shaxs muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, masala yechimini topishga ijodiy yondashishi jarayonida unda hissiy-irodaviy sifatlar rivojlanib boradi. Shaxs o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib-o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini nafaqat maxsus tashkil etilgan mashg'ulotlar, balki mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda ham mustaqil va erkin faoliyatda shakllantiriladi. Bolalarning ijodiy faoliyati majburiy bo'lishi mumkin emas va faqat bolalar qiziqishidan kelib chiqishi mumkin.¹⁰

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar:

Qobiliyatlar- bu shunday psixik sifatlarga aytiladiki, kishi ular yordamida bilim, ko'nikma va malakalarni nisbatan osonlik bilan

egallab oladi va biror faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanadi. Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo'ladi.

Layoqat- irsiyat natijasiga bo'lib qolmay, balki, shu bilan birga ona homilasida o'sish natijasi hamdir. Layoqat — kishidagi tug'ma imkoniyatdir

Sensor tarbiya- sezgi va idrokni biror maqsadga qaratilgan holda rivojlantirishdir. "Sensor" so'zi lotincha "sensus" - "tuyg'u", "sezgi", "idrok", "sezish qobiliyati" ma'nolarini anglatadi.

Ijodkorlik- bu inson g'ayrioddiy fikrlaydigan va o'z faoliyatida noyob, printsiptial jihatdan yangi natijalarni yaratishi mumkin bo'lgan fazilatlar majmuidir. P.Torrens (*Ellis Paul Torrance*- amerikalik psixolog) fikricha, ijodkorlik (ingliz tilida "creative" - yaratish, yaratuvchi, ijodkor)

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:

1. Qobiliyatlar nima?

- A. Psixik jarayon
- B. Shunday psixik sifatlarga aytiladiki, kishi ular yordamida bilim, ko'nikma va malakalarni nisbatan osonlik bilan egallab oladi
- C. Ijodiy jarayon
- D. To'g'ri javob yo'q

2. Qobiliyat o'sishida tayanch vosita nima?

- A. Tasavvur qilish
- B. Ko'rish sezgisi
- C. Xayol
- D. Qayta ishlash

3. Mashg'ulotda yakka yondashuv - bu...

- A. mashg'ulotda har bir bolaning individual xususiyatlarini inobatga olib yondashish
- B. mashg'ulotda barchaga birdek yondashish
- C. mashg'ulotda etakchilik qilish
- D. mashg'ulotda faqat bitta bolaga alohida e'tibor bilan yondashish

4. Ijod darajalarini aniqlash uchun qanday tushunchalar qo'llaniladi?

⁹ Л.С. Выготский, Вопросы детской психологии издательство Юрайт, 2016 год

¹⁰ Л.С. Выготский, Воображение и творчество в детском возрасте
Издательство: М.: Просвещение, 2000

- A. Iqtidor, iste'dod, qobiliyat
- B. Iqtidor, iste'dod, qobiliyat, layoqat
- C. Qobiliyat, iste'dod
- D. Xotira, xayol, tasavvur

5. Bolaning sezgilari va idroki qaysi tarbiya jarayonida takomillashtiriladi?

- A. Estetik tarbiya
- B. Aqliy tarbiya
- C. Jismoniy tarbiya
- D. Sensor tarbiya

Nazorat savollari:

1. Bolalarda ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarining o'rni qanday?
2. P. Torrens ijodkorlik haqida qanday fikrlar bildirgan?
3. Kreativlik nima?
4. Bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishda nimalarga ahamiyat berish lozim?
5. Yevropa pedagog-olimlari tomonidan bolalar ijodiyotini tushunish va qobiliyatlarni rivojlantirishga qanday yondashuvlar bo'lgan?
6. Bolalar ijodini tahlil qilish orqali psixologlar nimalarni aniqlashadi?
7. Bolalarning to'liq estetik rivojlanishi va badiiy va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun qanday shartlar zarur?
8. Bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish uchun ta'lim muassasasida o'zaro hamkorlik kerakmi?

II-BOB BO'YICHA XULOSA

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida ijodkorlikni rivojlantirish avvalo ota-ona, bolalar bog'chasi tarbiyachilari va albatta ta'lim muassasalaridagi pedagoglarning ijodkorlik qobiliyatiga ega bo'lishlari va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi. Asosiy vazifa - bolalarda badiiy va ijodiy faoliyatga qiziqtirish, rasm chizish, haykaltaroshlik va qo'llash qobiliyatini shakllantirish. Tasviriy faoliyatga rahbarlik qilishda tarbiyachi

barcha yosh guruhlari uchun umumiy bo'lgan, uni muvaffaqiyatli o'zlashtirish va bolalar ijodiyotini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan shartlarni esda tutishi kerak. Bu borada mustaqillikni rivojlantirish, ularga o'z fikrini ifodalash, shaxsiy tajribani aks ettirish uchun keng imkoniyatlar yaratishga katta e'tibor qaratish lozim. Estetik idrok, fazoviy tasavvurlar, tasavvurni rivojlantirmasdan bolalar ijodiyotini shakllantirish mumkin emas.

Bolaning chizgan rasmlariga qarab, uni nima tashvishga solayotganini, u nimani yoqtirishini, kimni sevishini, oilasida unga qanday munosabatda bo'lishini, bu keng dunyoda o'zini qanday his qilishini va eng muhimi u nimadan qo'rqayotganini ko'rishingiz mumkin, chunki bolaning ijodkorligi bu - uning dunyosi, yashirin "men"ning ichki aksidir.

III BOB

TARBIYACHINING BOLALARNI TASVIRIY FAOLIYATGA O'RGATISH JARAYONIDAGI O'RNI.

§5. Tarbiyachining tasviriy faoliyat mashg'ulotlaridagi pedagogik va kasbiy mahorati

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat dasturining takomillashtirilgan ikkinchi nashrida "Pedagog fasilitator sifatida bolalarga ta'lim va tarbiya berishda o'z bilimi, ko'nikma va resurslaridan foydalanadi. Pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtiradi, bolaning har tomonlama rivojlanishiga va uning salohiyatini ochishga hissa qo'shadigan rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Pedagog bolaning mustaqil harakat qilish, natijalarga erishish va yutuqlarni amalga oshirish hamda ulardan zavqlanish qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Pedagog, shuningdek, bolalarda zarurat bo'lganida, har bir bola tarbiyachidan yordam va dalda olishi mumkinligiga ishonch hissining paydo bo'lishiga yordam beradi"- deya ta'kidlanadi.

Pedagogik faoliyat- yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta'lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o'qituvchilar mehnati faoliyatidir. Maktabgacha



ta'lim tashkiloti tarbiyachisi faoliyatining boshqa soha pedagoglaridan farqli xususiyati shundaki, u bolaning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun asos yaratadi. Bu tarbiyachiga olijanob vazifa - bola tarbiyasi va ta'limi yuklangan birinchi pedagog bo'lib, bolaning tarbiyasi va ta'limi, psixika ayniqsa jadal shakllangan, ijodkorlik, o'z o'zini anglash asoslari tug'ilgan, nutq faol rivojlanayotgan bir paytda shaxsning rivojlanishi uchun javobgardir. XVIII asrning mashhur o'qituvchisi, nemis pedagog olimi I. G. Pestalossi : "Tarbiyachining bolalarga bo'lgan munosabati, haqiqiy oilaviy munosabatlarga

o'xshash, ota-ona kabi bo'lishi kerak. Men o'z rejalarimni shu asosda qurdim. Erta tongdan kechgacha har doim, bolalarim mening yuzimdan ko'rishlari va men butun qalbim bilan ular bilan ekanligimni, ularning baxti mening baxtim va ularning quvonchi, mening quvonchim ekanligini labimdan taxmin qilishlari kerak"- deydi buyuk pedagog. Pedagogda bolalarga mehr-muhabbat, ular bilan ichki birlik, yuksak axloqiy fazilatlar mavjud bo'lishi kerakligini dunyoning ko'pgina mamlakatlaridagi boshqa pedagoglar ham ta'kidlaganlar. Sharq Uyg'onish davrining yetuk namoyondalari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Unsurul Ma'aliy Kaykovus, Abul-Qosim Umar Az-Zamaxshariy, Shayx Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz al-Koshifiy kabilarning ijodiy merosi pedagogik tafakkurni shakllantirishda bo'lajak murabbiylarga muhim manba bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun muallimlar kuchi va g'ayrati bilan barkamol avlodni tarbiyalash ularning eng yorqin orzusi bo'lib kelgan. O'zbekiston deb atalmish muazzam zaminimizda yashab o'tgan allomalarning bu borada o'z o'rnini va hurmati bor. Barkamol avlodni tarbiyalash, bunda pedagogning o'rnini to'g'risida allomalarimiz ijodiy merosidan juda ko'p misollar keltirishimiz mumkin. Mazkur muammo yuzasidan mulohaza yuritgan atoqli olim Abu Ali ibn Sino (980-1037)ning fikricha, "O'qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo'y va bola tarbiyalash uslublarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. O'qituvchi o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog'i lozim". Abu Ali ibn Sino mulohazasiga ko'ra tarbiyachi dastlab bolalarni yaxshi ko'rishi, hurmat qilishi, ular bilan xushmuomala bo'lishi shart. Agar bola ishni yaxshi bajarsa, uni o'z vaqtida rag'batlantirish, gohida maqtab qo'yish, aksincha esa, unga tanbeh berish kerak. Lekin, deydi Ibn Sino, "Tanbeh bolaning izzat-nafsiga tegadigan bo'lmasligi lozim, o'quvchiga murosasozlik qilish esa bolaning o'zboshimcha bo'lib qolishiga olib boradi"-degan. Buyuk alloma Abu Ali ibn Sino axloq to'g'risidagi fikrlarida axloqiy fazilatlarni ulug'ladu va axloqiy illatlarni, yomonlikni keskin qoraladi. Olim ta'lim-tarbiya masalalariga jiddiy va ijodiy yondashgan. Uning bolani tarbiyalash va o'qitish borasidagi ko'p fikrlari o'zining chuqur mazmuniga

egaligi, insonparvarligi va teranligi bilan kishini hayratga qoldiradi. Yusuf Xos Hojib (XI asr) — buyuk olim, zabardast dostonnavis, tadbirkor davlat arbobidir. Uning qarashlarida xalq bilan birga bo'lish, adolatparvarlik g'oyalari asosiy o'rin tutadi. Olimning fikricha, insonning ulug'ligi, aql-idroki, so'zlash qobiliyati, bilimi, uquvi va hunarga egaligidadir.

“O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lur,

Bilik kimda bo'lsa, bedug'lu alur.

O'qishlug' o'qar-ul biliglig bilir,

Biligli, o'qigili tilikka tegir”.

Yusuf Xos Hojibning uqtirishicha, har bir kishi jamiyatga munosib bo'lib kamol topmog'i kerak. Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog'i shart. Shundagina ularning noo'rin xatti-harakatlariga berilishning oldi olinadi. Buning uchun maxsus tayyorlangan puxta zaminga ega bo'lgan, ezgu niyatli va pokiza murabbiy taklif etilishi kerak. Shundagina bolalarimiz to'g'ri tarbiya oladi. Taniqli rus pedagogi A.S. Makarenko o'z asarlarida pedagogning kasbiy fazilati to'g'risida quyidagi fikrlarini bayon qilgan: Pedagog olim o'qituvchining hech bir kasbga o'xshamaydigan kasbiy faoliyatini yuksak baholab, “Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq yoki jahldor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati, yurish-turishi, kiyinishi bolalarni tarbiyalasin” – deb yozgan edi.¹¹

Tarbiyachining kasbiy mahorat darajasi uning malakasiga (pedagogik, ijtimoiy-psixologik, differentsial-psixologik), shuningdek, kasbiy va pedagogik fikrlashning rivojlanish darajasiga bog'liq. Pedagogik ijodkorlik yuqori kasbiy va pedagogik kompetensiyaga asoslangan bo'lsa samarali bo'ladi. Afsuski, ko'p hollarda bu kompetensiya mavjud emas, bu **didaktogen** (o'quvchining o'qituvchidan qo'rqishi) omillarga olib keladi. Haqiqiy pedagogik ijodkorlik yangilikning sub'ektiv emas, ob'ektiv mezoniga, ijodiy faoliyat natijalariga mos keladi. Pedagogik ijodkorlikni tushunishda, agar kimdir ob'ektiv mezoniga rioya qilsa, bu mezoniga o'n minglab tarbiyachilardan faqat bir nechtasi javob beradi degan fikr paydo bo'lishi mumkin. Ammo bu noto'g'ri. Ushbu keng tarqalgan xato natijani noto'g'ri tushunishga asoslangan.

Darhaqiqat, o'qitish yoki tarbiyalashning ob'ektiv yangi texnologiyalarini yaratadigan tarbiyachilar juda kam. Ammo allaqachon yaratilgan taniqli usul va metodlarni birlashtirgan har qanday dars, amaliy mashg'ulot ma'lum darajada ijodkorlik natijasidir. Buni ma'lum elementlardan yangi tizimni yaratish allaqachon ijodkorlikning namoyon bo'lishi bilan tasdiqlaydi. Har bir mashg'ulotni tashkil qilish va o'tkazish ijodkorlikni talab qiladi.

Hozirgi vaqtda MTTlarda estetik tarbiya va bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga juda katta e'tibor berilmoqda. Bolaning badiiy ijod bo'yicha tajribasi uning har tomonlama rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Bolalar san'at va undagi belgilar orqali muloqot qiladi va o'zlarini namoyon etadilar. Bola o'zining ichki dunyosini va uni o'rab turgan dunyosini o'rganadi, tushuntiradi va tushunadi. Bolalarning kognitiv rivojlanishida san'atning jihatlaridan biri bu o'zini namoyon qilishdir. Tasviriyl faoliyat bolalarga o'z ijodiy g'oyalarini o'zi yoki guruh bilan o'rganish va muhokama qilishga imkon beradi. Bolaning chizgan rasmlari taqlid emas balki tasvirlangan jismoniy muhitning namoyon bo'lishini o'rganishdir. Bolalar tasviriyl ifodalarida turli materiallardan foydalanish orqali ularning tasviriyl sezgilarini tasavvurini, estetik idrokini va qobiliyatlarini aniqlaydi.

MTT pedagogining asosiy vazifasi- bolalarga to'g'ridan-to'g'ri sezgilar: ushlab ko'rish, rang, hid, tovush va ta'm orqali o'rganish imkonini berish uchun rivojlantiruvchi va rag'batlantiruvchi ta'lim muhitini ta'minlashdir. Tasviriyl faoliyat mashg'ulotlarida bolalar eng avvalo turli materiallardan foydalangan holda tadqiqot o'tkazish, turli manipulyatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini ta'minlash kerak, bu ularga yangi tajriba orttirish va atrof voqelikni o'rganishga imkon beradi. Pedagog bolalarning hissiyl idrokini rivojlantirishi, ijodiga rahbarlik qilishi, bolaning faoliyatini rag'batlantirishi, ijodiy qiziqishlari ko'p bosqichli, muammoli, tizimli bo'lishi kerak. Bolalarni tasviriyl faoliyatga qiziqtirish

¹¹ “PEDAGOGIK MAHORAT” A'zam Xoliqov. Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» nashri 2011yil

uchun pedagogning o'zi tasviriy san'atni badiiy va ifodali vositalarini bilishi va tushuna olishi kerak. Bu o'z navbatida bo'lajak tarbiyachilardan oliy ta'limdagi o'qish jarayonida amaliy mashg'ulotlarni puxta o'zlashtirishi, xususan tasviriy faoliyat metodikasi fanidan o'tiladigan darslarda faol bo'lsa, ijodiy yondoshsa kasbiy faoliyatida ham muvaffaqiyatga erisha oladi.

Tarbiyachi tasviriy faoliyatga qiziqtirish uchun har bir bolaga yo'naltirilgan yondoshuvga rioya qilishi, unga yordam berishi, ijod qilish istagini qo'llab-quvvatlashi, uning harakatlarini xolisona baholashi kerak. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalar qiziqishlarini, imkoniyatlarini kuzatish orqali pedagog yangi mashg'ulotni rejalashtirishiga yordam beradi. Pedagogning bolalar faoliyatiga rahbarligi ko'rsatmalar, buyruqlar shaklida bo'lmasligi, balki shunday ishlash kerakki bolalarning qiziqishini uyg'otadigan va ularning e'tiborini keying tadqiqotlarga qaratadigan bo'lishi kerak. Ko'rsatma shaklidagi yordam bolani kimningdir g'oyasini rivojlantirishga majbur qilmasligi kerak. Bu bolani charchatadi va uning keying mustaqil ishlashga bo'lgan istagini susaytiradi, shuningdek uning ijodiy imkoniyatlarini kamaytiradi. Bolalarga tasviriy faoliyatning turli metodikalari bilan tanishtirish ijodkorlik uchun yangi imkoniyatlar topishlari, kashfiyot va tajribao'tkazishlari uchun imkon beradi. Tasviriy san'at sohasidagi professional kompetensiya pedagogga umumiy va badiiy-estetik rivojlanishga yo'naltirilgan ijodiy ta'lim jarayonini sifatli shakllantirish imkonini beradi.

Har bir pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. Kreativlik potensial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligida, yangi g'oyalarni yaratish, qobiliyati, shuningdek, shaxs xarakteriga xos jihatlari – bir qolipda fikrlamaslikda, o'ziga xoslikda, tashabbuskorlikda, noaniqlikka toqat qilishda, zakovatli bo'lishda aks etadi. Har bir pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishi va

o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. Pedagogning kreativ potentsiali an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi;
- yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati;
- bir qolipda fikrlamaslik;
- o'ziga xoslik;
- tashabbuskorlik;
- noaniqlikka toqat qilish.¹³

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar:

Pedagogik mahorat- shaxsning pedagogik sifatleri majmui va o'qituvchi tomonidan kasbiy pedagogik faoliyatni mustaqil ravishda samarali tashkil etishni ta'minlash bo'lib, u pedagogning faoliyat mohirligini eng yuqori cho'qqisiga erishganligini bildiradi.

Pedagogik faoliyat- yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta'lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o'qituvchilar mehnati faoliyatidir.

Didaktogen - o'quvchining o'qituvchidan qo'rqishi

Fasilitator – bu an'anaviy ta'lim konsepsiyasi doirasida birlamaydigan, aksincha, bolalarni o'zlarini o'rganish uchun yo'naltiruvchi va yordam beradigan pedagogdir (masalan, g'oyalarni tanlash, ular haqida o'z fikrlarini shakllantirish, tadqiqot va suhbat orqali materialni o'zlashtirish).

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:

1. Bolalarni tasviriy faoliyatga qiziqtirish uchun pedagog nimalarni bilishi va tushuna olishi kerak?

- A. Pedagogning bolalar faoliyatiga rahbarligi ko'rsatmalar, buyruqlar shaklida bo'lishi
- B. Pedagogning o'zi tasviriy san'atni badiiy va ifodali vositalarini bilishi va tushuna olishi kerak
- C. Har bir bolaga yo'naltirilgan yondoshuvga rioya qilishi,

¹³ Masanmatova, F. (2021). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-HAJATLIY ASOSLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <http://psedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/2941>

unga yordam berishi, ijod qilish istagini qo'llab-quvvatlashi, uning harakatlarini xolisona baholashi kerak.

D.*B va C javoblar to'g'ri

2. Oldin yaratilgan taniqli usul va metodlarni birlashtirib o'tilgan har qanday amaliy mashg'ulotni ma'lum darajada ijodkorlik natijasi deyish mumkinmi?

A. Har bir mashg'ulotni tashkil qilish va o'tkazish ijodkorlikni talab qiladi.

B.Yo'q, ijodkorlik emas

C. O'qitishning yangi texnologiyalarini yaratadigan tarbiyachi bo'lishi kerak

D.* Buni ma'lum elementlardan yangi tizimni yaratish allaqachon ijodkorlikning namoyon bo'lishi bilan tasdiqlaydi

3. Tarbiyachining kasbiy mahorat darajasi nimaga bog'liq?

A. Pedagogik, ijtimoiy-psixologik, differentsial-psixologik malakasiga

B. Kasbiy va pedagogik fikrlashning rivojlanish darajasiga

C. Yangi pedagogik texnologiyalarni bilishiga

D.A va b javoblar to'g'ri

4. "O'qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo'y va bola tarbiyalash uslublarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim"-degan fikr qaysi allomaga tegishli?

A.Abu Nasr Forobiy

B.I.G.Pestalossi

C.*Abu Ali ibn Sino

D. Yusuf Xos Hojib

Nazorat savollari :

1.Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi faoliyatining boshqa soha pedagoglaridan farqli tomoni nimada?

2. Yevropa pedagog-olimlari tarbiyachi haqida qanday fikrlar bildirgan?

3.Sharq uyg'onish davri olimlari bu borada qanday fikrlari bor ?

4. Bolalarni tasviriy faoliyatga qiziqtirish uchun pedagogdan nimalar talab etiladi?

5. Kreativlik pedagogik faoliyatda qay darajada muhim?

6.Tarbiyachining kasbiy mahorat darajasi nimaga bog'liq?

7.Buyuk olim Yusuf Xos Xojib murabbiy haqida qanday fikrlarni bildirgan?

8. Nemis pedagog olimi I. G. Pestalossi tarbiyachi haqida nima degan ?

§6.Tarbiyachining mashg'ulotlarni tashkil qilishdagi kompetentligi

"Pedagogik kompetentsiya" tushunchasi zamonaviy jamiyatning rivojlanishi maktabgacha ta'limni tashkil etish, innovatsiyalar, yangi texnologiyalar va bolalar bilan ishlash usullarini jadal joriy etish uchun alohida shart-sharoitlarni talab qiladi. Bunday vaziyatda professional kompetentsiya, uning asosi pedagoglarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi hisoblanadi. Olimlar A.S. Belkin va V.V. Nesterov shunday deb hisoblaydi: "Pedagogik nuqtai nazardan, kompetentsiya - bu ta'lim sohasida samarali faoliyat uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadigan kasbiy vakolatlar, vazifalar to'plamidir".

Zamonaviy maktabgacha ta'lim sohasidagi pedagogning kasbiy kompetentsiyasi - bu unga maktabgacha ta'lim muassasasining psixologik-pedagogik jarayonida yuzaga keladigan ma'lum bir dastur va maxsus vaziyatlarni yengishga imkon beradigan universal va o'ziga xos kasbiy munosabatlar yig'indisi sifatida belgilanadi. **Kompetenlik** - kasbiy mahorat belgisi sifatida pedagogdan talab qilinayotgan xususiyatdir. "Kompetentlik" so'zining ma'nosi sabardorlik, obro', o'z sohasi bo'yicha keng qamrovli tushuncha va tajribaga ega bo'lish bilan belgilanadi. Kompetentsiya-shaxsiy sifat bo'lib, turli xil vaziyatda pedagogik faoliyat va ijtimoiy hayotda ifodalanadigan qobiliyat, bilim, ko'nikma va malaka hisoblanadi.

Kompetentsiya (lotincha competentio - competo - harakat qilaman, mos kelaman, yaqinlashaman) - mutaxassisning ma'lum bir sinfdagi kasbiy vazifalarni hal qilishdagi shaxsiy qobiliyati. Kompetentsiya deganda kompaniya xodimlarining (yoki ayrim xodimlar guruhi uchun) shaxsiy, kasbiy va hokazo sifatlariga nisbatan rasmiy tavsiflangan talablar tushuniladi. Kompetensiya - bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir. U bilim mahsuli

bo'lib, mutaxassis tomonidan uni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Kompetensiyaning bilimdan farqi shundaki, vazifani amaliy bajarmasdan turib, uni aniqlab ham, baholab ham bo'lmaydi. Keng ma'noda kompetensiya masalaning, shuningdek, muayyan bilim sohasining mohiyatini muvafaqqiyatli hal eishda amaliy tajribaga asoslanib, bilim va ko'nikmalarni qo'llay olish qobiliyatidir. Ta'limda kompetentlik bilan yondashuv o'quvchilarni turli ko'nikmalarni egallash, kelajakda ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy hayotlarida samarali harakat qilishga yo'naltiradi.¹⁴

Pedagogik kompetensiya

bu tizimli hodisa bo'lib, uning mohiyati pedagogning sohasi bo'yicha bilimlari, tajribasi, xususiyatlari va fazilatlarining tizimli birligidan iborat bo'lib, ular pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirishga, pedagogik muloqot jarayonini maqsadli tashkil etishga imkon beradi, shuningdek, shaxsiy rivojlanishni va pedagogning malakasini oshirishni nazarda tutadi.



Pedagogning kasbiy kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- **intellektual-pedagogik kompetensiya** – olingan bilim, tajribani samarali o'qitish va tarbiyalash uchun kasbiy faoliyatda qo'llash qobiliyati, o'qituvchining yangilik kiritish qobiliyati;
- **axborot kompetensiyasi** – o'qituvchining o'zi, o'quvchilari, ota-onalari va hamkasblari haqidagi ma'lumotlari miqdori.
- **tartibga solish kompetensiyasi** - o'qituvchining o'z xatti-harakatlarini boshqarish, his-tuyg'ularini nazorat qilish qobiliyati, fikrlash qobiliyati, stressga chidamliligi.
- **kommunikativ kompetensiya** - muhim kasbiy sifat, jumladan nutq qobiliyatlari, tinglash qobiliyatlari, ekstraversiya (shaxsning

¹⁴ Academic Research in Educational Sciences. "Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning asosiy jihatlari" Samaridin Barakayevich Qorayev Chirchiq davlat pedagogika instituti dotsenti, Nodir Ilxomovich Tirkashev mustaqil tadqiqotchi

tashqi dunyoga katta qiziqish bilan tavsiflangan sifati), empatiya (empatiya, boshqasini tushunish).

- o'quvchilarning ota-onalari bilan to'g'ri muloqot qilish qobiliyati asosiy va qiyin kasbiy kompetensiyalardan biridir.

Pedagog kompetensiyasini sifatli shakllantirish uchun o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida takomillashtiriladigan asosiy bilim, ko'nikma va malakalar kerak.

Pedagog quyidagi yo'nalishlarda faoliyatni tashkil etish va mazmuni bo'yicha malakali bo'lishi kerak:

- ta'limiy - tarbiyaviy;
- o'quv - uslubiy;
- ijtimoiy-pedagogik.

• **Ta'limiy - tarbiyaviy** faoliyat quyidagi kompetensiya mezonlarini o'z ichiga oladi: yaxlit pedagogik jarayonni amalga oshirish; rivojlanayotgan muhitni yaratish; bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni ta'minlash. Ushbu mezonlar pedagogning kompetensiyasining quyidagi ko'rsatkichlari bilan mustahkamlanadi: maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va tarbiyalashning maqsadlari, vazifalari, mazmuni, tamoyillari, shakllari, usullari va vositalarini bilish; ta'lim dasturiga muvofiq bilim, ko'nikma va malakalarni samarali shakllantirish qobiliyati; maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyatini boshqarish qobiliyati; maktabgacha yoshdagi bolalar bilan muloqot qilish qobiliyati.

• **Pedagogning o'quv-uslubiy** faoliyati kompetensiyasi quyidagi mezonlarini o'z ichiga oladi: tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish; erishilgan natijalarni tahlil qilish asosida pedagogik faoliyatni loyihalash. Ushbu mezonlar kompetensiyaning quyidagi ko'rsatkichlari bilan qo'llab-quvvatlanadi: bolalar faoliyatining har bir turini rivojlantirish bo'yicha ta'lim dasturi va metodologiyasini bilish; yaxlit pedagogik jarayonni loyihalash, rejalashtirish va amalga oshirish qobiliyati; tadqiqot texnologiyalari, pedagogik monitoring, bolalarni o'qitish va tarbiyalashga ega bo'lish.

• **Pedagogning ijtimoiy-pedagogik** faoliyati quyidagi kompetensiya mezonlarini nazarda tutadi: ota-onalarga maslahat yordami; bolalarni ijtimoiylashtirish uchun sharoit yaratish; bolalar manfaatlari va huquqlarini himoya qilish. Ushbu mezonlar quyidagi

ko'rsatkichlar bilan quvvatlanadi: bolaning huquqlari va kattalarning bolalar oldidagi majburiyatlari bo'yicha asosiy hujjatlarni bilish; ota-onalar, maktabgacha ta'lim muassasalari mutaxassislari bilan tushuntirish-pedagogik ishlarni olib borish qobiliyati. Ammo sanab o'tilgan usullarning hech biri samarali bo'lmaydi, agar o'qituvchining o'zi o'z kasbiy mahoratini oshirish zarurligini anglamasa. Buning uchun pedagog o'z kasbiy fazilatlari darajasini oshirish zarurligini qanday sharoitlarni yaratish kerakligini mustaqil ravishda anglashi lozim. O'z pedagogik tajribasini tahlil qilish o'qituvchining kasbiy o'zini-o'zi rivojlanishini faollashtiradi, buning natijasida tadqiqot faoliyati ko'nikmalari shakllanadi, keyinchalik ular pedagogik faoliyat bilan birlashtiriladi.¹⁵

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar:

Kompetentsiya- (lotincha competentio - competo - harakat qilaman, mos kelaman, yaqinlashaman) - mutaxassisning ma'lum bir sinfdagi kasbiy vazifalarni hal qilishdagi shaxsiy qobiliyati.

Pedagogik kompetentsiya- bu tizimli hodisa bo'lib, uning mohiyati pedagogning sohasi bo'yicha bilimlari, tajribasi, xususiyatlari va fazilatlarining tizimli birligidan iborat bo'lib, ular pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirishga, pedagogik muloqot jarayonini maqsadli tashkil etishga imkon beradi, shuningdek, shaxsiy rivojlanishni va pedagogning malakasini oshirishni nazarda tutadi.

Ta'limiy - tarbiyaviy faoliyat- quyidagi kompetentsiya mezonlarini o'z ichiga oladi: yaxlit pedagogik jarayonni amalga oshirish; rivojlanayotgan muhitni yaratish; bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni ta'minlash.

Pedagogning o'quv-uslubiy faoliyati -bu quyidagi mezonlarini o'z ichiga oladi: tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish; erishilgan natijalarni tahlil qilish asosida pedagogik faoliyatni loyihalash.

¹⁵ "Педагогическая компетентность воспитателя ДОУ. Хакимова Т.Ф., воспитатель МАДОУ №106 "Забавы" г. Набережные Челны, РТ. <https://doshvozrast.ru/metodich/konsultac153.htm>

Pedagogning ijtimoiy-pedagogik faoliyati- quyidagi kompetentsiya mezonlarini nazarda tutadi: ota-onalarga maslahat yordami; bolalarni ijtimoiylashtirish uchun sharoit yaratish; bolalar manfaatlari va huquqlarini himoya qilish. Ushbu mezonlar quyidagi ko'rsatkichlar bilan quvvatlanadi: bolaning huquqlari va kattalarning bolalar oldidagi majburiyatlari bo'yicha asosiy hujjatlarni bilish; ota-onalar, maktabgacha ta'lim muassasalari mutaxassislari bilan tushuntirish-pedagogik ishlarni olib borish qobiliyati.

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:

1. Zamonaviy maktabgacha ta'lim sohasidagi pedagogning kasbiy kompetentsiyasi – bu:

- A. Psixologik-pedagogik jarayonida yuzaga keladigan ma'lum bir dastur va maxsus vaziyatlarni yengishga imkon beradigan universal va o'ziga xos kasbiy munosabatlar yig'indisi;
- B. Kasbiy mahorat belgisi sifatida pedagogdan talab qilinayotgan xususiyatlar;
- C. Lotincha "competentio" - competo - harakat qilaman, mos kelaman, yaqinlashaman
- D. A va B javoblardagi ta'riflar to'g'ri

2. Pedagogning kasbiy kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlari qaysilar?

- A. Ta'limiy – tarbiyaviy, o'quv – uslubiy, ijtimoiy-pedagogik.
- B. intellektual-pedagogik kompetentsiya, axborot kompetensiyasi,
- C. B va D javoblar to'g'ri
- D. Tartibga solish kompetensiyasi, kommunikativ kompetentsiya

3. Pedagogning o'z xatti-harakatlarini boshqarish, his-tuyg'ularini nazorat qilish qobiliyati qaysi kompetentsiya turiga kiradi?

- A. Axborot kompetensiyasi
- B. Kommunikativ kompetentsiya
- C. Tartibga solish kompetensiyasi
- D. intellektual-pedagogik kompetentsiya

4. Pedagogik kompetentsiya nima?

A. Pedagogning sohasi bo'yicha bilimlari, tajribasi, xususiyatlari va fazilatlarining tizimli birligi;

B. Pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirish, shaxsiy rivojlanishni va pedagogning malakasini oshirish;

C. Sifatli ta'lim berish

D. A va B javoblar to'g'ri

Nazorat savollari :

1. Zamonaviy tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi deganda nima tushunasiz?
2. Pedagogik kompetentsiya nima?
3. Pedagogning kasbiy kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
4. O'qituvchi kasbining qaysi faoliyatlari bo'yicha malakali bo'lishi kerak?
5. "Kompetentsiya" so'zining lug'aviy ma'nosi nima?
6. Pedagogning ta'lim-tarbiyaviy faoliyati nima?
7. Pedagogning o'quv-uslubiy faoliyatiga nimalar kiradi?
8. Pedagogning ijtimoiy-pedagogik faoliyati qanday mezonlarni o'z ichiga oladi?

III-BOB BO'YICHA XULOSA

Pedagoglik kasbi jamiyatimizdagi eng mas'uliyatli kasblardan biri hisoblanadi. Sababi pedagogning kasbi jarayonidagi bitta xatosi, shifokorning bitta noto'g'ri tashxisidan ko'ra jamiyatga ko'proq zarar keltirishi mumkin. Tarbiyachining kasbiy mahorat darajasi uning malakasiga (pedagogik, ijtimoiy-psixologik, differentsial-psixologik), shuningdek, kasbiy va pedagogik fikrlashning rivojlanish darajasiga bog'liq. Pedagogik ijodkorlik yuqori kasbiy va pedagogik kompetensiyaga asoslangan bo'lsa samarali bo'ladi.

Bolalarni tasviriyl faoliyatga qiziqtirish uchun pedagogning o'zi tasviriyl san'atni badiiy va ifodali vositalarini bilishi va tushunishi kerak. Tarbiyachi tasviriyl faoliyatga qiziqtirish uchun har bir bolaga yo'naltirilgan yondoshuvga rioya qilishi, unga yordam berishi, ijod qilish istagini qo'llab-quvvatlashi, uning harakatlarini xolisona baholashi kerak. Tasviriyl faoliyat mashg'ulotlarida bolalar

qiziqishlarini, imkoniyatlarini kuzatish orqali pedagog yangi mashg'ulotni rejalashtirishiga yordam beradi.

Pedagogning bolalar faoliyatiga rahbarligi ko'rsatmalar, buyruqlar shaklida bo'lmasligi, balki shunday ishlash kerakki bolalarning qiziqishini uyg'otadigan va ularning e'tiborini keying tadqiqotlarga qaratadigan bo'lishi kerak.

Har bir pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq.

Tarbiyachining tasviriyl faoliyat mashg'ulotlarini qay darajada qiziqarli va samarali tashkil eta olishi uning ta'limiy - tarbiyaviyl, o'quv - uslubiy yo'nalishlar bo'yicha kompetentlik darajasiga bog'liq.

IV BOB

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TASVIRIY FAOLIYATGA O'RGATISHNING METOD VA USULLARI

§7. Tasviriy faoliyatga o'rgatishning ko'rgazmali, o'gzaki, amaliy va evristik metodlari. O'yin orqali o'rgatish usullari

Ta'lim va tarbiyaning muvaffaqiyati ko'p jihatdan tariyachining ma'lum bir bilim, ko'nikmani bolalarga etkaza olishi, ularning bilim, ko'nikmalarini shakllantirish va muayyan faoliyat sohasidagi qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qanday usul va usullardan foydalanishiga bog'liq. **Metod-** (lotincha metodus - yo'l so'zidan) - tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot deb tarjima qilinadi. Metod - o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li. **Ta'lim usuli** - o'qitish metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog'lanadi. Usullar yordamida faqat o'quv vazifasining bir qismi hal qilinadi.¹⁶

O'rgatish metodlari — pedagogikada qabul qilingan ta'rifga ko'ra, qo'yilgan masalani yechish uchun tanlangan yagona yo'l sifatida ta'riflanadi. U mashg'ulotdagi bolaning va tarbiyachining butun faoliyatini o'rgatish usullari ayrim yordamchi vosita bo'lib, mashg'ulotdagi faoliyatning xususiyatini aniqlamaydi, u ta'limda tor ma'nodagi ahamiyatga ega.

Tasviriy faoliyat metodlari asosan an'anaviy uchta metodga ajratilar edi:

- ❖ ko'rgazmali;
- ❖ og'zaki;
- ❖ amaliy.

Ko'rgazmali metod va o'rgatish usullari

Kuzatish metodi tasviriy faoliyatga o'rgatish tizimining umumiy asosini tashkil qiladi. Chunki u atrof-muhitni o'rganishda, bilish



hamda uni aks ettirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Bolalarda qanchalik kuzatish, atrof-olam ko'rinishi bilan aloqa o'rnatish, umumiylik va yakkalikni ajratish malakasi rivojlangan bo'lsa, shunchalik bolalar ijodiy qobiliyatining rivojlanishi bog'liq bo'ladi.

Ko'rgazmali metod va o'rgatish usullariga naturadan, rasm reproduksiyalaridan, namunadan, boshqa ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanish, alohida predmetlarni ko'rib chiqish, tarbiyachi tomonidan tasviriy usullarini ko'rsatib berish, bolalarning bajaragan ishlarini mashg'ulot yakunida ko'rsatish, ularni baholash kerak.

Naturadan foydalanish.

Tasviriy san'atda naturadan foydalanish deganda, kuzatish asosida predmet yoki ko'rinishning tasviri tushuniladi. Bunda asosiy tomoshabinning idroki bo'lib, tekislikda tasvirlangan predmet (rasm, applikasiya) faqat bir tomondan idrok qilinadi; buydan buyum yasaganda va qurish-yasashda bolalarda naturani o'g'rib qurish hamda hajm-shaklni turli xil burilishda tahlil qilish imkon bo'lishi kerak.

Natura xotiraning ishini yengillashtiradi, negaki tasviriy jarayon idrok bilan birlashadi, yana esa u predmetning shaklini, tuzilishini, rangini to'g'ri tushunib, yetkazib bera olishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sodda shaklli, aniq chizma va aniq qismlarga ajratilgan predmet natura sifatida tanlanadi. Naturani shunday joylashtirish kerakki, hamma bolalar shu naturani ayon bir xarakterli tomonidan qabul qilishlari kerak. Masalan, bolalar mashinani yon tomonidan, qo'g'irchoqni oldidan chizadilar va bunda hajmini yetkazib berolmaydilar. Agar guruhda bolalar soni ko'p bo'lsa, barchasiga teng ko'rinishi uchun 2-3 ta bir xil predmet qo'yiladi. Tarbiyachi naturani bolalar bilan birgalikda detallarga ajratib ko'rib chiqadi, bunda u tahlil jarayonini osonlashtirib, o'z so'zlari, harakatlari bilan yo'naltiradi. Bu jarayon ma'lum bir idrok madaniyatini, rivojlangan analitik fikr yuritishni talab qiladi. Bunday ko'nikmalar bolalarda 5-6 yoshda rivojlana boshlaydi. Bu yoshda bolalar tasvirlayotgan ishlarini naturaga nisbatan taqqoslashga urindilar.

¹⁶ B.X.Xodjayev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" darslik. «Sano-standart» nashriyoti Toshkent - 2017


Shunday qilib, o'rgatish metodi sifatida naturadan foydalanish tasvirlashning butun jarayonini o'z ichiga mujassamlashtiradi:

- * predmetning birlamchi tahlili:
- * tasvirni naturaga nisbatan taqqoslash:
- * natijaning shaklini, holatini, rangini taqqoslash:
- * natijadagi rasm va naturani taqqoslash yo'li bilan baholash:

Namunadan foydalanish.

Namunadan foydalanish ko'proq o'rgatish usuliga taalluqlidir. Namuna o'rgatish metodi sifatida tasviriy faoliyatning shunday turlaridan foydalaniladiki, qayerda atrofni idrok qilish taassurotini mustahkamlash maqsadi emas, balki shu faoliyatning ayrim alohida momentlarini rivojlantirish masalasi turadi. Ko'proq dekorativ va konstruktiv (applikatsiya) ishlarida foydalaniladi.

Dekorativ naqshni hosil qilish usuliga o'rgatish — badiiy didni rivojlantirishdir. Bolalarning umumiy estetik didlarini oshirish uchun chiroyli predmetlarni tomosha qildirish kerak. Masalan,



gilamlar, vazalar, kashtalar va hokazo. Dekorativ rasm chizish mashg'ulotlarida bolalar ko'rgan predmetlarini aks ettirib, ulardagi naqshlarni qayta chizibgina qolmay, balki mustaqil ravishda naqshlarni aks ettirib, yorqin rang va shakllarni moslashtirib chizishni ham

o'rganadilar. Shuning uchun boshlang'ich bosqichda bolalar namunadan naqsh elementlarini chizib oladilar, keyinchalik elementlarning o'rnini va rangini o'zgartirib boradilar.

Rasmlardan foydalanish.

Rasmlar asosan bolalarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini aniqlash uchun va tasviriy usullarini, vositalarini tushuntirish uchun xizmat qiladi. Rasmlardan foydalanish qayta idrok qilishga va keyingi tasvir uchun xarakterli bo'lgan eng asosiysini aniqlashga yordam beradi. Rasmni ko'ra turib, bola yerni bir chiziq bilan emas, balki keng yer bo'lagi bilan chizishni, uzoqlashayotgan predmetlar yuqoriroqda, yaqindagilari pastroqda va qog'oz chetiga joylashishini

tushunib yetadi. Rasm mashg'ulot davomida bolalar oldida qoldirilsa, bolalar tushunib yetmay nusxa ko'chirishga o'rganib qoladilar. Bu yoshda esa bolalar nusxa ko'chirish bilan emas, balki qog'oz bilan rasm chizishlari kerak. Ba'zida mashg'ulot davomida bolalarga ayrim detallarni aniqlab olish uchun rasmni ko'rsatish kerak bo'ladi. Keyin esa rasm olib qo'yiladi, chunki bolalar nusxa ko'chira boshlaydilar.

Tarbiyachi tomonidan ishlash usulini ko'rsatib berish.

Maktabgacha ta'lim muassasida ta'lim jarayoni bolalar o'rganishi kerak bo'lgan tasviriy ko'nikma va malakalarning o'lchamini aniqlab beradi. Keng bo'lmagan doiradagi malakaga ega bo'lgan bola turli xil predmetlarni tasvirlay oladi. Masalan, uyni chizish uchun, to'g'ri to'rtburchak shaklini chizishni bilish, ya'ni chiziqlarni to'g'ri burchak ostida birlashtirishni bilish kerak. Ana shu chizish usullari mashina, poyezd va boshqa to'g'ri to'rtburchakli predmetlarni chizishda qo'llaniladi. Tarbiyachi tasviriy vositalarini ko'rsatib berishi ko'lgazmali amaliy usul bo'lib, bu usul bolalarni kerakli shaklni aniq tajriba asosida ongli ravishda chizishga o'rgatadi.

Ko'rsatma 2 xil turda bo'ladi:

- 1) Imo-ishora bilan ko'rsatish;
- 2) chizish usuli bilan ko'rsatish.

Har ikkala turida ham ko'rsatma og'zaki tushuntirish yo'li bilan olib boriladi. Imo-ishora bilan predmetning qog'ozda joylashishi tushuntiriladi. Qo'lning yoki qalamning qog'oz bo'ylab harakati, hatto 3—4 yoshli bolalar uchun yetarli bo'ladi. Imo-ishora orqali bola xotirasidagi qiyin bo'lmagan predmetning asosiy shaklini yoki uning alohida qismlarini eslaydi.

Bolalar biror predmet yoki hodisani tarbiyachining qaysi harakat ishorasi orqali idrok qilgan bo'lsalar, xuddi shu harakat-ishorani tarbiyachi mashg'ulotda qaytarsa, bolalar ko'rganlari bilan chizmoqchi bo'lganlari o'rtasida aloqadorlikni ongli ravishda sezadilar.

Kichik guruhdagi bolaning harakatlari yaxshi rivojlanmagan bo'lsa va bola o'z harakatlarini



boshqara olmasa, tarbiyachil bolaning qo'lini ushlab, birgalikda harakat bilan chizadi. Bunday ish usuli shu harakatlarini o'zi his qilishi uchun qo'llaniladi. Agarda predmetning shakli murakkab bo'lmasa, ishora bilan butun predmetni chizish mumkin. Masalan, koptok, kitob yoki olma shaklining detallarini, archa shoxining joylashishi, qush bo'ynining qiyaligi.

Og'zaki metod va o'rgatish usullari. Tasviriy faoliyatda tarbiyachining mashg'ulotdagi doimo bolalar bilan suhbatidan boshlanadi. Suhbatning maqsadi bolalar xotirasidagi avvalgi idrok qilingan obrazlarni qayta esga olish va mashg'ulotga bo'lgan qiziqishini uyg'otishdir. Bolalar o'z tasavvurlari asosida ijod qiladigan mashg'ulotlarda suhbatning roli kattadir.

Suhbat bolalar yoshiga mos qisqa, mazmunli va his-hayajonli bo'lishi kerak. Tarbiyachi asosiy diqqatini mashg'ulotda qilinadigan ishga qaratadi. Suhbat o'rgatish metodi sifatida 4—7 yoshli bolalar bilan ishlashda asosiy rol o'ynaydi. Kichik guruhlarda suhbat bolalar tasvirlashi kerak bo'lgan predmetni eslatish uchun yoki yangi ish usulini o'rgatish uchun kerak bo'ladi. Bunday hollarda suhbat tasvirining maqsadini va vazifalarini bolalarga yaxshiroq tushuntirish uchun xizmat qiladi. Bolalarning tasavvurlari va hissiyotlari tez jonlanib, ijodiy kayfiyatlari tez yo'qolib qolmasligi uchun suhbat metod sifatida ham, usul sifatida ham qisqa va 3—5 daqiqadan oshmasligi kerak. Yaxshi uyushtirilgan suhbat mashg'ulotda maqsadga yaxshi erishish uchun qulay sharoit yaratadi.

Badiiy adabiyotning obrazlaridan foydalanish. Ifodali o'qilgan badiiy asar ijodiy kayfiyatning oshishiga, tafakkurning, xayolning faol ishlashiga yordam beradi. Shu maqsad bilan badiiy so'zdan



faqatgina ifodali o'qish mashg'ulotlarida emas, balki predmetlarni idrok qilgandan so'ng tasviriy jarayonlarda ham foydalaniladi.

Amaliy metodlar. Tasviriy san'atga o'rgatish mobaynida bolalar turli materiallardan foydalanish ko'nikmasiga ega

bo'ladilar. Rasm chizish, loydan buyum yasash, applikatsiya turli metodlardan hamda o'rgatish usullaridan foydalanishni talab qiladi, shu jumladan, bolalarda ko'nikma, malakalarni hosil qiladigan amaliy metodlardan ham foydalanish talab qilinadi. Amaliy metodlardan asosiysi bo'lmish texnik va ba'zan tasviriy malakalarni o'rgatadigan mashqlardir.

Kichik guruhda bu mashqlar bolalar uchun zerikarli emas, chunki yumaloq shaklli predmetlarni yasashni o'rganib, bolalar koptokni, olmani, apelsinni va shu kabi predmetlarni yasaydilar. Yo'llarni, yomg'irlarni chizib, ular gorizontal va vertikal chiziqlarni chizishni mashq qiladilar.

O'yinli o'rgatish usullari. Tasviriy faoliyatda o'yin momentlaridan foydalanish ko'rgazmali amaliy o'rgatish usuliga kiradi. Bola qancha kichik bo'lsa, o'yin uning tarbiyasida shuncha katta o'rin tutadi. O'yin usullari qo'yilgan masalaga nisbatan bolaning ishga diqqatini yaxshi jalb qiladi va xayol bilan tafakkurning ishini yengillashtiradi. O'yin usullari kichik guruh uchun birinchi marta E.A.Flerina tomonidan tashkil qilingan. keyinchalik A.A. Volkova. T.G. Kazakova tomonidan davom ettirilib. T.G.Kazakova tomonidan kichik bog'cha bolalari uchun har bir mashg'ulotni o'yin obrazi bilan bolaga katta bir sistema ishlab chiqildi.

Kichik yoshdagi bolalar uchun o'yin mashqlaridan rasm chizishda keng foydalaniladi. Maqsad bolalarning oddiy chiziqli shakllarni chizishga o'rgatish hamda qo'l harakatlarini rivojlantirishdir. Bolalar tarbiyachining ortidan qo'llari bilan havoda. so'ng qog'ozda turli chiziqlarni chizadilar¹⁷.

So'nggi yillarda tasviriy faoliyatga o'rgatish metodlarining yangi tasnifi ishlab chiqildi. **Yangi tasnif mualliflari: Lerner I.Ya., Skatkin M.N. Ular quyidagi o'qitish metodlarni ishlab chiqqan:**

- axborot – reseptiv (qabul qiluvchi);
- reproduktiv;
- tadqiqot;
- evristik;
- muammoli taqdim etish metodi

Axborotni reseptiv metodi quyidagi usullarni o'z ichiga oladi:

¹⁷ M.Sh. Nurmatova, Sh.T. Hasanova "Rasm-buyumlar yasash va tasviriy faoliyat metodikasi" Toshkent "Musika" nashriyoti. 2010yil

- * ko'rish;
- * kuzatuv;
- * ekskursiya;
- * o'qituvchi namunasi;
- * o'qituvchini ko'rsatmasi.

Axborot-reseptiv usul bolalar tomonidan yangi tayyor ma'lumotlarni idrok etish, anglash va esda saqlashni tashkil etish va ta'minlashga qaratilgan. Bu o'qituvchining tayyor ma'lumotni turli xil vositalar bilan etkazishi va bolalar tinglashi, qarashi, his qilishi, o'qishi, kuzatishi, yangi ma'lumotni ilgari o'rganilgan ma'lumotlar bilan bog'lashi va eslab qolishidan iborat.

Reproduktiv metod - bu bilimlarni va bolalar mahoratni mustahkamlashga qaratilgan metod. Bu ko'nikmalarni avtomatizmga olib keladigan mashqlar usuli. Reproduktiv usul bilimlarni, amaliy bilim usullarini mustahkamlash, aniqlashtirish, chuqurlashtirishga qaratilgan; mohiyati va mazmuni allaqachon ma'lum bo'lgan faoliyat usullarini o'zlashtirish. Qayta ijro etish faoliyat usullari nafaqat qo'llash, balki ular asosidagi bilimlarni chuqurlashtirish, qisman kengaytirish va shu bilan ularning mustahkam o'zlashtirilishini ta'minlash imkonini beradi. Bunga quyidagilar kiradi:

- * takrorlash;
- * qoralama ustida ishlash;
- * qo'lda shakl hosil qilish harakatlarini bajarish.

Tadqiqot metodi - nafaqat bolalarda rivojlanishga qaratilgan mustaqillik, balki tasavvur va ijodkorlik ham. O'qituvchi biron bir qismni emas, balki barcha ishni mustaqil ravishda bajarishni taklif qiladi.

Evristik metod. Evristik metod grekcha so'zdan kelib chiqqan bo'lib. «Evrastika» — haqiqatni topish san'atidir. Bu metod topqirlikni, faollikni rivojlantirishga yordam beradi. Tarbiyachining vazifasi bolalarning tasviriy faoliyatini shunday tashkil qilish kerakki, u faol va ijodiy bo'lsin. Har bir mashg'ulot faqatgina didaktik vazifani emas, ya'ni ma'lum bir predmetning tasvirini o'rgatish emas, balki boladan ishni mustaqil bajarishni ham talab qiladi. Shu maqsad bilan tarbiyachi turli xil usullardan foydalanishi mumkin: maslahat, maqto'v, topshiriqni bajarish usulining

ko'rsatmasi (to'liq bo'lmagan), o'yinchoq ko'rsatmasi, eslatma va shu kabilar. Bolani shunday holatga qo'yish kerakki, u o'ylagan o'yini bajarishi uchun o'zi yo'l topsin.

Shunday qilib, u yoki bu metod va usullarni tanlash quyidagilarga bog'liqdir:

- * mashg'ulot mazmuniga va mashg'ulot oldida turgan maqsadga, shu bilan birga, tasviriy faoliyatning vazifalariga;
- * bolalarning yoshi va rivojlanish darajasiga;
- * bolalar foydalanadigan tasviriy materiallariga bog'liqdir.

Mashg'ulotda alohida metod va usullar — ko'rgazmali va og'zaklari o'zaro qo'shiladi, mujassamlashtiriladi va bir-biriga umumiy ta'lim jarayonida bog'lanadi. Ko'rgazmalilik bolalar tasviriy faoliyatining moddiy, hissiy asosini yangilaydi, so'z esa to'g'ri tasavvurni, tahlilni, idrok qilinganlarini va tasvirlayotganlarini umumlashtirishning shakllanishiga yordam beradi,

Evristik metod - evristika (yun. peshtzko — izlayman, topaman) guruhdagi ishning biror bir daqiqasida mustaqillikning namoyon bo'lishiga qaratilgan metod bo'lib, ya'ni unda pedagog boladan ishning bir qismini mustaqil ravishda o'zi bajarishini so'raydi. Evristik bolalar tomonidan guruhdagi ishning har qanday daqiqasida mustaqillikni namoyon etishga qaratilgan, ya'ni, pedagog boladan ishning bir qismini mustaqil ravishda bajarishni so'raydi. Evristik metod tadqiqot usulini muvaffaqiyatli qo'llashning zaruriy sharti bo'lib, u integral muammolar, talabalarning izlanish, ijodiy faoliyatini tashkil etishni mustaqil hal qilishni nazarda tutadi

Muammoli metod - amaliy va nazariy bilish xarakteriga ega bo'lgan muammoli vaziyatlarni yechish jarayonida o'quvchilarning evristik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning ta'limning muammoli mazmuni bilan faol o'zaro ta'siri uchun tashkil etilgan usul bo'lib, uning davomida u ilmiy bilimlarning ob'ektiv qarama-qarshiliklariga bog'lanadi. ularni yechish yo'llarini o'rganadi, fikrlashni va bilimlarni ijodiy egallashni o'rganadi

Pedagog-olimlarning fikriga ko'ra, muammoni taqdim etish metodi maktabgacha yoshdagi bolalarni va kichik yoshdagi bolalarni

o'qitishda qo'llanilmaydi: u faqat katta yoshdagi o'quvchilar uchun qo'llaniladi

Ayrim metodlar mashg'ulot ishining umumiy yo'nalishini aniqlamay, balki usul sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, mashg'ulot boshida she'r (hikoya) o'qish beriladigan vazifaga bolalarning qiziqishini uyg'otish uchun o'qilsa, boshqa mashg'ulotlarda esa she'r o'qish tarbiyachi uchun xizmat qiladi, ya'ni mashg'ulot boshlanishini tashkil qilish uchun qo'llaniladi.

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar:

O'rgatish metodlari- pedagogikada qabul qilingan ta'rifga ko'ra, qo'yilgan masalani yechish uchun tanlangan yagona yo'l sifatida ta'riflanadi. U mashg'ulotdagi bolaning va tarbiyachining butun faoliyatini o'rgatish usullari ayrim yordamchi vosita bo'lib, mashg'ulotdagi faoliyatning xususiyatini aniqlamaydi, u ta'limda tor ma'nodagi ahamiyatga ega.

Ko'rgazmali metod- - naturadan, rasm reproduksiyalaridan, namunadan, boshqa ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanish, alohida predmetlarni ko'rib chiqish, tarbiyachi tomonidan tasviriyl usullarini ko'rsatib berish, bolalarning bajargan ishlarini mashg'ulot yakunida ko'rsatish, ularni baholash kiradi.

Og'zaki metod- bu suhbat bolalar tasvirlashi kerak bo'lgan predmetni eslatish uchun yoki yangi ish usulini o'rgatish uchun kerak bo'ladi. Bunday hollarda suhbat tasvirining maqsadini va vazifalarini bolalarga yaxshiroq tushuntirish uchun xizmat qiladi.

Evristik metod- grekcha so'zdan kelib chiqqan bo'lib. «Evrastika» — haqiqatni topish san'atidir. Bu metod topqirlikni, faollikni rivojlantirishga yordam beradi.

Amaliy metodlar- rasm chizish, loydan buyum yasash, applikasiya turli metodlardan hamda o'rgatish usullaridan foydalanishni talab qiladi, shu jumladan, bolalarda ko'nikma, malakalarni hosil qiladigan amaliy metodlardan ham foydalanish talab qilinadi.

Reproduktiv metod- bu bilimlarni va bolalar mahoratni mustahkamlashga qaratilgan metod. Bu ko'nikmalarni avtomatizmga olib keladigan mashqlar usuli. Reprodukativ usul

bilimlarni, amaliy bilim usullarini mustahkamlash, aniqlashtirish, chuqurlashtirishga qaratilgan; mohiyati va mazmuni allaqachon ma'lum bo'lgan faoliyat usullarini o'zlashtirish.

Mavzu bo'yicha test topshiriqlari:

1. Tasviriyl faoliyatning an'anaviyl metodlariga qaysi metodlar kiradi?

- A. Suhbat, hikoya, ko'rgazmali
- B. Amaliyl, badiiyl, ko'rgazmali
- C. ko'rgazmali, og'zaki, amaliyl.
- D. Ekskursiya, ko'rgazmali, amaliyl

2. Yangi tasnif mualliflari: Lerner I.Ya., Skatkin M.N. lar ishlab chiqqan o'qitish metodlari berilgan qatorni toping?

- A. Axborot – reseptiv (qabul qiluvchi), reproduktiv, tadqiqot, suhbat;
- B. Evristik, muammoli taqdim etish metodi,
- C. Axborot – reseptiv (qabul qiluvchi), reproduktiv, tadqiqot, evristik, muammoli taqdim etish metodi;
- D. Suhbat, hikoya, ko'rgazmali.

3. Evristik metod nima?

- A. Bilimlarni va bolalar mahoratni mustahkamlashga qaratilgan metod.
- B. O'yinga asoslangan metod
- C. Bu metod topqirlikni, faollikni rivojlantirishga yordam beradi.
- D. Ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanish.

4. Axborotni reseptiv metodi qaysi usullarni o'z ichiga oladi?

- A. ko'rish, kuzatuv, ekskursiya;
- B. o'qituvchi namunasi, o'qituvchini ko'rsatmasi.
- C. takrorlash, qoralama ustida ishlash
- D. A va B javoblar to'g'ri

Nazorat savollari :

- 1. Tasviriyl faoliyatga o'rgatishning necha xil metodlari bor?
- 2. Tasviriyl faoliyatga o'rgatish metodlari qanday usullarni o'z ichiga oladi?

3. Ko'rgazmali metod qaysi o'rgatish usullarini o'z ichiga oladi?
4. Amaliy o'rgatish usuli deganda nimani tushunasiz?
5. Ta'lim metodi nima?
6. Metod va usulning qanday farqi bor?
7. Axborot- reseptiv metod nima?
8. Evristik metodning alohida jihati qanday?

§8. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini yashkil etishda STEAM texnologiyasidan foydalanish

STEAM texnologiyasi.

STEAM- hozirgi kunda dunyo ta'lim tizimining eng asosiy ommalashayotgan innovatsion metodlaridan biri bo'lib, ushbu metod yordamida fanlar alohida emas, balki integratsiyalashgan holda bog'langan holda o'rgatiladi. Hozirgi vaqtda bizning dunyomizni texnologiyasiz tasavvur etishning iloji yo'q. Bundan keyin ham texnologik rivojlanish davom etadi va STEAM ko'nikmalari bu- rivojlanishning asosi bo'lib xizmat qilishi global ta'limda e'tirof etilmoqda. STEAM yondashuvining asosiy g'oyasi amaliyot va nazariyani birlashtirishga asoslanadi. Ya'ni, o'rganish davomida biz nafaqat miyamiz, balki qo'llarimiz bilan ham ishlashimiz kerak. Ta'lim faqat sinf devorlari ichida tez o'zgarib turadigan dunyoga mos kelmaydi. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bu yerda bolalar turli fanlarni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyasidan, ham qo'llaridan foydalanadilar. Ular olgan bilimlarini o'zlari "chiqarib" oladilar. STEAM yondashuvi nafaqat o'rganish usuli, balki fikrlash usulidir. STEAM ta'limi bolalarni ilhomlantiradi. STEAM- bolalarning intellektual qobiliyatlarini ilmiy va texnologik ijodkorlikka jalb qilish imkoniyati bilan rivojlantiradi. Bolalar kashfiyotchilar va olimlar kabi tadqiqotlar olib borishadi, texnologiyalarning imkoniyatlarini bilishadi, muhandislar sifatida ijod qilishadi, matematiklar kabi fikrlashadi va albatta bolalar zavqlanib o'ynashadi. STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va undan qanday foydalanishni darhol o'rganadilar. Binobarin, ular voyaga yetib, real hayotda, xoh atrof-muhitning ifloslanishi, xoh global iqlim o'zgarishi

bo'ladimi, hayot muammolariga duch kelgach, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalaridagi bilimlarga tayanib, birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu erda faqat bitta fan bo'yicha bilimga tayanish yetarli emas. Biz yaxshi bilamizki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar faoliyati rivojlantiruvchi markazlarda tashkil etiladi. Bu markazlar quyidagilar:

- Til va nutq;
- Ilm fan va tabiat;
- San'at;
- Qurish-yasash va konstruksiyalash;
- Sujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish makazi;



Rivojlantiruvchi markazlar bolalar faoliyati mazmunini samarali tashkil etish uchun xizmat qiladi. Rivojlantiruvchi markazlar STEAM integratsiyalagan sohalarni o'zida aks ettiradi. Misol uchun ilm-fan va tabiat markazi-S-Science (Fan) bilan, san'at va sujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish makazi- A-Art (San'at) bilan, qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi-E- Engineering (Muhandislik) va M -Mathematics (Matematika) bilan hamohang. Bolalarni STEAMga jalb qilish, ushbu ta'lim maktabgacha yoshdan boshlab boshlanishi kerak, shuning uchun dasturlarni bolalar bog'chasiga kiritish zarur. STEAM ta'lim tizimi orqali bolada kreativlik, qund, qiziquvchanlik va hozirgi kunda eng muhim bo'lgan xususiyat- muammoni hal qilish qobiliyati shakllanadi. «STEAM fikrlash» bolalikdan boshlanadi.

STEAM yondashuvi bizning ta'lim va ta'limga bo'lgan qarashimizni o'zgartiradi. Amaliy qobiliyatlarga e'tibor qaratgan holda, o'quvchilar iroda, ijodkorlik, moslashuvchanlikni rivojlantiradilar va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganadilar. Bu nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirishning mantiqiy natijasidir.

Yaqin kelajakda yuqori texnologiyalar bilan bog'liq kasblar IT mutaxassislari, yuqori malakali muhandislar, dasturchilar va hali

mavjud bo'lmagan kasblar eng ko'p talab qilinadigan kasblarga aylanadi. Dunyo bo'yicha nafaqat nazariy bilimlarga, balki murakkab texnologik ob'ektlar bilan amaliy ishlash tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislariga talab yuqoriligicha qolmoqda.

STEAM Amerikada ishlab chiqilgan. Olimlar ba'zi maktablar bitiruvchilarining kasbiy qobiliyatlari qanday rivojlanganiga e'tibor berishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEM tizimi shunday shakllandi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). (STEM) ta'lim tizimi orqali bolada kreativlik, qunt, qiziquvchalik va hozirgi kunda eng muhim bo'lgan xususiyat – muammoni hal qilish qobiliyati shakllanadi. Keyinchalik bu erga san'at qo'shildi (Art) va endi STEAM oxirigacha shakllantirildi. O'qituvchilarning fikricha, ushbu fanlar, ta'bir joiz bo'lsa, ushbu fanlar bo'yicha bilimlar maktab o'quvchilarining kelajakda yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishiga yordam beradi. Oxir oqibat, bolalar yaxshi bilimga ega bo'lishadi va uni darhol biznesda qo'llashadi. Dunyo o'zgarimoqda, shuning uchun ta'lim bir joyda turmasin. So'nggi bir necha o'n yilliklardagi o'zgarishlar hayajonli, lekin ayni paytda bizni tashvishga solmoqda. Bu barcha yangi narsalarni ixtiro qilish bilan birga, odamlar ilgari hech qachon duch kelmagan ko'plab yangi muammolar mavjud. Har kuni yangi ish turlari va hatto butun kasbiy sohalar paydo bo'ladi, shuning uchun zamonaviy o'qituvchilar o'zlari o'rgatadigan bilim va ko'nikmalar zamon talablariga javob beradimi, deb o'ylashlari kerak. Bilim sizga o'z g'oyangizni ishlab chiqishga yordam beradi, ammo haqiqiy ish bu g'oyani haqiqatga aylantiradi. Agar an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va yaratishda foydalanish desak, STEAM yondashuvi olingan bilimlarni real ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirishga o'rgatadi. Bu maktab o'quvchilariga nafaqat ba'zi g'oyalarga ega bo'lish, balki ulardan haqiqatda foydalanish va amalga oshirish imkonini beradi. Bular, faqat haqiqatda qo'llanilishi mumkin bo'lgan bilimlar haqiqatan ham qimmatlidir. STEAM yondashuvining eng mashhur namunasi Massachusetts texnologiya instituti (MIT). Ushbu global universitetning shiori "Mens et Manus" ("Aql va qo'l"). MIT STEAM kurslarini ishlab chiqdi va hatto ba'zi ta'lim muassasalarida STEAM

o'quv markazlarini tashkil etdi va bolalarga STEAM kontseptsiyasini oldindan o'rganish va tanishtirish imkoniyatini berdi. Xulosa qilib aytganda, shuni ta'kidlamochimanki, an'anaviy o'qitish usullari bilan solishtirganda, o'rta maktabda STEAM yondashuvi bolalarni tajriba, modellar yaratish, mustaqil musiqa va filmlar yaratish, o'z g'oyalarini haqiqatga aylantirish va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta'lim yondashuvi bolalarga nazariy va amaliy ko'nikmalarni samarali uyg'unlashtirishga imkon beradi va universitetga kirish va keyingi o'qishni osonlashtiradi.


Bugungi kunda oliy ta'limda maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida konstruktiv ko'nikmalarni shakllantirishda STEAM texnologiyasi samarali natija beradi. Mazkur texnologiya talabalarni innovatsion fikrlashga yo'naltiradi. Ko'plab rivojlangan davlatlarda yuqori texnologiyalar sohasining turli yo'nalishlari bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash muammosini hal qilishga urinishlar bo'lmoqda. AQSh, Singapur, Koreya, Avstraliya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Isroil kabi mamlakatlarda STEAM ta'limi sohasida davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Amerikaning ayrim ta'lim muassasalari o'z bitiruvchilarining keyingi faoliyatini kuzatib, tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik mahorati, matematika fanlarini integratsiyalashtirishga qaror qilishdi, shunday qilib, STEAM (Science, Technique, Engineering and Math) tizimi yuzaga keldi. Keyinchalik unga san'at (Art) qo'shildi, natijada STEAM texnologiyasi shakllandi.

Ko'pgina mamlakatlarda STEAM texnologiyasining zarurati quyidagi sabablar bilan tavsiflanadi:

- yaqin yillarda axborot texnologiyasi dasturchilari, muhandislar, yuqori texnologik ishlab chiqarish mutaxassislari va boshqa shunga o'xshash mutaxassisliklarning keskin yetishmovchiligi yuzaga keladi;

- kelajakda hozir tasavvur ham qilish qiyin bo'lgan kasblar yuzaga keladiki, ularning barchasi tabiiy fanlar bilan bog'liq holda texnologiya hamda yuqori texnologik ishlab chiqarishga oiddir. Ayniqsa, bio va nanotexnologiya mutaxassislari ehtiyoj ortadi;

- kelajak mutaxassislari har tomonlama tayyorgarlikka ega bo'lgan va ta'limning turli sohalari: tabiiy fanlar, muhandislik va texnologiyadan bilimlarga ega bo'lishlari talab qilinadi.



So'nggi yillarda mamlakatimizda ham ushbu texnologiyani ta'lim jarayoniga qo'llash dolzarb masalaga aylandi. Ayniqsa pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga ushbu texnologiyani tatbiq etish sifatli ta'limga erishishga sabab bo'lmoqda. Tadqiqotimizda maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalariga "Tasviriy faoliyat" o'quv modulini o'rgatishda STEAM texnologiyasidan foydalanishni maqsad qilib olganmiz. **STEAM texnologiyasi** integratsion ta'lim yo'nalishi bo'lib, bunda talabalar **Science** (tabiiy fanlar), **Technology** (texnologiya), **Engineering** (muhandislik), **Art** (san'at), **Mathematics** (matematika) fanlararo bog'lanishlarni amaliy yondashuvga asoslangan holda o'rganadilar. **STEAM texnologiyasi** talabalarning loyihaviy o'quv-tadqiqot faoliyatini auditoriya va mustaqil ta'limda amalga oshirishga imkon beradi. **Texnologiyaning asosiy mohiyati** talabalarni ilmiy-texnik ijodga jalb qilish imkoniyati bilan intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat. Shuningdek, talabalarda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish bilan birga ularni hamkorlikda ishlashga undaydi, kognitiv va ijodiy qobiliyat rivojlanadi. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalariga tasviriy faoliyat metodikasini o'rgatishda STEAM texnologiyasi sodda tarzda amalga oshirilishi mumkin. Dars jarayonida talabalar rasm chizish, applikatsiya yasash, origami, loy va plastilin yordamida turli xil faoliyatni amalga oshiradilar. Ularda ushbu texnologiyani amaliyotga qo'llash orqali mantiqiy, algoritmik fikrlash, konstruktiv qobiliyat rivojlanadi. Oliy ta'lim jarayonida STEAM ta'limi nafaqat moddiy texnik jihozlar balki, shuningdek interaktiv texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati bilan amalga oshiriladi. Mamlakatimiz va xorijiy psixologlarning ta'kidlashicha, intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishning eng yaxshi davri 3 yoshdan 12 yoshgacha hisoblanadi. Shu boisdan bo'lajak tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi bolalarda dizaynerlik va badiiy ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan usul va texnologiyalardan xabardor bo'lishlari lozim. STEAM texnologiyasi bolalarda mayda qo'l motorikasi, fazoviy tasavvur va idrokni

rivojlantiradi. Shuningdek, turli xil robototexnika to'plamlarini o'rganish va qo'llashni o'z ichiga oladi. Lego konstruktorlarini dasturlash odatdagi dasturlash tillaridan farq qiladi. Ushbu yondashuv har bir bolaga yoshidan qat'i nazar, informatika, matematika va fizika bo'yicha bilimlarni qanday qilib bir butunga birlashtirish mumkinligi to'g'risida ma'lumot berish imkoniyatini beradi.

Zamonaviy texnologiyalar professor-o'qituvchilarni innovatsion fikrlashga qaratilgan texnologiyalarini izlashga yo'naltiradi. Bir vaqtning o'zida boshqa fanlarni o'rganish orqali talabalar muayyan muammoni hal qilishga ham erishadilar. An'anaviy ta'lim dalillarga asoslangan bilimlarni rivojlantirsa, STEAM texnologiyasi o'sish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni moslashuvchanlikni, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va muloqotni rivojlantiradi hamda talabalar o'rganilayotgan, ba'zan zerikarli nazariya ham amaliy xarakterga ega ekanligini anglab, bir vaqtning o'zida bir nechta fanlarni informatika, fizika, texnologiya, muhandislik va matematikaga oid bilimlarni ham mustahkamlaydilar.

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar:

STEAM texnologiyasi- integratsion ta'lim yo'nalishi bo'lib, bunda talabalar **Science** (tabiiy fanlar), **Technology** (texnologiya), **Engineering** (muhandislik), **Art** (san'at), **Mathematics** (matematika) fanlararo bog'lanishlarni amaliy yondashuvga asoslangan holda o'rganadilar.

STEM tizimi- (Fan, texnika, muhandislik va matematika) fanlarini o'z ichiga oladi. (STEM) ta'lim tizimi orqali bolada kreativlik, qunt, qiziquvchalik va hozirgi kunda eng muhim bo'lgan xususiyat – muammoni hal qilish qobiliyati shakllanadi.

Mavzu bo'yicha test topshiriqlari:

1. STEAM tizimi qayerda ishlab chiqilgan?

- A. Singapur
- B. Germaniya
- C. Amerika
- D. Isroil

2. STEAM texnologiyasining zarurati sabablari nimalardan iborat?

- A. Axborot texnologiyasi dasturchilari, muhandislar, texnologlarning yetishmasligi
- B. Bio va nanotexnologiya mutaxassislariga ehtiyoj
- C. Kelajakda mutaxassislarga tabiiy fanlar, muhandislik va texnologik bilim kerakligi
- D. Barcha javoblar to'g'ri

3. STEAM texnologiyasi qaysi fanlarni integratsiyalaydi?

- A. Tabiiy fanlar, san'at, sport, texnologiya, injenerlik
- B. Tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, matematika
- C. Tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at, matematika
- D. To'g'ri javob yo'q

4. STEAM ta'lim tizimi orqali bolada qaysi xususiyatlar rivojlanadi?

- A. Xotira va diqqat
- B. Uyushqoqlik, o'zaro hamkorlik
- C. Mayda qo'l motorikasi, fazoviy tasavvur va idrokni
- D. Bilimga intilish va qiziqish

Nazorat savollari :

1. STEM atamasining ma'nosi nima?
2. STEAM atamasining ma'nosini
3. STEAM texnologiyasi dastlab qayerda ishlab chiqilgan?
4. Qanday zarurat STEAM texnologiyasini yaratilishiga sabab bo'lgan?
5. Texnologiyaning asosiy mohiyati nima?
6. STEAM texnologiyasini MTTda mashg'ulotlarda qo'llash qanday natijalar berishi mumkin?

7. Olimlar intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishning eng yaxshi davri necha yosh deb hisoblashadi?

8. STEAM texnologiyasining boshqa texnologiyalardan farqi nima?

IY-BOB BO'YICHA XULOSA

Tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi deganda biz bolalarning amaliy va bilish faoliyatini tashkil etuvchi pedagogning o'quv rejasida belgilangan mazmunni o'zlashtirishga qaratilgan harakatlar tizimini tushunamiz..

Maktabgacha yoshdagi bolalar tasviriy faoliyatga oid bilimlarni tevarak-atrofdagi voqelikning predmet va hodisalarini bevosita idrok etish jarayonida hamda pedagogning ma'lumotlari (tushuntirishlar, hikoyalar), shuningdek, bevosita amaliy faoliyat orqali (qo'llash, loyihalash, modellash, chizish va h.k.) ega bo'ladilar. Shuning uchun tasviriy faoliyatga nisbatan manbalarga tayanib an'anaviy ravishda ajralib turadigan ko'rgazmali, og'zaki, amaliy metodlar qo'llaniladi:

O'rgatish usullari - o'qitish usulining ajralmas qismi yoki alohida jihati bo'lishi mumkin. Alohida metodlar turli xil usullarning tarkibida bo'lishi mumkin

Masalan, tushuntirish, suhbat mustaqil o'qitish usullaridir. Agar ular vaqti-vaqti bilan pedagog tomonidan ishlatilsa amaliy ish paytida bolalarning e'tiborini jalb qilish, xatolarni tuzatish, tushuntirish va suhbat mashqlar usulining bir qismi bo'lgan o'qitish usullari sifatida ishlaydi.

STEAM texnologiyasi integratsion ta'lim yo'nalishi bo'lib, bunda talabalar Science (tabiiy fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san'at), Mathematics (matematika) fanlararo bog'lanishlarni amaliy yondashuvga asoslangan holda o'rganadilar.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalariga tasviriy faoliyat metodikasini o'rgatishda STEAM texnologiyasi sodda tarzda amalga oshirilishi mumkin. Dars jarayonida talabalar rasm chizish, applikasiya yasash, origami, loy va plastilin yordamida turli faoliyatni amalga oshiradilar.


Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, STEAM- tabiiy fanlar, texnologiyalar, muhandislik, san'at va matematika fanlarini uyg'unlikda o'qitish uslubidir. STEAM texnologiyasi ta'limdan farqli ravishda bilimlarni alohida emas, o'zaro mutanosib holda olib borishni ta'minlab beradi. Bolalar o'zida nostandart fikrlash, muammoga bir nechta yechim topish va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi va bu uning kelajakdagi faoliyatida juda qo'l keladi. Bu esa STEAM texnologiyalarining bugungi kunda yosh avlod uchun juda ham katta o'rni borligini ko'rsatadi. STEAM texnologiyasi talabalar tomonidan tajribalar o'tkazish, modellarni konstruksiyalash, musiqa va filmlarni mustaqil yaratish, o'z g'oyalarini amalga oshirish va mahsulot yaratishga keng imkoniyatlar yaratadi.

V BOB

V BOB. TURLI YOSH GURUHLARDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI RASM CHIZISHGA O'RGATISH

§9: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni predmetli, mazmunli va dekorativ rasm chizishga o'rgatish

Rasm chizish bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishda asosiy o'rin egallaydi va uchta turni o'z ichiga oladi:



Predmetli rasm chizish - bu mavzuga va natura(qo'yilma)ga ko'ra yagona ob'ektning tasviridir.

Tasviriy faoliyatga o'rgatishning asosiy vazifasi — tevarak-atrofdagi borliqni tasavvur qilishda bolalarga yordam berish. Ularda kuzatuvchanlikni rivojlantirish, estetik go'zallik hissini tarbiyalash hamda tasvirlab berish usullarini o'rgatishdir. Shu bilan birga, tasviriy faoliyatning eng asosiy vazifasi — ma'lum bir yosh uchun mos tasviriy materiallar bilan bolalarda turli xil predmetlarning turli timsollarini yaratish kabi ijodiy faoliyatini shakllantirish amalga oshiriladi.¹⁸

Alohida predmetlarning rasmini chizish

Psixologlarning qilgan tadqiqotlariga ko'ra, bitta predmetni boshqa predmetlar orasidan ajratib olish uchun bolaga shu predmetni idrok qilishga, predmetning shaklini bilishga yordam berar ekan. Shakllarning tasviriy jarayonidagi xatoliklar faqatgina

¹⁸ H. H. Nurmatova, Sh. T. Hasanova "Rasm-buyumlar yasash va tasviriy faoliyat metodikasi" Toshkent "Musiq" nashriyoti, 2010yil

bolaning noto'g'ri tushunchalari va ko'nikmalarining yetarli emasligi emas, balki predmetni to'g'ri idrok etishni bilmasligi bilan tushuntiriladi. Bolaning tasvirlay olish qobiliyati hali yaxshi rivojlanmagani uchun uning oldida fikr yuritib, tasvirlash kabi qiyinchiliklar ham turadi. Rasmda shakl to'g'ri kontur bilan chegaralab chiqilgan, lekin shu bilan birga, ishning 1-bosqichlari chiziqlarni to'g'ri, aniq chizish va konturlarning (aniqlash) tasviri, rasmda ishlash jarayonining vazifasi bo'lib hisoblanmaydi. Agar umumiy shakl topilmagan bo'lsa, konturni to'g'ri chiziq bilan chizib bo'lmaydi, chunki u har doim o'zgaruvchan, shunga qarab uni chizish ham o'zgaradi, ya'ni natijasi, rasmning oxiri, yo'nalishi ham o'zgaruvchandir. Rassom predmetni tasvirlayotganda avval asosiy shaklning belgilarini qog'ozda belgilab oladi. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolaga, ayniqsa, 3—4 yoshli bolaga tasvirlashning bunday usuli juda qiyin, chunki u predmetni butunligicha tasavvur qila olmaydi. Unga predmetni asta-sekinlik bilan bir tomonga chizish osonroq. Tasvirlashning bu usuli bolaning ishini osonlashtiradi. Oldin bitta bo'lagini tanlab, naturadagi keyingi bo'lagini eslab yoki ko'rib, shu bo'lagini bo'laklarga bo'lib, rasm chizishni davom ettiradi. Asta-sekinlik bilan bolalarga rasmning umumiy belgilarini qog'ozga tushirib chizishni o'rgatish zarur, chunki rasmi bo'laklarga ajratib chizishning o'ziga xos qiyinchiligi bor. Bunda kerakli shaklning asosiy bo'laklari va ikkinchi darajali bo'laklarning o'zaro joylashishlari va fazodagi o'rinlarini aniq proporsional holatda chizish, aniqlash qiyin bo'ladi.

Hamma yosh guruhlar uchun rasm chizish faoliyatiga o'rgatishning asosiy umumiy vazifalari quyidagilar:

1. Predmetning shakli va tuzilishini tasvirlashga, ularning qismlarini o'zaro proporsiyalashni ko'rsatib berishga, harakat natijasida ulardagi o'zgartishlarga o'rgatish.

2. Tasvirini obrazli, yorqin qiladigan ba'zi bir xarakterli detallarni tasvirlashga o'rgatish. 3. Predmetning rangini, uning mazmuni va obraz xarakterini o'zaro birlashtirib berishga o'rgatish.

4. Bo'yoq, rangli qalam va boshqa materiallar bilan chizishda texnik ko'nikmalarni rivojlantirish.

Mazmunli rasm chizish

Mazmunli rasm chizish- bu bir nechta predmetlarni bir mazmun asosida birlashtirib, biror ma'no - mazmunni ifodalab chizilgan rasmni tushunamiz.

Mazmunli rasm chizishning asosiy maqsadi - bolaning atrof-muhitdan olgan taassurotlarini ifodalashga o'rgatishdir. Mazmunli rasm - bu bir necha mazmunning ma'lum rangda tasvirlanishi. Bolalar kichik hikoya, ertak asosida va bolalarni o'rab turgan tevarak-atrofni, tabiatni chizishga harakat qiladilar. Bolalar bilan olib boriladigan bunday mashg'ulotlar ularning har tomonlama hamol topishiga yordam beradi. Bunda bolalarning aqliy qobiliyati rivojlanadi. Bu jarayon asta-sekinlik bilan ro'y beradi, shuning uchun mazmunli rasm chizish o'rta guruhdan boshlab kiritilgan. Bunda tasvirda predmetlarning bir-biridan ajratish uchun uning o'lchamini. Fazodagi o'rinlariga qarab, predmetlarning katta yoki kichikligini o'rgatish kerak. Maktabgacha yoshdagi bola uchun predmetlar orasidagi fazoviy munosabatlarni farqlay olish juda qiyin. Mazmunli rasm chizishni MTMda o'rgatishning umumiy vazifalari quyidagilar:

- mavzuning mazmunini ifodalashga uning asosini ajratishga o'rgatish.

- obyektlar orasidagi o'zaro aloqani tasvirlashga o'rgatish.

- obyektlarning fazodagi o'rinlarini ko'rsatishga o'rgatish.

O'rta guruhda mazmunli rasm chizishga o'rgatish. Hayotining 4- yilida bola predmetni yaxshiroq yoki yomonroq tasvirlay olishni bilmasalar ham, lekin ular rasm chizishning ma'nosini tushuna boshlaydilar. Ular o'zlari chizgan shaklsiz rasmlarni predmetning biror bir belgisiga asosan o'xshatib chizadilar. Pedagog bolalarning rasm bilan predmetning o'xshash belgilarini topishga urinishni rag'batlantirib turishi va shu bilan bir qatorda, turli shakllarni to'g'ri tasvirlashga o'rgatib borish zarur. Bu yoshda tasviriy faoliyatni o'rgatish vazifalari bir rejaga qo'yilgan. Bunda predmetlarning asosiy belgilar(rang, shakl)ini berib, turli xil to'g'ri va aylanasiimon shakllarning tasviriga o'rgatish. Rangni bilish asosiy ranglarni ajratish va aytishni bilishni rivojlantirish; kompozitsion ko'nikmalarni, qog'ozning o'rtasiga tasvirlarni joylashtirishni rivojlantirish. O'rta guruh bolalariga rasm

mashg'ulotlari asosan, yil boshidan o'tkazila boshlanadi, sababi, kichik guruh bolalariga qaraganda, ular ma'lum mazmun asosida, yaxlit qilib rasm ishlay olish qobiliyatiga egadirlar. Bolalarda rasm chizish malakasini rivojlantirish maqsadida 2—3 predmetni ko'rsatish mashqlari bilan boshlash maqsadga muvofiqdir. Rasm ishlash mazmuni quyidagilardir: Mazmuni jihatdan bir-biriga o'xshash 2—3 predmetli rasm chizdirish. Bir necha predmetlarning joylanishini belgilash. Bola 4yoshdan boshlab predmetlarning yonma-yon joylanishini, odamlarning ko'rinishini faqat old tomondan, hayvonlarning ko'rinishini faqat yon tomondan bir yo'lda chiza olish qobiliyatiga egadirlar. Ma'lum maqsadli rasm bolaga ko'rsatilayotganda aniq maqsadga ega bo'lishi kerak. Bola ko'rsatilayotgan rasmni aniq ko'rib chiza oladi, lekin uning yon tomonini, ustini chizishni bilmasligi mumkin. Talabalarga ishlangan rasmlar namunasidan ko'rsatib, quyidagilarga alohida e'tibor berishlarini eslatish kerak. Masalan, predmetlarning proportsional, simmetrik joylashganligi uylar, daraxtlar, samolyotning parvoz qilayotganini chizdirish orqali bolalarda tahlil-sintez usulidan foydalanish muhimdir. Yuqorida qayd qilinganidek, quyidagilarga ahamiyat berish kerak:

- * mavzuning mazmuni aniq bo'lishiga;
- * obyektlar orasidagi bog'lanishga;
- * ma'lum maqsadga yo'naltirilgan mavzu bo'lishiga e'tibor berish kerak.

Bunda albatta, tarbiyachining bilimdonligi katta mahorat talab qiladi. Bolalarning bir yarim yilda chizgan rasmlari olchovlari asosan bir xil. N.P. Sakulinaning tajribasi shuni ko'rsatdiki, bola chizgan rasmlarini past va balandligini ko'rsatish va farqini tushuntirish lozimdir. To'rt yoshli bolalarda rasm chizish ko'nikmalari o'sib boradi, ular kattalar chizgan rasmlarni tomosha qilgan holda taqlid qilib, rasm chizishga urina boshlaydilar. Xoh otana, xoh tarbiyachi bola tomonidan chizilgan rasmlarni bola oldida baholashi kerak. Bolalar o'rtoqlarining chizgan rasmlarini yaxshi, yomonligi va xatolarini ko'rsatishlari kerak. Bunda quyidagi vazifalar bor: Bir-biriga mazmunan bog'liq 2-3 ta predmetni tasvirlashga o'rgatish.

Kompozitsion qobiliyatlarni o'stirish (1 ta chiziqda bir nechta predmetni yonma-yon joylashtirish yoki butun varaqda osmon va yerni chizish). **Kompozitsiya** - (mujassamot) - lotincha "Kompositio" so'zidan olingan bo'lib, to'qish, tuzish, bir-biriga solishtirish, naqshni g'oyasi, xarakteri va vazifasiga muvofiq uyg'un hamda mutanosib joylashtirish degan ma'noni anglatadi.

Katta guruhda mazmunli rasm chizishga o'rgatish Bola besh yoshdan boshlab ma'lum mavzudagi rasmlarni chiza olish qobiliyatiga ega bo'ladi. U tevarak-atrofni o'zgarishlarini tasavvur qila oladi va chizishga harakat qiladi. Bolalar tomonidan ishlanayotgan har bir rasmda predmetlarning hajmi, olchovlarini chamalash bilan birga, uzoq-yaqin, oldinma-ketin, ustma-ust, ketma-ket joylash mumkinligini tushuntirish kerak. Bu yoshdagi bolalar, ayniqsa, ertak multfilmlarni tomosha qilishni yaxshi ko'radilar. N.P. Sakulinaning fikricha, bola rasm chizishni varaqning eng chetidan boshlab chizish bilan birga, predmetlarning joylashishini ko'rsatishi kerak va bo'yoqlarni tanlay olishi ham muhim ahamiyatga egadir. Bolani rasm mashg'ulotiga tayyorlash uchun unga kerakli rasm anjomlarini hozirlagan holda, bironta kuy eshittirib, akvarel bo'yoq berib, ma'lum mavzu va maqsad asosida rasm chizish ishini boshlash lozim. 5—6 yoshli bolalarning mazmunli rasmlarining mazmuni ancha boy bo'ladi. Bunda bolalar faqat predmetlarni chizishmaydi, balki predmetlarning atrofidagi sharoitni ham tasvirlaydi. Bunda quyidagi vaifalar bor:

-Obyektlar orasidagi o'zaro mazmunan bog'liqlikni tasvirlashga o'rgatish.

-Kompozitsion qobiliyatlarni rivojlantirish (bunda qog'ozda gorizontaal chiziqni belgilab chizish).

-Rang qobiliyatlarini rivojlantirish.

Tayyorlov guruhida mazmunli rasm chizishga o'rgatish Katta guruhda bolalar orqali egallangan ko'nikma va malakalar tarbiyachiga 6-7 yoshli bolaga o'rgatish vazifalarini murakkablashtirish imkoniyatini beradi. Buning uchun quyidagilar kerak. Bolalar rasmlarining mazmunini bovitish uchun berilgan mavzu bo'yicha rasm sujetini bolalarni mustaqil holda aniqlashga o'rgatish. Sujetda harakat natijasida predmetning shaklini o'zgartirishga o'rgatish (masalan, engashishni, yugurishni).

Kompozitsion qobiliyatlarni rivojlantirish; predmetlarning joylashishi, yaqindagilarni qog'ozning pastiga, uzoqdagilarni qog'ozning tepasiga (o'lchamlarini o'zgartirmasdan) joylashtirish. Ranglarni farqlash qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil holda sujetga mos rangni berishga o'rgatish. Bu yoshda bolalarning analitik fikrlashi yaxshi rivojlangani uchun tarbiyachi berilgan mavzuga mos mazmunni mustaqil holda tanlashga bolalarga imkoniyat yaratib beradi. Masalan, «Uy qurish» mavzusi bo'lsa, bolalarning o'zlari qanaqa uy, kim quryapti, qayerda kabi savollarga javob beradilar. Bolalar harakatdagi predmetning shakli o'zgarishini bilishadi, shu o'zgartirishlarni tasvirlay oladilar.

Dekorativ rasm chizish

Dekorativ rasm chizish - bu shaklni turli elementlar bilan yoki xalq hunarmandchiligi elementlari asosida, ma'lum bir ritmda va ma'lum bir rangdan foydalangan holda rasm chizishga aytiladi.

Dekorativ rasm chizish tasviriy faoliyatning boshqa turlari kabi bolada estetik tuyg'uni rivojlantiradi. Bolalarni xalq amaliy san'ati namunalari bilan tanishtirishda tarbiyachi ularda vatanparvarlik ruhini shu san'at asarlarini yaratayotgan odamlarning mehnatiga hurmat kabi tuyg'ularni tarbiyalash kerak. Dekorativ rasm chizish quyidagi umumiy vazifalarni o'z ichiga oladi.:

- Bolalarda naqshning turlicha shakllari bilan bog'liq holda kompozitsion hisni shakllantirish.

- Rang qobiliyatlarini rivojlantirish.

- Xalq amaliy san'atining turlarini, usullarini farqlashga va ularning alohida elementlaridan bolalarning o'z ijodida foydalanishga o'rgatish.

- Qalam va mo'yqalam bilan chizishning texnik ko'nikmalarini mustahkamlash lozim.

Bolalarni dekorativ rasm chizishga o'rgatishda tarbiyachi ularda naqsh komponentlarining o'zaro bog'liqligini, rangini, kompozitsiyasini shakl elementini ko'rishga o'rgatadi. Dekorativ rasm chizishda rang qobiliyatining rivojlanishi asosiy masala bo'lib hisoblanadi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida rasm chizishga o'rgatish 2yoshdan boshlanadi. Bu davr bolalarni tasviriy faoliyatga tayyorlash davri hisoblanadi. Bu davrda bolalar qalamni ushlash va

qog'oz ustida yuritishga o'rganadi. Lekin bu jarayonda rivojlanmaydi, bola qalamni to 'g'ri ushlashni bilmaydi, tarbiyachi asta-sekin uni qalamni to 'g'ri ushlashga odatlantiradi, bunda bolani bajarayotganligi emas, balki qalamning harakati, uning uchi bilan qog'oz betiga taqillatishi qiziqtiradi. Qalam bilan to'g'ri turli xil shtrixlar, nuqtalar chizadi, qog'oz betida turli harakatlar qilinadi, keyin sodda chiziqlar asta-sekin murakkablashadi. Bu vaqtda bola qog'oz ustiga tushirilgan turli xil izlarni ko'rib, xursand bo'ladi. Shuning uchun bu davr «Ala-buji» davri deyiladi. Bu davr bolada tasviriy faoliyatini vujudga keltirishga ta'sir ko'rsatadi. Bu guruhda maktabgacha ta'lim-tarbiya dasturiga uruhli mashg'ulotlarni talab qilmasa-da, agar bolalar xohlashsa, ularni stol atrofiga o'tirg'izib, rasm chizdirishga imkon yaratish mumkin. 1. Ilk yoshdagi bolalar guruhlarida bolalarga bir yarim yoshdan boshlab qalam berish mumkin. Lekin bolalar qilayotgan harakatining tasviriy ma'nosiga 1 kichik guruhdan boshlab tushuncha boshlanadi. 1 kichik guruh (2yoshdan 3 yoshgacha). 2. Bu davrga kelib, nutqi o'sadi, tasavvur doirasi kengayadi, materiallar bilan mustaqil harakat qilishi faollashadi. Bu guruhda tarbiyachi bolalarni qilayotgan harakatlarini kuzatishga o'rgatadi. Chizayotgan turli chiziqlar bilan predmetlarning turlarini bilishga, ularni ayrim narsalarga o'xshatishga o'rgatadi. Bolalarga savollar bilan murojaat qilinadi, sen nimani chizding, deb bolaning chizgan ishini qaysi predmetga o'xshashligini aniqlaydigan ko'plab savollar beradi. Bolaning harakati ixtiyorsiz bo'ladi. Hamma bolalar bir vaqtda o'z harakati natijasida hosil bo'lgan ishida predmet o'rtasidagi o'xshashlikni aniqlay olmaydi, bu xususiyatning o'sishi o'zo 'zidan nutqining rivojlanishiga sabab bo'ladi. Ular tarbiyachi ko'rsatgan ishlarida oddiy predmet va hodisalarni tasvirlaydigan. Masalan, yomg'ir yog'yapti, qor yog'yapti, barglar uchayapti, daryoda suv oqmoqdakabi. 3-yilda asta-sekin bolalarda ranglarga qiziqish ortadi. Ular turliranglardan foydalanib, uni predmetga o'xshatadi. Masalan, uncha kattabo'lmagan qog'oz betiga qizil bo'yoqda bo'lib, «men gul soldim» deydi. Buguruhda tarbiyachi bolalarga predmetning qaysidir bir qismini chizib, tugatishlarni taklif qiladi. Masalan, sharga ip, bayroqchaga tayoqchani va qizil, yashil, ko'k, sariq ranglarni bilishga va foydalanishga o'rgatiladi. «Quyosh», «Ko'm -

ko'k o'tlar», «Gullar» kabi. Bolalar dastlab qalam bilan chizishadi, 3—4 mashg'ulotdan keyin bo'yoqdan foydalanib bo'yaydi, undan foydalanishni o'rgatiladi. Bolalarga quyidagi mavzularda bo'yoqlar bilan rasm chizdirish mumkin. Masalan, «Daraxtlardan barglar to'kiyapti, «Uydachiroqlar yoqildi» Yilning 2-yarmiga tarbiyachi bolalarni predmetning oddiy tasviriga o'rgatadi. Tarbiyachi shar chizadi, koptok chizadi, bolalar esa yo'lchizadi. Yilning 2-yarm iga borib, bolalar bilan mashg'ulot uyushtirilib, ular mo'yqalam qo'yib-olish, qo'g'irchoqning ko'ylagini yoki dastro'molcha va qo'lqopni dog'lar bilan bezashga o'rgatiladi. Bu yoshdagi bolalarni tasvirlashga o'rgatishda tarbiyachi turli xil usullardan foydalanadi. Sifatli o'rgatish uchun usullardan biri, passiv harakatlar usuli, ya'ni bola o'zi mustaqil harakat qiladi. Tarbiyachi bola qo'lga qalam berib, chizish harakatlarini bajartiradi yoki o'yin o'tkazadi. Bolalar qo'l harakatining koordinatsiyasini rivojlantirib borib, tarbiyachi qog'oz betida bir xildagi ritmik harakatlarni bajaradi, o'ngga-chapga keyin asta-sekin murakkab harakatlarni bajarishga o'rgatadi. Masalan, ip o'rami yoki tutun chiqyapti va boshqalar. Tarbiyachining badiiy so'zdan foydalanishi, bolalarga tasvirlanayotgan narsaning obrazli tasavvur etishga yordam beradi. Masalan, quyosh to'g'risida shunday she'r va ashulalardan foydalanish usuli muhim usullardan hisoblanadi. 1-kichik guruhda tarbiyachi bolalar bilan hamjihatlik keng qo'llaniladi. Tarbiyachi katta qog'oz betida archanichizadi, bolalar esa chiroqlar yoqadi (mo'yqalamni qog'ozga tikka qo'yish usuli bilan). Bunday mashg'ulotlarni tarbiyachi 5—6 ta bolalar guruh bilan uyushtirishi mumkin. 2,5 yoshdagi bolalar bilan tip mashg'ulotlar uyushtirish mumkin. Masalan, bolalarga rasmlar berib, unda nimalar tasvirlanganligini aytib berish kabi o'yinlar o'tkazish mumkin. Masalan, quyosh, bayroqcha, gullar tasvirlangan bo'lishi mumkin. Bolalar ularni aytib beradi, qiynalgan bolaga tarbiyachi yordam beradi. Tarbiyachi bolalar ishini tahlil qilib ularning ishlarining xilma-xilligi va predmet bilan tasvir o'rtasidagi o'xshashlikni ko'rsatib beradi¹⁹.

¹⁹ M.Sh. Nurmatova, Sh.T. Hasanova "Rasm-buyumlar yasash va tasviriy faoliyat metodikasi" Toshkent "Musiq" nashriyoti. 2010yil

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar:

Predmetli rasm chizish- bu mavzuga va natura(qo'yilma)ga ko'ra yagona ob'ektning tasvirini chizish.

Mazmunli rasm chizish- bir nechta predmetlarni bir mazmun asosida birlashtirib, biror ma'no mazmunni ifodalab chizilgan rasm

Dekorativ rasm chizish- bu shaklni turli elementlar bilan yoki xalq hunarmandchiligi elementlari asosida, ma'lum bir ritmda va ma'lum bir rangdan foydalangan holda rasm chizishga aytiladi.

Kompozitsiya-(mujassamot) - lotincha "Kompositio" so'zidan olingan bo'lib, to'qish, tuzish, bir-biriga solishtirish, naqshni g'oyasi, xarakteri va vazifasiga muvofiq uyg'un hamda mutanosib joylashtirish degan ma'noni anglatadi.

Naturmort - «Natyurmort» (nature morte) fransuzcha so'z bo'lib, «jonsiz tabiat» degan manoni anglatadi va unda ko'pincha mehnat qurollari, sabzavot va mevalar, gullar, parranda va mayda hayvonlar tasvirlanadi, ya'ni natyurmort san'atda insonning maishiy hayotini aks ettiradi.

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:

1. Stilizatsiya- bu...

A. Tabiatdagi o'simlik va boshqalarning tasviri, rangi, shakli va uzilishini badiiy usulda umumlashtirishdir.

B. Geometrik naqshlar

C. Gullar tasviri

D. Ramziy tasvirlar

3. **Dekorativ rasm chizish qaysi vazifalarni o'z ichiga oladi?**

A. Kompozitsion hisni, rang qobiliyatlarini rivojlantirish, qalam mo'yqalam bilan ishlash, Xalq amaliy san'atining turlarini, usullarini farqlash

B. Naqsh elementlarini chizishni o'rgatish

C. Bezakli rasm chizishga o'rgatish

D. Badiiy estetik didni shakllantirish

4. Katta guruhda mazmunli rasm chizishda kompozitsion qobiliyatni qanday rivojlantiriladi?

A. Ranglarni farqlash va tanlash, mavzuga mos mazmunni mustaqil holda tanlashga

B. Predmetlarning joylashishi, yaqindagilarni qog'ozning pastiga, uzoqdagilarni qog'ozning tepasiga (o'lchamlarini o'zgartirmasdan) joylashtirish,

C. Tarbiyachi o'zi qog'ozda joylashtirib beradi.

D. A va B javoblar to'g'ri

5. Barcha yosh guruhlar uchun rasm chizish faoliyatiga o'rgatishning asosiy umumiy vazifalari:

A. Tasvirini obrazli, yorqin qiladigan ba'zi bir xarakterli detallarni tasvirlashga o'rgatish.

B. Predmetning rangini, uning mazmuni va obraz xarakterini o'zaro birlashtirib berishga o'rgatish.

C. Predmetning shakli va tuzilishini tasvirlashga, ularning qismlarini o'zaro proportsiyalashni ko'rsatib berish, texnik ko'nikmalarni o'rgatish

D. Barcha javoblar to'g'ri

Nazorat savollari :

1. Bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishning asosiy vazifasi nimalardan iborat?

2. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida predmetli rasm chizish nima?

3. Mazmunli rasm chizish nimaga asoslanadi?

4. Dekorativ rasm chizish uchun tarbiyachi qanday ko'rgazmalardan foydalanadi?

5. Hamma yosh guruhlar uchun rasm chizish faoliyatiga o'rgatishning asosiy umumiy vazifalari qaysilar?


6. Katta va tayyorlov guruhida mazmunli rasm chizishga qanday o'rgatiladi?

7. Dekorativ rasm chizishning qanday vazifalari bor?

8. Bolalarga rasm chizishni necha yoshdan boshlash mumkin?

§10. MTTning turli yosh guruhlarida rasm chizishga o'rgatish metodikasi

Bolalar bog'chasida badiiy-estetik tarbiya atrof-muhit, tabiat, turli xil san'at turlari va badiiy-estetik faoliyat bilan tanishish jarayonida amalga oshiriladi. U bolaning go'zallikka bo'lgan muhabbatini, estetik idrokini, tasavvurini, estetik his-tuyg'ularini rivojlantirishga, bolaning shaxsiyatini rivojlantirishga qaratilgan. Tasviriy faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng qiziqarli mashg'ulotlardan biridir. Rasm chizish, loy ishi, applikatsiya va qurish-yasash tasviriy faoliyat turlari bo'lib, ularning asosiy maqsadi voqelikni obrazli aks ettirishdir. Ushbu tasviriy faoliyat turlarining har biri bolaning atrofdagi dunyo haqidagi taassurotlarini aks ettirishda o'ziga xos qobiliyatlarga ega. Shuning uchun tasviriy faoliyat oldida turgan umumiy vazifalar har bir turning xususiyatlariga, materialning o'ziga xosligiga va u bilan ishlash usullariga qarab konkretlashtiriladi. Rasm chizish bolalarning sevimli mashg'ulotlaridan biri bo'lib, ularning ijodiy faolligini namoyon qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Rasmlarning mavzusi har xil bo'lishi mumkin. Bolalar o'zlarini qiziqtirgan hamma narsalarning rasmini chizishadi: atrofdagi hayotdan individual narsalar va sahnalar, adabiy qahramonlar va dekorativ naqshlar va boshqalar. Bolalar bog'chasida asosan rangli qalamlar, akvarellar va guash bo'yoqlari ishlatiladi, ular turli xil tasviriy imkoniyatlarga ega. Qalam chiziqli shakl hosil qiladi. Shu bilan birga, birin-ketin alohida qism asta-sekin chiziladi, turli detallar qo'shiladi. Keyin chiziqli tasvirlar bo'yoqlar yordamida bo'yaladi. Rasm chizishning bunday ketma-ketligi bolalar tafakkurining analitik faoliyatini osonlashtiradi.



Tasviriy faoliyatda rasm chizishga o'rgatishning asosiy vazifasi - ma'lum bir yoshga mos keladigan tasviriy vositalardan foydalangan holda turli xil predmetlarning ifodali tasvirlarini yaratishda bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishdir.

Kichik guruhda rasm chizishga o'rgatishning mazmuni va vazifalari. Ikki yoshli bola qalam, mo'yqalamni to'g'ri ushlashi mumkin, lekin uning tajribalari kam, bajara olish va bilish qobiliyatlari yo'q, qo'l harakatlari yetarlicha rivojlanmagan. Shuning uchun asosiy vazifalar bolalarga umumiy tarbiyaviy ta'sir qilish bilan bog'liqdir.

Kichik guruhda o'rgatishning vazifalari quyidagilar:

- rasm chizish jarayoniga natija beruvchi jamoat ishi deb qiziqishni uyg'otish.

- rasm chizish materiallari —«qalam, bo'yoqlar» va ulardan foydalanish usullari bilan tanishtirish.

- katta yoshli odam chizgan rasmni, predmetning tasviri deb tushunishni o'rgatish. -- to'g'ri va egri chiziqlarni hamda tomonlari berk shakllarni chizish qoidalarini o'rgatish.

- yumaloq va to'rtburchak shakldagi predmetlarning tasvirini, ularning tuzilishi, asosiy qismlari va detallarini ko'chirishni o'rgatish;

- rangdan badiiy ifoda vositasi sifatida foydalanishni o'rgatish; asosiy ranglarning nomini aniqlang.

- varaqning markazida mavzuni joylashtirishda kompozitsion ko'nikmalarni rivojlantirish;

- chizma ustida qalam va bo'yoqlar bilan bo'yash bo'yicha texnik ko'nikmalarni oshirish.

Bolalar qalamni, flomasterni, mo'yqalamni barmoqlari bilan mahkam siqmasdan qanday qilib to'g'ri ushlab turish ustida ishlashni o'rgatiladi. Chizish jarayonida qalam va mo'yqalam bilan ishlashda erkin harakatga erishishni, yuvilgan mo'yqalamni yumshoq mato yoki qog'oz sochiqda quritish o'rgatiladi.

Kichik yoshdan boshlab, bolalarni materialdan foydalanishning muayyan qoidalariga o'rgatish kerak. Aks holda, bolalar noto'g'ri chizish texnikasiga o'rganib qolishadi, bu esa kelajakda murakkabroq chizmalar yaratishda qiyinchiliklarga olib keladi. Barmoqlari bilan qalamni to'g'ri ushlash uchun uchburchak qalamlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Bu guruhda to'g'ri va egri chiziqlarni to'g'ri chizishga o'rgatish birinchi vazifa bo'lib qoladi. Bunda turli chiziqlarni turlicha—chapdan o'ngga, tepadan pastga, kesishgan chiziqni chizishga

o'rgatiladi. Bularni, masalan, tizimcha, yo'lakcha, qalam, yomg'ir shaklida chizish mumkin. Kichik guruh bolalariga bir xil shakldan (qorbobo, ikki yoki uch aylanadan iborat) yoki ikki xil shakldan iborat (quyi bitta aylana va birgina to'g'ri chiziqdan iborat) bo'lgan predmetlarni chizish ancha qiyin, chunki uch yoshli bolaning tahlil (sintez) qilib fikrlashi yaxshi rivojlanmagani uchun bu guruh dasturida faqat ikki xil shakldan iborat bo'lgan predmetni, masalan, (quyoshning nurlari, archaning ignachalari) tasviri kiritilgan. Shaki qanchalik murakkablashsa, rangdan foydalanishi hamshunchalik murakkablashadi. Bolalar rasmda aniq predmetlarning tasviri uchun shu predmetga mos rangni ishlata olishni o'rganadilar. Masalan, qizil rang bayroq, sariq rang quyosh, yashilrang archa va boshqalar.

Bu guruhning dasturi keyingi guruhlarning dasturidan bosqichma -bosqich murakkablashib borishi bilan farqlanadi. Rasm chizishning birinchi mashg'uloti qog'oz va qalam bilan tanishtirishdan boshlanadi. Bu materiallarning o'yinchoqlardan bolalarga ma'lum bo'lgan turli xil predmetlardan farq qilishini pedagog bolalarga tushuntiradi. Qalamlar bilan turli faoliyat turlarini bajarish mumkin. Qog'oz toza edi, qalamning harakatlanishidan unda izlar paydo bo'ldi. Qalamning ochilgan uchi qog'ozda iz qoldiradi. Ikki uchi esa iz qoldirmaydi. Agar sekin bosilsa, qog'ozda uning izlari ko'rinmaydi. Agar qattiq bosilsa, qog'oz yirtilib ketishi mumkin. Bunday tushuntirishni va harakatlarni ko'rsatib berish bolalarda rasm chizishga qiziqishni uyg'otadi. Bulardan tashqari, oddiy texnik ko'nikmalarni qalam, mo'yqalamni to'g'ri ushlash, ulardan tartibli foydalanish, bo'yoqni mo'yqalamning uchiga olishni bilish kabilarni o'rgatishni dastur o'z ichiga olgan. Bu guruh bolalar (3 yoshli bolalar) psixologik jihatdan rivojlanadi, tajribalari ancha o'sadi. Bu guruhda bolalarni rasm ishining sifati emas, balki ish jarayoni qiziqtiradi. Rasm bo'yicha barcha guruh bolalari tarbiyachining og'zaki ko'rsatmalarini tinglashga, tarbiyachining ko'rsatib bergan usullarini bajarishga o'rganib boradilar. Bu yoshdagi bolalar rasm faoliyatida tezda o'yin faoliyatiga o'tish bilan ajralib turadi. Bolaning diqqatini ularga yoqqan ranglar tortadi. Bolalarda mustaqillik, faollik o'sadi. Bolalar turli shakldagi predmetlarning tasviriga o'rgatiladi, doira, to'g'ri to'rtburchak,

uchburchak va turli yo'nalishdagi chiziqlar to'plamidan iborat narsalarni chizadilar. Predmetlarning shaklini to'g'ri tasvirlashga o'rgatish uchun bolalarning qo'llarini shakliiy harakat qilishga o'rgatish lozim. Bolalarga predmet shakli bilan qo'lning shakliiy harakatlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgatish lozim. Qizil, sariq, ko'k, yashil, qora, oq ranglarni bilishga o'rgatiladi. Shuningdek, rang aralashtirishlarni (pushti, havo rang va zarg'aldoq, jigarrang) tavsiya etish mumkin. xildagi ritmik harakatlarni bajaradi, o'ngga-chapga keyin asta-sekin murakkab harakatlarni bajarishga o'rgatadi.



O'rta guruhda rasm chizishga o'rgatishning mazmuni va vazifalari. Bu guruhda bolalarni rasm chizishga o'rgatishning vazifalari quyidagilar:

- to'g'ri to'rtburchakli va aylanasimon shakldagi predmetlarning tasviri ularning tuzilishini, asosiy qismi va detallarini berishga o'rgatiladi.
- rangdan badiiy ifodalash vositasi sifatida foydalanishga o'rgatiladi.
- qog'oz markazida predmetni joylashtirishda kompozitsion uquvni

bilishni rivojlantiriladi.

- rasmni qalam va bo'yoq bilan bo'yashda texnik ko'nikmalarni mustahkamlanadi.

Bu guruhda bolalarga ritmik joylashgan predmet qismlarining tasviri (yuqorida, pastda, bir tom onda, boshqa tom onda) hamda bir qancha proportsional joylashgan qismlarning tasviri o'rgatiladi. Bu alohida qismlarni o'zaro solishtirish va tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, Qorbobo va archa 2 tomonlama joylashgan novdalari bilan. Bu guruhda tasviri qiyin bo'lgan obyekt, ya'ni odamning rasmini chizish mashg'ulotlarga kiritiladi. Odam rasmini chizishdan oldin bolalar soddaroq shakllarni, ya'ni qorbobo; nevol'yashka, matreshka, qo'g'irchoqlarni chizishga o'rgatilgan edi.

Katta guruhda rasm chizishga o'rgatishning mazmuni va vazifalari. Bu guruhda bolalarning tasviriy va yorqin obrazlarni

yaratish qobiliyatlarini o'stiruvchi turli usullardan foydalanib, chizishga o'rgatiladi. Bunda quyidagi vazifalar mavjud:

-Predmetning shaklini, uning belgilarini, hajmini va qismlarining joylashishini o'rgatishni davom ettirish.

-Rasmda sodda harakatlarni tasvirlashga o'rgatish. Rang qobiliyatlarini rivojlantirish va mustahkamlash.

-Qalam bilan (shtrixlash usullari) va bo'yoqlar, mo'yqalam harakatlarining usullari bilan ishlashda texnik ko'nikmalar ni rivojlantirish.

-Rangli bo'rlar, ko'mirlar, akvarel bo'yoq bilan chizish usullarini o'rgatish.

Bu yoshda bolalar rasmda bir xil predmetning o'xshash va farqli tomonlarini tasvirlash va topishga o'rganadilar. Bu guruhda bolalar yana asosiy spektr ranglari bilan tanishib, rasmda ularning chiroyli turlanishlarini keltirib chiqarishni o'rganadilar. Bolalar rangliqalam lardan tashqari oddiy qora qalam bilan predmetning umumiy belgilarini chizib olish uchun foydalanadilar. Bu guruhda tasvirlash qobiliyatiga va ko'nikmalarga o'rgatish yakunlanadi. Bunda quyidagi asosiy vazifalar bor: Naturadan va tasavvur qilishdan predmetning xarakterli belgilari, tuzilishi, hajmining tasviriga o'rgatish. Shakl va bo'yoqlarning boyligini tasvirlab berishga, yorqin obrazlar yaratishga o'rgatish. Kompozitsion qobiliyatlarni rivojlantirish (predmetning hajmi va shaklining xarakterini hisobga olib, predmetni qog'ozda joylashtirish). Rang qobiliyatlarini rivojlantirish (bir xil rangning turli otonkalarini bera olish qobiliyati). Texnik ko'nikmalarni rivojlantirish (bo'yoqlarni boshqacharoq bo'yoq olish uchun aralashtirish, predmet shakli bo'yicha qalamdan shtrix o'tkazish). Olti yoshli bolalarda analitik fikrlash qobiliyati yaxshi rivojlangan bo'ladi. Ulardan turga mansub predmetlar belgisini ajrata olganliklari kabi, ularning bir predmetni boshqasidan ajratib turuvchi individual xususiyatlarini ham tasvirlay oladilar. Bu esa ijodiy tasavvurni rivojlantiradi.

Noan'anaviy rasm chizish usullari

An'anaviy bo'lmagan rasm chizish texnikasi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini, fantaziyasini va tasavvurini rivojlantirish uchun imkoniyatlar ochadi. Ijodkorlikning faqat nostandart va noan'anaviy usullari har bir bolaga o'z his-tuyg'ularini va qobiliyatlarini to'liqroq

ochib berishga imkon beradi. Ushbu usullardan foydalanganda, bola o'z tasavvurini ko'rsatishdan qo'rqmaslikni o'rganadi, chunki ular bolani standartga aylantirmaydi, uni hech qanday ramkaga kiritmaydi. Chizish, bola o'z his-tuyg'ulariga, istaklariga erkinlik beradi, rasm chizish tufayli u tushunadi, ba'zan reallikni modellashtiradi, o'zi uchun qiyinroq tasvirlar va hodisalarni osonroq idrok etadi. Chizishning noan'anaviy usullarini o'zlashtirish, mashg'ulotni ijobiy his-tuyg'ular bilan to'ldirishga, har bir mashg'ulotni bayramga aylantirishga imkon beradi. An'anaviy bo'lmagan rasm chizish usullari bolalarda mantiqiy va mavhum fikrlashni, tasavvurni, kuzatishni, diqqatni va o'ziga ishonchni rivojlantiradi. Kichik va o'rta maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy faoliyat bo'yicha imkoniyatlari yetarli bo'lmaydi. Bolajonlarning istaklari ko'pincha haqiqiy imkoniyatlariga mos kelmaydi. Garchi bolada xohish-istak ko'p bo'lsa ham amalda bajarishga kelganda qiyinchiliklar yuzaga keladi. O'zining mashg'ulotlar jarayonida muvaffaqiyat qozonmasligini tushungan boladan "Men bajara olmayman", "Men qila olmayman, chizolmayman", "Muvaffaqiyatga erisholmayman" degan so'zlarni tez-tez eshitish mumkin. Aynan shu yoshda bolaga tasviriy faoliyatning turli usullarini o'rgatish muhimdir. Aynan ular bolaga o'ylab topilgan, yangi, o'ziga xos, g'ayrioddiy narsalarni yaratishga imkon beradi, hatto bolaning texnik ko'nikmalari mukammal bo'lmasa ham.

Noananaviy rasm chizish uslubi bola fantaziyasi uchun keng imkoniyat, erkinlik ochib beradi, bolaga san'atga qiziqishni, tasavvurini kengaytirishni, mustaqil bo'lish va tashabbuskorlikni namoyon qilishni, o'zini individualligini ko'rsatish imkoniyatini beradi. **Noananaviy rasm chizish uslubi**- tasvirning samarali vositasi bo'lib, u badiiy obraz, kompozitsiya va rang yaratishning yangi badiiy va tezkor usullarini o'z ichiga oladi, bu esa ijodiy ishda tasvirning eng katta ifodaliligini ta'minlashga imkon beradi.

Noananaviy rasm chizish uslubi kichik san'at asarlarini yaratishning ajoyib usullaridan biri hisoblanadi. Tasviriy san'atda qo'llaniladigan eng kuchli ifoda vositalaridan biri bu bo'yoq bo'lib, u bolalarni o'rab turgan dunyoning rang-barangligini o'zida mujassam etgan. Haqiqiy rasm bolaning kreativ(ijodiy) imkoniyatlarini ochib

beradi, ranglarni, ularning xarakterini va holatini his qilish imkonini beradi.




Noan'anaviy rasm chizish usullari nafaqat tasviriy faoliyatda, balki boshqa mashg'ulotlarda va mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda ham qo'llanilishi mumkin. Bolalarda noan'anaviy usullarga qiziqish ko'proq boshqa turdagi mashg'ulotlar bilan birlashtirilgan (kombinatsiyalangan)da paydo bo'ladi. Ayniqsa mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda shug'ullanish juda katta ijobiy natijalarga olib keladi. Psixologlar tasviriy faoliyatning bunday usullaridan art-terapiya mashg'ulotlari uchun ham qo'llaydilar. Noan'anaviy rasm chizish usullariga quyidagilar kiradi:

Maktabgacha kichik va o'rta yoshdagi guruh bolalari uchun:

Barmoqlar yordamida chizish

Rangli bo'yoqlar bilan bo'yalgan kaftlar orqali chizish kichikintoylar uchun juda ham qiziqarli va zavqli jarayon deyish mumkin. Qo'llarni har xil yorqin rangli bo'yoqlar bilan bo'yash va qog'ozga qo'l izlarini qoldirish bolalar uchun juda ham zavqli va noodatidir. Guash yoki qo'ldan tayyorlangan tabiiy bo'yoqlar yordamida rasm chizish kichik yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan rasm chizish usuli bo'lib, kaftlar bilan chizish yosh rassomlar uchun juda maroqli o'yin hisoblanadi. Barmoqlarda chizishni 2 yoshli bolalar bilan o'tkazish mumkin. Faqat bo'yoqni zararsiz oziq-ovqat bo'yoqlaridan foydalanib ishlatilsa bolajonlar og'ziga solsa hamsa zarari bo'lmaydi.

Kerakli jihozlar: bo'yalgan qalam/flomaster, suv solingan idish.



Bargdan yasalgan tamg'alar bilan chizish usuli


Hozirgi uslub ko'pchilikka tanish. Qog'ozga naqsh tushurish uchun hohlagan rangdan foydalanish mumkin. Bo'yoqni bargni tomirli tomoniga surtiladi. Keyin bargni bo'yalgan tomoni qog'ozga bosiladi. Bir necha daqiqadan keyin ehtiyotkorlik bilan barg olinadi. Qog'ozni ustida bargni shakli qoladi. Bu usulda chizish bilan chiroyli tabiat manzaralarini tasvirlash mumkin.



Kerakli jihozlar: barg, bo'yoq, mo'yqalam, qo'goz, suv solingan idish

Paxtali tayoqchalar bilan chizish usuli


Tasviriy san'atning rangtasvir turida Puantilizm (fransuzchada point-nuqta) degan yo'nalish mavjud. Bu uslubning tamoyili oddiy: bola rasmni nuqtalar bilan bo'yaydi. Buning uchun paxtali tayoqchalar bo'yoqqa botiriladi va kontur bilan chizilgan tayyor rasmga nuqtalar qo'yib chiqiladi. Paxtali tayoqchalar bilan



rasm chizish bolaning ijodiy salohiyatini, uning tasavvurini, diqqatini jamlashni, harakatlarini muvofiqlashtirishni, qat'iyatlilikni va, albatta, bolaning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan barmoqlarning motorli ko'nikmalarini rivojlantiradi. Paxta tayoqchalari bilan chizish yordamida biz bolalarga ranglar, fasllar, raqamlar, harflar va turli buyumlarni tasvirlashni o'rgatishimiz mumkin. Va eng muhimi, bolaning yaratish istagini, ijodga qiziqishini uyg'onishiga turtki bo'lamiz. Bolalarni yoshligida qiziqtiradigan narsa - bu o'yinlar. Shuning uchun barcha ma'lumotlar faqat o'yin orqali o'rgatilishi kerak.

Kerakli jihozlar: paxtali tayoqchalar, bo'yoq, qog'oz, suv solingan idish.

Iplar yordamida chizish



«Sehrli iplar» orqali chizish uslubi. Iplar yetarli darajada bo'yoqqa yaxshi to'yinguncha botirilishi kerak. Bo'yoqqa shimdirilgan ip ikkita qog'oz orasiga qo'yiladi va ipning uchi 5-10 sm chiqib turishi kerak. Yuqoridagi qog'oz qo'l bilan bosib turilib ipni har xil tomonga o'ynatiladi. Yuqoridagi qog'oz olinadi va

ajoyib tasvir tayyor bo'ladi.

Kerakli jihozlar: ip, bo'yoq, qog'oz, suv solingan idish.

Monotipiya

Monotipiya uslubi grekchada «mono»-bitta va «typos»-iz, bosib tushirilgan shakl degan ma'noni anglatadi. Bu uslub iz bilan chiziladigan ajoyib uslubdir. Chizilgan izlar bir-birdan ajralib turadi aynan o'xshash izni chizishni iloji yo'q. Monotipiya chizishni ikkita usuli bor:

1.Oynaga chizilgan monotipiya


Silliq yuza (oyna, plastmassadan yasalgan doska, plyonka) ustiga guash bo'yoq orqali yuza paydo qilinadi. Keyin barmoqlar yoki paxtali tayoqcha orqali rasm tushiriladi. Yuza ustiga qog'oz qo'yiladi va biroz bosiladi. Oynali tasvir ustida iz qoladi.



Kerakli jihozlar: silliq materialdan fon, guash bo'yog'i, mo'yqalam, qo'goz, suv solingan idish.

2.Predmetli monotipiya

Qo'goz kerakli darajada yarmidan ikkiga buklanadi. Buklangan bo'lakning birortasining ichiga bo'yoq orqali rasm chiziladi. Keyin simmetrik iz qolishi uchun qog'oz buklanib ustidan qo'l yurgizilib tekislanadi.




Kerakli jihozlar: bo'yoq, mo'yqalam, qog'oz, suv solingan idish.

Maktabgacha katta guruh bolalar bilan esa quyidagi uslublarni qo'llash mumkin:

Sovun ko`piklari bilan chizish

Chizishni sovun pufaklari bilan ham uddalasa bo`ladi. Buning uchun suv solingan stakanga xohlagan turdagi sovunli suyuqlik va bo`yoq qo`shish kifoya. Naycha orqali puflab ko`plab ko`pik paydo qilish kerak. Ko`pik bilan to`lgan stakanlar og`ziga qog`ozni yopish kerak. Pufakli naqshlar paydo bo`lgandan keyin qog`ozni olish kerak. Pufakli naqsh tayyor bo`ladi.




Kerakli jihozlar: suv solingan idish, bo`yoq, sovunli aralashma, naycha, qog`oz

G`ijimlangan qog`oz bilan chizish

G`ijim bo`lgan salftetka yoki qog`oz orqali qiziqarli yuzaga ega bo`lish mumkin. G`ijim qog`oz orqali chizishning ikkita usuli bor.

1-uslub. Qog`oz yuzasiga suyuq bo`yoq tortiladi. Ozgina vaqt o`tgandan keyin (qog`oz quriganicha) qo`go`z ustiga g`ijim bo`lgan salftetka qo`yiladi. Shimib olingan bo`yoqqa qog`oz ustiga salftetka o`zining ajralib turuvchi izlarini qoldiradi.



2-uslub. Dastavval kerakli darajada qog`oz yoki salftetka g`ijimlanadi. Gi`jimlab yumaloqlangan qog`oz yoki salftetkaga bo`yoq surtiladi. Keyin bo`yalgan yuza orqali tekis qo`goz ustida naqsh qoldiriladi.

Kerakli jihozlar: salftetka - qog`oz, bo`yoq, mo`yqalam, suv solingan idish.

Tuz bilan chizish

Tuz bilan chizish - bu rasmning noan'anaviy usuli bo`lib, unda PVA yelim va oddiy oziq-ovqat tuzi, shuningdek, guash yoki akvarel bo`yoqlaridan foydalaniladi. Bo`yoqqa botirilgan mo`yqalam rasmga tekkizilsa, tuz namlanadi, bo`yoqni o`ziga singdiradi va bola tuz qanday tez bo`yala boshlaganini ko`radi. Bu bolalarning qiziqishini

uyg`otadigan juda maroqli mashg`ulot hisoblanadi. Tuz tasvirga ajoyib ko`rinish beradi. Rasm foniga chiroyli shakllar qoldirish uchun, xohlagan bir peyzaj yoki yorqin fonni chizishda tuzdan foydalansa bo`ladi.

Ishni oldin kerakli jihozlarni tayyorlashdan boshlaymiz. Buning uchun kerak bo`ladi:

Oq qog`oz varag`i (yoki akvarel bilan chizish uchun albom).

Tuz (alohida stakanga quyilishi mumkin).

Tor bo`yinli naychadagi PVA elim.

Akvarel bo`yoqlari.

Mo`yqalam.

Avval tanlagan mavzu bo`yicha shablon qilishimiz kerak. Tasvir qog`oz varag`iga chiziladi. (kontur tasvirlarni chop etish mumkin). Tasvirlar varaqning butun sathini egallashi kerak, shunda bo`sh joylar qolmaydi.



Keyingi harakatlar ketma-ketligi quyidagicha:

Biz yelim idishni olamiz va yelim idishning uchidan yelimni rasmning chizilgan chiziqlari bo`ylab ohista surib yurgizib chiqamiz. Yelimni ko`p siqib chiqarish kerak emas. Chizilgan shakllarni tuz bilan to`liq qoplanadi. Tejashning hojati yo`q, chunki tuz donalari o`tkazib yuborilgan chiziqlarni to`liq qoplashi kerak. Biroz kutamiz, shundan so`ng biz varaqdan tuzni silkitamiz (bo`yalgan chiziqlar tuz bilan qoladi). Keyin shablonni qurishini kutish kerak. Bu bir soatdan ko`proq vaqtni olishi mumkin, shuning uchun bunga oldindan tayyorgarlik bo`lishi kerak.

Kerakli jihozlar: PVA yelim, tuz, bo`yoq, mo`yqalam, qog`oz, suv solingan idish

Klyaksografiya (siyoh dog`lari bilan chizish)

Klyaksografiya-bu siyoh dog`lari bilan rasm chizish. Ushbu noan'anaviy rasm chizish texnikasining mohiyati ma`lum bir shakllarni siyoh dog`larida ko`ra olish va uni qo`shimcha qismlar bilan to`ldirishdir. Bu uslubda rasm chizish jarayonida bolaga maxsus ko`nikmalar shart emas, birinchi galda tasavvur va g`oyalar


kerak bo'ladi. Siyoh dog'larini qanaqa shaklda bo'lishi bu bolaning tasavvuriga bog'liq. Masalan qora rangli dog'ni quloq, dum, panjalarini chizib yoqimtoy uxlayotgan mushukka aylantirish mumkin. Klyaksografiya bilan shug'ullanish bola sog'ligi uchun ham foydali bo'lib, tez-tez kasal bo'ladigan bolalar naycha orqali puflashi o'pkani mustahkamlaydi, yo'talning oldini oladi. Uch yoshli bola bo'yoqni qog'ozga qo'yish orqali puflay oladi. Tarbiyachi bolaga tasavvurini, fikrlashini rivojlantiruvchi savollar bilan yordam berishi mumkin. Klyaksografiya orqali bola siluetli tasvirlar yaratishini fazoviy shakllarni uyg'un holatda joylashtirishni, ranglarni aralashtirishni qo'l va ko'z muvofiqligini rivojlantiradi. Bu usulda rasm chizish bolalarda mustaqil fikrlash, qat'iylikni mustahkamlaydi. Klyaksografiya usulida rasm chizishda akvarel bo'yog'idan va qattiqroq yo'g'onroq mo'yqalamdan foydalanish mumkin. Qo'shimcha qismlarni chizishda ingichka mo'yqalam hamda tomizg'ich (pipetka) dan kichkina dog'chalar hosil qilishda ishlatishi mumkin. Bu borada ishlatiladigan qog'ozga kelsak iloji boricha qalinroq qog'oz yoki karton ishlatish mumkin. Qog'oz varog'ini katta mo'yqalam yoki gubka bilan oldindan namlash mumkin. Bu dog'larni hosil qilish yoyilish jarayonini osonlashtiradi. Lekin haddan ziyod hamlab yuborish kerak emas, chunki bo'yoq juda tez tarqalib ketadi.

Chizish usullari:

1. **Tomchilash usuli.** Ko'proq bu usul manzarali tasvirlarni ishlatishda qo'l keladi. Katta mo'yqalamni suyuq akvarelga botirib, uning yo'g'on yog'och qismiga ohista urib bo'yoqni tomizish mumkin.


2. **Bo'yoqni yoyish usuli.** Bu usulda murakkab kompozitsiyalarni chizishda qo'l keladi. Ko'p miqdorda suyuq bo'yoqni qo'yib naycha yordamida turli tarafga puflanadi. Bunday mashg'ulot bolalar uchun juda maroqli, qiziqarli va juda foydali. Somonli naycha yoki sok naychasi orqali puflash sog'liq uchun foydali: bolani butun-bir nafas olish sistemasi uchun foydali. Zavqli tasvirlar hosil bolishi uchun katta bo'yoq dog'i kerak bo'ladi. Buni qog'ozda jimjimador tasvir paydo bolguncha ko'p marotaba puflash orqali bajariladi. Noan'anaviy rasm paydo bo'lganda unga

qo'shimcha narsalar masalan, barglar, ko'zlar chizish orqali surat paydo qilish mumkin.



Grattaj


Grattaj so'zi fransuzcha «gratter» (qirib chizish) so'zidan olingan. Buning uchun dastlab karton kerak bo'ladi. Karton yuziga mum yoki har xil rangdagi moyli bo'yoq surtiladi. Keyin katta mo'yqalam yoki mochalka bilan yuzaga to'q rangli bo'yoq surtiladi. Bo'yoq quriganidan keyin uchli narsa bilan rasm qirib chiziladi. To'q rangli bo'yoq ustida bir xil rangdagi yoki har xil rangdagi chiziqlar paydo bo'ladi.



Kerakli jihozlar: karton, moyli bo'yoq, guash, tish kovlagich, mo'yqalam, suv to'ldirilgan idish.

Frottaj

Bu uslubning nomi fransuzcha «frottage» (ya'ni surtmoq, surkamoq) so'zidan kelib chiqqan. Buni uslubda chizish uchun yassi buyum ustiga qo'yiladigan oq qog'oz kerak bo'ladi. Keyin qog'ozning ustidan rangli yoki qora qalam bilan chizish (shtrix berish) boshlanadi. Natija- qog'ozda aks etadigan buyumning tasviridir.



Kerakli jihozlar: Yassi shakldagi buyum, qalam, qog'oz

Bu noan'anaviy uslublarning har biri bola uchun kichik o'yin hisoblanadi. Bu uslublardan foydalanish bolalarga o'zini erkinroq,

dadilroq, aniqroq his qilishni yaratib beradi. Bu uslublar tasavvurni kengaytiradi, o'z qobiliyatlarini to'liq namoyon etish imkoniyatini beradi.

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar:

Akvarel- ("Akva" - suv va "rel" - bo'yoq) ma'nosini bildiradi.

Mo'yqalam- tabiiy suvsar va sintetik suvsar imitatsiyasi aralashmasidan tayyorlangan akvarel uchun tayyorlangan.

Naturadan foydalanish- kuzatish asosida predmet yoki ko'rinishning tasviri tushuniladi. Bunda asosiysi tomoshabinning idroki bo'lib, tekislikda tasvirlangan predmet (rasm, applikatsiya) faqat bir tomondan idrok qilinadi; loydan buyum yasaganda va qurish-yasashda bolalarda naturani o'girib qurish hamda hajm-shaklni turli xil burilishda tahlil qilish imkoni bo'lishi kerak.

Kollaj- (frans. collage — yelimlash, yopishtirish) — tasviriy san'atdagi texnik usul; biror bir asos materialga undan rang va sifati bilan farqlanuvchi materialni yopishtirib asar yaratish; shuningdek, shu usulda yaratilgan san'at asari ham K. deb ataladi. Asosan grafikada asarning o'ziga xos ta'sirchanligini kuchaytirishda qo'llanadi, rang-barang, turli materiallarning favquloddagi uyg'unligi ta'minlanadi.

Grattaj- grattaj so'zi fransuzcha «gratter» (qirib chizish) so'zidan olingan. Buning uchun dastlab karton kerak bo'ladi. Karton yuziga mum yoki har xil rangdagi moyli bo'yoq surtiladi. Keyin katta mo'yqalam yoki mochalka bilan yuzaga to'q rangli bo'yoq surtiladi. Bo'yoq quriganidan keyin uchli narsa bilan rasm qirib chiziladi.

Frottaj- bu uslubning nomi fransuzcha «frottage» (ya'ni surtmoq, surkamoq) so'zidan kelib chiqqan. Buni uslubda chizish uchun yassi buyum ustiga qo'yiladigan oq qo'goz kerak bo'ladi. Keyin qo'gozning ustidan rangli yoki qora qalam bilan chizish (shtrix berish) boshlanadi

Monotipiya- monotipiya uslubi grekchada «mono»-bitta va «typos»-iz, bosib tushirilgan, qiyofa degan ma'noni anglatadi. Bu uslub iz bilan chiziladigan ajoyib uslubdir

Klyaksografiya-bu siyoh (bo'yoq) dog'lari bilan rasm chizish. Ushbu noan'anaviy rasm chizish texnikasining mohiyati ma'lum bir shakllarni siyoh dog'larida ko'ra olish va uni qo'shimcha qismlar bilan to'ldirishdir.

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:

1.Noan'anaviy rasm chizish usullari bolada nimalarni rivojlantiradi?

A. Ijodiy qobiliyatlarini, fantaziyasini va tasavvurini rivojlantiradi, mantiqiy va mavhum fikrlashni, tasavvurni, kuzatishni, diqqatni va o'ziga ishonchni mustahkamlaydi

B. Diqqatni, tasviriy qobiliyatni

C.Mustaqil fikrlash, erkinlikni

D.Namunadan va naturadan foydalanishni

2.Noananaviy rasm chizish uslubi bolaga qanday imkoniyatlar beradi?

A. Bola fantaziyasi uchun erkinlik ochib beradi, san'atga mustaqil bo'lish va tashabbuskorlik, o'zini individualligini, tasavvurini ko'rsatishdan qo'rqqanlikni

B. Tarbiyachi buyruq va ko'rsatmalaridan holi bo'lish

C. Mustaqil ishlash va namunadan foydalanish

D. To'g'ri javob yo'q

3.Klyaksografiyada chizish usullari qaysilar?

A. Tomchilatib chizish usuli, bo'yoqni yoyish usuli

B. Sachratish usuli

C. Pyrkash usuli

D. Mo'yqalamda bo'yash usuli

4. Klyaksografiya rasm chizish usulida puflab bo'yoqni yoyish turi bola organizmiga qanday foydali jihati bor?

A. Nutq tizimiga ta'sir qiladi.

B. Qon aylanishini yaxshilaydi.

C. Nafas olish tizimini yaxshilaydi.

D.Muskullarni rivojlantiradi.

Nazorat savollari :

1.Kichik guruhda rasm chizishga o'rgatishning mazmuni va vazifalari qanday?

2.O'rta va katta guruhda rasm chizishning mazmuni va vazifalari nimalardan iborat?

3.Katta va tayyorliv guruhdachi?

4.Noan'anaviy rasm chizish usullariga qaysi usullar kiradi?

5.Noan'anaviy rasm chizish usullari bolalarning rivojlanishiga qay darajada ta'sir qiladi?

6.Noan'anaviy rasm chizishdan o'rta guruhda qaysi usullardan foydalaniladi?

7.Noan'anaviy rasm chizishdan katta guruhda qaysi usullardan foydalaniladi?

8.Noan'anaviy rasm chizishdan tayyorlov guruhda qaysi usullardan foydalaniladi?

V-BOB BO'YICHA XULOSA

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar rasm faoliyatidan tezda o'yin faoliyatiga o'tish bilan ajralib turadi. Masalan, doirachalar chizib, uning ichini qalam bilan urib chiqib, uni qush don cho'qiyapti, deb ifodalaydi. Bunda yosh bolalarning rang tanlash malakasi shakllanadi. Bolaning diqqatini ularga yoqqan ranglar tortadi. Bolalar tasviriy jarayonida so'z bilan ifodalashga o'rganadilar. Rasmda tasvirlay olmagan voqealarni so'z bilan to'ldiradi. Bolalarda mustaqillik, faollik o'sadi.

Bu yoshdagi bolalarni tasvirlashga o'rgatishda tarbiyachi turli xil usullardan foydalanadi. Sifatli o'rgatish uchun usullardan biri, passiv harakatlar usuli, ya'ni bola o'zi mustaqil harakat qiladi. Tarbiyachi bola qo'lga qalam berib, chizish harakatlarini bajartiradi yoki o'yin o'tkazadi. Bolalar qo'l harakatining koordinatsiyasini rivojlantirib borib, tarbiyachi qog'oz betida bir xildagi ritmik harakatlarni bajaradi, o'ngga-chapga keyin asta-sekin murakkab harakatlarni bajarishga o'rgatadi. Maktabgacha kichik guruhlar uchun noan'anaviy rasm chizish usullaridan barmoqlar yordamida

chizish, kaftlar bilan chizish, kartoshka bilan iz qoldirib tasvirlash kabi usullar bolalarda orasm chizishning o'yin jarayoniga o'tishi va rasm chizishga yanada ishtiyoqlari uyg'onishiga yordam beradi.

To'rt yoshli bolalarda rasm chizish ko'nikmalari o'sib boradi, ular kattalar chizgan rasmlarni tomosha qilgan holda taqlid qilib, rasm chizishga urina boshlaydilar. Kompozitsiya asosida rasm chizishga harakat qiladilar.

Bolalar tomonidan ishlanayotgan har bir rasmda predmetlarning hajmi, olchovlarini chamalash bilan birga, uzoq-yoqin, oldinma-kecin, ustma-ust, ketma-ket joylash mumkinligini tushuntirish kerak. Bu yoshdagi bolalar, ayniqsa, ertak multfilmlarni tomosha qilishni yaxshi ko'radilar. 5—6 yoshli bolalarning mazmunli rasmlarining mazmuni ancha boy bo'ladi. Bunda bolalar faqat predmetlarni chizishmaydi, balki predmetlarning atrofidagi sharoitni ham tasvirlaydi. Bunda quyidagi vazifalar bor: Obyektlar orasidagi o'zaro mazmunan bog'liqlikni tasvirlashga o'rgatish. Kompozitsion qobiliyatlarni rivojlantirish (bunda qog'ozda gorizontal chiziqni belgilab chizish. Noan'anaviy usullardan foydalanish bolalarga o'zini erkinroq, dadilroq, aniqroq his qilishni yaratib beradi. Bu usullar tasavvurni kengaytiradi, o'z qobiliyatlarini to'liq namoyon etish imkoniyatini beradi.

VI BOB.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TURLI YOSH GURUHLARDA APPLIKATSIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

§11. Applikasiya- amaliy san'at turi sifatida. Applikasiya turlari. Applikasiya mashg'ulotlari uchun kerakli xom ashyo va jihozlar

Applikatsiya - bu fon materialiga naqshlar, figuralar va boshqa bezak elementlarini yopishtirish yoki tikishga asoslangan san'at va hunarmandchilik texnikasi. Applikasiya atamasining nomi lotincha "application" - "qirqib yopishtrish" so'zidan kelib chiqqan.

Applikasiya mavzuli yoki qirqilgan dekorativ shakllarni asosiy fonga turli predmetlar yordamida badiiy bezash uchun ishlatiladigan xalq amaliy san'atining bir turi. Applikasiya mashg'ulotlarida malakalarini bolalar boshqa faoliyatda ham qo'llashlari mumkin. Applikasiya mashg'ulotlarini to'laqonli o'tkazish uchun material va jihozlarni oldindan tayyorlab qo'yish muhimdir.

Applikasiya o'rgatish material bilan tanishish turli shakllarni qirqa olish malakalarini egallash, ularni ma'lum tartibda joylashtirish, obraz va syujetga mos ravshda yopishtirishni taxmin qiladi. Applikasiya o'rgatish bolalarni qabul qilish jarayonini o'stirishga asoslanadi. Shakl, hajm, rang, predmetni o'zaro munosabatlari haqidagi taassurotlarni boyitish bolalarni mashg'ulot vaqtida fikrlash va (taassurot) tasavvurni ishlatishga yordam beradi. Ammo har bir yosh guruhlarida applikasiya mashg'ulotlari qo'llaniladigan ta'limiy usullari o'ziga hos xususiyatga egadir.

Tasviriy faoliyat metodikasida rasm solish, loydan buyum yasash metodikasi bilan bir qatorda applikasiya ham asosiy turlarining biri sifatida Maktabgacha ta'lim muassasasi "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga kiritilgan. Applikasiya xalq amaliy san'atida keng o'rin tutadi. Bu usulda qog'oz, mato, charm, somon, quritilgan o'simliklar, urug'lar, tashlandiq narsalar, simlar, iplardan foydalanib har xil ishlarni bajarish mumkin.

Applikatsiya - badiiy asarlar yaratishning eng sodda va oson usulidir, bunda tasvirning asosi saqlanadi. Bu

applikatsiyadan faqat bezash maqsadlaridagina emas ko'rgazmali qurollar, turli o'yinlar uchun qo'llanmalar, o'yinchoqlar, bayroqlar, sovg'alar, devoriy gazetalar, stentlar, ko'rgazmalar va kostyumlarni tayyorlashgina emas, balki kartina, pano, naqshlarni va shu kabilarni yaratishda ham keng qo'llash mumkin. Applikasiya bundan 2500 yil muqaddam ko'chmanchi xalqlarda paydo bo'lgan. Applikasiya bilan kiyim-bosh, turar joylar bezatilgan. Bu ishda ular teri-mo'yna, namatdan foydalanishgan. Applikasiya turli xalqlarda turli materiallardan tayyorlangan. Masalan, yoqutlar applikasiya ishida postloqdan foydalanishgan, bo'yalgan po'stloqdan qilingan applikatsiyalar bilan ular o'tovlarini bezashgan. Xanti-mansi, evenk va boshqa shimol xalqlari applikatsiyada teri, sukno, mo'yna ishlatishgan. Qozoq, qalmoq, osetin, buryat va boshqa xalqlar applikatsiyadan milliy kiyim, uy-ro'zg'or predmetlarini bezashda foydalanishgan. Gazlamadan applikasiya materiali sifatida ancha keyinroq foydalanila boshlandi. Gazlama parchalarini fon xizmatini o'tovchi materialga tikib naqsh yaratilgan. Gazlamadan yasalgan applikasiya bilan kiyim-bosh, uy-ro'zg'or predmetlari bezatilgan. Somondan applikasiya yasash moldavan, ukrain, belorus xalqlarida keng tarqalgan.²⁰

Maktabgacha ta'lim muassasasida o'tkaziladigan applikasiya mashg'ulotlari bolalarning sezish qobiliyatlarining rivojlanishiga, ta'sir etib, ularni estetik jihatdan tarbiyalashni va ijodiy faolligini shakllantirishga, shuningdek, mehnat ko'nikmalarini shakllantirishga va ularda harakterning irodaviy xususiyatlarini vujudga kelishiga ta'sir etadi. Applikasiya mashg'uloti jarayonida bola rang va uning ottenkasi bilan tanishadi mashq qiladi, shaklni va predmetni to'zilishini bilishga o'rganadilar. Ritm va simmetriya haqida tushunchalari kengayib borib, qog'oz varog'ida muljallay olishga o'rganadilar. Bolalar applikasiya faoliyatida rang va uning uyg'unlashuvi bilan juda ko'p marta mashq qiladilar, shuning uchun ular ko'plab rang va uning uyg'unlashuvini tezda esda saqlab qoladilar va bir-biridan ajrata oladilar.

«Rangni sezish- estetik sezishning eng ommabop shakli bo'lib hisoblanadi». Uning uchun uni rivojlantirish natijasida biz

²⁰ H. Sh. Nurmatova, Sh. T. Hasanova "Rasm-buyumlar yasash va tasviriy faoliyat metodikasi" Toshkent "Musiq" nashriyoti, 2010yil

bolalarning estetik tarbiyasiga ta'sir ko'rsatamiz. Ular shu asosida shaklning go'zalligini, ritm va simmetriyani bilishga, sezishga o'rganadilar. Bolalar ritm va simmetriyaning qoidasini bilib olishlari natijasida ular shaklning tartibli joylashishidan xursand bo'lib va aksincha tartib qoidaning buzulishi bolaning asabiylashtirib yuboradi. Bolalar bu holatni xunuk, tartibsiz, buzuq sifatida tasavvur etadilar.

Applikasiya mashg'ulotlarida bolalar ko'pincha geometrik shakllar bilan munosabatda bo'ladilar natijada ular tevarak atrofdagi predmetlarda geometrik shakllarni abstrakt ko'rinishini ko'ra olishga o'rganadilar. Murakkab tuzilgan shakllarni tuzilishini yaxshiroq tushunishiga, ularni to'g'ri tahlil qilishga o'rganadilar. Bolalar geometrik shakllar bilan tanishishlari jarayonida hali o'zlariga tanish bo'lmagan figuralarning nomini to'g'ri aniqlashga o'rganadilar. Masalan, bolalar shaklning burchaklarini sanab uning 3 ta yoki 4 taligini natijada uchburchak va to'rtburchak, keyinchalik ularni o'zlari mustaqil ko'pburchak kabi shakllarining nomini bilib boradilar. Applikasiya mashg'ulotlari bolalarda kattalik va fazoni mo'ljallash bo'yicha olgan tasavvurlari va qog'oz betini to'g'ri mo'ljallay olish kabi o'quvlarini rivojlanadi. Bolalar shakl yopishtirishni elimsiz aloqa qilishlari natijasida bu shaklni mantiqiy va ritmik holda joylashtirishga o'rganishlari, asosan o'rtasida o'ngda, chapda, yuqorida, pastda, orqada, qarama-qarshi tamonda, atrofida kabi so'zlar bilan tanishib oladilar. Bolalarni qog'oz betida nuqta orentirovka qilishga o'rgatish-bolalarni maktabda muvaffaqiyatli o'qishlarini asosiy shartlaridan biridir.

Bolalar applikasiya mashg'ulotlarida juda ko'p qimmatli mehnat malakalari va ko'nikmalarini egallaydilar. Ular ozoda ishlashga, batartib yopishtirishga, o'z ish joylarini toza saqlashga o'rganadilar va murakkab asbob hisoblangan qaychi bilan ishlashga o'rganadilar. Bularning barchasi bolalarni maktabdagi qo'l mehnati darsiga tayyorlaydi. Bolalar yengil va mayda qog'oz shakllari bilan ishlashlari natijasida, ular o'z harakatlarini tezligini to'xtatib turishga o'rganadilar. Mashg'ulot jarayonida ular oz bo'lsada

qiyinchilikni engadilar, bu esa bolalarda xarakterning irodaviy xususiyatini chidam, sabr kabilarni tarbiyalaydi.²¹

Applikatsiya turlari

Barcha turdagi applikatsiyalarni quyidagi mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin: Applikatsiya o'ziga xos tasnifga ega:

- Shakl bo'yicha (bajarish texnikasiga ko'ra) applikatsiya quyidagilarga bo'linadi:

Yassi, hajmli, bir qavatli, ko'p qavatli;

- Rangiga ko'ra, applikatsiya quyidagicha bo'lishi mumkin:

Bir rangli, ko'p rangli, qora va oq;

- Mazmuniga ko'ra turlari:

Mavzuli, syujetli, dekorativ (bezakli).

Materiallar (mato, biserlar, qog'oz, teri, mo'yna, plastilin, somon, barglar, paxmoqlar, qobiqlar, yormalar, tugmalar, iplar, , yog'och bo'laklaridan).

Noan'anaviy applikatsiya turlari

MTTda mashg'ulotlar jarayonida ikki turdagi applikatsiya **an'anaviy** va **an'anaviy bo'lmagan (noan'anaviy)** usulidan foydalaniladi. An'anaviy usuldan farqli ravishda an'anaviy bo'lmagan usulda shakllar turli noodatiy tarzda o'zgartirilib, asosga yopishtiriladi.

Qo'lda yirtib bajariladigan applikatsiya

Applikatsiyaning bu turi tasvirning teksturasini (momiq jo'ja, paxmoq bulut) to'g'ri saqlash uchun juda qulay. Bu applikatsiyada qog'ozni qo'lda yirtiladi va ulardan tasvir hosil qilinadi. Yirtish usulida applikatsiya yasash mayda qo'l motorikasini va ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun juda foydali.



Bu applikasiyaning texnik turlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bu applikasiyada tasvirlarning teksturasi shakl aniqligini ta'minlaydi. Masalan, osmonda momiq bulut yoki maysazorda jo'ja, daladagi jingalak yungli qo'y yoki daraxtning kuzgi yaproqlari kabi shakllarni yasashimiz mumkin.

Applikatsiyani yasash uchun bola faqat qog'ozni bo'laklarga bo'lishi kerak. Bu holatda qaychi ishlatishning hojati yo'qligi bolani shikastlanishdan saqlaydi. Ayniqsa kichik maktabgacha yoshdagi bolalarga juda qulay. Bolalar suyuq yelimni kiyimlariga tekizmasligi uchun biz yelimning qalamli turini ishlatishimiz mumkin. Applikatsiyani bajarish ketma-ketligi quyidagicha:

1. Bola chizish uchun applikasiya asosini tanlaydi. U, albatta, rangli yoki oq karton qog'oz bo'lishi kerak. Karton zich bo'lgani uchun u yelimni o'ziga shimib olmaydi va bajarilayotgan applikasiyaning og'irligiga bardosh beradi. Qalin oq qog'ozdan ham foydalanish mumkin.


2. Applikatsiya yasash uchun bola o'zi o'ylagan kompozitsiyasini tasvirini kartonga chizadi. (maktabgacha kichik yoshdagi bolalarga tayyor chizilgan tasvir beriladi)

3. O'z chizgan tasvirni ranglarini tanlaydi.

4. Keyin u ko'p rangli qog'oz parchalarini tayyorlashni boshlaydi. Ular turli o'lchamlarda bo'lishi mumkin. O'qituvchi bolaga o'lchamlarni aniqlashda yordam berishi va qog'ozni qanday qilib ehtiyotkorlik bilan bo'laklarga bo'lishni ko'rsatishi kerak.

1. Bolalar qalamli yelimni olib, chizilgan tasvir ichini rangli qog'oz parchalarini yopishtirib to'ldiradi. Avvalo katta qismlarni, so'ngra kichik parchalarini yopishtiriladi. Har bir qog'oz parchasi alohida yopishtiriladi.

Ustma-ust qo'yiladigan applikasiya



Ustma-ust yopishtirilgan qavatlar tasvirni rangli va hajmli shaklga keltiradi.



Applikatsiyaning bu texnik turi bolalarga ko'prangli applikasiya bajarish imkonini beradi. Bola kompozitsiyani tasavvur qilib va uni ketma-ketlikda bajaradi. Shakllar qir qiladi va yopishtiriladi va har bir keyingi qism avvalgisidan ma'lum bir o'lchamda kichikroq bo'lishi kerak.

Simmetrik applikasiya

Simmetrik applikasiya uchun shakllarni, ya'ni kerakli o'lchamdagi kvadrat yoki to'rtburchak qog'ozni yarmiga o'rtasidan buklaymiz. Uni o'rtasidan buklab ushlab turamiz, tasvirning ortiqchasini kesib tashlaymiz. Simmetrik applikasiya:


- bu fonga yopishtirilgan, simmetrik tuzilishga ega bo'lgan shakllarning tasviri:

- u yonma-yon ko'zgu shaklida, biroz soddalashtirilgan holda, simmetrik tuzilishga ega bo'lgan ob'ektlarning tasvirlari (barglar, daraxtlar, hasharotlar, odamlar va boshqalar) bo'lib, qog'ozni teng yarmigan buklash (simmetrik qirqish) texnikasi yordamida amalga



oshiriladi

– Qog'ozning markaziy nuqtasidan buklangan chiziqlar atrofida shakllarni chizish va qirqish orqali hosil qilinadi. . Bir vaqtning o'zida takrorlanuvchi shakl qismlarning shaklini tayyorlash uchun qirqishdan oldin qog'ozni bir necha marta buklaydigan usuli yordamida amalga oshiriladi.




Lentali applikatsiya

Bu usul sizga bir yoki ikkita emas, balki alohida yoki ulangan ko'plab bir xil tasvirlarni ishlash imkonini beradi. Lentali aplikatsiya qilish uchun siz enliroq qog'oz varag'ini olishingiz, uni akkordeon kabi qatlashingiz va tasvirni qirqib olishingiz kerak. Lenta aplikatsiya yordamida biz kerakli shakllardan haqiqiy girlyandalarni yasashimiz mumkin.


Квиллинг

Qog'ozni burash yo'li bilan buyum yasash san'ati "kvilling" deb ataladi. Lug'aviy ma'nosi inglizchada "quilling" – quil(qush pati) degan ma'noni bildiradi. Shakl va ko'rinishi o'zgartirilib, spiralsimon qog'ozdan turli detallarni hajmli va tekis holda biriktirib yasaladigan kompozitsiyalar kvilling san'atining asosini tashkil etadi.




Kvilling, ya'ni burama qog'oz – bu ingichka va uzun qog'oz tasmalardan burab yasaladigan san'at turidir. Buralgan tayyor o'ramlarga turli shakllar beriladi. Shu tarzda qog'ozdan burab shakl yasash amalga oshiriladi. Bunday shakllar kartina, tabriknoma, albomlar, ramka yoki turli xil shakllarni, taqinchoqlar uchun "qurilish materiali" bo'lib xizmat qiladi. Qog'ozdan burab aplikatsiya yasash san'ati XIV- asr oxiri va XV- asr boshlarida Yevropaning O'rta Dengiz bo'yida paydo bo'lgan. Kvillingni

o'rganish uchun unchalik ko'p mablag' sarflash shart emas. Oson yoki oddiygina "qog'ozni burab yasash" deb ham ayta olmaymiz, bu san'atni egallash insondan sabr-toqat, ziyraklik, chaqqonlik, orastalik va kvilling texnikasini ustalik bilan o'zlashtirishni talab qiladi. O'quvchilar




va bog'cha tarbiyalanuvchilari tish tozalagichdan yoki ruchka sterjenidan ham foydalanishlari mumkin. Lekin bolalar uchun tig'li bo'lmagan yumshoq jihoz xavfsizroq. Sokni naychasi ham bo'ladi. Yelimga kelsak, mashg'ulot uchun PVA yelimidan foydalangan ma'kul, chunki u iz qoldirmaydi. Qog'oz tasmachalarni kattalar va katta yoshdagi bolalar uchun tasmalar rangli qog'ozdan 0,3- 0,4- 0,5 smli qilib, , kichik yoshdagi bolalar uchun 1-2 smli tasmalardan foydalanish mumkin. Berilgan o'lcham bo'yicha elementlarni yasash uchun turli diametrli o'lchamdagi chizg'ichlar mavjud. Buning uchun o'ralgan o'ramlar chizg'ich ichidagi shaklga moslab joylashtiriladi. Kvilling uchun turli qalinlikdagi (116-160 g/kv.mgacha bo'lgan) qog'ozdan foydalaniladi. Kvilling shakllarini yasashda ko'proq rangli ofis qog'ozidan ishlatiladi. Lekin kvilling uchun maxsus qog'oz yuqoridagi qalinlikda chiroyli tayyor holatda ishlab chiqariladi.

Paxmoq applikatsiya



Paxmoq aplikatsiya – bu noan'anaviy aplikatsiya turlaridan biri. U yordamida siz ajoyib hajmli rasmlar, mozaikalar, panellar, dekorativ interyer elementlari, otkritkalarini bezatishingiz mumkin.

Bizga turli xil rangdagi gofrili qog'oz o'ramlari kerak bo'ladi. Avval tasvir uchun kerak bo'lgan ranglarga mos gofrili qog'ozdan ko'plab kvadratlarni taxminan 1x1 sm qilib qirqib olish kerak. Buni bajarishning eng tezkor usuli bor. Qog'ozni o'ram holida oling va uni ochmasdan, taxminan 1 sm kenglikdagi bo'lakni qirqib oling, uni ochib, uzun lentashakl hosil bo'ladi. Undan kerakli o'lchamdagi kvadratlarni qirqish oson - kvadratning kengligini ko'z bilan chamlang. Olingan kvadratlarni turli qutilarga joylashtiriladi. Stol ustiga qog'oz kvadratlarni va tasvir chizilgan varaqni joylashtiriladi. Sharikli ruchka (kichik yoshlilar uchun sok naychasi) uchini pastga qaratiladi. Bitta kvadrat rangli qog'ozni olib, sharikli ruchka yoki naychani uchi uning markaziga qo'yiladi. Sharikli ruchka yoki naychani uchi qog'oz bilan o'rab olib, naychani barmoqlar orasida aylantiriladi. Yelim qalamni olib uchiga yelim suriladi va tasvir ichiga yopishtiriladi.



Applikatsiya mashg'ulotlari uchun kerakli xom ashyo va jihozlar

Asboblari ishlatilishiga mos bo'lishi bilan birga estetik talabga javob berishi kerak. Ayrim kerakli ashyoni pap'e-mashe usulida qaychi qo'yish uchun qalamdon yasash, mo'yqalam qo'ygichni esa qalin kartondan yasash mumkin. Applikatsiya uchun kerakli ashyo murakkab emas; qaychi, elim uchun mo'yqalam, oddiy qalam, qirqim uchun quticha, lattacha, gazeta qog'oz.

Qaychi—uchi to'g'ri, katta-kichik, katta qaychi 14-20 sm, to'g'ri, uchi uchli va aylanaviy katta tasvirlarni qirqish uchun.

Kichik qaychi: 8-10 sm mayda detallarni qirqish uchun qaychi o'tkir bo'lishi kerak. Stakanga qaychi uchi pastga qaragan holda qo'yilishi, do'stiga uzatganda ham uchini ushlagan holda o'zlash kerak, qaychi ko'ndalangida qo'lni silkitish, o'qalish mumkin emas. Unda ko'rsatish sifatida foydalanish mumkin emas.

Yelim uchun mo'yqalam. Masalan: 2-3 ta mo'yqalamga ega bo'lish kerak. Mo'yqalam applikasiyaning mazmunini katta-kichikligiga bog'liq. Katta xajmdagi applikasiyaga uchi enli

mo'yqalam, mayda detallarga esa, kichik mo'yqalamdan foydalanish maqsadga muvofiq. Ish tugagandan so'ng, mo'yqalamni yaxshilab yuvib, artib, quritib, mo'yini yuqoriga qilib qo'yish kerak. Mo'yini tuzilishini saqlash uchun.

Mo'yqalam qo'ygich- yelim ishlatishda yelimning ortiqchasi surkalib ketmasligi stolni iflos qilmasligi uchun ishlatiladi.

Qalam. masalan: tasvir konturini chizish uchun oddiy, M va TM (yumshoq, yarim yumshoq) qalam ishlatiladi. Ular yaxshi ochilgan, kontur chizishda ruchka va ximiyaviy qalamni ishlatish mumkin emas.

Yelim uchun idish—elim kichik idishchalarga solib bo'ladi, plastmassa idishlar, sopol taqsimchalar tanlanadi. Ishlatib bo'lingandan so'ng tezda yuvib qo'yish kerak.

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar:

Applikatsiya- Applikatsiya atamasining nomi lotincha "application" - "qirqib yopishtirish" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, badiiy asarlar yaratishning eng sodda va oson usulidir, bunda tasvirning asosi saqlanadi.

Syujetli applikasiya- bu ma'lum bir voqea, yoki ertaklar asosida tasvirlangan applikasiyadir.

Dekorativ applikasiya- bu naqsh gullardan tashkil topib, alohida-alohida tasvirlar (barg, shox, qo'ziqorin, qush, mashina, odam, uy va shu kabilar)dan tarkib topuvchi predmetli hodisa, harakatlar uyg'unligini aks ettiruvchi syujetdan iborat bo'lishi mumkin.

Lentali applikasiya-Bu usul sizga bir yoki ikkita emas, balki alohida yoki ulangan ko'plab bir xil tasvirlarni ishlash imkonini beradi. Lentali aplikatsiya qilish uchun siz enliroq qog'oz varag'ini olishingiz, uni akkordeon kabi qatlashingiz va tasvirni qirqib olishingiz kerak

Kvilling- ya'ni burama qog'oz - bu ingichka va uzun qog'oz tasmalardan burab yasaladigan san'at turi bo'lib, qog'ozni burash yo'li bilan buyum yasash san'ati inglizchada quilling - quil (qush pati) deb ataladi.

Paxmoq applikasiya- bu noan'anaviy applikasiya turlaridan biri. U yordamida siz ajoyib hajmli rasmlar, mozaikalar, panellar,

dekorativ interyer elementlari, otkritikalarni bezatishingiz mumkin.

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:

1. Somondan applikatsiya qaysi xalqlar opasida qadimdan mavjud?

- A. Rossiya, Kavkazorti xalqlari
- B. O`rta Osiyo xalqlari
- C. Ingliz va fransuz xalqlari
- D. Moldavan, ukrain, belorus xalqlarida

2. Applikatsiya uchun kerakli ashyolar qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan ?

- A. Qaychi, yelim uchun mo'yqalam, oddiy qalam, qirqim uchun quticha, lattacha, gazeta qog'ozi.
- B. Qaychi, yelim uchun mo'yqalam, har xil urug` navlari, lattacha, gazeta qog'ozi. karton
- C. Qaychi, yelim qirqim uchun quticha, lattacha, gazeta qog'ozi, somon bo'laklari
- D. Qaychi, yelim uchun mo'yqalam, urug`lar, qirqim uchun quticha, daraxt barglari, gazeta qog'ozi.

4. Applikatsiya qanday turlarga bo`linadi?

- A. predmetli, mazmunli, dekorativ
- B. rangli va rangsiz
- C. oddiy, mozaik, shriftli
- D. oddiy va murakkab aplikatsiya

6. Kvilling uchun qog`oz eniga necha millimetr bo`lishi kerak?

- A. 7 mm
- B. 3mm
- C. 5mm
- D. 3,5,7 mm

7. Kvilling so`zining ma'nosi.

- A. Ingliz tilidan olingan bo`lib "Quill" "qush pati" degan ma'noni bildiradi
- B. Ingliz tilidan olingan bo`lib "Quill" "pat" degan ma'noni bildiradi

C. Ingliz tilidan olingan bo`lib "Quill" "qog`ozni o`rash" degan ma'noni bildiradi

D. Ingliz tilidan olingan bo`lib "Quill" "qush" degan ma'noni bildiradi

Nazorat savollari :

1. Applikatsiya so`zi qanday ma`noni anglatadi?
2. Applikatsiyaning paydo bo`lish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
3. Qanday applikatsiya turlari bor?
4. Simmetrik applikatsiya bilan lentali applikatsiyaning qanday farqi bor?
5. Kvilling haqida himalarni bilasiz?
6. Applikatsiya mashg`ulotlari uchun qanday kerakli xom ashyo va jihozlar bor?
6. Kvilling yasash uchun qanday jihozlar kerak?
7. Paxmoq applikatsiya nima?
8. Qo`lda yirtib bajariladigan applikatsiya qaysi guruhdan boshlab o`tkaziladi?

§12. Turli yosh guruhlarda applikatsiya mashg`ulotlarini tashkil etish metodikasi

Applikatsiya mashg`ulotining vaqt taqsimoti

Ish uchun vaqtni taqsimlash ushbu faoliyat turini o`quv jarayonida amalga oshirish turiga bog`liq.

Kirish qismi: 2-3 daqiqa (tarbiyachi bolalarning mavzu bo'yicha bilimlarini yangilaydi, ishning bajarilishi haqida gapiradi, buning uchun zarur bo`lgan materiallar va vositalarni sanab o'tadi);

Asosiy qism: 10-18 daqiqa (tarbiyachi topshiriqning tartibini tushuntiradi, har bir bosqichni shaxsiy misol bilan ko'rsatadi, bolalar bajarishni boshlaydilar, agar kerak bo'lsa, tarbiyachi individual yordam beradi, shuningdek, jismoniy tarbiya mashg`ulotini o'tkazadi. bolalarning jismoniy va ruhiy zo`riqishni engillashtirish uchun);

yakuniy qism: 2-3 daqiqa (tarbiyachi har bir bolaning ishi natijalarini baholaydi, boshqa bolalar esa katta maktabgacha

yoshdagi bolalarning ishini baholaydilar, applikatsiyalarning ko'rgazmasi shakllanadi, bolalar o'z ishlariga qisqacha sharh berishadi - ma'lum bo'ldi. / ishlamadi, tugallangan ishini yoqtirish (yoqtirmaslik).

Tarbiyachining amaliy ishtiroki:

Yuqorida aytib o'tilganidek, har qanday yoshdagi bolalar bilan amaliy ishini bajarishda tarbiyachining ishtiroki vazifani bajarish bosqichida alohida ahamiyatga ega. Biroq, ta'lim jarayonining bir yosh guruhidan keyingi yosh guruhiga o'tganda, pedagogning bu vazifasi kamaytiriladi:

Kichik guruhda - tarbiyachi elementlarni qirqib tashlaydi, agar tafsilotlar asosda noto'g'ri joylashtirilgan bo'lsa, to'g'rilaydi, yopishtirish sifatini tekshiradi;

O'rta guruhda - o'qituvchi kichik detallarni qirqishga yordam beradi, topshiriqning qolgan bosqichlarini individual ravishda tuzatadi;

Katta va tayyorgarlik guruhlarida - o'qituvchi zarur individual yordam ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida applikatsiyani o'zlashtirish usullari ketma-ketligi. Applikatsiya bo'yicha faoliyat material va asboblardan elementar harakatlar murakkablashtirilib borishi izchil xarakterga ega bo'ladi.

Kichik guruhlarda applikasiya qilishga o'rgatish. Maktabgacha ta'lim muassasasida applikasiya mashg'ulotlari kichik guruhdan boshlab olib boriladi. Bu guruhda barcha mashg'ulotlarda bolalar kattalar tomonidan qilib berilgan tayyor shakllarni qog'ozga to'g'ri, turli xil joylashishda terib chiqib va yopishtirishga qaratilgan. Bu guruhda asosiy vazifa - bolalarni yelimlash usullarini o'rgatish hisoblanadi. Kattalar uchun oddiy hisoblangan, bu malaka qator harakatlarni ketma-ket bajarishdan iborat bo'ladi, ya'ni mo'yqalamni to'g'ri ushlab, unda ozgina yelim olish, shaklni teskarisi bilan qo'yib, yelimni butun shaklga tekis qilib surib chiqish, surayotgan chap qo'lining barmog'i bilan shaklni tutib turish, so'ng mo'yqalamga ehtiyotkorlik bilan qo'yib, shaklni sekin rang tomoni bilan o'girib, qog'oz varag'ining kerak joyiga qo'yish va salftka yordamida sekin bosish, chekkalaridan chiqib ketgan ortiqcha elimni sekingina artib olishdan iborat. Bu yoshdagi bolalarga ana

shu harakatlarni egallab olish, albatta oson emas. Eng sodda shakl - kvadrat va doira uning uchun shu shakllardan ishini boshlash lozim. Yil davomida bolalar shu shakllarni nomini to'g'ri aytishni egallab olishlari lozim. Lekin butun yil davomida o'tkaziladigan applikasiya mashg'ulotlarida faqat shu shakllar bilan kifoyalanib qolish bo'lmaydi. Bu guruhda bolalarda dastlab bir; keyin 2-3 qismdan tuzilgan predmetlarni (qo'ziqorin, bayroqcha, qorbobo, uy) yopishtirishga o'rganadilar. Shuningdek, yil oxiriga borib bolalar olti-etti xil rangni qizil, ko'k, sariq, yashil, jigarrangni to'g'ri aytib berishlari lozim. Bu guruh bolalariga qaychi berilmaydi, chunki bolalarning qo'l harakati etarli taraqqiy etmagan va hali qurish nazorati etarli bo'lmaganligi sababli bolalar qo'lidagi qaychi xavf tug'dirishi mumkin.

Kichik guruhda bolalarni aplikasiya qilishga o'rgatishida ish uchun beriladigan materiallar va mashg'ulotni tashkil etish ahamiyatiga egadir. Tarbiyachi mavzuni tushuntirib bo'lganidan so'ng material tarqatilib, bolalar materialni topshiriqqa mos ravishda kesmaga terib chiqadilar. Tarbiyachi dastlab elementlarni qo'yib chiqilganini tekshiradi, shundan keyingina bolalarga yelim tashlash uchun beriladi. Bu guruhda tarbiyachi bolalar bilan naturani kuzatish namuna bilan birgalikda olib borish kerak. Namunani ko'rsatish jarayonida tarbiyachi shaklning rangini to'g'ri aytish va barmog'i bilan uni ko'rsatib, shu shaklning xususiyatlarini bolaga aniq ko'rsatib beradi. Tarbiyachi tomonidan ishini bajarilishini ko'rsatib berilishi, bolalarni turli malaka va u'quvini vujudga kelishida muhimdir. Shuningdek, tarbiyachi ish tartibini ham boshidan ko'rsatib boradi. Qanday shaklni oldi, qanday ishlab qo'yib yelim surtdi va boshqalar. Tarbiyachi o'zining har bir harakatini so'z bilan birgalikda olib boradi.

Kichik maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar esa tayyor shakllarni va ularning rangini bir-biriga moslab, tanlab yopishtiradilar. Juda yaxshi estetik effekt bilan qilingan ishlar, ayniqsa dekorativ bezaklar bilan guruh xonasini bezatish mumkin. Shunday qilib, olib borilgan tekshirish ishlari shuni ko'rsatadiki, yaxshi uyushtirilgan aplikasiya mashg'ulotlari, bolalarni boshqa mashg'ulotlarga, dekorativ, predmetli va syujetli mashg'ulotlariga

ijobiy ta'sir etadi. Bolalarda sensor madaniyat oshadi, qo'l bilan tahlil qobiliyati o'sadi va badiiy didlari shakllanadi.

O'rta guruhda applikasiya qilishga o'rgatish. Bola hayotining 5-yiliga kelib ham psixologik, ham jismoniy tomondan o'sadi. Bu esa bolaning applikasiya bo'yicha bajaradigan ishning sifat jihatidan o'zgarishiga olib keladi. Bolalar tuzilish jihatdan ancha murakkab bo'lgan predmetlarni tasvirlashga o'rganadilar.

O'rta guruh bolalari kichik guruhga nisbatan malaka va ko'nikmalarini ancha egallagan bo'ladilar. Bu guruh bolalari 2-3 qismli emas, balki 4-5 qismdan iborat predmetlarni tuzishga o'rganadilar. Dastlab, bu guruhga qaychi bilan ishlash kiritiladi. Bolalar qaychini to'g'ri ushlashga, uni richagini yopishga va ochish to'g'ri qirqim olishga o'rganadilar. Buning uchun oldin eskiz, keyin esa enli yoki keng qog'oz lentalar qirqishga o'rganadilar. Bu guruhda bolalar yelimplash malakasini egallashi davom ettiradilar. Bola hayotining 5 yilida doira, kvadratdan tashqari uchburchak, oval, o'zun to'g'ri to'rtburchakni biladilar. Trapesiya shaklini esa kichik guruxda bo'lgani kabi obrazli tasviriya davom etadi. Masalan: tom, qayiqcha, kichik guruhga yana qo'shimcha havo rang, pushti, kulrangni sezishga va to'g'ri aytishga o'rganadilar. Ular qog'oz varog'ida tez va osonlik bilan orintirovka qilishga o'rganadilar. Ular orqada, ketma-ket, teng masofada va boshqa fazoviy tushunchalarni egallaydilar. Bolalar to'g'ri kesmalar qirqishdan tashqari aylanaviy shakllar qirqishga o'rganadilar. Ular kvadrat va to'g'ri to'rtburchakning burchaklarini dumaloqlashga o'rganadilar. Ana shu qirqib olingan aylanaviy shakllardan qo'ziqorin, minorcha, qorbobo kabi predmetlarni hosil qilishga o'rganadilar.

Yopishtiriladigan detallar soni ham ko'payadi, masalan: uychani tasviriya faqat devori emas, balki eshik va derazalarni ham tasvirlaydilar. Shakl va rang bilan ishlash ham rivojlanadi to'rtburchak, kvadrat, doira, uchburchak, pushti rang, kulrang, havo rang va boshqalar. Bu guruxda qog'oz varag'ida to'g'ri mo'ljallashga o'rganadilar va quyidagi tushunchalar bilan tanishib boradilar. Masalan: orasida, chekkada, bir xil masofada va boshqalar. O'rta guruhda tarbiyachi o'zining asosiy diqqatini bolalarni qaychi bilan ishlashga qaratadi. Yil davomida tarbiyachi bolalarni qirqishning turli usullari bilan tanishtiradi. Tarbiyachi qaychini to'g'ri ushlashga,

qog'ozni to'g'ri ushlashga o'rgatib boriladi. Yopishtirish malakasi esa mustahkamlanib boradi. Bu guruhda asosiy vazifa bolalarni qirqish texnikasini egallab olishga qaratilgandir bu guruhda tarbiyachi bolalarni predmetli dekorativ, mazmunli applikasiyaga o'rgatib boradilar. Sodda predmedlardan murakkab predmedlarni tasvirlashga o'rgatiladi. Bolalar albatta qaychi bilan ishlashga darhol o'zlashtira olmaydi. Shuning uchun tarbiyachi qaychi bilan ishlashga o'rgatishda dastlab enli, ensiz kesmalar qirqishga o'rgatib, mashqlantiradi, har bir applikasiya mashg'ulotlarining mavzu va mazmuni turlicha bo'lishi lozim. Masalan: dastlabki mashg'ulotlarda tarbiyachi bolalarga «do'kon» uchun chipta, cheklar qirqishni taklif etadi. Yoki masalan qirqilgan kesmalardan uycha, daraxt, panjara, narvon kabi predmetlarning oddiy ko'rinishi tasvir etishi mumkin. Bu esa bolalarni mashg'ulotga qiziqishini oshiradi va mashg'ulotni bir xil tarzda bo'lishini oldini oladi. Bir-ikkita mashg'ulotni o'tkazgach, keyingi mashg'ulotlarni bolalarni ijodiy faolligini o'stirish uchun tavsiya etish mumkin. Masalan: Bolalarni o'zlari qirqib olgan rangli kesmachalardan turli xil predmedlarning ko'rinishini tasvir etadilar. Masalan: yulduzlar, bayroqchalar, gullar. Keyingi applikasiya mashg'ulotlarida bolalarni to'rtburchak, kvadratni dioganali bo'yicha, trapesiya va uchburchak hosil qilishga o'rgatiladi. Sharf, sochiqni kvadrat va uchburchaklar bilan bezaydilar, shuningdek, kvadrat - gilamga, dastrumolcha, doira-taslimchani ham bezaydilar. Tayyor siluetlar ham berish mumkin. Bolalar oval va doira shaklni hosil qilib qirqishga ancha qiynaladilar. Ular doiraviy shakldagi predmetlardan: tursa yiqilmas qog'irchoq, meva-sabzavotlar, piramida va boshqalarni qirqib yopishtiradilar. O'quv yilining davomida bolalarga mazmunli aplekasiya ishlarini ham taklif etishi ham mumkin. Masalan: Bo'g'irsoq yo'ldan dumalab ketayapti, o'tloqdagi jo'jalar, qo'ziqorinlar va hokazo.

Bu guruhda bolalarni jamoa bo'lib ishlashga o'rgatamiz. Masalan: katta gilam yoki sabzavot mevalardan tashkil topgan vitrmani yoki havoda, osmonda samalyotlarni tasvir etishlari mumkin. Bundan tashqari bolalar o'z xohishlari bo'yicha xilma-xil applikasiya ishlarini bajaradilar. Masalan: Onam uchun sovga, tayyor siluetni naqshlar bilan bezatish mumkin. Masalan: fartuk, qo'ldop, shapkani qirqib yopishtirish yoki bezatish mumkin.

Tarbiyachi bu guruxda ham hilma-xil metod va usullardan foydalanadi. Muhim bo'lgan metodlardan biri informasion-reseptiv hisoblanadi. Bu metod tasviriy lozim bo'lgan predmetni har tomonlama ko'rib chiqish va taxlilni o'z ichiga oladi. Tarbiyachi bu guruxda ko'proq bolalarning o'zlariga tasvirlanayotgan predmeti haqida gapirib berishni, uning sifat, belgisini konkret aytib berishga, tasviriy yo'llarini mustaqil bilishga o'rgatib boradi. Bolalarni kvadratlardan doiraviy shakllar qishqishda ularning faqat burchaklarini qirqish kerakligini ko'rsatish kerak va qog'ozni qo'lda biroz harakat qildirish kerakligini namoyish qilib beradi. Bu usul bolalar oq qog'oz, so'ng rangli qog'oz berish tavsiya etiladi. Tarbiyachi tanish bo'lgan qirqish usullarini birorta bolani chaqirib, bolalar uchun namoyish qilib berishni taklif etish mumkin. Har bir harakatni tarbiyachi so'zi bilan tushuntirib borishi kerak. Agarda murakkab applikasiyani tuzish kerak bo'lsa, tarbiyachi flanigrafdan o'sha narsani illyustrativ rasmlarni ko'rib chiqishni taklif etish mumkin. Masalan: qo'ziqorin, uning oyoqchasi va shapkachasi bor, oyoqchasi pastda, shapkasi yuqorida joylashgan. So'ng tarbiyachi bolalarga savollar beradi, obrazli so'zlardan foydalanadi, qo'l bilan shakl ko'rinishini tasvirlovchi harakatlarni bajarishlari mumkin. Shuningdek, tarbiyachi namuna ko'rsatishda foydalanadi. Namuna shuningdek, predmetning o'zi ham topilmagan taqdirda foydalanish mumkin. Mashg'ulotda eng muhim metodlardan biri yopishtirishni ko'rsatish va tushuntirish hisoblanadi. YOpishtirish jarayonini hamma bolalarga ko'rinadigan qilib, namoyish qilish lozim. Buning uchun doska yoki molbertdan foydalanish mumkin. Shuningdek, yopishtirish jarayonida ketma-ketlikni bolalar yaxshlab o'zlashtirib olishsa uni bolalarning o'zlariga taklif etish mumkin yoki ko'rsatishni o'rniga, faqatgina og'zaki tushuntirish bilan kifoyalanib qolish mumkin. Bu yoshdagi bolalar bilan ishlashda o'yin usuldan keng foydalanish mumkin va lozim. Chunki bu usul bolalarni mashg'ulotga nisbatan qiziqishni uyg'otib, ularni faollashtiradi. Bu yoshdagi bolalar bilan ishlashda indiviudal ishlash, muhim rol o'ynaydi.

Tarbiyachi bir bolaga yopishtirishni ko'rsatsa, ikkinchisiga nimasini qilish kerakligini tushuntirib beradi. Bolalar ishini ko'rib chiqish ham muhim metod va usullardan biri bo'lib hisoblanadi.

Tarbiyachi bolalar ishini ko'rib chiqish va tahlil qilish faqatgina barcha bolalarni ishini maqtash lozim. Keyingi mashg'ulotlarda tarbiyachi bolalar ishini tahlil qilishda ishning ozoda bajarilganligi, rangning to'g'ri tanlanganligi va qog'ozda to'g'ri joylashtirilganligini hisobga olib, taxlil qiladi va bolalarni ham shunga o'rgatib boradi.

Mashg'ulotning oxirida tarbiyachi bolalar bilan birgalikda bajarilgan applikasiyani ko'rib chiqadi. Predmetga o'xshaydi, shakllar toza yopishtirilganmi. Tarbiyachi bolalarning tahliliga yakun yasab, bolalarni yaxshi ishlarga diqqatini jalb etadi.

Katta guruxda applikasiya qilishga o'rgatish. Katta guruxlarda ko'pincha mashg'ulotning ma'lum bir qismi ikki va undan ortiq bolalar bilan birga ishlaydigan jamoa ish sifatida tashkil etish lozim. Bolalar birgalikda oldida turgan vazifani muhokama qiladilar, ish tvrtibini planlashtirishadi, bir-birlariga yordam ko'rsatadilar. Applikasiya mashg'uloti shartsiz ravishda bolalarda ijodiy qobiliyatlarining o'sishga ta'sir ko'rsatadi.

Bola hayotining 6-yilida kuzatishlar, o'yin sensor tarbiyaning ta'siri ostida bolalarda predmetning rangi, shakli, kattaligi va boshqa sifatleri to'g'risida bilim va tasavvurlari shakllana boradi. Bu yoshga kelib bolalarda tasviriy u'quv va texnik usullari mavjud bo'ladi, qo'l muskullari rivojlangan bo'lib, qaychi bilan qiladigan harakatlari ancha aniq va ishonchli bo'ladi, bu esa o'z-o'zidan applikasiyaga o'rgatishning ancha murakkab vazifalarini hal etishni taqozo etadi. Applikasiya mashg'ulotlari prosessida predmet to'g'risida xilma-xil ma'lumotlar berib boriladi. Bolalar xilma-xil shakllarni atashga, kvadrat, to'rtburchakni bir-biridan farq qilishga, ularning asosiy belgilarini to'g'ri atashga o'rgatib boriladi. Shuningdek, bolalarni oval, doira, uchburchakni to'g'ri ajratishga farq qilishni o'rgatadi. Shunday qilib, bolalar faqat shakllar bilan emas, balki ranglar bilan tanishib boradilar. Masalan: och, to'q, yorqin ranglar va boshqalar. Bolalar orqali bolalar rangni sezishga, uni tanlay bilishga o'rganib boradilar. Applikasiya prosessida figuralarni bir-biri bilan taqqoslashga o'rganadilar, baland-past, keng-tor ya'ni qalin-ingichka kabi tushunchalarni egallab, tushunib boradilar. Shuningdek, qog'oz varag'ini mo'ljallay bilish bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar, tepada, pastda, o'rtasida, ketma-ket tushunchalarni egallashga harakat qiladilar. Bu ishda bolalarni qaychi bilan qirqish usullariga o'rgatib

borish davom ettiriladi. Bu bilan o'rgatib borish davom ettiriladi, bu bilan bolalar o'rta guruhda egallagan qirqish usullarini takrorlab, mustahkamlaydilar va yangi qirqish usullarini egallaydilar. Bular quyidagilar: qog'ozni 2 buklab bir xil shakllar qirqish usuli, simmetrik shakllarini ham bir necha marta buklab (garmoshka qilib taxlab) qirqishga o'rganadilar. Masalan: gullar, barglar va hokazo. Bu guruxda tarbiyachi bolalarning diqqatini doimo ishning sifatiga qaratib boradi. Chunki qirqish va yopishtirishning sifati butun bir ishning yoki aplikasiyaning sifatiga ta'sir etadi. O'quv yilining boshida bolalar bilan doiraviy shakllarni qirqish ustida ishlanadi, chunki bolalar bu usulni o'rta guruxda etarli darajada egallamagan bo'ladilar. Bolalar predmetlarni qismlarga bo'lib, qirqib yopishtirishni o'rgangach, ularning qirqishning rasional usuli ya'ni garmoshka usulida qog'ozni buklab qirqishga o'rganadilar. Ammo yilning boshida dumaloq shaklidagi predmetlarni qirqishni mustahkamlashga tarbiyachi quyidagi temalarda ishlar berishi mumkin. Masalan: ko'zgi barglar, sabzavot, mevalar, qo'ziqorinlar va hokazo. O'quv yili davomida bolalar predmetli aplikasiya ishlarini bajaradilar. Masalan: samolyot, raketa, mashina, trolleybus va hokazo. Qog'ozni garmoshka usulida buklab qirqishga turli hil predmetlarni taklif qilish mumkin. Masalan: bargli shohcha, gullar, archa o'yinchoqlari. Shuningdek, dekorativ aplikasiya bo'yicha ham shar, sochiq, kvadrat, gilam, doira, tarelka va shuningdek tayyor siluetlarni zontik, choynak, fartuk kabilarni bezatishni taklif etish mumkin. Bolalarni simmetrik figuralarni qirqishga o'rgatishda tarbiyachi simmetrik tuzilishga ega bo'lgan predmetlarni taklif etadi. Masalan: guldona, nok, kapalak, masxaraboz va hokazo.

Bolalar predmetli, dekorativ aplikasiyadan tashqari mazmunli aplikasiya ham bajaradilar. Masalan: quyovning bo'g'irsoq bilan uchrashuvi, qor bosgan uycha, qiz bayroq ushlab turibdi va hokazo. Katta guruxda bolalar o'z ixtiyorlari bilan ham aplikasiya ishlarini bajaradilar. Bolalar olgan bilim, malakalar asosida o'zlari mustaqil aplikasiya ishlarini bajaradilar. Aplikasiya mashg'ulotlarida bolalar jamoa ishlar bajaradilar. Gullar va afsonaviy qushlar tasvirlangan gilam, sevimli o'yinchoqlari va boshqalar. Katta guruxda ham aplikasiya mashg'ulotida tasvirlash kerak bo'lgan predmetlarni tahlil qilishga katta o'rin ajratiladi va unda bolalarni

savollar bilan aktivlashtirilsa, katta guruxlarda esa bolalarni mustaqilligini qo'proq ta'minlaydi. Tahlil jarayonida bolalar predmetning shakliga, rangiga, turli xil xususiyatlariga e'tibor berishi lozim. Xalq amaliy san'ati asarlarini ko'rib tahlil qilishga, bolalarga ranglar garmoniyasining go'zalligini sezishga, ko'pincha kompozitsiyaning mazmundorligini ochishga o'rgatiladi. Bu guruxdan namunadan ayrim hollarda, ya'ni ishning yakunini namoyish qilishda foydalanish mumkin. Har bir qirqish usullarini ko'rsatib berishga maqsadga muvofiq bo'lmadi. Tarbiyachi ko'proq bolalarning o'zlarini aktivlashtirib, bolalarning o'zlariga mustaqil ravishda qirqish yo'llarini, yopishtirish tartibini qidirib topishga undaydi. Agarda yangi qirqish yo'llari kiritiladigan bo'lsa, tarbiyachining o'zi qirqish yo'llarini ko'rsatib beradi. Masalan: qat-qat usulida qirqish, ayniqsa, simmetrik figuralarni qirqishda bolalar ancha qiynaladilar. Shuningdek, tarbiyachi ayrim predmetning qog'ozdagi tasviridan foydalanish mumkin. (qo'l harakatlari bilan yurgizib chiqishi mumkin). Dastlab tarbiyachi «predmetning yarmi» deb tushuntirish asosida bolalar usulni tushunib etadilar. Bu guruxda bolalar qog'ozni qo'l bilan yirtib, mayda bo'lakchalardan foydalanib tasvirini hosil qilishga o'rganadilar. Tarbiyachi bolalarni mustaqil, ijodiy ishlashga o'rgatib, mazmundor aplikasiya yaratishga, tayyorlov guruxga o'tgach ularning aplikasiya bo'limi ancha murakkablashadi. Ular qirqimning yangi usullarini egallay boshlaydilar. Bu usullari-bir necha marta buklangan qog'ozdan qirqish va siluet qirqish hisoblanadi. Shu bilan bu gurux bolalarni turli xil shakllarda dekorativ naqsh to'zishga va bir necha qismdan tuzilgan predmetlarni tuzishga hamda mazmunli aplikasiya tuzishda predmetlarni joylashtirishga o'rganadilar. Shu bilan birga rang spektrining barcha ranglaridan foydalanishga o'rganadilar.

Siluet qirqish -eng murakkab usullardan biridir. Siluet kiritish jarayonida bola doimo predmetning obrazni xotirasida tutib turishga va uning konstruksiyasi va proporsiyasini kuzatib turishga, qo'l harakatini hosil qilinayotgan shaklning yo'nalishiga moslashishga to'g'ri keladi. shuning uchun bolalarni siluet kirishga o'rgatishni sodda shakllardan baliqlar, sabzavot, mevalar dan boshlash lozim.

Katta guruhda bolalarni applikasiya qilishga o'rgatishda quyidagi vazifalar turadi: Bolalarni to'g'ri harakat bo'ylab qirqish, dumoloq shakllarni va ikkiga buklangan qog'ozni qirqishga o'rgatiladi. Bir nechta qismdan to'zilgan predmetlarni hosil qilishga, geometrik va simlik formalaridan chiroyli dekorativ naqsh to'zishga o'rganadilar. Demak, bu guruhda asosiy vazifa qirqishning xilma-xil usullarini egallashdan iborat ekan. Oldin bu guruxda ham o'rti guruxdagi kabi mavzularda, faqat detallar soni ko'paytirilib qorbobo, kalpogi boshida yoki qo'lida xaltasi bilan, samolyot esa qanotlarida yulduzi bilan va qorboboning yuz qismidan mayda detallarini: burun, ko'z va boshqalar. Bu guruhda bolalar ba'zi shakllarni ikkiga buklangan qog'ozdan, shoxchasi barglari bilan. Bu usullarni ishlatilishi vaqtini ancha tejaydi va chiroyli mazmun yoki kompozisiyani tayyorlash mumkin. Qog'ozni ikkiga buklab qirqish, bir-biriga simmetrik shakllarni qirqishni osonlashtiradi. Bu usuldan foydalanib bolalar vaza, barglar, sabzavot va mevalarni shaklini qirqadilar. Katta guruhda bolalar shakllarni qog'ozning uchini qo'l bilan tekislab, barmoqlarda qirqishga o'rganadilar. Katta guruh bolalarning ishlaydigan ish mazmuni shu bolalarda qirqishning ko'nikma va malakasini rivojlantirishdir. Dekorativ applikasiya ishlarida esa bu guruhda faqatgina tayyor geometrik shakllar berilmay, balki xilma-xil o'simlik shakllaridan barg gullar va boshqalarni elementlari kiritiladi.

Tayyorlov guruhga o'tgacha, ularning applikasiya bo'limi ancha murakkablashadi ular qirqishning yangi usullarini egallay boshlaydilar. Bu usullar-bir necha marta buklangan qog'ozdan qirqish va siluet qirqish hisoblanadi. SHu bilan birga bu guruh bolalarini turli xil shakllarda dekorativ naqsh to'zishga va bir necha qismdan to'zilgan predmetlarni to'zishga hamda mazmunli Applikasiya to'zishda predmetlarni joylashtirishga o'rganadilar. SHu bilan birga snektorlarining barcha rangdaridan foydalanishga o'rganadilar.

Katta guruh bolalarini applikasiya qilishga o'rgatishda qirqishning turli usullarini egallash muhim ahamiyatga egadir. Bolalarning tasavvuriga asoslangan holda tarbiyachi bolalar bilan naturani, uning qismlari, to'zishini taxlil qilib, alohida qimlarga ajratib ko'rsatadi. Namunada agar bolalar predmetni birinchi marta

tasvirlayotgan bo'lishsa foydalanish mumkin. Uni taxlil qilishni bolalarning o'ziga topshirish mumkin bo'ladi. Agar bolalar o'zlariga tanish predmetni bir necha detallari bilan tasvirlanayotgan bo'lishsa, namuna o'rnini natura bilan almashtirish mumkin bo'ladi. Masalan: Oddiy uyni emas, afsonaviy uyni yoki bayramga bezatilgan uyni katta va tayyorlov guruxlarda bir necha namunalardan foydalanib, ko'rsatish tavsiya etiladi. Chunki bu narsa bolalarning ijodiy aktivligini tarbiyalaydi. Bu guruxda bolalar qog'ozni ingichka buklab simmetrik shakllar qirqishga o'rganadilar. Bu albatta qiyin usul, shuning uchun I.A.Gusakova bolalarni bu usul bilan dastlab tanishtirishda qog'ozni buklab chizilgan kontur berishni tavsiya etadi. Bolalar bu usulni egallab olgach ularni kunt bilan chamalab qirqishga o'rgatiladi. Katta guruxda kallektiv bo'lib aplikasiyalar bajariladi. Masalan: «Akvariumdagi baliqlar», «O'tloqdagi gullar», «Ko'chadagi uy va mashinalar». Har bir bola ishning qaysidir qismini bajaradi. Keyin har bir qism umumiy fondga birlashtiriladi. Tarbiyachi ishni bolalarni xohishiga qarab taqsimlaydi. Ba'zi jamoa ishlarni bajarishda bolalar 4-5 ta bo'lib, guruxchalarga birlashishadi.

Tayyorlov guruhida applikasiya qilishga o'rgatish. Tayyorlov guruh bolalari bilan dasturda mazmunli aplikasiyalarni berish ko'zda tutiladi. Ular ko'cha, akvarium kabi mavzularda shuningdek, «Bo'g'irsoq» kabi ertaklarga illyustrasiyalar bajarishlari mumkin.

Tayyor shakllarni yopishtirish tayyorlov guruhida ham davom ettiriladi. Simmetrik shakllardan naqishlar tuzishda ularga turli kattalik va rangdagi tayyor shakllar beriladi va bu guruhda ham katta guruhdagi kabi qog'ozni qo'l bilan yirtish usulidan foydalanish davom etadi.

Tayyorlov guruh bolalari bilan dasturda mazmunli aplikasiyalarni bajarish ko'zda tutilgan. Ular «Ko'cha», «Akvarium» kabi mavzularda, shuningdek, «Bo'g'irsoq» kabi ertaklarga illyustrasiyalar bajarishlari mumkin. Tayyor shakllarni yopishtirish tayyorlov guruxida ham davom ettiriladi. Simmetrik shakllardan naqishlar tuzishda turli o'lcham va rangdagi tayyor shakllar beriladi. Va bu guruxda ham katta guruxdagi kabi qog'ozni qo'l bilan yirtish usulidan foydalanishi davom etiladi. Ikkinchi kichik guruxda bolalarni applikasiya qilishga o'rgatishga ish uchun

beriladigan materiallar va mashg'ulotni tashkil etish muhim ahamiyatga egadir. Materialning rangi bolalarni diqqatini o'ziga tortib ularni chalg'itadi. Shuning uchun dastlab mashg'ulotlarda material alohida paketlarda tushuntirilib bo'lgandan so'ng tarqatiladi. Tarbiyachi mavzuni tushuntirib bo'lgandan so'ng material tarqatilib, bolalar materialni topshiriqqa mos ravishda qog'oz varag'ida terib chiqadilar. Tarbiyachi dastlab elementlarni qo'yib yig'ilganligini tekshiradi, shundan keyingina bolalarga kley ishlatish uchun beriladi. Bu guruhda tarbiyachi bolalar bilan naturani ko'zlatishi namuna bilan birgalikda olib borishi kerak. Namunani ko'rayotgan prosessida tarbiyachi shaklning rangini aniq atashi va barmog'i bilan uni ko'rsatib, shu shaklning xususiyatlarini bolaga aniq ko'rsatib beradi. Tarbiyachi tomonidan ishni bajarilishini ko'rsatib berilishi bolalarni turli malaka va o'quvini vujudga kelishida muhimdir. Shuningdek, tarbiyachi ish tartibini ham boshidan ko'rsatib beradi. Qanday shaklni oldi, qanday qilib quyib kley surtdi va boshqalar. Tarbiyachi o'zining har bir harakatini so'z bilan birgalikda olib boradi.

Tayyorlov guruhida ishning dastur materialiga siluet qirqish usuli kiritiladi. Shuning uchun o'rgatish usullarining karakteri bir muncha o'zgaradi. Naturani tahlil qilishda tarbiyachi ularning diqqatini predmetni konturiga tortadi, barmoq harakati orqali. Bunda harakatni qirqish qaysi qismdan boshlanadigan bo'lsa o'sha qismdan boshlash lozim. Bu guruhda bolalar endi predmet konturiga qandaydir detal qirqishga o'rganadilar (tipratikan ignalari bilan). Albatta bolalarga bu qiyin. Shuning uchun bu ishda ikki etapdan foydalaniladi. Oldin tayyorlangan qog'ozdan umumiy kontur qirqiladi. So'ngra uning detallari, masalan: oyog'i yoki suzgichlari qirqiladi. Ba'zi vaqtlarda siluet qirqish oldindan chizilgan kontur asosida qirqiladi. Bu narsa ko'proq murakkab o'simlik elementlaridan dekorativ shakllar tu'zishda qo'llaniladi. Bu guruhda qog'ozni ikkiga buklab qirqishning murakkabroq usuli bilan tanishtiriladi. Masalan: archa, odam, hayvon shakllari. Yana bu guruxda qirqishning murakkab usuli-qog'ozni bir necha marta buklash orqali qirqishga o'rgatish usuli o'rgatiladi. Bu usul salfetka, qor parchalari hosil qilishda qo'llaniladi. Tarbiyachi bolalarga qog'ozni qanday buklash kerakligini, qirqish yo'llarini ko'rsatib

beradi. Bu usuldan bolalar keyin dekorativ applikasiya mashg'ulotlarida foydalanadilar. Bu guruxda hali syujetli applikasiya qilish davom ettiriladi. Bunda bolalarni shakllarni to'g'ri joylashtirib, yopishtirishga o'rgatadilar. Oldin umumiy fon, keyin o'zoqdan joylashgan, o'rtada va oldinda joylashgan predmetlar yopishtiriladi. Tayyorlov guruxda applikasiya jamoa ish sifatida berilishi mumkin. Masalan: «Egri va tugri» ertagida bolalar 4 tadan bo'lib, har bir guruh shu ertakdan ma'lum bir ko'rinishni bajarishlari mumkin. Bolalar shu ko'rinish elementlarini qirqib, joylashtirib qurganlaridan so'ng uni qanday ketma-ketlikda yopishtirish kerakligini aniqlaydilar. Biri elim surtadi, ikkinchisi uni joylashtiradi, uchinchisi latta bilan mahkam yopishtiradi. Bu ish bolalarni o'rtoqlik, jamoatchilik ruhida tarbiyalashda katta qimmatga egadir.

Maktabgacha ta'lim muassasasining hamma guruhlarida ixtiyoriy applikasiya mashg'ulotlari o'tkaziladi. Lekin o'rta guruh bolalariga o'ylagan mazmunlari asosida tayyor shakllar beriladi. Katta guruxlarda o'zlari o'ylagan mazmunlari asosida qirqadilar. 6-7 yoshdagi bolalar oldindan qiladigan ishlari mazmunini eskizni oddiy qalam bilan chizib olishi, keyin esa shu eskizning detallarini applikasiya qilishlari mumkin.

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar:

Siluet qirqish - eng murakkab usullardan biridir. Siluet kiritish jarayonida bola doimo predmetning obrazni xotirasida tutib turishga va uning konstruksiyasi va proporsiyasini kuzatib turishga, qo'l harakatini hosil qilinayotgan shaklning yo'nalishiga moslashishga to'g'ri keladi

Mozaika (modul)li Applikatsiya - bu texnika yordamida surat tasviri ko'plab bir xil barglarni ustma-ust yopishtirish yordamida hosil qilinadi (masalan, zarang daraxti urug'lari).

Simmetrik qirqish-

Simmetrik applikasiya - simmetrik to'zishga ega. Yana ikkita bir xil surat bo'lishi dam mumkin (masalan, suvdagi aksi). Shuning uchun bir xil shakldagi barglarni topish kerak bo'ladi.

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:

1. Applikatsiya ishida siluet qirqish usuli qaysi guruhda o'rgatiladi?

- A. Katta guruh
- B. Kichik guruh
- C. Tayyorlov guruh
- D. O'rta guruh

2. Bolalarga qaysi guruhdan boshlab qaychi beriladi beriladi ?

- A. katta guruhdan
- B. kichik guruhdan
- C. o'rta guruhdan
- D. tayyorlov guruhidan

3. Syujetli applikatsiya bu-...

- A. Voqealar, tabiat, portret, harakat ko'rsatilgan applikatsiya
- B. Ertak syujeti ko'rsatilgan applikatsiya
- C. Tabiat ko'rinishlari applikatsiyasi
- D. Tabriknoma va taklifnomali applikatsiya

4. Predmetli applikatsiya bu-...

- A. Ko'p rangli applikatsiya
- B. Uzluksiz qirqimli applikatsiya
- C. Geometrik shaklli applikatsiya
- D. Alohida yakka predmet ko'rinishiga ega bo'lgan

applikatsiya

5. Simmetrik qirqish nima?

- A. Bir tomoni ikkinchi tomoniga o'xshash bo'lgan uyg'unlik
- B. Ikki tomoni bir bo'lgan ko'rinishga ega rasm
- C. Bir tomonlama qirqish
- D. Bir necha ko'rinishli qirqish

Nazorat savollari :

1. MTTda kichik guruhda applikatsiya mashg'ulotlari qanday o'tkaziladi?

2. O'rta guruhda applikatsiya mashg'ulotlarini o'tkazishda qanday farqli jihatlari bor?

3. Katta va tayyorlov guruhida applikatsiya ishlari tarbiyachi tomonidan qanday o'rgatiladi?

4. Applikatsiya mashg'ulotlari bolalarning aqliy rivojlanishida qanday ahamiyatga ega?

5. Siluet qirqish nima?

6. Mazmunli applikatsiya qaysi guruhdan boshlab olib boriladi?

7. Qirqish usullarini qaysi guruhda o'rgatiladi?

8. Tayyorlov guruhida mazmunli applikatsiya bajarish qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?

V-BOB BO'YICHA XULOSA

«Tasviriy faoliyat» mashg'ulotlarida applikatsiya bo'yicha bajariladigan topshiriqlar maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ta'limi va tarbiyasida katta ahamiyatga ega bo'lib, ularni shaxsiy sifatlarini, psixologik va estetik imkoniyatlarni rivojlantirishga undaydi. Hozirgi zamon pedagogik va psixologik tadqiqotlarida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni estetik, aqliy rivojlanishi uchun «Tasviriy faoliyat» mashg'ulotlari zarurligi isbotlanmoqda.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida predmet, buyum va turli narsalarni applikatsiya texnologiyasida tasvirlash maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlantirishga xizmat qiladigan ko'p qirrali bolalarning aqliy rivojlantirishga xizmat qiladigan ko'p qirrali mashg'ulot turlaridan biri bo'lib, ular shakl va ranglarni ajrata olishga o'rgatadi, bolalarning badiiy-estetik hissiyotlarini va qo'l mayda matorikasini rivojlantiradi. Applikatsiya mashg'ulotlari bolalarda tozalik, diqqatni jamlash kabi sifatlarni ham tarkib toptiradi.

VII BOB

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TURLI YOSHI GURUHLARDA LOY MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

§13. Haykaltaroshlik va uning xususiyatlari. Loy ishi uchun xomashyo va jihozlar.

Tasviriy san'atning turlaridan biri bo'lgan haykaltaroshlik asarlarida odatda, voqelik uch o'lchamli hajmda bo'lgan shakllar makonda tasvirlanadi. Haykalchalar, yodgorliklar, binolarning devorlariga, tanga, medal kabi buyumlarning yuzasidagi bo'rtma tasvirlar haykaltaroshlik san'atining turli ko'rinishi hisoblanadi. **Haykaltaroshlik** - eng qadimgi san'atlardan biridir. Qadimgi misrliklarning fir'avn Tutanxamon, go'zal va aqlli malika Nefertiti siymosi, yunonlarning «Milos Afrodita»si, Mironning «Disk otuvchi» asari haykali alohida diqqatga sazovor. Haykaltaroshlik - tasviriy san'atning bir turi bo'lib, lotincha «skulpo» so'zidan olingan, qattiq materiallarga «qirgish, kesish, o'yish, tarashlash» orqali ishlov berish ma'nosini anglatadi. Haykaltaroshlik san'ati ko'rinishiga qarab, dumaloq va qabariq (relief) haykallar yaratish turiga bo'linadi. Dumaloq haykallarni hamma tomondan ko'rish mumkin.

Dumaloq haykallarni hamma tomondan aylanib ko'rish mumkin bo'lsa, qabariq haykallarni yuzaga bo'rttirib ishlanganligi sababli faqat bir tomondan ko'riladi. Qabariq haykallar relief deb ataladi. «Relief» fransuzcha so'z bo'lib. Yuza degan ma'noni bildiradi. Relieflı haykallarda asosiy obrazlar bilan bir qatorda, kenglik, tabiat manzaralarining ko'rinishi ham aks etadi. Shuning uchun bunday relieflarni ba'zan perspektivalı relief deb ham yuritiladi. Relief, o'z navbatida, ikki turga bo'linadi. Ulardan biri barelef. ikkinchisi esa gorelefdir. «Barelef» ham fransuzcha so'zdan olingan bo'lib. past relief degan ma'noni anglatadi. Barelefda haykal tekis yuzaga nisbatan biroz qabargan (bo'rtgan) bo'lib, lekin uning qalinligi o'zining haqiqiy qalinligining yarmidan oshmasligi lozim. Haykaltaroshlik materiallari ko'p. Bu plastilin, loy, yog'och, metall, marmar, granit, suyak, sement, gips va hokazolardir. Qimmatli metallar oltin, kumush, nikellar ham haykaltaroshlikda qo'llanadi. Haykaltaroshlikda deyarli rang ishlatilmaydi. Xalq haykaltaroshligida haykallarni bo'yash hollari uchraydi. Bunga


O'zbekiston hududidan topilgan qator haykaltaroshlik asarlari misol bo'la oladi. Haykaltaroshlik asarlari ham tasviriy san'atning boshqa turlari kabi o'zining bajaradigan vazifasi, mazmuniga qarab qator tur va janrlarga bo'linadi. Haykaltaroshlik turlari deganda biz monumental, dekorativ va dastgoh haykaltaroshligini tushunamiz.



Monumental haykaltaroshlikka muhim tarixiy voqealar, atoqli shaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida o'rnatilgan yirik o'lchovdagi, turli xildagi yodgorliklar, haykaltaroshlik ansambllari kiradi. Odatda monumental haykaltaroshlik asarlari o'zida katta mazmunni anglatib, mustaqil xarakterga ega bo'ladi. Lekin shu bilan birga, u

hevosita muhit bilan bog'liq bo'lib, me'morchilik binolari hamda tabiat bilan uyg'unlikda bo'lishi lozim. Bu unga yanada ulug'vorlik va ta'sirchanlik baxsh etadi.

Haykaltaroshlik san'atining yana bir ko'rinishi — terrakota hisoblanadi («terrakota» italyanча so'z bo'lib, pishirilgan loy ma'nosini bildiradi). Terrakota keng ma'noda loydan yasaliб, pechda pishirilgan haykaltaroshlik asarlaridir. Haykaltaroshlikda insonning faqat tashqi ko'rinishi tinch turganligi holati yoki harakatdagi paytini aks ettirish bilan uning imkoniyati tugamaydi. Undagi kuchinmalar, uning hayajon va g'amginligi, kelajakka intilishi va o'tmishga qayg'urishi ham o'z ifodasini topadi.



O'zbekistonda **kulolchilik** xalq amaliy san'ati turlaridan bo'lib, hunarmandchilikning loydan, gildan turli buyumlar, idishlar, qurilish materiallari tayyorlaydigan sohasiga kiradi. Kulolchilikda asosiy xom ashyo tabiiy tuproq bo'lib, loy qancha ko'p pishitilsa, sopolning sifati shuncha yaxshi bo'ladi. Kulolchilikning bezak san'ati bo'lgan koshinkorlik san'ati Markaziy Osiyoning me'morchiligida keng rivojlandi. Kulolchilik – O'zbekiston xalq amaliy san'atining eng qadimiy, g'oyat qiziqarli turlaridan biri. Mamlakatimiz hududida kulolchilikni ko'plab asosiy maktab va markazlari mavjud. Rishton, Buxoro, G'urumsaroy, Toshkent, Xorazm, Samarqand va Qashqadaryo kulolchilik maktablarini sanash mumkin. Ushbu kulolchilik maktablari bir biridan yaratilgan mahsulotlarni tayyorlanish uslubi, naqsh-gullari, rangi va pardozi bilan biri-biridan farqlanadi.

Loyni sotib olish mumkin yoki u mavjud bo'ladigan joylardan qazib olish mumkin. Tarkibi butunlay boshqacha bo'lgani uchun uni kislota va suv bilan sinab ko'rish odat tusiga kiradi.

Loydan qilingan qorishmani tayyorlashni ijodiy ish boshlanishidan atigi 2 hafta oldin boshlash yaxshidir. qorishmani pishishiga fursat berish kerak. Agar loy tarkibida mayda toshlar, chiqindilar bo'lsa, uni elakdan o'tkazish kerak..

Qayishqoqlikka kelsak, uni aniqlash juda oddiy. Loyni halqaga solib, unda yoriqlar bor-yo'qligini ko'rish kifoya. Agar ular yo'q bo'lsa, materialning yaxshi plastikligi haqida gapirishimiz mumkin.

Loyning o'zini tayyorlash bir necha bosqichlarni talab qiladi:



1. Avval siz materialni mayda bo'laklarga maydalab, yaxshilab quritib, ustiga issiq suv quyishingiz kerak.

2. Loy shishganidan keyin uni stol ustiga qo'yish va vaqti-vaqti bilan mushtlash tavsiya etiladi.

3. Ortiqcha suv yo'q bo'lib ketganini sezganingizda, material ish uchun ishlatilishi mumkin.

4. Agar materialda chiqindilar bo'lsa, siz ularni olib tashlashingiz mumkin: elak orqali tuproqni elang yoki loy quruq bo'lsa, chiqindilarni qo'l bilan olib tashlang.

Agar siz materialni to'g'ri tayyorlagan bo'lsangiz, uni saqlash uchun har qanday idish mos keladi, uni uchdan ikki qismi loy bilan to'ldirib, suv bilan to'ldirish kerak. Bundan tashqari, tayyorlangan idishni nam mato bilan, keyin esa faqat qopqoq bilan yopish tavsiya etiladi. Haykal ishlashdan oldin loyni yaxshilab urish kerak, shunda havo pufakchalari uni qoldiradi va uni qo'llaringiz bilan yaxshilab yig'ing.

Haykaltaroshlikdan keyin mahsulot quritilishi va qizdriilishi kerak. Quritish paytida ko'p miqdordagi suv bug'lanadi, shuning uchun buyum yog'och taxta ustiga qo'yiladi, gazeta ostiga. yorilishini oldini olish uchun haykalni to'g'ridan-to'g'ri quyosh nuri ostida yoki qo'yish taqiqlanadi.

Loydan qilingan qo'l ishlari zamonaviy mufelli pechlarda pishirilib, haroratni asta-sekin 1100 ° S ga etkaziladi. Isitishning alohida bosqichlarida mavjud bo'lgan organik moddalar asta-sekin yonib ketadi, suyuqlik bug'lanadi, mahsulot pishiriladi. Sovutgach sopol buyumlarni pechdan olish kerak

Loydan buyumlar yasash foydali va qiziqarlili faoliyatdir. Loy bilan ishlashda qo'llarning mayda motorikalari rivojlanadi. Modellastirish shuningdek qo'llarning turli xil kasalliklarini oldini oladi - masalan, artroz.

Tabiiy keramika xomashyosi qadim zamonlardan beri ishlatilgan. Ushbu material tuproqdan olinadi va ichiga begona moddalar bo'lmaydi. Loyning bir nechta ranglari mavjud: qizil; ko'k; oq. Qo'lda haykaltaroshlik uchun loy navlari Qizil loy- sopol buyumlar tayyorlash uchun eng qimmat xom-ashyo hisoblanadi.

Pishgandan so'ng, u g'ishtni biroz eslatuvchi, rangsiz qizg'ish rangga ega bo'ladi. Oq loy bilan bo'lgani kabi, mahsulotlar

qo'shimcha bo'yashni talab qilmaydi. Bu xilma issiqlikka nisbatan ancha chidamli (tarkibida temir miqdori yuqori), mahsulotlar qurib ketmaydi va pechda yorilib ketmaydi va otishdan keyin ular bardoshli bo'lib, uzoq vaqt xizmat qiladi.

Sho'r xamir - bu ijod uchun noyob material. U shunchalik ommalashib ketganki, ba'zida kattalar haykaltaroshligini sevuvchilar uchun loy va gips o'rnini bosadi. Bu kichik yoshdagi bolalarga undan haykaltaroshlik qilishga imkon beradigan yumshoqroq material. U zararli emas, sho'r xamirdan haykalchalar yasash jarayoni hatto allergiya bilan kasallangan bolalar uchun ham xavfsizdir.

Sho'r xamirning tarkibi un, suv va tuzdan iborat. Sho'r xamir bolalar uchun zararli bo'lgan plastilinning o'rnini bosa oladi.

Atrofdagi dunyoni o'rganayotgan bolalar ko'pincha turli xil narsalarni tatib ko'rishni istashadi. Ular sho'r xamirni ham tatib ko'rishni xohlab qolishlari mumkin. Kichik guruhlarda o'tkaziladigan mashg'ulotlarda oziq-ovqat bo'yog'idan solib sho'r xamirni ishlatish mumkin. Bolalar og'ziga solganda zarari bo'lmaydi.

Tarkibi:

- Un (eng yuqori nav) - 150 gr.
- Suvuq suv - 100 gr.
- Tuz (yodlanmagan va maydalanmagan) - 150 gr.

Tabiiy bo'yoqlar uchun:

- Zarchava (sariq) - 3 choy qoshiq.
- Xom lavlagi sharbati (pushti rang) - 3 choy qoshiq.
- Kakao (jigarrang) - 3 choy qoshiq.
- Un (lavlagi sharbati uchun quyuqlashtiruvchi) - 2,5 choy qoshiq.
- Tuz (lavlagi sharbati uchun quyuqlashtiruvchi) - 1,5 choy qoshiq.

Tabiiy loy tayyorlashning ikki xil usulini keltirib o'tamiz. Tarbiyachilar bu usulda loy tayyorlashda foydalanadilar. Bu usullar quyidagicha:


1-usul: Loy tayyorlash mumkin bo'lgan tuproqni tanlab, uni yaxshilab eziladi va elakdan o'tkaziladi. So'ngra uni yog'och yoki plastmassa idishga solib, suv quyiladi, suv to'la shimdirilgandan

so'ng 1-2 kun saqlanadi, so'ngra yana suv quyib, qoriy boshlanadi. Loy yopishqoq, yagona massali, qo'lga yopishmaydigan, yaxshi silliqilinish va elastiklik holatiga etguncha ishlanadi. So'ngra, loyni polietilen xaltaga solib, havo o'tkazmaydigan holda o'raladi. Undan bir necha mashg'ulotda foydalanish mumkin. Chunki, bu holda loyni bir oy, yoki ikki-uch oy yoki yillab saqlash mumkin. Loy qancha ko'p saqlansa, u shunchalik yopishqoq, elastiklik va silliqilinish xususiyati ortib boradi.

2-usul: Chamasi 1kg tuproq elanadi. Duxovkada 20 minut qizitib, sovugandan so'ng, 25 gramm paxtani maydalab solinadi. 200 gramm yog' quyilib, kerakligicha suv solinadi. Loyga ishlov berilib, qoriladi. Loyni ho'l matoga o'rab, polietilen xaltada 2 sutka tindiriladi. Bunday loyni ko'p marta ishlatga bo'ladi. Mashg'ulotlarda tayyorlab qo'yilgan loydan ma'lum qismi olinib, unga yana ishlov beriladi. Qo'lga yopishmaydigan holga kelgunga qadar ishlanadi. Loy qo'lga yopishmaydigan, lekin o'z massasiga yaxshi yopishadigan va plastiklik holati yaxshi bo'lsa, bunday loydan har qanday shakl yasash mumkin bo'ladi.

Chinni xamir bilan ishlash

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarda yasaladigan materiallar xilma-xildir. Bugungi kunda afzallik polimer loyga (chinni xamir) ga beriladi. Polimer loy yoki chinni xamir. Polimer loy yoki chinni xamirning kelib chiqish tarixiga ko'ra



Argentinada ixtiro qilingan bo'lib, undan ajoyib gullar, shakllar yaratiladi, bugungi kunda bu materialdan noyob mahsulotlarni yaratish imkonini beradi. Bir qarashda u chinniga o'xshaydi, undan tayyorlangan mahsulot havoda qotib qoladi. Bunday materialdan tayyorlangan sovg'alarni bolalar ham tayyorlashlari mumkin. Sog'liq uchun xavfsiz, qiymatligi bo'yicha arzon, yumshoq, u bilan ishlash zavqli va undan yasaladigan narsalar uzoq saqlanadi. Fantaziya, didni rivojlantirishga xizmat qiladigan a'lo darajadagi qiziqish bo'lsa bas. To'g'ri tayyorlangan chinni xamir o'zining xossasiga ko'ra yumshoq, cho'ziluvchan, yaxshi tekislanuvchan va istalgan shaklga

kirish xususiyatiga ega bo'ladi. Bu material bilan ishlash uchun chuqurlashtirilgan maxsus bilim va ko'nikmalar shart emasligi, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ayni muddadir.

Polimer loy(chinni xamir)ni tayyorlash usullari xilma-xil.



1- usul:
3 oshqoshiq yelim PVA;
2 oshqoshiq pista yog'i;
1 oshqoshiq glitserin;
4 oshqoshiq jo'xori kraxmali;

Tayyorlanishi:

Barcha ingredientlar aralashatiriladi, ishlov beriladi, xamir tayyor bo'ladi. Xamirni yog'langan stol ustiga ag'dariladi, ishlov beriladi. Necha xil rang kerak bo'lsa, shuncha qismlarga bo'linib, kerakli rang guash solinadi,(bo'yash uchun faqat guash ishlatiladi). Xamirni xona haroratida 3 soatga yog'langan polietilen xaltaga solinadi va tindiriladi. Ishlatishga tayyor bo'lgan xamirdan loy ishi mahsulotlarini yasagan kabi yasaladi. Xamir 4 haftagacha saqlanadi.



2- usul:
200 gramm jo'xori kraxmali.
200 gramm elim PVA.
2 osh qoshiq pista yog'i.
1 oshqoshiq glitserin.
3/1 ch qoshiq limon kislotasi.

Tayyorlanishi:

Barcha ingredientlar aralashtiriladi. Bug'li hammomga qo'yiladi. 7-10 daqiqa ichida aralashma quyilib, xamir tayyor bo'ladi. Xamirni yog'langan stol ustiga ag'dariladi, ishlov beriladi. Necha xil rang kerak bo'lsa, shuncha qismlarga bo'linib, kerakli rang guash solinadi (bo'yash uchun faqat guash ishlatiladi). Xamirni xona

haroratida 3 soatga yog'langan polietilen xaltaga solinadi va tindiriladi. Ishlatishga tayyor bo'lgan xamirdan loy ishi mahsulotlarini yasagan kabi yasaladi. Xamir 2 haftagacha saqlanadi.



Plastilin, loy, polimer loy yoki i chini xamir bilan bajariladigan barcha ishlar qo'lda bajariladi. Plastik materiallar bilan ishlash tasviriyl san'atning bir turi hisoblanib, **hajmli** yoki **relefl**i obrazlardan butun kompozitsiya yasash tushuniladi.

Modellashtirish texnikasi

turli va rang- barang bo'lib, shu bilan birga kichik yoshdagi bolalar ham bajara olish imkoniyatiga egadirlar. Fazoviy tasvirlarni modellashtirishda plastik materiallardan narsalarni yasash ajoyib imkoniyatlarni beradi.

Plastilin. U sun'iy plastik massa bo'lib, loydan hech qachon qurimasligi va doimo ishlatishga tayyorligi bilan farqlanadi. Qo'ldan tayyorlanadigan plastilinning oddiy va murakkab turlari bo'lib uni tayyorlashning bir necha retseptlari bor:

1.Toza quruq loyga glitserin qo'shib massa hosil bo'lgunicha aralashtiriladi.

Tayyorlanayotgan massa qo'lga yopishmaydigan holga kelgunicha unga glitserin qo'shiladi.

2. Qurtilgan toza loy mayda qilib tuyiladi va unga vazelin qo'shib, qo'lga yopishmaydigan quyuq massa hosil bo'lgunicha aralashtiriladi. Plastilinga kerakli rangdagi quruq bo'yoq massasini qo'shib, aralashtirish mumkin.

3. Bir qism loy tuprog'iga 1/5 qism ilitilgan mum hamda plastilin qo'lga yopishmaydigan darajaga etgunicha glitserin qo'shiladi.

Plastilin va loydan o'yinchoqlar yasashni massani yaxshilab qo'lda ezilganidan keyin boshlash kerak.

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar:

Loy- o'zining xossasiga ko'ra yumshoq, yopishqoq, ilashuvchan, yaxshi tekislanish va istalgan shaklga kirish xususiyatiga ega bo'lishi

kerak. Loy bilan ishlaganda asosan oddiy asboblardir: oddiy konstruksiyadagi yog'och va steklardan foydalaniladi.

Haykaltaroshlik- tasviriy san'atning bir turi bo'lib, lotincha «skulpo» so'zidan olingan, qattiq materiallarga «qirqish, kesish, o'yish, tarashlash» orqali ishlov berish ma'nosini anglatadi

Dumaloq haykallar- dumaloq haykallarni hamma tomondan aylanib ko'rish mumkin bo'lsa, qabariq haykallarni yuzaga bo'rttirib ishlanganligi sababli faqat bir tomondan ko'riladi.

Qabariq haykallar- Qabariq haykallar relief deb ataladi. «Relief» fransuzcha so'z bo'lib. Yuza degan ma'noni bildiradi.

Monumental haykaltaroshlik- monumental haykaltaroshlikka muhim tarixiy voqealar, atoqli shaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida o'rnatilgan yirik o'lchovdagi, turli xildagi yodgorliklar, haykaltaroshlik ansambllari kiradi. Odatda monumental haykaltaroshlik asarlari o'zida katta mazmuni anglatib, mustaqil xarakterga ega bo'ladi.

Kulolchilik- O'zbekistonda kulolchilik xalq amaliy san'ati turlaridan bo'lib, hunarmandchilikning loydan, gildan turli buyumlar, idishlar, qurilish materiallari tayyorlaydigan sohasiga kiradi. Kulolchilikda asosiy xom ashyo tabiiy tuproq bo'lib, loy qancha ko'p pishitilsa, sopolning sifati shuncha yaxshi bo'ladi.

Chinni xamir (polimer loy) - polimer loy plastik massa bo'lib, tashqi ko'rinishi va ushlaganda plastilina o'xshaydi va o'ziga xos hidga ega.

Terrakota- («terrakota» italyanча so'z bo'lib, pishirilgan loy ma'nosini bildiradi). Terrakota keng ma'noda loydan yasab, pechda pishirilgan kichik haykaltaroshlik asarlaridir

Sho'r xamir- bu ijod uchun noyob material bo'lib, sho'r xamirning tarkibi un, suv va tuzdan iborat. Sho'r xamir bolalar uchun zararli bo'lgan plastilinning o'rnini bosa oladi.

Plastilin- sun'iy plastik massa bo'lib, loydan hech qachon qurimasligi va doimo ishlatishga tayyorligi bilan farqlanadi.

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:

1. Plastilindan qaysi loy ishi turida foydalaniladi?

- A. Mazmunli
- B. Dekrativ
- C. Predmetli

D. Loy bilan ishlash malakasini takomillashtirish

2. Loy bilan ishlashda ishlatiladigan asbob nima?

- A. Stek
- B. Qaychi
- C. Mo'yqalam
- D. Kompozitsiya

3. Kichik va o'rta guruhlarda loydan o'yinchoqlar yasashda qaysi usullardan foydalaniladi?

- A. Dumalatish, yumalatish, yassilash
- B. Chimdim, yumaloqlash, ezgilash
- C. Uzib olish, bosib iz qoldirish
- D. Chimdim, yumaloqlash bosib iz qoldirish

4. Uy sharoitida kichik maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tabiiy plastilin nimalardan qilinadi?

- A. Loy va glitserin
- B. PVA va kraxmal
- C. Tuproq, suv, bo'yoq
- D. Un, tuz, suv, suyuq konditer bo'yog'i

5. Chinni xamir tarkibida nimalar bo'lishi shart:

- A. Limon kislotasi, glitserin
- B. Yog', limon suvi, glitserin
- C. Un, tuz, yog', suv
- D. Makkajo'xori kraxmali, PVA yelimi, glitserin

Nazorat savollari:

- 1. Loy tayyorlash texnikasi haqida nimalarni bilasiz?
- 2. Tabiiy va polimer loydan qanday ko'rgazmali buyumlar yasash mumkin?
- 3. Xamirli qorishmalardan o'yinchoqlar yasash usullarini ayting.
- 4. Kulolchilik qanday san'at?
- 5. Polimer loyni tayyorlash usullari qanday?
- 6. Sho'r xamir tayyorlash usullari qanday?
- 7. Plastilinni qo'lda qanday tayyorlanadi?
- 8. «Terrakota» so'zining ma'nosi nima?

§14. Loy va plastilindan o'yinchoqlar yashashning sensor asoslari. Loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash mashg'ulotlarida bolalar ijodkorligini rivojlantirish

Loy bilan ishlash yangi shakllar va tasvirlarni yaratish jarayoni bolalarga o'zlarining kayfiyatlarini, his-tuyg'ularini, hissiyotlarini va o'zlariga va umuman olamga bo'lgan munosabatini ifoda etishga imkon beradi. Majoziy fikrlash, tasavvur va xayol boyib boradi. Egiluvchan material va barmoqlar bilan ishlash mayda qo'l motorikani rivojlantiradi, qo'llaridagi nerv tolalarini uqalash bolaning asablarini dam olishiga imkon beradi. Loy va plastilinning boshqa tasviriy faoliyat turlaridan afzalligi loy va plastilin bilan ishlaganda bola xatolarini tuzatish imkonini mavjud bo'lib, bola shaklni o'zgartirib boshqatdan yasashi mumkin.

MTTlarida loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash asosan uch turga bo'linadi.

1. Predmetli

2. Syujetli

3. Dekorativ

1. Predmetli loy ishida bolalar ayrim alohida eng oddiy sodda predmetlarni yasashni o'rganadi. Masalan: tayoqcha, shar, disk shaklini yasashni o'rganib oladilar. Ushbu shakllarga asosan bolalar sodda predmetlarni yasashi mumkin.

2. Syujetli loy ishida predmetlarni qo'shimcha detallari bilan 2-3 tagacha yasay olishi mumkin, chunki syujetli kompozitsiya uchun taglik tayyorlash so'ngra unga yasagan shakllardan kompozitsiya tuzish lozim.

3. Dekorativ loy ishi bolalarda har doim qiziqish uyg'otadi. Bolalarga estetik tarbiya berish vositalaridan biri bolalarni xalq amaliy san'ati, uning har xil turlari, shu jumladan, xalq ustalarining mayda dekorativ plastikasi bilan tanishtirishdir (masalan Hamro buvi o'yinchoqlari).

Qo'g'irchoq, hayvon, qushlarni ifodalaydigan chiroyli umumlashgan shakllar bolalarni quvontiradi va ularning badiiy didi rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, tasavvur va fantaziyasini kengaytiradi. Turli xalqlarning kulollari yaratgan chiroyli idishlar bolalarga juda yoqadi. Bolalar oddiy, ba'zan g'alati shakldagi

finjonlarni, tuzdonlarni, gultuvak vazalarini maroq bilan tomosha qiladilar.

Katta guruhdagi bolalar xalq ustalarining mayda dekorativ plastikalarini ko'rib o'yinlar, xonani bezatish va sovg'a uchun qiziqarli buyumlar yasashlari mumkin. Ular qo'g'irchoqlar uchun munchoq va taqinchoqlarni juda yaxshilab va maroq bilan yasaydilar, dekorativ idishlar: tuzdonlar, tuxumlar uchun tagliklar va bahorgi gullar uchun kichkina vazalar, stakanlar va qalamlar uchun patnislar yasashni bajaradilar.

Ushbu turlardan tashqari hozirgi vaqtda MTTlarda loy va plastilindan o'yinchoqlar yasashning noan'anaviy usullari ham mavjud. Maktabgacha yoshdagi noan'anaviy usulda loy va plastilindan o'yinchoqlar yasashga quyidagilar kiradi:

- **Plastisinografiya;**
- **Plastilin mozaikasi**
- **Testoplastika.**

Plastilinografiya

Plastisinografiya - plastilin bilan ishlashning noan'anaviy usuli bo'lib, uning asosiy qoidasi tekislikda yarim hajmli shakllar asosida tasvirlar yaratishdir. Ushbu usulda asosiy xom ashyo plastilin bo'lib, bola ko'proq barmoqlari bilan ishlaydi.

Plastilinografiya maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ijobiy jihat shundaki, bolaga tezroq kerakli natijaga erishishga imkon beradi va bolalar ijodiga ma'lum bir yangilik kiritadi, uni yanada qiziqarli qiladi. Plastilin bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar diqqat, sotira, fikrlash, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish kabi aqliy jarayonlarni rivojlantirishga yordam beradi. Hozirgi vaqtda plastilinografiyaning quyidagi turlaridan MTTda foydalanilmoqda:

1. Oddiy plastilinografiya. Bu turda tasvir gorizontal tekislikka bola qo'li bilan tayyor chizilgan tasvit ustiga plastilinni surib chiqadi.


2. Oynali (Vitrajli) plastilinografiya. Bunda shaffof tekislik bo'ylab markerda chizilgan tasvirlar ustiga plastilin yopishtirib chiqadi. Asosiga oyna, plastmassa, orgstekla ishlatish mumkin. Oyna bolalar uchun xavfli bo'lgani uchun asosan plastmassa va orgstekla ishlatiladi.

3.Modulli plastilinografiya. Plastilinografiyaning bu turida tasvirlar plastilindan qilingan uzunchoq, dumaloq, disk shaklidagi shakllar yordamida to'ldiriladi.

4. Mozaikali plastilinografiya. Bu plastilinografiyaning eng oddiy turi bo'lib, tasvir ichini bolalar dumaloq shaklli plastilin bilan to'ldirib chiqadilar.

5.Konturli plastilinografiya. Bu usul ancha murakkab bo'lib, u katta va tayyorlov guruhi bolalari Yasay oladilar. Bunda plastilin shprints ichiga solinib issiq suvda 2-3 daqiqa ushlab turiladi va shprintsni bosib bir xil uzun plastilinli iplar yasaladi. Tasvir konturi plastilindan qilinadi va ichi to'ldiriladi.

6. Ko'p qavatli plastilinografiya. Bu usul plastilindan qilinadigan ko'p qavatli hajmli shakl bo'lib, ancha murakkab bo'lgani uchun kattalar va katta yoshli bolalar(maktab o'quvchilari) bajara oladilar. Bunda plastilindan yupqaroq shakl yasab uni pichoq yoki qaychi yordamida qirqib tasvirga yopishtiriladi.²²



Plastilinografiya bilan shug'ullangan bolada qo'l mahorati va muskullari rivojlanadi, ikkala qo'llar harakati yanada muvofiqlashtiriladi va barmoqlarning harakati takomillashadi, yozish ko'nikmalari yanada mustahkamlanadi. Ushbu tasviriy

faoliyat usuli orqali bolada iroda kuchi, o'z-o'zini nazorat qilish kabi ko'nikmalar rivojlanadi. Sensor rang, shakl, o'lcham kabi sensor etalonlar rivojlanadi. Plastilinografiya bo'yicha ishlash jarayonida



bolalar proporsiya, ritm, rang uyg'unligi, hajm, tekstura kabi badiiy ifoda vositalari bilan tanishadilar.

Plastilin texnikasidan foydalangan holda chizishni o'rganish materialning murakkabligini bosqichma-


bosqich oshirishdan boshlashi kerak.

1. Plastilin hajmli, ma'lum bir og'irligi bor materialdir. Shuning uchun, plastilindan yasalgan shakllarni bosib ishlov berilganda, asosi buklanib ketmasligi uchun yupqa qog'ozlar emas, balki qalin kartondan foydalanish kerak bo'ladi.

2.Vaqt o'tishi bilan rasm o'zining jozibadorligini yo'qotmasligi uchun ijodiy ish yopishqoq skovch bilan qoplangan bo'lishi kerak. Ilti yog'li dog'lar paydo bo'lishining oldini olishga yordam beradi, silliq yuzada ishlash osonroq va ortiqcha plastilinni stek yordamida hech qanday iz qoldirmasdan olib tashlash mumkin


Plastilin mozaikasi- Plastilin bilan ishlash bo'yicha

mashg'ulotlarda birinchi qadam plastilinli mozaikadir, chunki bolalarning barmoqlari hali kattaroq plastilin rasmlarini yaratishga tayyor emas. O'yin davomida bolalar plastilinni dumaloqlash, tekislash, barmoqlari bilan rasm ustiga surtish,



ranglarni aralashtirishni o'rganadilar. Plastilin mozaikasi bilan mashg'ulotlar bolada fazoviy tafakkurni, ranglarni idrok etishni rivojlantiradi. Obektlarning shakllarini o'rganishga yordam beradi. Mayda qo'l motorli ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Testoplastika Aslida, sho'r xamirdan buyumlar yasash plastilindan yasashdan farq qilmaydi, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolalar uchun xamir qorishmalari plastilinga qaraganda ancha foydali deb aytish mumkin. Testoplastika uchun oddiy sho'r xamir



ishlatiladi, ya'ni mahsulot ekologik jihatdan qulay va mutlaqo xavfsizdir, shuning uchun agar bola mashg'ulotlarda bir bo'lak xamirni yeb qo'ysa, uning oshqozonida mutlaqo zarari bo'lmaydi. Shuningdek, uning katta afzalligi shundaki, u kiyimga qo'llarga yopishmaydi. Uni ishlatgandan so'ng, bolaning qo'llarini uzoq vaqt

²² <https://www.maam.ru/detskijasad/plastilinografiya-i-e-vidy.html>

yuvish va kiyimlarini tozalashi kerak bo'lmaydi. Sho'r xamirdan yasalgan qo'l ishlari uzoq muddat saqlanadi.

Ijodiy ishlash jarayoni bolaning badiiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, uning g'oyalarini amalga oshirishga o'rgatadi va xarakterni shakllantirishga hissa qo'shadi.

Hajmli shakllarni yaratish fazoviy fikrlashni yaxshilaydi. Jarayon sizga yakuniy natijaning uch o'lchovli qiyofasini tasavvur qilishni, unga erishishni va shaklni yasashga va to'g'rilashga o'rgatadi. Sabr- toqat va qat'iyatlikni rivojlanishiga hissa qo'shadi, jarayonning davomiyligi kun davomida ishlaringizni rejalashtirishga yordam beradi. Kattalar bilan hamrohlikda ishlash jonli muloqotni rivojlantirishga yordam beradi. Qiziqarli ijodiy jarayon sizga vaqtni sarflashga va yasalgan buyumlarni uzoq vaqt davomida asl holida saqlashga imkon beradi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida loy va plastilin bilan ishlash mashg'ulotlarida turli o'yinchoqlar, jonivorlar, qushlar va ertak qahramonlari yasaladi. O'yinchoqlar yasaladigan materiallar xilma-xildir biroq loyni o'rnini bosadigan mahsulot yo'q. Loy buyumlarlar yasashda asosiy material hisoblanadi, chunki loy istalgan joyda topiladigan, arzon va qayishqoq materialdir.

Loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash o'z xarakteriga ko'ra bir tomondan, rivojlangan sezgi va idrokni talab qilsa, ikkinchi tomondan uning o'zi sezgi va idrokni rivojlantiradi. Real olamdagi predmetlarni bilishda ko'rish yetakchi hisoblanadi. Lekin bolalarda obrazlar shakllanishining dastlabki bosqichlarida sezish ko'rish uchun tayanch bo'ladi. I.M. Sechenov ta'kidlaganidek, qo'llar predmetning shaklini ko'zga nisbatan boshqacharoq va to'liqroq aniqlaydi, chunki biz qo'llarimiz kaftini predmetning doimo ko'zdan ozroq yoki ko'proq yashirin yon sirtlariga va mutlaqo ko'z ilg'amas orqa tomoni sirtiga qo'yishimiz mumkin. Loy yoki plastilin o'yinchoq yasayotgan bola jismlarning moddiy xossalarini — ularning shakli, qattiqligi kabilarini ifodalashi kerak. Lekin u bu ishni o'z tajribasida sezish alomatlarini bo'lsagina bajara oladi. Chunki predmetning ana shu sifatlarini ko'rib aks ettirish sezib aks ettirishdan farqli ravishda bilvosita amalga oshadi. Kishida buyumlarning mexanik sifatlarini haqidagi mufassal ko'ruv tasavvuri predmetni ko'rish va qo'l bilan

paypaslash ko'p marta takrorlanishi natijasida vujudga keladi. Bog'cha yoshidagi bolalar predmetni tasavvur qilishlari uchun uning ayrim umumiy belgilari kifoyadir. Predmet bilan uni ushlab tanishishda ko'pincha predmetning bola ushlab yoki uning qo'li tegib turgan qismlari bilan cheklaniladi. Bunday passiv sezish bolaga predmetning ba'zi xossalari haqidagina ma'lumotlar beradi va ular yaxlit obrazga birikmaydi. Lekin bu predmetni tasvirlash uchun kamlik qiladi: bola predmetni uning xossalari va sifatleri bilan birgalikda tasavvur etishi kerak. Loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash jarayoni predmetning hajmi xossalarini nozik analiz va sintez qilishni taqozo etadi. Bola buni mustaqil ravishda egallay olmaydi. Bu ishda kattalar unga yordam berishlari kerak. Ular bolaga predmetni faol ko'zdan kechirishning umumlashtirilgan tizimini o'rgatadilar. Loy yoki plastilindan o'yinchoq yasashga kirishishdan oldin predmetni faol ko'zdan kechirish — bolalarning hissiy tajribasini tashkil etishning pedagogik usulidir. Bu tizimni shartli ravishda to'rt bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich — predmetni yaxlit idrok etishni tashkil qilishdir. Bu bosqich barmoqlar va ko'zlarning yuqorigi nuqtadan pastga asosiy xarakterli chiziqlar bo'ylab izchil va uzluksiz (tepadan pastga va qandaydir spiral bo'yicha) harakatlanishidan iboratdir. Predmet doimo muayyan holatda bo'ladi. (uni chap qo'l tutib turadi, o'ng qo'l kuzatadi; predmet stolda harakatsiz turishi ham mumkin).

Ikkinchi bosqich — predmetni qo'l va nigoh bilan kuzatishda uning asosiy qismlari tahlil qilinadi, ularning xossalari (shakli, kattaligi, mutanosibligi va hokazolari) aniqlanadi; barmoqlarning harakati qo'yo ularning chuqurligi nisbatlarini o'lchaydi, fazodagi o'zaro munosabatlarini aniqlaydi.

Uchinchi bosqich — predmetning yanada maydaroq qismlarini kuzatish, ularning shakli, kattaligi va asosiy qismlarga nisbatan fazodagi holatini aniqlab olishdir.

To'rtinchi bosqich — predmetni yaxlit holda takroran idrok etishdir. Bunda qo'l va ko'zning yuqoridan pastga umumiy yakunlovchi harakatlari sezish orqali olingan ma'lumotlarni yaxlit obrazga birlashtirish imkonini beradi. Kuzatishni predmet sirtining strukturasi (tarkibi, tuzilmasi)ni tahlil qilishga (uni ushlab ko'rishga) ham qaratish mumkin. Bunda qo'l barmoqlarining

hammasini ishga solish kerak. Materialning tarkibini aniqlash uchun predmetning sirtiga qattiq bosib ko'rish usuli qo'llaniladi. Shunday qilib, bolalarga umumlashgan harakatlar tizimini amalga oshirish tavsiya etiladi. Ular bu ishni dastlab kattalar rahbarligida, keyinroq mustaqil holda bajaradilar.²³

Qo'llarning predmet sirtidagi harakati bolalarning idrok etishlarini ta'minlaydi, ularning o'sha predmetning shakli, xossalari haqidagi, keyinroq esa xossalarni tizimi to'g'risidagi tasavvurlarini aniqlashtiradi. Predmet tasvirini hosil qilishga qaratilgan bu harakat predmetni kuzatish tarkibiga kiradi, uning yo'nalishi bolaning keyinchalik predmetni tasvirlashdagi qo'l harakatlariga o'xshaydi. Bola loy yoki plastilindan o'yinchoq yasashga kirishganida qanday harakatlar qilishi kerakligini to'liq tasavvur etadi. Asta-sekin bolalarda predmetlarni kuzatishning umumlashgan usullari, demak, o'sha predmetlarni tasvirlashning umumlashgan usullari ham shakllanib boradi. *Loy va plastilin o'yinchoqlar yasashdan oldin predmetni kuzatishga o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari bor.* Chunki predmet hajmli qilib yasaladi. Shuning uchun sensor harakatlar xarakteri predmetning massasini, xossalarni – zichligini, shaklini faol sezishni o'z ichiga olmoq'i kerak. Bunda qo'llarning predmet bo'ylab harakati har doim o'sha predmetning shakliga bog'liq bo'ladi: kub yoki sharni kuzatishda qo'llar turlicha harakat qiladi. Kubni kuzatishda uning qirralari harakatni to'xtatadi va uning yo'nalishini o'zgartiradi, sharni kuzatishda esa harakat uzluksiz davom etadi. Loy va plastilin o'yinchoqlar yasashga kirishishdan oldin predmetni kuzatishning yuqorida taklif qilingan tizimi mashg'ulotlar, o'yinlar yoki maxsus mashqlar davomida amalga oshiriladi. Bunda predmetni kuzatishni, ya'ni uni faol idrok etish va ko'rishni bolaga u ikki yoshga to'lganidan keyin o'rgatish kerak. Bu yoshdagi bolalar bilan individual va jamoaviy ish olib boriladi: 2-3yoshli bolalarga predmetni yaxlit idrok etishni, shuningdek, uning ayrim xossalarni ajratishni o'rgatish kerak. Tarbiyachi bunday mashqlarda predmetning sifatini ifodalaydigan obrazli so'zlarni tanlab ishlatadi. Masalan, u bolalarga qo'llarida olmani ushlab turib, uning massasini, zichligini (olmaning og'irligi,

kattaligi, dumaloqligini) sezishni tavsiya etadi; predmet bilan tanishilgach, bolaning o'zi xuddi ana shunday dumaloq olma (yoki xuddi mana shunday dumaloq koptok va hokazo) yasashi kerak. Predmetni tasvirlashdan oldin uni kuzatishda bolaning diqqatini o'sha predmetga qaratish, uni mazkur predmetning aniq xossalari bilan tanishtirish, ya'ni bolaning *sensor tajribasini* shakllantirish zarur. To'rt va besh yoshli bolalarga tarbiyachi predmetni (avvalo uning shaklini) yaxlit holda idrok etishni, keyin o'sha predmetning xususiyatlarini tasvirlashga imkon beradigan xossalarni idrok etishni o'rgatiladi. Loy va plastilin o'yinchoqlar yasashda bolalar ko'pincha hajmli predmet bilan ishlaydilar. Bu predmet shaklining asosi geometrik jismdan iborat bo'ladi. Shuning uchun kichik guruhlarda bolalarni shar, kub, o'rta guruhlarda konus, oval, silindr singari etalonlar bilan tanishtiriladi. 4-5 yashar bolalarni silindr, konus, shar va oval kabi shakllar bilan "Topshiriq", "Yashirin narsani top", "Guruh xonasi bo'ylab sayohat", "Xuddi shu shakldagi narsani top", "Mo'jizali xaltacha", "Toping, bu nima?" singari didaktik o'yinlar orqali tanishtirish eng ma'quldir. Masalan, «Mo'jizali xaltacha» yoki »Toping, bu nima?» o'yinlarida ho'l mevalar (limon, olma, apelsin, nok, olxo'ri) va sabzavotlar (kartoshka, piyoz, sabzi, bodring)dan foydalanish mumkin. Bolalar bularni faqat qo'llari bilan faol kuzatish bilan cheklanmay, hidlab va yeb ko'rishlari, hamma yog'ini aylantirib tomosha qilishlari ham kerak. O'yinni takror o'tkazishda taqqoslash uchun geometrik jismlar: shar, konusdan foydalanish mumkin. Dastlab bola o'zi uchun mevalardan birini tanlaydi, keyin shunga muvofiq geometrik shaklni topadi va ular nimasi bilan bir-biriga o'xshashligini va nimasi bilan farqlanishini so'zlab beradi. Predmetlarni shu tariqa yaxshi ko'zdan kechirilgach ularni yasashga kirishiladi

Loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash mashg'ulotlarida bolalar ijodkorligini rivojlantirish

Maktabgacha yoshdagi bolaning predmetlar sifati va xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurining to'laligi uning analizatorlari qay darajada ishlashiga bog'liq bo'ladi. Tadqiqotlar 6-7 yashar bolalarda ko'rish va sezish idroki yetarli

²³ N.B. Xalezova, N.A. Kurochkina, G.B. Pantuxina "Bolalar bog'chasida loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash" M.: «O'qituvchi». 1991yil O'zbek tiliga tarjima

darajada rivojlanishini ko'rsatadi. Kattalarning tegishli yolg'a solishi bilan kichiktoy predmetning barcha asosiy sifatlarini shakli, mutanosibli, rangi, tarkibiy qismlarini, shuningdek, fazodagi o'rnini idrok eta oladi. Bolalar idrokining ko'lamiga analizatorlarning rivojlanish darajasidan tashqari kuzatilayotgan obyektga qiziqish ham ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, bolalar 6-7 yoshga yetgach, tevarak-atrofdagi narsalarga qiziqishi ortadi. Bu esa o'z navbatida ancha uzoq kuzatish ishlari olib borish imkonini beradi. Bolaning xotirasi uning yoshi ulg'aygan sari rivojlanib boradi. Lekin psixologik eksperimentlar bog'cha bolalarining eslab qolish jarayoni asosan beixtiyor bo'ladi. Ko'rish obrazlari vujudga kelishiga faqat xotira emas, balki tafakkur jarayonlari ham ta'sir ko'rsatadi. Ana shu jarayonlarsiz voqelikni idrok etish ko'rish obrazlariga aylanmaydi. Tafakkur jarayonlari rivojlanishi bilan bola predmetlarni ifodali va rejali tasvirlay oladigan bo'ladi. Predmetni to'laroq va yorqinroq aks ettirish uchun bola shakllangan ko'rish obraziga ega bo'lishi kerak. Buning uchun u o'z navbatida o'sha predmet qismlarining o'zaro bog'liqligi va bir-biriga ta'sirini tasavvur qila olishi kerak. Bolalarda tafakkur jarayonlarining rivojlanishi to'g'risida gap borganda, shuni unutmaslik kerakki, bola loy va plastilindan o'yinchoqlar yasayotganida uning uchun predmetni butun qismlari bilan to'liq tasavvur qilish qiyin. Bu esa predmetlarni tasvirlashga konstruktiv yondashishga olib keladi. Odatda, hatto 7 yoshli bolalar yasagan haykallar ham ko'pincha konstruktiv bo'ladi. Hamma gap shundaki, yaxlit bo'lakdan mustaqil holda predmetni yasash bola uchun qiyin, chunki bolalar predmetlarni tasvirlash jarayonida predmetni uning qismlarini analiz qilish, sanashdan ularni aniq bir obrazga soddagina qilib birlashtirishga o'tadilar. Biroq, bolalarga izchillik o'rgatib borilsa, ular yaxlit bo'lakdan o'yinchoq yasash, barqaror mutanosib, plastik figuralar yaratish vazifasini yaxshi bajaradilar.

Bolalar ijodkorligida san'atkor ijodidagi singari tasavvur katta rol o'ynaydi. Ma'lumki, uning kurtaklari bola bog'chaga kelmasidanoq nish ura boshlagan bo'ladi. Ta'lim jarayonida, ertaklar eshitish, har xil rasmlarni ko'rish tufayli bola o'yinchoq yasashdan oldin o'zi bevosita idrok etgan predmetlar doirasiga kirmaydigan narsalarni asta-sekin tasavvur qila boshlaydi. Bolada avval kattalarning og'zaki ta'siri bilan ixtiyoriy tasavvur obrazlari hosil

bo'lib, keyinchalik ular bolaning mustaqil fikrlashidan vujudga kelishi mumkin. Bolalar uchun o'z faoliyatini mustaqil rejalashtirish va tasvirlash hamda texnik usullarni tanlash imkoniyati yaratilsa, ularda o'yinchoq yasash mashg'ulotlarida ijodiy tasavvur elementlari namoyon bo'ladi. Odatda bolaning ijodiy tasavvuri tasvirlangan qahramonlarning kiyimlariga yangi detallar o'ylab topishda yoki savatcha, tayoqcha, belkurak singari predmetlarni qo'shishda, turli kompozitsiyalarni hal qilishda ko'rinadi. Tarbiyachi bog'cha bolasiga mustaqil fikrlashni o'rgatishda ixtiyoriy tasavvurni rivojlantirish imkoniyatlarini bilishi va bolaga rahbarlik qilib, uni rejali ijodiy ishga yo'naltirishi kerak. Bog'cha yoshidagi bolalarda tasavvurni shakllantirish jarayoni to'g'risida gapirar ekanmiz, uning bola ongida obrazlar paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatadigan emotsional tomonini aytmaslik mumkin emas. Bolalar o'zlari ko'rgan va eshitgan barcha narsalardan emosional ta'sirlanadilar. Ular o'zlari idrok etgan narsalarga muayyan ijobiy yoki salbiy munosabatda bo'ladilar. Bunday emotsional ko'tarinkilik bolalarning tasvirlash faoliyati natijasiga ham ta'sir qiladi. Ular o'z hissiyotlari ta'sirida obraz yaratadilar, undagi ifodalilik xususiyatlari atrofdagi kishilar bolaning shu obrazga munosabatini, ba'zan tasvirlangan narsaning mazmunini bilib olishlarida yordam beradi. Bola yaratgan obraz yetarli muayyan ifodalilik belgilariga ega bo'ladi. Bolalar o'z hissiyotlari ta'sirida haykalni naqshlar bilan bezatadilar, ishlayotgan paytlarida hikoya qiladilar, qo'shiq aytadilar, turli harakatlar qiladilar. Qahramonning ahamiyatini oshirish uchun mutanosiblikni o'zgartiradilar, lekin bularning hammasi rassomlar foydalanadigan tasvirlash vositalarining elementlari, xolos.

Loy va plastilindan o'yinchoqlar yasashda bolalar ijodkorligini rivojlantirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- faoliyatning mazkur turiga qiziqishni rivojlantirish;
- kichik guruhdan boshlab bolalarni predmetlarni kuzatishni o'rgatish yo'li bilan voqelikni idrok etish asosida, mustaqil izlash asosida predmetlar shaklini yaratishga o'rgatib borish;
- ilgari yasalgan shakllardan foydalanishga va ularni mujassamlashtirishga odatlantirish. Har bir yosh guruhidagi bolalarga iloji boricha loy va plastilin

o'yinchoqlar yasash usullaridan va tasvirlash vositalaridan erkin foydalanishni o'rgatib borish;

- bolalarni loy va plastilin o'yinchoqlar yasash uchun mavzularni mustaqil holda o'ylab topishga asta-sekin o'rgatib borish, buning uchun tevarak-atrofnı kuzatish, badiiy adabiyotlarnı tinglash, turli rasmlarnı tomosha qilish, san'at asarlarini ko'rish orqali idrok etilgan taassurotlardan foydalanish; bolalarnı tarbiyachining ko'rsatmalarini faol idrok etish o'yinchoqlarning shakllarini, ularni yasash usul — tasvirlash vositalarini o'ylab topishda tashabbus ko'rsatishga o'rgatish. Bolalarda ijodkorlikning, biror mavzuni erkin tanlash va hal etish ko'nikmasining rivojlanishi ularning loy va plastilin o'yinchoqlar yasash texnikasini qanchalik puxta egallaganiga bog'liqligi tufayli ishning mana shu tomoniga katta e'tibor berish kerak. Har bir mashg'ulotda ijodiy xarakterdagi topshiriqlar bilan birga bolalarga o'yinchoqlar yasash texnikasini o'rgatish vazifasi ham qo'yiladi. Bola tasviriy va texnik usullarnı qanchalik ko'p bilsa, uning o'yinchoqlar yasashi shunchalik mustaqil hamda ijodiy xarakter kasb etadi.

Bolalar ijodkorligini shakllantirishda bolalarga beriladigan topshiriqlarnı uch bosqichda murakkablashtirib borish lozim:

Birinchi bosqichda bolalarga ulardan ijodiy faoliyatda dastlabki yo'nalishni talab qiladigan topshiriqlar beriladi: tarbiyachining (*hikoya to'qi, birnarsa o'yla, qidirib top, o'zgartir* kabi) ko'rsatmalari bo'yicha bolalar pedagog bilan birga ishlab, ijodkorlik elementlarini namoyon etadilar.

Ikkinchi bosqichda bolalarnı aniq maqsadga muvofiq ishlashga va izlanishga da'vat etuvchi topshiriqlar beriladi. Bola tarbiyachi bilan birga ishlab, o'zlashtirgan ko'nikmalarnı mujassamlash va o'zgartirish mumkinligini tushuna boshlaydi. Nihoyat,

Uchinchi bosqich — bolani turli faoliyatda fikrlash bo'yicha mustaqil harakat qilishga, o'z ishlarini rejalashtirishga, tasvirlash vositalarini tanlashga o'rgatadigan topshiriqlardan iboratdir. Bog'chadagi birinchi kichik guruhda bolalar loy bilan ishlashning dastlabki ko'nikmalarini o'zlashtiradilar, bu ko'nikmalardan keyinchalik predmetlarnı tasvirlayotgan vaqtlarida foydalanadilar. Bolalarga beriladigan dastlabki topshiriqlar ta'limiy

va tarbiyaviy xarakterda bo'ladi, lekin bolalarga asta-sekin mo'ljal bilan loy va plastilin o'yinchoqlar yasashni va o'zlashtirilgan shakllarnı mujassamlashni o'rgatib boriladi. Kichik guruhdagi bolalarning fikrlash mashg'ulotlaridagi tasvirlash jarayonining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular o'yinchoqlar yasashga kirishar ekanlar, tasvirlash uchun mavzu to'g'risida o'ylab o'tirmaydilar. Bir parcha loynı qo'llariga oladilar-da, uni hamma barmoqlari bilan baravar ezg'ilab o'ynaydilar, undan kichik-kichik bo'laklarnı uzib oladilar, keyin bir-biriga qo'shib yaxlit holga keltiradilar, so'ng barmoqlarini unga tiqib o'yiqlar qiladilar. Aslinı olganda bolalar loynı o'zini o'yinchoq qilib o'ynaydilar. Hosil bo'lgan buyumni bolalar hech narsaga o'xshata olmaydilar va faqat tarbiyachi ulardan: «Sen nima yasading?»—deb so'rasagina javob beradilar. Avval bolalarning javoblari tasodifiy bo'ladi, lekin asta-sekin hosil qilingan bilimlar asosida, o'zlariga tanish predmetlarnı yasashga o'rganib olganlaridan keyin o'z buyumlarining nomini aytib beradigan bo'lib qoladilar.

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar:

Plastilin- U sun'iy plastik massa bo'lib, loydan hech qachon qurimasligi va doimo ishlatishga tayyorligi bilan farqlanadi.

Predmetli loy ishi - loy ishida bolalar ayrim alohida eng oddiy sodda predmetlarnı yasashni o'rganadi.

Syujetli loy ishi- loy ishida predmetlarnı qo'shimcha detallari bilan 2-3 tagacha yasay olishi mumkin, chunki sujetli kompozitsiya uchun taglik tayyorlash so'ngra unga yasagan shakllardan kompozitsiya tuzish lozim.

Dekorativ loy ishi— estetik tarbiya berish vositalaridan biri bo'lib, bolalarnı xalq amaliy san'ati, uning har xil turlari, shu jumladan, xalq ustalarining mayda dekorativ plastikasi bilan tanishtirishdir

Plastilin mozaikasi- asosga mayda plastilindan dumaloqchalar yordamida turli shakl va naqshlarnı to'ldirib yopishtirish usuli

Stek - bu plastilin va loy uchun kichik tayoq bo'lib, u biroz pichoq yoki kurakni eslatadi. Nomi italyancha ildizlarga ega - u "tayoq" deb tarjima qilingan "steck" so'zidan hosil bo'lgan.

Testoplastika- sho`r xamirdan buyumlar yasash san`ati

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:

1. MTTlarida loy va plastilindan o`yinchoqlar yasash asosan necha turga bo`linadi?

- A. Plastilinografiya, testoplastika, plastilinli mozaika
- B. predmetli, mazmunli, dekorativ
- C. Dekorativ, mazmunli, noan`anaviy
- D. Mazmunli, predmetli, an`anaviy

2. Ertak asosida loy ishi bu?

- A. Mazmunli loy ish
- B. Predmetli loy ishi
- C. Ixtiyoriy mavzudagi loy ishi
- D. Ustidan bo`yash

3. MTTda maktabgacha kichik yoshli guruhlarda plastilinografiyaning qaysi turlari ishlatiladi?

- A. Konturli plastilinografiya, ko`p qavatli plastilinografiya
- B. Oddiy plastilinografiya, oynali (Vitrajli) plastilinografiya, modulli plastilinografiya, mozaikali plastilinografiya,
- C. Ko`p qavatli plastilinografiya, oynali (Vitrajli) plastilinografiya, modulli plastilinografiya
- D. Konturli plastilinografiya, oddiy plastilinografiya, oynali (Vitrajli) plastilinografiya

4. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar loy va plastilindan o`yinchoqlar yasashning qaysi turi bilan shug`ullanganini foydaliroq?

- A. Plastilinografiya
- B. Testoplastika
- C. Plastilin mozaikasi
- D. Dekorativ loy ishi

5. Plastilinni qo`lda tayyorlashda nimalar ishlatiladi?

- A. suv va loy
- B. yelim va tuproq
- C. tuproq va yog`
- D. loy va vazelin yoki gletsirin

Nazorat savollari:

1. MTTlarida loy va plastilindan o`yinchoqlar yasash asosan necha turga bo`linadi?

2. Maktabgacha yoshdagi noan`anaviy usulda loy va plastilindan o`yinchoqlar yasashga nimalar kiradi?

3. Loy va plastilindan o`yinchoqlar yasashda bolalar ijodkorligini

rivojlantirishning asosiy vazifalari qaysilar?

4. Plastilin mozaikasi nima?

5. Loy va plastilindan o`yinchoqlar yasash bolada qaysi psixik jarayonlarni rivojlanishiga sabab bo`ladi?

6. Loy va plastilin o`yinchoqlar yasashga kirishishdan oldin predmetni kuzatish qay darajada ahamiyatga ega?

7. Testoplastika plastilin va loydan ko`ra qanday afzalliklari bor?

8. Bolalar ijodkorligini shakllantirishda bolalarga beriladigan topshiriqlarni necha bosqichda murakkablashtirish mumkin?

§15. Turli yosh guruhlarda loy va xamirli qorishmalardan buyumlar yasashga o`rgatish metodikasi

Maktabgacha tarbiya muassasalarida loy ishlari kichik guruhdan boshlanadi. Bu guruhda bolalarning loy ishlari boshqa guruhlardan ajralib turadi, ya`ni o`ziga xos xususiyatga ega bo`ladi. Bolalar tasvirlovchi shakllar noaniq bo`ladi, chunki bu yoshda bolalar qo`l harakati rivojlanmagan, qo`l muskullari hali o`smagan, shuningdek, ishlarni kuzatib, nazorat qilib borish xususiyatlari hali rivojlanmagan bo`ladi. Bu yoshdagi bolalar uchun loy bilan ishlashda eng muhimi, loyning xususiyatlari bilan tanishishdir, ya`ni loy yumshoq, yopishqoq va hokazo. Shu sababli bolalar bu guruhda loyning xususiyatlari bilan o`yinlar o`ynab, tanishib boradilar. Bolalarga kichik va o`rta guruhda loy va plastilindan o`yinchoqlar yasashda kerak bo`ladigan oddiy yasash usullari o`rgatiladi. Bular:

Yumaloqlash- bu bir parcha loydan shar yasash, unga olma, olcha kabi shakllarni berishdir. Bir bo`lak loydan kaftga aylana harakatlar bilan shar yasaladi, so`ngra uzunasiga harakatlar bilan uni tuxum ustun kabilarga aylantiriladi.

Yassilash-sharchadan yassi non yasaladi, qo'lning holati doimo o'zgarib turadi.

Co'zish-sharchaning bir qismi cho'ziladi.

Surish-(yamash) buyumning ayrim qismlarini o'zaro biriktirish

Bolalar asta-sekin tarbiyachining rahbarligi ostida loyni ikki kaft orasida doiraviy, uzunasiga harakatlantirib, sodda, yakka predmetlarni yasashga o'rganib boradilar. Masalan, olma, tayoqchalar, halqachalar, qo'ziqorinlar. Birinchi kichik guruhda bolalami loy bilan ishlashda qator vazifalarturadi: bu guruhda bolalarda loy ishlariga nisbatan qiziqishni tarbiyalash, loyning xususiyatlari bilan tanishtirish, u bilan to'g'ri ishlashga va eng oddiy texnik usullarni o'zlashtirishga o'rgatish vazifalari kiradi.

Kichik guruhda loy ishi Bolalar bilan birgalikda turli xil o'zlariga tanish predmetlarni ko'rib chiqadilar. Bolalar shu predmetlarni qo'li bilan ushlab, uning kattaligini va boshqalarni payqashi mumkin. Shuningdek, bolalar bilan bir necha qismli predmetlarni ham ko'ribchiqadilar. Tarbiyachi dastavval bolalarning diqqatini o'sha predmetning yirik qismlariga, uning mayda qismlariga, shakliga, rangiga jalb etadi. Dastlabki mashg'ulotlarda tarbiyachi tasvirlashning texnik usullarini ko'rsatib, tushuntirib beradi. Shuningdek, tarbiyachi bolalarni loydannarsalar yasashda ko'proq o'yin usullaridan foydalanadi. Bu guruhda loy mashg'ulotlari predmetli xarakterga ega bo'ladi, ya'ni bolalar alohida, yakka predmetlarni yasaydilar, bu guruhda bolalar ishiga yoki faoliyatiga baho berish ham muhim usullardan hisoblanadi. Tarbiyachi albatta bolalarning, ishni qanday bajarganlarini aytib o'tishi lozim. Birinchi kichik guruhda loy mashg'ulotlari haftada bir marta o'tkaziladi. Xuddi shunday qilib, 3—4 qismdan tuzilgan predmetlarni ushlab, har tomonlama u bilan tanishib oladilar. Bu predmetlarni kuzatib chiqishda tarbiyachi oldin o'sha predmetni qismlarga va har bir qismning shakliga, tuzilishiga, shu bilan birga, qismlarning katta-kichikligiga diqqatni tortadi. Dastlabki mashg'ulotlarda tarbiyachi predmetni loydan yasab berishni ko'rsatib, tushuntirib beradi. Tushuntirish aniq va tushunarli bo'lishi lozim yoki u predmetni yasashdan oldin, yasashning texnik usullarini havoda mashq qildirishi mumkin. Ko'rsatib, tushuntirib

berish 3—4 daqiqadan oshmasligi kerak. Agar yasashning texnik usuli bolalarga tanish bo'lsa, ularning mustaqilligini o'zlashtirish maqsadida bolalarning o'ziga taklif etilishi mumkin. Kichik guruh loydan narsalar yasashning oddiy texnikusullarini biladilar. Lekin shu bilan birga, bu guruhda bolalar hali qo'l harakatlari, shuningdek, o'ylagan fikrlarini ro'yobga chiqarishda qat'iylik bo'lmaydi. Loy bilan ishlashda malakaviy texnik ko'nikmalar yetarli rivojlanmagan bo'ladi. Shu sababli bu guruhda tarbiyachi bolalar egallagan tasviriy uquv va malakani mustahkamlash ustida ishlashadi. Bu vazifalarga quyidagilarni kiritish mumkin: bolalarda loydan narsalar yasash xohishini uyg'otishni, shu bilan bog'liq ravishda, estetik sezgilarini o'zlashtirish loy bilan ishlash vaqtida diqqatlarini predmetning shakliga va katta-kichikligiga tortishga yoki qaratishga o'rgatish va shu kabilar. Bolalami oddiy predmetlarni, masalan, tayoqcha, qalamchalar yasashga o'rgatiladi, bu predmetlarni yasash jarayonida bolalar ikkala kaft, qo'l barmoqlari bilan ishlashga o'rganadilar. So'ng asta-sekin bolalar bilan keyingi bosqichga o'tiladi, bunda bolalar o'zlariga tanish bo'lgan predmetni o'zgartirib, boshqasini yasashga o'rganadilar. Masalan, tayoqchani buklab, halqacha hosil qilish yoki tanish predmetlarni yasashda qo'l kaftlari bilan ishlashdan, qo'l barmoqlari bilan ishlashga o'tadilar, shu bilan birgalikda, loy bilan ishlash qoidalariga o'rganib boradilar: stolni va o'z kiyimini iflos qilmaslik, loy bilan ishlaganda yengni shimarib olish, doskacha ustida ishlash, ishdan so'ng qo'lni yuvish va hokazo. Bolalar halqacha va tayoqchasimon predmetlarni yasashni o'zlashtirib olishgach, dumaloq shakldagi predmetlarni yasashga o'rgana boshlaydilar, ya'ni loy bo'lagini qo'l kaftlari orasida dumaloq yoki aylanaviy harakat qilishga o'rgatiladi. Masalan, shar, olma, apelsin, olcha, koptok. Bolalar disksimon predmetlarni yasashga o'rganadilar, ya'ni oldin loyni ikki kaft orasida sharsimon shaklga kiritib, so'ng ikki kafti orasida yapaloqlaydilar.

O'rta guruhda loydan buyum yasashga o'rgatish. O'rta guruhda bolalar rivojlanishi jihatdan quyi guruhdan farqlanadi. Bolalar hayotining 5-yilida fiziologik, ya'ni ham jismoniy jihatdan, ham psixologik jihatdan rivojlanadi. Ular predmetlar tuzilishidagi xususiyatlarni ajrata oladigan, tarbiyachining tushuntirib, ko'rsatib berishini tinglay oladigan bo'lishadi, lekin yasagan ishlari quyi

guruhdan katta farq qilmaydi. Bolalar hali o'z ishlarida proportsiyaga rioya qilmaydi, qismlarini mahkam birlashtirmaydi, predmet shaklini aniq tasvirlay olmaydilar, chunki bolalar hali tasvirining hamma usullarini egallamagan va predmet haqida aniq tasavvurga ega bo'lmaydi. Tarbiyachi bu guruhda ham bolalarda loy mashg'ulotiga nisbatan qiziqish uyg'otish, qo'l harakatlarining koordinatsiyasini tarbiyalash, faolligini o'stirish bo'yicha ish olib borishini davom ettiradi. Bolalarni predmet shakli to'g'risidagi tasavvurlarini yana ham chuqurlashtirish, uning detallarini to'g'ri tasvirlash ustida ish olib boradi. Masalan, odamning boshi dumaloq, uning yuzida ko'zi, burni, og'zi bor va boshqalar. Bu guruhda quyi guruhga nisbatan predmetni, uning tuzilishini aniqroq tasavvur yoki idrok etishga, simmetriyaga rioya qilish proportsiyaning to'g'ri tasviri kabi sifatlarni o'stirishga kattaroq va ko'proq ahamiyat beriladi. Shu bilan birgalikda, bu guruhda tarbiyachi loy bilan ishlash usullari va xillarini o'zlari mustaqil ravishda qo'llay olishi ustida ko'proq ish olib boradi. Loy bilan ishlashning texnik usullaridan foydalanishga nisbatan ham talab ortadi: bolalar barmoq bilan, uning uchlari bilan ishlashga, qismlarni mustahkam yopishtirishga, yopishtirgan qismlarni, mayda qismlarni chimdib chiqarishga va hokazo. Bolalar loy bo'lagini aylanaviy va uzunasiga harakat qildirishadi, barmoq uchi bilan chimdib chiqaradilar, ya'ni 1 yarim yillikda bolalar, asosan, takror ishlaydilar. II yarim yillikda bolalar butun loy bo'lagidan sabzavot-mevalar, shuningdek, bir necha qismdan tuzilgan figuralar yasashga o'rganadilar. Ular qo'g'irchoq, mushuk, quyon, o'yinchoq ayiq, qorbobo yasaydilar. Kichik guruhda ikkita shardan yasagan bo'lishsa, o'rta guruhda esa katta-kichik uchta shardan, shuningdek, qo'l va boshqa detallarni ham qo'shib yasaydilar. Bolalarni loy bo'lagining mayda qismlarini cho'zib chiqarishga, barmoq bilan chuqurcha hosil qilishga, buklashga, biriktirilgan qismini mahkam qilib yopishtirishga o'rganadilar. Tarbiyachi guruhda yoki sayrda tevarak-atrofdan predmetlarni kuzatishni taklif etadi. Kuzatish va predmetni ko'rib chiqish vaqtida bolalar dekoratsiya, predmetning asosiy shakliga, uning qismlariga, tuzilishiga, bir-biriga nisbatan proportsiyasiga jalb etadi. Masalan, shuni kuzatishda uning tanasi boshining shakliga, demining tekisligiga, boshi, gavdasiga tik joylashganligiga va

boshqalarga jalb etadi. Shu bilan birga, tarbiyachi bolalarning diqqatini predmet va hayvon, parrandalarning harakati natijasida gavda holatlari ham o'zgarib turishini tushuntirib beradi. Bu guruhda tarbiyachi predmetni kuzatishi va ko'rib chiqish vaqtida uni qo'l barmoqlarining harakati bilan ko'rsatib beradi va bolalardan ham shuni qat'iy talab qilishlari kerak, bu sensor tarbiyaga ta'sir ko'rsatadi. Bu guruhda yuqoridagi usullardan tashqari tarbiyachi ko'rsatib, tushuntirib berish usulidan foydalanadi. Bu guruhda kuzatish, ko'rsatish qisman yoki to'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, mashg'ulot boshqa kuzatishdan tashqari predmet yoki o'yinchoqlarni tarbiyachi tom onidan yasalgan kichik haykaltaroshlik asarlaridan foydalanish mumkin. Shu bilan birgalikda, tarbiyachi mashg'ulot jarayonida o'yin usulidan ham foydalanishi mumkin.

Katta guruhda loydan buyum yasashga o'rgatish. Bola hayotining

6- yilida uning tevarak-atrof haqidagi bilimlari, turmush tajribasi kengaya boradi. Uning qo'l muskullari mustahkamlanib taraqqiy etadi. U qo'l barmoqlari bilan nozik harakatlarni bajara oladigan bo'ladi. Uning psixikasida ham sifat o'zgarishi yuz beradi. Xotirasi o'sadi, barqaror bo'ladi, diqqat ham tobora barqaror bo'lib boradi. Bolalar oldin predmetni yasashda uning qismlarini va qismlarning shakli,

xususiyatlarini aniq tasavvur eta oladilar. Shu bilan birgalikda, katta guruhda bolalar predmetlarni ko'proq harakatda tasvirlashga harakat qiladilar. Bu guruhda bolalarni loy ishlariga o'rgatishda quyidagi vazifalar turadi: predmet shaklini, proportsiyasini, uning tuzilishini, xarakterli detallarini va harakatini tasvir etish va boshqalar. Bu guruhda dekorativ loy ishlari davom ettiriladi. Bolalar ishlar yasab, so'ng uni bo'yaydilar, dekorativ plastinkalar yasab, ularni bezaydilar. Bu guruhda bolalar syujet, mazmun asosida ishlaydilar. Texnik usullar ham bu guruhda murakkablashadi. O'rta guruhda qismlardan yasashsa, katta guruhga kelib, butun bir loy bo'lagidan yasaydilar. Shu bilan birga, **stek** bilan ishlashga ham keng imkoniyat va o'rin ajratiladi. Bu kvartalda bolalardastavval o'zlariga tanish bo'lgan sodda predmetlarni yasaydilar. Ular loy bilan ishlashning ikki usuli: konstruktorlik va haykaltaroshlik usullaridan

foydalanib, turli xil meva va sabzavotlar yasaydilar. Bodring, lavlagi, sabzi, olmaning ikki xil navi. Bolalar shu ikki usulda odam figurasini va hayvonlarni yasaydilar.. Ikkinchi yarim yillikda butun bir loy bo'lagidan idishlar yasaydilar, so'ng ularni lentasimon usul bilan bezaydilar. Bolalarning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlari kengayadi, loy ishi bo'yicha bilim, malakani egallashgan bo'ladi, ishlash jarayoni yana ham sifaili bo'ladi.. Idishlar yasashda yangi usulni qo'llaydilar. Bu idishning tagi disk ko'rinishida bo'lib, devori esa yassilangan loy bo'lagidan iborat bo'ladi. Bolalar o'zlariga tanish texnik usullar yordamida turli narsalarni yasaydilar. Masalan. xo'roz, tovuq, o'rdak, jo'ja va boshqalarni yasab, parrandalar shakli mazmunida ishlaydilar. Bu vaqtda bolalar ko'proq natura asosida, ixtiyoriy loy ishlarini bajaradilar. Katta guruhda tarbiyachi loy mashg'ulotini uyushtirgan-da ko'p metod va usullarni qollaydi. Bu guruhda ham tarbiyachi dastavval predmetni yoki naturani kuzatib, uning shaklini, qismlarini, proporsiyasini ko'rib chiqadilar. Bu guruhda ham bolalar predmetni barmoq harakatlari bilan ko'rib chiqishlari mumkin. Agarda bolalar yasash usulini bilishsa, unda mustaqil yasaydilar, agarda bilishmasa, unda tarbiyachi qisman ko'rsatib berishi mumkin. Shuningdek, tarbiyachi bu guruhda ham bolalar bilan qo'proq kuzatishlar olib boradi, badiiy adabiyotdan foydalanadi, rasm, haykaltaroshlik asarlari ustida kuzatishlar olib boradi. Savol-javoblar uyushtiradi, ko'rsatmalar, maslahatlar beradi, bola juda qiynalsa, alohida loy bo'lagida yasash usulini ko'rsatib beradi, topishmoqlardan keng foydalanadi. Bolalar ishini tahlil qilish ham muhim usullardan hisoblanadi. Bolalar bilan tahlil, suhbat sifatida uyushtiriladi. Bolalar har biri chiqib, ishning qandayligini, yasash usuli to'g'ri tanlanganmi, shakl to'g'ri berilganmi, qismlari, ularning proporsiyasi to'g'ri berilganmi, shular haqida so'zlashadi. Tahlilni har xil shaklda uyushtirish mumkin: bolalar o'z joyida o'tirib, bir bolani doskaga chiqarib, ishning sifatini tahlil qilishlari ham mumkin. Bunda o'yin usulidan ham foydalanish mumkin.

Maktabga tayyorlov guruhida loydan buyum yasashga o'rgatish.

Tayyorlov guruh bolalarining loy ishlari xilma-xil va qiziqarlidir. Bunga sabab bola ham jismoniy, ham fiziologik rivojlangan bo'ladi. Bolalar predmetlar shaklining aniq tasviri,

proporsiyasini to'g'ri berishga o'rganadilar. Bu guruh katta guruhga nisbatan bir bo'lak loydan cho'zib chiqarish usuli orqali ko'proq ishlaydilar. Shuningdek, stekdan keng foydalanadilar, bu bilan har xil operatsiyalar bajaradilar. Tayyorlov guruhida loy ishlarini o'rgatish dasturi xilma-xil va murakkabdir. Bolalar predmetlarning shakllarini ko'rib, his qilib, idroketishga o'rganadilar. Bu guruhda bolalar mustaqil ravishda tasvirlashning texnik usullaridan keng va erkin foydalana olishlari kerak. Shuningdek, bolalar tasvirlashning haykaltaroshlik usulidan keng foydalanadilar. Tarbiyachi bolalarning ijodiy faolligini o'stirib, ularga mustaqil ishlash uchun keng sharoit yaratib berib, bolalarni mustaqil mavzu topib, tasvir usullarini ham mustaqil o'ylab topishga o'rgatib boradi. Tarbiyachi bolalarga xarakterli shakldagi predmetlarni loydan yasashni taklif etadi. Masalan, sabzavot, mevalar. Agar katta guruhda turli sabzavot va mevalarni loydan yasashga o'rgatilsa, tayyorlov guruhida ancha murakkab vazifa topshiriladi. Masalan, bo'ynini cho'zib qichqirayotgan xo'roz, koptok o'ynayotgan mushukcha va boshqalar. Bundan tashqari, bolalar bu kvartalda tasavvurlari asosida turli hayvonlarni yasaydilar. Shuningdek, bolalar odam figurasini yasashda davom etadilar. Bolalar loy bo'yicha olgan bilim-malakalari asosida ishlab, o'yinda foydalanish uchun turli xil predmetlarni yasaydilar. Masalan, vazalar, turli xil idishlar plastinkalar va boshqalar. Bu tayyorlov guruhida predmetli, mazmunli dekorativ, loy ishlarining turlari uyushtiriladi. Bularning barchasi ixtiyoriy ravishda ham uyushtirilishi mumkin. Bu guruhda tarbiyachi mashg'ulotlar uyushtirganda, bolalar bilan birgalikda kuzatish va predmetlarni ko'rib chiqish usulidan keng foydalanadi. Kuzatish va ko'rib chiqish jarayonida tarbiyachi bolalar diqqatini predmetning shakliga, xarakterli xususiyatiga, holatiga tortadi. Kuzatish, ko'rib chiqish vaqtida tarbiyachi bolalarga savollar bilan murojaat qiladi. Shuningdek, bolalarga turli xil ilustrativ kitobchalar, rasmlar ko'rsatib, birgalikda ko'rib chiqish mumkin. Odam figurasining tasviri ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Shuning uchun tarbiyachi bolalar bilan birgalikda turli xil qo'g'irchoqlarni (sanitarka, kosmonavtni) ko'rib chiqadilar. Sayr vaqtida kuzatishlar uyushtiriladi. Predmetlarning harakat vaqtidagi vaziyatiga, holatiga

bolalar diqqatini tortadi. o'ynchoqni ko'rib chiqish vaqtida bolalar diqqatini harakatning plastikligiga, uning qaysi usul bilan yasalganligiga jalb etadi. Shuningdek, hali o'yinchoqlar bilan yangidan tanishtirish maqsadida bolalar bilan «O'yinchoqlar do'koni» degan didaktik o'yin uyushtiriladi. O'yinchoqning xususiyati haqida suhbat qiladi. Idishlarni yasashda tarbiyachi bolalar diqqatini idishning shakliga qaratadi, qanday usullardan foydalanib yasash mumkinligi haqida so'raladi.

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar:

Yumaloqlash- bir bo'lak loydan kaftda aylana harakatlar bilan shar yasaladi

Yassilash- sharikdan yassi non yasaladi, qo'lning holati doimo o'zgarib turadi.

Cho'zish- sharchaning bir qismi cho'ziladi.

Surish-yamash- buyumning ayrim qismlarini o'zaro biriktirish. loyning xususiyati-

Stek - bu plastilin va loy uchun kichik tayoq bo'lib, u biroz pichoq yoki kurakni eslatadi. Nomi italyancha ildizlarga ega - u "tayoq" deb tarjima qilingan "steck" so'zidan hosil bo'lgan.

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:

1. Kichik va o'rta guruhda loy va plastilindan o'yinchoqlar yasashda kerak bo'ladigan qaysi usullari o'rgatiladi?

- A. Ezg'ilash, chimdisha, dumaloqlash
 - B. Yumaloqlash, yassilash, chimdisha
 - C. Predmetni kuzatish
 - D. Yumaloqlash, yassilash, cho'zish, surish-yamash
2. Tasviriy qobiliyatni joylashuv foni bu?

- A. Tasavvur
- B. Xotira
- C. Xissiy yig'inma
- D. Mo'yqalam

Nazorat savollari:

1. Kichik guruhda loy ishi mashg'ulotlari qanday tashkil etiladi?

2. O'rta va katta guruhlar loy ishi mashg'ulotlari qanday murakkablashtirib boriladi?

3. Bolalar loydan asosan qanday buyumlar yasaydilar?

4. Loy ishi mashg'ulotlari bola rivojlanishida qanday ahamiyatga ega?

5. Yumaloqlash, yassilash, cho'zish nima?

6. O'rta guruhlarda loydan buyum yasashga qanday o'rgatiladi?

7. Katta guruhlarda loydan buyum yasashga qanday o'rgatiladi?

8. Tayyorlov guruhlarda loydan buyum yasashga qanday o'rgatiladi?

VI BOB bo'yicha xulosa

Hajmli shakllarni yaratish fazoviy fikrlashni yaxshilaydi. Jarayon sizga yakuniy natijaning uch o'lchovli qiyofasini tasavvur qilishni, unga erishishni va shaklni yasashga va to'g'rilashga o'rgatadi. Sabr- toqat va qat'iyatlikni rivojlanishiga hissa qo'shadi, jarayonning davomiyliigi kun davomida ishlaringizni rejalashtirishga yordam beradi

Polimer loy chinniga o'xshaydi, undan tayyorlangan mahsulot havoda qotib qoladi. Bunday materialdan tayyorlangan sovg'alarni bolalar ham tayyorlashlari mumkin. Sog'liq uchun xavfsiz, qiymatligi bo'yicha arzon, yumshoq, u bilan ishlash zavqli va undan yasaladigan narsalar uzoq saqlanadi. Fantaziya, didni rivojlantirishga xizmat qiladigan a'lo darajadagi qiziqish bo'lsa bas. To'g'ri tayyorlangan chinni xamir o'zining xossasiga ko'ra yumshoq, cho'ziluvchan, yaxshi tekislanuvchan va istalgan shaklga kirish xususiyatiga ega bo'ladi

Loydan buyumlar yasash foydali va qiziqarli faoliyatdir. Loy bilan ishlashda qo'llarning mayda motorikalari rivojlanadi. Modellastirish shuningdek qo'llarning turli xil kasalliklarini oldini oladi - masalan, artroz. Loy bolalar bog'chasida buyumlar yasash uchun juda qulay va arzon xom ashyo. Loydan buyumlar yasash orqali bolalarda milliy hunarmandchilikning dastlabki elementlari o'rgatiladi.

Tayyorlov guruhida predmetli, mazmunli dekorativ, loy ishlarning turlari tashkil etiladi. Bularning barchasi ixtiyoriy ravishda ham uyushtirilishi mumkin.

VIII BOB

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURISH-YASASH MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA KONSTRUKTORLAR TO'PLAMLARIDAN FOYDALANISH

§16.MTTda bolalar uchun konstruktorlik to'plamlari haqida ma'lumot. Mashg'ulotlar jarayonida robototexnikadan foydalanish.

Hozirgi vaqtda pedagogika va psixologiya sohasidagi mutaxassislar bolalar konstruktorligiga alohida e'tibor berishadi. Maktabgacha ta'lim uchun zamonaviy dasturlarda bu yetakchi faoliyatlardan biri sifatida qaraladi, chunki turli xil konstruktiv ijodkorlik bolalarga nafaqat atrofdagi dunyoni bilish, balki ularning qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish imkonini beradi. **Konstruktiv faoliyat** nomi lotincha "constructio" - qurilish so'zidan kelib chiqqan. Shunday qilib, bolalar qurish-yasash mashg'uloti deganda bolalar turli xil materiallardan (qog'oz, karton, yog'och, maxsus qurilish to'plamlari va dizaynerlar) turli xil o'yin qo'l ishlari (o'yinchoqlar, binolar) yaratadigan faoliyat tushuniladi.

Bolani tug'ma konstruktor, ixtirochi va tadqiqotchi deyish mumkin. Tabiat tomonidan qo'yilgan bu moyilliklar, ayniqsa qurish-yasashda tez namoyon bo'ladi va takomillashtiriladi, chunki bola o'z binolarini, konstruksiyalarini ixtiro qilish va yaratish uchun cheksiz imkoniyatga ega. Ayni paytda u qiziquvchan, aqlli, zukko va ijodkordir. Bolalar o'z binolari va inshootlarini konstruksiyalashiga kerak bo'ladigan jihoz, materiallarga qarab, bolalar bog'chasida quyidagi qurish-yasash turlari ajratiladi.

☐ qurilish materiallari

☐ qog'oz, karton, quti, g'altak va boshqalardan konstruksiya materiallar

☐ tabiiy materialdan konstruksiya (konuslar, shoxchalar, arra kesmalari va boshqalar).

Shunga ko'ra, qurish-yasashning ikki turi ajralib turadi - texnik (qurilish materialidan, turli xil mahkamlash usullariga ega konstruksiyalarning qismlari, katta o'lchamli modul bloklari) va badiiy (qog'oz va tabiiy) materiallar. O'yinga moslashgan qurilish

materiallaridan konstruksiyalash maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng qulay va oson qurilish turidir. Bolalar bog'chasining barcha yosh guruhlar uchun ko'plab to'plamlar mavjud: stol o'yinlari, polda, hovlida o'yinlar uchun. Ular orasida tematik konstruksiyalash uchun mustaqil turdagi material, ba'zan esa asosiy konstruktor to'plamga qo'shimcha sifatida ishlatiladi. Ayni vaqtda sotuvda mavjud bo'lgan va MTTlarda ishlatilayotgan konstruktorlik to'plamlari quyidagilar

- **Kubiklar** (yog'och, mato, plastmassa),

- **Qurilish to'plamlari** (arkalar, kamarlar, konuslar),

- **Uy konstruktori** (uylar qurish uchun katta va kichik qismlar),

- **Konstruktor - transformer** (jangchi hayvonlar yoki odamlarning figuralari, super qahramonlar),

- **Tematik to'plamlar** (konstruktorlar, masalan, "Lego", ular yordamida siz blokklar yordamida turli xil ob'ektlarni yaratishingiz mumkin, masalan, "Lego - o't o'chirish stantsiyasi", "Lego - ferma", "Lego - qaroqchi kemasi".

- **Blokli konstruktorlar** (turli o'lchamdagi geometrik shakllar), Boltli birikmali konstruktorlar (metall, plastmassa). Misol uchun, biz hammamiz bolaligimizdagi metall konstruktorlarni eslaymiz - teshiklari bo'lgan tekis qismlar, vintlardek va yuvish vositalari bilan,

- **Yumshoq konstruktorlar** zararli bo'lmagan izolon materialidan ishlangan. Ular bilan tekis figurani ham, uch o'lchamli qilib yasash mumkin. Ular qurish-yasash uchun eng birinchi materialdir

Qurish-yasash to'plamlarining asosiy g'oyasi bolalarda aqlning sakkizta almashtirib bo'lmaydigan shakllarini rivojlantirishdir: modellashtirish, mantiqiy fikrlash, hissiy rivojlanish, qiziquvchanlik, ijodkorlik, tasavvur, matematik fikrlash va tadqiqot qobiliyatlari.


Lego konstruksiyasi va ta'lim robototexnikasi - bu yangi pedagogik texnologiya bo'lib, fan va texnikaning eng ilg'or yo'nalishlarini ifodalaydi, bolalarni o'qitish, tarbiyalash



va rivojlantirishda nisbatan yangi fanlararo yo'nalishdir. Fizika, mexanika, texnologiya, matematika va AKT haqidagi bilimlarni birlashtiradi.

LEGO (daniyacha "leg" va "godt" - "maroqli o'yin" so'zlaridan) - bu rangli g'ishtlar, g'ildiraklar, odamlar figuralari va boshqa qismlarga asoslangan konstruktorlar bo'lgan o'yinchoqlar seriyasidir, ulardan deyarli hamma narsaning modellarini yasash mumkin.

Lego to'plamlari asosan Daniyada joylashgan "Lego Group" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqariladi.



Robototexnika bugungi kunda eng tez rivojlanayotgan sohalardan biridir. Bugungi kunda zamonaviy dunyodagi hayotni oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, kiyim-kechak tikish, avtomobillarni yig'ish, murakkab boshqaruv tizimlarini

ishlatish va boshqalar uchun dasturlashtirilgan mexanik mashinalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.²⁴

Robototexnika- bu robotlar yordamida ishlab chiqarish va boshqa tizimlarni avtomatlashtirishni o'rganadigan texnik fan. Bu inson aralashuviz turli vazifalarni bajarish uchun tashqi muhit bilan o'zaro ta'sir qilish uchun robotlarni loyihalash, yaratish va ulardan foydalanishni o'z ichiga oladi.²⁵

Bolalar bog'chasida robototexnika nafaqat qurish-yasash mashg'uloti, balki kuchli innovatsion ta'lim vositasidir. LEGO qurilishi 4 yoshdan boshlanadi: o'rta guruh bolalariga LEGO DUPLO konstruktori qo'l keladi. Bolalar LEGO DUPLO konstruktorining asosiy qismlari, g'ishtlarni mahkamlash usullari bilan tanishadilar, ular ob'ektni qurishda o'z harakatlarining natijalarini konstruktorlik bilan bog'lash qobiliyatini rivojlantiradilar. Qurish-yasash bolalarning sevimli faoliyat turlaridan biridir. Katta guruhda (5 yoshdan 6 yoshgacha) konstruktiv ijodkorlik mazmuni va texnik



²⁵ <https://xn--80abmurbt.xn--p1ai/robotics>

xilma-xilligi bilan farqlanadi, maktabgacha yoshdagi bolalar nafaqat qismlarni tanlashga, balki sxema, chizma va namunaga qarab qurish-yasash bo'yicha dizaynlarni yarata oladi. Tayyorlov guruhida (6 yoshdan 7 yoshgacha) qurish-yasashni LEGO bilan rejalashtirish ko'nikmalarini shakllantirish asosiy vazifaga aylanadi LEGO orqali yaratilgan binolardan bolalar rolli o'yinlarda, teatr o'yinlarida, didaktik o'yinlarda va mashqlarda, o'qish va yozishni o'rganishga, tevarak-atrof bilan tanishishga tayyorgarlik ko'rishda LEGO elementlaridan foydalanadilar. Ta'lim robototexnikasi erta bosqichda bolalarning texnik moyilligini aniqlash va ularni shu yo'nalishda rivojlantirish imkonini beradi.²⁶

Bolalar kattalardan ko'ra ko'proq yaratish zaruriyatini his qilishadi va bunga ehtiyoj sezadilar. Pedagog va psixologlar bolalarning texnik ijodkorligi ijodiy fikrlashni yaxshilashini hamda kelajakda geometriya va muhandislikni o'zlashtirishga katta yordam berishini bilishadi.

Bolalar bog'chasida robototexnika quyidagi muammolarni hal qiladi:

- **Bilish vazifasi:** informatika, fizika fanlari asoslari va robototexnikani o'rganishga qiziqishni rivojlantirish;
- **Ta'limiy vazifasi:** qurish-yasash ko'nikmalarini shakllantirish, mexanikada konstruktorlik masalalarini yechishda dastlabki tajribaga ega bo'lish.
- **Rivojlantiruvchi vazifa:** ijodiy faoliyatni rivojlantirish, turli



²⁶ "ТЕХНОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РОБОТОТЕХНИКИ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ" методическое пособие . Автор: Ж.Н. Исаева. Братск, 2021

vaziyatlarda maqbul qarorlar qabul qilishda mustaqillik, diqqatni, ish xotirasini, tasavvurni, fikrlashni rivojlantirish (mantiqiy, kombinatsiyalashgan, ijodiy)

- *Tarbiyaviy vazifa:* mas'uliyat, yuksak madaniyat, intizom, muloqot ko'nikmalarini tarbiyalaydi.

LEGO WEDO o'quv konstruksiyasidan foydalanish maktab o'quvchilari va maktabgacha yoshdagi bolalarning motivatsiyasini sezilarli darajada oshirishi, ularning ijodiy va tadqiqot ishlarini tashkil etishi mumkin. Shuningdek, u kognitiv o'yin shaklida bolalarga ko'plab muhim g'oyalarni o'rganishga va keyingi hayotda zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi. LEGO WEDO konstruksiya to'plamidan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishi uchun ajoyib vosita bo'lib, turli xil faoliyat turlarini birlashtirishni ta'minlaydi.

Lego WeDo o'quv to'plami eng mashhur robot liniyalaridan biridir. Maxsus ishlab chiqilgan Lego WeDo roboti bolalarning robototexnika sohasidagi ilk qadamlari uchun juda mos keladi. Hatto robototexnika bilan shug'ullanadigan bolalar ham to'plam asosida o'z qo'llari bilan qandaydir oddiy robot modelini yig'ishlari mumkin bo'ladi. Va keyin uni dasturlashtiradi, shuningdek uni kompyuterdagi dastur orqali boshqaradi. WeDo kashshof robotidan foydalanish orqali o'ynoqi o'rganish bolalarga g'oyalarni loyihalashtirish va hayotga tatbiq etish, dasturiy ta'minotni dasturlash va ulardan foydalanish, vaqt, masofani o'lchash, arifmetik amallarni bajarish, egilish va masofa sensoridan foydalanishni o'rgatadi. LEGOWeDo konstruktori yordamida bolalar hayvonlar, jihozlar va mashinalarning dasturlashtiriladigan modellarini yig'a oladilar.

Hozirgi zamon bolalari faol axborotlashtirish, kompyuterlashtirish va robototexnika davrida yashamoqda. Texnik yutuqlar inson hayotining barcha jabhalariga tobora ko'proq kirib bormoqda va bolalarda zamonaviy texnologiyalarga qiziqish uyg'otmoqda. Texnik ob'ektlar bizni hamma joyda maishiy texnika va qurilmalar, o'yinchoqlar, transport, qurilish va boshqa mashinalar ko'rinishida o'rab oladi.-

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar:

Lego- LEGO (daniyacha "leg" va "godt" - "hayajonli o'yin" so'zlaridan) - bu rangli g'ishtlar, g'ildiraklar, odamlar figuralari va boshqa qismlarga asoslangan konstruktorlar bo'lgan o'yinchoqlar seriyasidir, ulardan deyarli hamma narsaning modellarini yasash mumkin.

Robototexnika- bu robotlar yordamida ishlab chiqarish va boshqa tizimlarni avtomatlashtirishni o'rganadigan texnik fan. Bu inson aralashuvisiz turli vazifalarni bajarish uchun tashqi muhit bilan o'zaro ta'sir qilish uchun robotlarni loyihalash, yaratish va ulardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Konstruktiv faoliyat- nomi lotincha "constructio" - qurilish so'zidan kelib chiqqan. Shunday qilib, bolalar qurish-yasash mashg'uloti deganda bolalar turli xil materiallardan (qog'oz, karton, yog'och, maxsus qurilish to'plamlari va dizaynerlar) turli xil o'yin qo'l ishlari (o'yinchoqlar, binolar) yaratadigan faoliyat tushuniladi.

Transformer- jangchi hayvonlar yoki odamlarning figuralari, super qahramonlar

Uy konstruktori-- Uy maketlarini qurish uchun katta va kichik qismlar

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:

1. LEGO so'zi qanday ma'noni anglatadi?

- A. Fransuzcha "qurilish" so'zidan
- B. Inglizcha "hayajonli o'yin"
- C. Daniyacha - "hayajonli o'yin" so'zlaridan
- D. A va B javoblar to'g'ri

2. Hozirgi vaqtda MTTlarda ishlatilayotgan konstruktorlik to'plamlari qaysilar?

- A. Blokli konstruktorlar, tematik to'plamlar, kubiklar, qurilish to'plamlari, uy konstruktori, konstruktor- transformer
- B. Tematik to'plamlar, kubiklar, qurilish to'plamlari, uy konstruktori, konstruktor- transformer
- C. Kubiklar, qurilish to'plamlari, uy konstruktori, konstruktor- transformer
- D. Kubiklar, qurilish to'plamlari, uy konstruktori, konstruktor- transformer,

yumshoq konstruktorlar, blokli konstruktorlar, tematik to'plamlar

3. Qurish-yasash to'plamlarining asosiy g'oyasi nima?

A. Bolalarga qurilishning dastlabki ko'nikmalarini o'rgatish;

B. Aqlning sakkizta almashtirib bo'lmaydigan shakllarini rivojlantirish

C. modellashtirish, mantiqiy fikrlash, hissiy rivojlanish, qiziquvchanlik, ijodkorlik, tasavvur, matematik fikrlash

D.B va D javoblar to'g'ri

4.LEGO qurilishi bilan shug'ullanish necha yoshdan boshlanadi?

A.2 yoshdan

B.5 yoshdan

C.4 yoshdan

D.6 yoshdan

Nazorat savollari :

1.Bolalar uchun qurish-yasash mashg'ulotlari bolalar rivojlanishida qanday ahamiyatga ega?

2.MTTda qurish-yasash mashg'ulotlari materialiga qarab necha turga bo'linadi?

3.Qurish-yasash mashg'ulotlari uchun hozirda qanday to'plamlar mavjud?

4.Lego nima?

5.Maktabgacha yoshdagi bolalarga robotatexnika qanday o'rgatiladi?

6.Roboto texnika bola rivojlanishida qanday ahamiyatga ega?

7.LEGOWEDo qanday to'plam va u bolalarga nimani o'rgatadi?

8.Hozirda MTTda ishlatilayotgan qanday konstruktorlik to'plamlari bor?

§17. Tabiiy xom ashyo turlari. Turli yosh guruhlarida qog'oz va tabiiy materiallardan foydalanib qurish-yasash mashg'ulotlarida o'yinchoqlar yasash texnologiyasi

Yurtimiz tabiiy resurslar, foydali qazilmalar, o'simlik va hayvonot dunyosi boy o'lkadir. Respublikamizdagi bu tabiiy boyliklar sanoatda, turmushda foydalaniladigan xomashyo bo'lishi

bilan bir qatorda MTTlarda mashg'ulotlar uchun tabiiy material bo'lib xizmat qiladi. Qog'oz ayniqsa eng ko'p ishlatiladigan xomashyodir.

Qog'oz vodorod bog'lanish bilan birlashgan selluloza tolalaridan iborat yupqa materialdir. MTTlarda qog'oz xom-ashyosi mashg'ulotlarda eng ko'p applikatsiya va qurish-yasashda ishlatiladi. Qog'oz haqida fikr yuritishdan oldin uning qiziqarli tarixi haqida ham bilish foydadan holi bo'lmaydi.

Qog'ozning paydo bo'lish tarixi

Qog'ozning paydo bo'lishi eramizning 105-yiliga to'g'ri keladi, o'sha davrda Xitoy imperatorining maslahatchisi **Say Lun** qog'ozga o'xshash materiallarni tayyorlashning mavjud usullarini umumlashtirgan va takomillashtirgan. Ilgari Xitoyda bambuk, kanop va ipak asosan yozuv materiallari sifatida ishlatilgan. Say Lun ko'plab tajribalardan so'ng, birinchi marta qog'oz yaratishning asosiy texnologik tamoyilini kashf etdi: avval suv bilan suyultirilgan maydalangan nozik tolalar to'riga botirish va qirqish orqali qog'oz materialini shakllantirilgan.

IV asrda qog'ozning bir nechta navlari mavjud edi. Ishlab chiqarish texnologiyasi yanada murakkablashdi. Birinchidan, xom ashyo uzoq vaqt davomida yuvilgan va namlangan. Keyin ular ohak va kul qo'shib qaynatilgan. Shundan so'ng, hosil bo'lgan xom ashyoni katta idishda yog'och bilan ezilgan. Olingan shilimshiq qog'oz massasi suv bilan suyultirilib, aralashtirilgan va sim yoki bambuk tolalari to'riga quyilgan. Silliqlik qog'oz massasini olib qog'oz panjara bo'ylab bir tekisda quyilgan. Ammo bunday qog'ozlar tejimli bo'lmagan, sifati bilan ham ajralib turmagan. VII asrdan boshlab qog'oz tayyorlash uchun asosiy xom ashyo sifatida o'simlik tolalari — kanop, zig'ir tolalari ishlatilgan. Ushbu yangiliklar oldingi yozuv materiallariga qaraganda qulayroq va arzonroq qog'oz ishlab chiqarishning boshlanishini belgilab berdi.

Samarqand qog'ozi

Buyuk ipak yo'li savdo yo'llarida Xitoy chinni va shoyisi hamda hind ziravorlari qanchalik shuhrat qozongan bo'lsa, tarixning yaqin ming yilligiga qadar Samarqand qog'ozi ham xarid qilinadigan noyob materialga aylandi. 751 yilning iyul oyida Jambul shahri yaqinida joylashgan Talas daryosi bo'yida (hozirgi Qirg'iziston)

Xitoy jangchilari O'rta Osiyoga bostirib kirdi. O'sha davrdagi Samarqand hokimi Abu Muslim bosqinchilarga qarshi o'z qo'shnini yo'llab, dushmani yer bilan yakson qildi va Samarqandga 20 mingdan ortiq xitoylik askarlarni asir sifatida olib keldi. O'z hayotlarini saqlash niyatida hunarmandlikdan xabardor xitoylik asir jangchilar mahalliy hunarmandlarga qog'oz ishlab chiqarish sir-sinoatlarini o'rgatdilar. Shu vaqtdan boshlab Samarqandda qog'oz ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. IX asrga kelib, ushbu tarmoq shahar hunarmandchiligidan eng muhim jabhalaridan biriga aylandi. Astasekinlik bilan Samarqand qog'ozi butun sharq va g'arb bozorlarini ham egalladi. Ushbu mahsulotning turli xil navlari VIII asrdan XIX asrga qadar nafaqat O'rta Osiyo va Yaqin Sharqda, balki Yevropaning ko'pgina davlatlariga dong'i ketdi. Sharq olamida Samarqand qog'ozlari Misr qog'ozi kabi keng omma tomonidan foydalanila boshlandi. Bunga ayniqsa IX-X asrlarga kelib, ko'pgina fors va arab tilidagi asarlar va qadimiy qo'lyozmalar aynan Samarqand qog'oziga yozilishi yaqqol misol bo'la oladi. Ming yildan ortiq vaqt mobaynida o'z faoliyatini san'at darajasiga yetkazgan samarqandlik hunarmand-qog'ozgarlar dunyoda eng yupqa, silliq hamda siyohni ko'p shimmaydigan, o'ta chidamli noyob qog'oz turlarini ishlab chiqarish texnologiyasini yaratishdi. Jumladan oq rangli «Samarqand sulton qog'ozi» o'zining yupqaligi, silliqligi va yumshoqligi bilan boshqa qog'oz navlaridan alohida ajralib tursa, «Samarqand shoyi qog'ozi» sifat jihatdan undan qolishmasada, rangi och sariq - novvot rangda bo'ladi. «Mir Ibragim» qog'oz turi yuzida oq rangdagi dumaloq shaklli suv tomchi izlari bilan qoplangan bo'ladi. «Nimkanop» turi esa ipak qoldiqlari hamda po'stloq tolalari bilan qorishtirib tayyorlangani uchun, u dolchin rangda bo'ladi. Ushbu qog'oz turlarini yaratishda xomashyo sifatida paxta, ipak va tut daraxti po'stlog'idan keng foydalaniladi. Asrlar davomida shaharning Siyob anhoiri bo'yida ikki mingga yaqin suv tegirmonlari ishlab turgan va ularning 400 dan ortig'ida qog'oz ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilgan. Shaharga tashrif buyurgan barcha olimu fuzalolar, tarixchilar va sayohatchi mehmonlar bu qog'ozning sifati va chidamliligidan hayratga tushishgan. Manbalarda yozilishicha, hali Yevropada papirus hamda pergament asosiy yozuv ashyosi sifatida foydalanilayotgan bir paytda Sharq

mamlakatlarida allaqachon qog'oz ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgandi. Bu esa, ayniqsa, hozirgi Markaziy Osiyo hududlarida qo'lyozma kitoblarning yoyilishiga keng imkoniyat yaratdi. Keyinchalik qog'oz tayyorlash jarayoni takomillashtirildi: mustahkamlikni oshirish uchun yelim, kraxmal va tabiiy bo'yoqlar qo'shildi.²⁷

Melodiy 610 yilda sayohatchi buddist rohib Dan Xo Yaponiyaga keldi va qog'oz va siyoh ishlab chiqarish sirlarini o'tkazdi. Yapon hunarmandlari oxir-oqibat yuqori sifatli qog'oz yaratishga muvaffaq bo'lishdi. Yapon qog'ozi WASI deb nomlangan: Yaponiya uchun Yamato belgisining boshqacha o'qilishi, SI esa qog'oz. Yaponiyadagi Xitoy qog'ozi KARA-GAMI deb nomlangan. Yaponiyalik ustalar, xitoyliklar singari, tolali pulpani qattiq elakdan o'tkazmadilar, balki uni doimiy ravishda silkitib, qog'oz massasini bir tekisda cho'ktirishga majbur qildilar. Ikkinchi yangilik TORO-AOI suv o'simlikining sharbatidan qog'oz varag'ini o'lchash uchun ajoyib vosita sifatida foydalanish edi. 8-asrda imperator saroyi, monastir va ibodatxonalarga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi qog'oz ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga, 180 turdagi qog'oz ishlab chiqaradigan ko'plab katta-kichik ustaxonalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Origami qog'ozni chiroyli shakllarda buklash san'ati Yaponiyada paydo bo'lgan. VII-asrda Koreyada qog'oz ishlab chiqarish siri ma'lum bo'ldi. X- XI-asrlarda qog'oz Yevropaga Ispaniya, Vizantiya va Italiya orqali kirib kela boshladi.²⁸





²⁷ <https://meros.uz/object/samarqand-qog'ozi>

²⁸ https://europapier.ru/interesno_dlya_vas/art141.html

Origaming kelib chiqish haqida juda ko'p fikrlar mavjud. Shu fikrni ta'kidlash lozimki bu san'at turining ko'p qismi Yaponiyada taraqqiy etgan. Xeyan davri boshlarida origami yapon marosimlarining alohida qismini tashkil etgan. O'z avlodlarining omad belgisi bo'lgan qog'ozdan buklab yasalgan buyumlar orqali "Samuraylar" o'zaro sovg'alar almashishgan. "Spintoi" to'y marosimlarida nishonlashda kelin va kuyovni tanishtirish uchun qog'ozlardan yasalgan kapalaklardan foydalanilgan. Qog'ozdan buklash san'atining mustaqil an'analari garchi Yaponiya darajasida rivojlangan bo'lmasa-da, Xitoyda, Koreya, Germaniya va Ispaniyada ham mavjud bo'lgan. Yevropa davlatlarida Sharq davlatlariga nisbatan qog'ozdan buklash san'ati ertaroq kirib kelgan, arablarda qog'oz eramizning VIII - asrida paydo bo'lgan. Origami yasash qobiliyati hech bo'lmaganda boshlang'ich darajada bilish aristokratiya va sud uchun majburiy bo'lgan etkazish mumkin edi. Asta-sekin origami yasash qobiliyati yaxshi ta'lim va nozik odob belgisiga aylandi. Origami avloddan-avlodga o'tadigan an'anaga aylandi.

1960-yildan boshlab Yosidzava Kanletta tomonidan shartli belgilarning kiritilishi origami san'atining dunyo bo'ylab yoyilishiga sabab bo'ldi. Hozirgi vaqtda origami xalqaro miqyosdagi san'at turi hisoblanadi



Nam qog'ozdan origami - buklanganda qog'oz toza suv bilan namlanadi. Bu usul bir nechta qog'oz qatlamlarini buklashni osonlashtirish yoki modeldagi silliq egri chiziqni (masalan, dumning egri chizig'ini) chiqarish uchun ishlatilishi mumkin.

Folga qog'oz yoki ko'pincha "sendvich" qog'ozi deb ataladigan, qog'oz varag'iga yopishtirilgan yupqa folgali qog'oz bo'lib, ba'zida u ikki tomonlama qog'oz bilan qoplangan bo'ladi. Ushbu materialning muhim afzalligi shundaki, u o'z shaklini juda yaxshi ushlab turadi va kichik detallarni yasashga imkon beradi. "Sendvich"

texnikasi ana shu folga yopishtirilgan qog'ozdan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ushbu usul sizga ko'p sonli buklashlar talab qilinadigan murakkab modellarni buklashga imkon beradi. "Sendvich" qog'oz yordamida yasalgan haykalcha chidamli va shaklini yaxshiroq ushlab turadi²⁹.

Origami-xususan, mayda qo'l motorikasi mahoratini rivojlantiradi. Barmoqlar va qo'llarning harakatlarini takomillashtirish va muvofiqlashtirish orqali origami bolaning umumiy intellektual rivojlanishiga, shu jumladan nutqining rivojlanishiga ta'sir qiladi.

Origami diqqatni rivojlantirish va xotirani shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi: bolalar atamalar, texnika va origami usullarini esda saqlaydilar, kerak bo'lganda, xotirada saqlangan bilim va ko'nikmalarni takrorlaydilar.

Origami texnologiyasi buklash va burmalar tizimiga asoslangan. Oddiy origamidan tashqari, nam origami va sendvich origami mavjud. Har bir origami turi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Qog'oz origami turlarining har xil turlari mavjud. Bular:


²⁹ http://mbdou59.ucoz.ru/publ/masterim_vmeste/origami/chto_takoe_origami/41-1-0-140

Klassik origami - shakl yelim va qaychi ishlatmasdan kvadrat qog'oz varag'idan buklab yasaladi;

Kirigami- yaponchadan tarjima qilganda ("Kiri" qirqish, "kami" qog'oz)— qaychi yordamida qog'ozdan turli shakllar va taklifnomalar yasash san'atidir.

Modulli origami - bir nechta oldindan buklangan mayda modullardan yaratilgan hajmli shakllar;


Oddiy origami - yangi boshlovchilar uchun yaratilgan yengil shakllar.



XIX-asrning boshlarida **Fridrix Frebel** qog'oz origamining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi va bu faoliyatni bolalar bog'chalarida shug'ullanishi, bolalarning mayda motorli ko'nikmalarini rivojlantirish uchun pedagog sifatida taklif kiritdi. Hozirgi vaqtda pedagoglar bolalar bilan ishlashda origamidan foydalanishi bejiz emas, chunki u mayda qo'l motorikasini va bolaning diqqat, xotira, fikrlash, tasavvur kabi aqliy jarayonlarini rivojlanishiga ta'sir qiladi

Origami bolalarda qat'iyatlilik, aniqlik, intizom, faollik, mustaqillikni tarbiyalashga hissa qo'shadi. Qog'ozdan shakllarni yasash jarayonida bola doimiy ravishda geometrik shakllar bilan ishlaydi, u geometrik shakl - kvadrat (to'rtburchak) shakldagi qog'oz orqali origamini yasashni boshlaydi. Bolaning qo'lida kvadrat qog'oz origami yasash jarayonida bir shakldan boshqa shaklga o'zgaradi.

Origami yasashda bola qog'ozni notekis buklsa ham, biror shaklni yasay oladi. Origami shakllarni bola nafaqat o'ynash uchun, balki onajonlarga sovg'a sifatida, suv ichsa bo'ladigan stakan, quyoshdan himoya qiladigan shlyapa kabi buyumlarni oddiy



qog'ozdan bo'lsada o'z qo'llari bilan yasaydi. Bola foydali biror buyum yasash imkoniyatiga ega bo'ladi. Origamining modulli yasaliş qoidasidan kosmonavtikada ochiq kosmosda kichik hajmni egallaydigan va tez ochilishi kerak bo'lgan quyosh batareyalari sathini hosil qilish uchun ishlatiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda origami mashg'ulotlari orqali quyidagilar rivojlanadi:

Ijodiy qobiliyatlar. Origami miya faoliyatining tasavvur va mantiq kabi xususiyatlarini birlashtiradi: Bunday aql o'yini miyaning yarim sharlarini uyg'unlashtiradi va yangi g'oyalarni topish va yangi narsalarni yaratish qobiliyatini rivojlantiradi.

Diqqatni jamlash va qat'iyatlilik. Har qanday qog'ozdan shaklni yaratishda, hatto oddiy bo'lsa ham, qat'iy harakatlar ketma-ketligi talab qilinadi. Shuning uchun bolalar bog'chasida origami bolalarda diqqatni rivojlantirishning eng foydali usullaridan biridir. 6 yoshga to'lgunga qadar ko'p bolalar uzoq vaqt davomida bir ob'ektga e'tiborini qaratish juda qiyin. Qat'iyat va diqqatni jamlashni rivojlantirishning yagona yo'li - bu bolaning e'tiborini to'liq o'zlashtira oladigan qiziqarli mashg'ulotni topishdir.

Xotira. Qog'ozdan origami shakllarini yasash odatda bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Bolalar barcha harakatlar ketma-

ketligini eslab qolishlari va takrorlashlari kerakligi sababli bu faoliyat turi bilan shug'ullanganda xotira yaxshi rivojlanadi.

Estetik didni rivojlantiradi. Go'zallik tushunchasi va go'zallik tuyg'usining asoslari erta yoshdan amalga oshiriladi. Rivojlanishning ushbu bosqichida bolalarga estetik didni singdirish juda muhimdir.

Fazoviy fikrlash. Fazoviy geometriyaning rivojlanishining boshlanishi tasavvurni rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, ayrim pedagoglar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun origami matematik fanlarni keyingi davrlarda o'rganish uchun yaxshi vosita ekanligiga ishonishadi.

Qo'llarning motorikasi. Qog'ozni buklash mahorati aniq va to'g'ri qo'l harakatlarini talab qiladi, chunki to'g'ri buklangan qog'oz ishni qanchalik tekis va sifatli bo'lishini aniqlaydi. Kelgusida bu imkoniyat barmoq epcilligini ham talab qiladigan turli sohalarni o'zlashtirishni osonlashtiradi.

MTTdagi qog'ozdan tashqari mashg'ulotlar jarayonlarida tabiiy xom-ashyolar: o'simliklar shoxlari, ildizlari, barglari, o'simlik urug'lari barglari, shoxlari, sabzavot, meva hamda poliz ekinlari hamda o'simliklarning urug'lari, qushlarning patlari, paxta chanog'i, chigiti, boshqoqli ekinlar somoni, o'simliklar poyasi, baliq tangalari, qamish, chig'anoq va shu kabilardan mahalliy material sifatida foydalanish mumkin.

Katta va maktabga tayyorlov guruhlarida bolalar qurish-yasash faoliyati uchun tabiiy material, oq va rangli qog'oz, yumshoq karton, rangli qalamlar, guash bo'yoqlari, yelim va qo'l mehnatida saqlanadigan boshqa qo'shimcha materiallar bo'lishi kerak. Tabiiy material bilan ishlashda ko'pincha eman yong'og'i va kosachalari, kashtan mevalari ishlatiladi. Yangi, paytda ular osongina kesiladi va bigiz bilan teshiladi. Quritilgan eman yong'og'i va kashtanlardan foydalanish uchun ular bir kun davomida sovuq suv bilan to'ldirilishi kerak. Keyin uni suvdan olib, salqin joyda bir kun ushlab turib, keyin ishlatish mumkin. Eman yong'og'idan turli xil odamlar, hayvonlar, qushlarning Ular bosh va gavda shaklini yasash mumkin, G'uddalar (archa, qarag'ay,) shakli juda xilma-xil bo'lib, har qanday yelim bilan yaxshi yopishadi va bolalar qo'l ishlarida ishlatilish mumkin. Ularni ochilmagan holda yig'ish kerak, chunki bu shaklda

ular ko'p ishlatiladi. Ammo ularni bir necha soat davomida issiq pechga qo'ysangiz, ularni ochishingiz mumkin. Xonadagi ochilmagan g'uddalarlar issiqqa tezda ochiladi. Buning oldini olish uchun ular BF-2 yelim bilan qoplash kerak. Keyin g'uddani quritish uchun vertikal ravishda taxta ustiga qo'yiladi. Ochiq g'uddani suvda yoki nam lattada kurtak yopilguncha ushlab, ochilmagan holatga keltirish mumkin. Shundan so'ng darhol elim bilan qoplangan bo'lishi kerak. G'uddaning tepalari kesilishi mumkin, lekin keyin kesilgan joyni yelim surib qo'yish kerak, g'uddani 10-15 daqiqa davomida tepaga qo'yiladi, shunda yelim ichki qismiga kiradi. G'uddalar, ayniqsa, ko'pincha turli xil ob'ektlar va ularning qismlarini loyihalashda qo'llaniladi. Ochilgan qarag'ay va archa g'uddalari archaning shakliga juda o'xshaydi va agar ular yuqoridan kesilgan bo'lsa, ular uzun kiyim kiygan odamning tanasiga, ba'zan hayvonga, qushlarga va hatto hasharotlarga o'xshaydi. Yong'oqlar pishganida, lekin yashil qobiq hali ajralmagan vaqtda yig'ib olinadi. Yong'oqlar yumshoq quritilishi kerak. Ulardan ba'zilarida (bosh va yuzni yasash uchun kerak bo'lgan) yashil qobiqni ichi qurishi uchun olib tashlash kerak. Yong'oq yelim surganda yaxshi yopishadi, bigiz bilan teshish osonroq. Undan qushlar, tipratikonlar, qayiqlar tanasi uchun ishlatilishi mumkin. Tabiiy materialni loyihalashda meva danaklari (gilos, olxo'ri, o'rik, shaftoli, xurmo), yovvoyi o'simliklarning urug'lari ishlatiladi. Ularni plastilin bilan mahkamlab, yelim bilan yopishtiriladi. Ish uchun novdalar, kerak bo'ladi. Ammo ularni yig'ishda daraxtlar va butalarni qirqish mumkin emas. Faqatgina kesilgan daraxtlardagi quruq shoxlarni to'plashingiz mumkin. Daraxt novdalaridan odam, hayvonlar va qushlarning oyoq-qo'llarini, shuningdek, ma'lum kompozitsiyalarni yasasa bo'ladi. Qo'l ishlarida makkajo'xorini donsiz boshqoqlarini, barglarini ishlatish mumkin. Ushbu material bilan ishlash oson, u yaxshi yopishadi, qaychida oson kesiladi, bigiz bilan teshishga qulay.

Qurish-yasash mashg'ulotlari jarayonida eng ko'p foydalanish mumkin bo'lgan, o'lkamizda uchrata oladigan tabiiy xom ashyolar atirasiqa quyidagilar kiradi:

1. Manzarali daraxt mevalari (archa, qarag'ay, akatsiya, chinor, eman, kashtan va h.k.)

2. Mevali, manzarali daraxt barglari va shoxlari,

4. Chig'anoqlar va toshlar

5. O'simlik va poliz ekini urug'lari

6. Somon (bug'doy, arpa)




7. Dekorativ qovoqlar

8. Qush patlari va h.k


Manzarali daraxt mevalari- O'zbekiston sharoitida istirohat bog'lari, xiyobonlar, yo'l bo'ylarida o'sadigan manzarali daraxtlar mevalarini kiritishimiz mumkin. Eman, kashtan, chinor mevalarini asosan kuz faslida terib olib hayvonlar, hashoratlar, ertak qahramonlari shakllarini yasash mumkin. Masalan eman yong'og'i shakli hayvonlar va odamcha shaklini eslatadi, shakllar yasashda juda qo'l keladi. Shakllar yasaganda oson yelimlanadi, biriktirishda qo'shimcha materialar bilan ishlatish qulay. Archa va qarag'ay g'uddasidan ham xuddi shunday shakllar yasash mumkin. G'uddalarni (ayniqsa, qarag'ay g'uddalarini) nam tuproqdan yig'ib olish tavsiya etiladi, shunda ular sekinroq quriydi va shaklini uzoqroq saqlaydi. Yig'ishdan so'ng ularni turi, shakli va o'lchami bo'yicha saralash va alohida qutilarga joylashtirish kerak.

Mevali, manzarali daraxt barglari va shoxlari. Qurish-yasash mashg'ulotlarida o'yinchoqlar yasash uchun olma, o'rik, shaftoli, tut, akatsiya, archa, eman, kashtan, chinor daraxtlari barglari va shoxlaridan foydalanish mumkin. Tabiiy materiallardan o'yinchoqlar yasashda ba'zi qismlarini qo'llar, oyoqlar, bo'yinlar uchun turli xil daraxt shoxlaridan foydalanish mumkin.



Daraxt shoxlarini yig'ish - vaqt, sabr va aniqlikni talab qiladigan ish. Shu bilan birga, bolalarga daraxtlarni himoya qilish kerakligini va faqat quruq, lekin juda qurib ketmagan shoxlarni yig'ish va o'yinchoqlar yasashda ishlatish kerakligini doimo eslatib turish kerak.





Chig'anoqlar va toshlar. Daryolar, dengizlar, ko'llar qirg'oqlarida hayvonlar tashlab ketgan chig'anoqli uylarni ko'rishingiz mumkin, ularning ko'pchiligi tashqi ko'rinishi bilan qiziqarli, shakli o'ziga xos - tasvirlar, taroqsimon, yurak shaklidagi va boshqalar. Chig'anoqlar to'plami qilingan. Bolalar tomonidan o'qituvchi bilan birgalikda sayrlar, ekskursiyalar paytida yig'iladi. Yig'ib bo'lgach, chig'anoqlar kichik cho'tka bilan yuviladi (tish cho'tkasidan foydalanish mumkin), shundan so'ng ular yoyib chiqiladi va quritiladi. Quruq chig'anoqlar turi va hajmi bo'yicha saralanadi. Ularni har qanday haroratda saqlash mumkin.



O'simlik va poliz ekini urug'lari. Tabiiy materiallardan tayyorlangan o'yinchoqlarga qo'shimcha material sifatida daraxtlar, gullar, sabzavotlar urug'lari, chinor bo'lishi mumkin. Ulardan siz otachi uchun qanotlar, quyon uchun quloqlar, baliq uchun qanotlar va kosmonavtlar uchun antennalar yasashingiz mumkin, akasiya daraxti mevalari, tarvuz, qovun, kungaboqar urug'laridan, shafaq kabi gullarning yirik urug'lari, jozibali gullaridan ko'z qilishingiz mumkin. Urug'larni kuzda yig'ish ma'qulroq.




Somon (bug'doy, arpa)- Somon bilan ishlash yoqimli: u silliq, moslashuvchan, hidli. Hunarmandchilik uchun somon nafaqat bug'doydan, balki jo'xori va guruch somonidan ham ishlatiladi. O'rim-yig'imdan keyin g'alla maydoniga ekskursiyalar paytida borish mumkin. Ish uchun mo'ljallangan somon poyalari buzilmagan bo'lishi kerak. Ular ish uchun mos bo'lmagan va kesilgan mavjud bo'g'imlarga ko'ra bo'laklarga bo'linadi. Somonni uzunligi, kengligi bo'yicha saralash va uni keyingi yoz mavsumigacha shu tarzda saqlash kerak.





Dekorativ qovoqlar

Ular turli shakl va ranglarda bo'ladi. Qovoqlar turli xil hunarmandchilik buyumlari yasash uchun ishlatiladi, masalan, qo'g'irchoqlar. Bu material osonlik bilan qayta ishlanadi va quritilsa yaxshi saqlanadi. O'zbek



hunarmandlari qovoqdan juda chiroyli qo'g'irchoq va buyumlar yasaydilar.

Qush patlari- ishda siz turli o'lchamdagi, rangli va har qanday sifatidagi qush patlarini (tovuq patlari, o'rdak, g'oz, chumchuq patlari, kaphtarlar va boshqalar) ishlatishingiz mumkin. Ishdan oldin tuklar tabiiy ko'rinishini tiklash uchun yuviladi, quritiladi va taraladi. Patlarni ranglarga bo'yash mumkin.



Ilk yoshligidan boshlab, bolalarda ona tabiatga qiziqish va unga muhabbatni shakllantirish hamda undagi go'zallikni yarbitalash lozim. Qurish-yasash mashg'ulotlarining afzallik jihati shundaki boshqa metodikalar bilan juda yaxshi integratsiyalash mumkin. Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari orqali bolalar tabiatda mavjud som-ashyo turlari bilan yaxshiroq tanishadilar. Tabiiy materiallar bilan ishlash bog'cha bolalarini tabiatni sevishtirishga, uni kuzatishga, undan zavq olishga o'rgatadi. Tabiatni kuzatish esa, o'z navbatida bolalarda ijodiy ishlashni, konstruktorlik g'oyasini, tushunchalarning aniqligini uyg'otadi. Ijodiy ishlar bajarish uchun bolalar tabiat qo'yniga chiqib, tabiatdagi materiallarni tarbiyachi bilan birga yig'ib keladi. Shu jarayonni o'zida bola tabiat haqida qancha bilim va tasavvurlarga ega bo'ladi.

Barcha tabiiy materiallarni yozda va kuzda mevalar pishganida yig'ib olinishi kerak bo'lgan turlarga bo'lish mumkin. Yoz va bahorda gullar, barglar, o'tlar, makkajo'xori, daraxt po'stloqlari va boshqa shu kabi tabiiy materiallar mavjud. Kuzda yong'oq, kashtan, boshqoq, ko'plab o'simliklarning urug'lari, somon, manzarali qovoq va boshqa materiallar yig'ib olinadi. Mox, g'udda, igna va po'stloq kabi ba'zi tabiiy materiallar butun yil davomida mavjud bo'ladi.

O'simliklarni quritib olish. O'simliklarning gullari va barglari qog'oz varaqlari o'rtasida tekislanadi va quritiladi, ular applikatsiya yoki quritilgan guldastani tayyorlash uchun ishlatilishi mumkin. Qalinroq barglardan kapalaklar va ninachilar uchun qanotlar yoki baliq uchun qanotlar olinadi. Kuz barglari olovrang va sariq rangda bo'ladi va tasvirni jozibali chiqishiga yordam beradi. Yashil yoz barglari quriganida, boy yashil rangini yo'qotadi. Barglarning turli shakllari va ranglari ularni ijodkorlik uchun qiziqarli materialga aylantiradi. O'simliklarni to'plash va quritib olishda gazeta, gerbariy papkasi, qaychi, paxta bo'lishi kerak. O'simliklarning gullari, barglari, poyasi va shu kabilarni to'plash maqsadida ekskursiyaga chiqilganda bir juft gazeta, qaychi bo'lishi shart. Gazeta daftarsimon taxlanib, orasiga materiallar tartib bilan joylanadi. Gullarni qo'l bilan sindirib olib bo'lmaydi, aks holda, poyasi zararlanishi mumkin. Quritib olishga mo'ljallangan o'simliklar har qanday namlik (yomg'ir yoki shudring) dan xoli bo'lishi kerak, aks holda, o'simlik quritilganda unda dog'larning izi qoladi. Quritilayotgan o'simliklarda tabiiy rangni asrab qolishning eng muhim sharti ularni shamol o'tib turadigan joyda, yelvizakda, quyosh nurida tez quritib olishdir. O'simliklarni quritish 3 sutkadan ortiq davom etmasligi kerak. Turli o'simliklarni to'plashni o'z muddatlari bo'ladi.

Barglarni gerbariy ramkalarida quritish. Gerbariy ramkalarida quritilgan o'simliklarning ko'pchiligi o'zining tabiiy rangini saqlab qoladi. Bunda o'simlik yumshoq qog'oz va gazeta orasiga solib qo'yiladi. Xar bir qog'oz va o'simlik orasiga yana bir necha qavat gazeta qo'yiladi, chunki quritilayotgan o'simliklar o'zidan namlik chiqaradi. Shundan so'ng papka ikkita to'rsimon ramka o'rtasiga qo'yilib ochiq xavoda quritiladi.

Quritishning yana bir usuli dazmoldan foydalanish usulidir. Issiq dazmolda barglar, poyalar, maysalar, gullar quritiladi. Masalan: qavat-qavat gazeta yoki yumshoq qog'oz orasiga o'simlik qo'yib, ustidan dazmol yurgiziladi. So'ngra usti qavatidagi gazetani olib, shamollatiladi va quruq joyga qo'yiladi. So'ngra gazetani yopib yana dazmollanadi. O'simlik 2-3 daqiqada quriydi va o'zining rangini yo'qotmaydi. Agar quritilayotgan narsa ko'tarilganda o'z tanasini yaxshi ushlab tursa, u yaxshi quritilgan xisoblanadi. Agarda u sinib maydalanib ketsa, bilingki demak siz uni ortiqcha quritib yuborgan

xisoblanasiz. Dazmolni juda kuchli qizdirib ham yubormaslik kerak, chunki barglar burishib shaklini yo'qotadi.

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar:

Klassik origami - shakl yelim va qaychi ishlatmasdan kvadrat qog'oz varag'idan buklab yasaladi

«Origami» so'zining kelib chiqishi yapon tiliga mansub bo'lib, ikki ibora "ori" - buklangan va "gami" - qog'oz degan ma'nolarni anglatadi. Origami deyilganda odatda to'rtburchakli qog'ozlarni buklab turli buyum va o'yinchoqlarni yasash tushuniladi.

Kirigami- yaponchadan tarjima qilganda ("Kiri" qirg'ish, "kami" qog'oz)— qaychi yordamida qog'ozdan turlishakllar va taklifnomalar yasash san'atidir.

Namlab buklash- Akiro Yosidzava ishlab chiqqan usul bo'lib, u qog'ozni suvda namlab turib ishlatiladi. Bu bukish chiziqlarining silliqligini ta'minlaydi. Ushbu usul geometrik bo'lmagan narsalar shaklini, masalan: hayvon va gullar shaklini yasash mumkin.

Modulli origami - bir nechta oldindan buklangan mayda modullardan yaratilgan hajmli shakllar;

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:

1. Origami san'ati qaysi davlatda vujudga kelgan?

- A. Koreyada
- B. Xitoyda
- C. Yaponiyada
- D. Yevropada

2. Qanday manzarali daraxt mevalaridan o'yinchoqlar yasash mumkin?

- A. o'rik, shaftoli
- B. gilos, olma
- C. terak, qayrag'och
- D. eman, kedr, kashtan, qarag'ay va x.k

3. Qog'oz birinchi bo'lib qaysi mamlakatda ixtiro qilingan?

- A. Hindiston
- B. Yaponiya

- C. Xitoy
- D. Osiyo

4. Samarqand qog'ozini ishlab chiqarishda xomashyo sifatida nimadan foydalanilgan?

- A. Sellyuloza, kanop
- B. Paxta, ipak va tut daraxti po'stlog'i
- C. Somon, poxol, ipak
- D. Yog'och, poxol, selluloza

5. Origami yasash bolalarda nimalarni rivojlantiradi?

- A. Xotira, xayol, nutqni
- B. Mayda qo'l motorikasi, sezgilar, nutqni
- C. mayda qo'l motorikasi, diqqat, xotira, fikrlash, tasavvurni
- D. Fikrlash, ijobiy xislatlarni, o'ziga ishonchni

Nazorat savollari:

1. Qurish-yasash mashg'ulotlari jarayonida eng ko'p foydalanish mumkin bo'lgan tabiiy xom ashyolar sirasiga qaysilar kiradi?
2. MTTda mevali va manzarali daraxt mevalaridan qanday o'yinchoqlar yasash mumkin?
3. Somondan applikasiya yasash uchun somon qanday tayyorlanadi?
4. Tabiiy materiallarga qo'shimcha sifatida qanday materiallar ishlatiladi?
5. Barglardan applikasiya yasash uchun uni qanday tayyorlash kerak?
6. Qog'ozning paydo bo'lish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
7. Origami qayerda paydo bo'lgan?
8. Qanday origami turlari mavjud?
9. Qog'ozdan namlab buklash nima?
10. Modulli origami haqida nimalarni bilasiz?

VII- BOB bo'yicha xulosa

MTTda qurish-yasashning ikki turi ajralib turadi - texnik (qurilish materialidan, turli xil mahkamlash usullariga ega konstruksiyalarning qismlari, katta o'lchamli modul bloklari) va badiiy (qog'oz va tabiiy) materiallardan yasaladigan. O'yin

moslashgan qurilish materiallaridan konstruksiyalash maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng qulay va oson qurilish turidir.

Qurish-yasash to'plamlarining asosiy g'oyasi bolalarda aqlning sakkizta almashtirib bo'lmaydigan shakllarini modellash, mantiqiy fikrlash, hissiy rivojlanish, qiziquvchanlik, ijodkorlik, tasavvur, matematik fikrlash va tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Robototexnika bugungi kunda eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Bugungi kunda zamonaviy dunyodagi hayotni oziq-ovqat mahsulotlarini yaratish va qayta ishlash, kiyim-kechak tikish, avtomobillarni yig'ish, murakkab boshqaruv tizimlarini boshqarish va boshqalar uchun dasturlashtirilgan mexanik mashinalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Qurish-yasash mashg'ulotlarining afzallik jihati shundaki boshqa metodikalar bilan juda yaxshi integratsiyalash mumkin. Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari orqali bolalar tabiatda mavjud xom-ashyo turlari bilan yaxshiroq tanishadilar. Tabiiy materiallar bilan ishlash bog'cha bolalarini tabiatni sevishga, uni kuzatishga, undan zavq olishga o'rgatadi.

IX BOB

MASHG'ULOTLARDAN TASHQARI VAQTLARDA TASVIRIY FAOLIYATNI TASHKIL QILISH.

§18. Mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda tasviriy faoliyatning mazmuni



Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy-estetik tarbiyalashda mustaqil faoliyat pedagogik jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish eng

dolzarb pedagogik muammolardan biridir. Zamonaviy maktabgacha ta'limning hozirgi yo'nalishi - badiiy-estetik ta'lim bo'lib, pedagogikada badiiy-estetik ongni shakllantirish va rivojlantirish va uni ijodiy faoliyatda faollashtirish, to'liq mustaqillik namoyon bo'lishini nazarda tutadi. Ayni paytda bolalarning badiiy-estetik faoliyatda ishtirok etishi uchun shart-sharoit yaratish, bolalarning mustaqil tasviriy faoliyatini rivojlantirish, ijodkorligini, dunyo va san'atni badiiy-estetik idrok etishini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bolalarning tasviriy faoliyati ijtimoiy tajribani o'zlashtirishning o'ziga xos shakli bo'lib, u bolaga o'z taassurotlarini, atrofidagi dunyo haqidagi bilimlarini aks ettirishga, ijobiy kayfiyat va his-tuyg'ularni etkazishga, ijodkorlik va ijodning birinchi tajribasini o'rganishga imkon beradi.³⁰

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki ta'lim jarayonida kelajak avlodga vatanparvarlikni qadriyatlarimizni o'rgatishdan boshlashimiz lozim. Milliy tarixiy muzeylar, san'at muzeylari, tarixiy obidalar, xalq amaliy san'ati namunalari, hunarmandchilik

³⁰<https://cyberleninka.ru/article/n/organizatsiya-samostoyatelnoy-hudozhestvenno-esteticheskoy-deyatelnosti-detey-doshkolnogo-vozrasta-v-usloviyah-realizatsii-fgos-do>. Организация самостоятельной художественно-эстетической деятельности детей дошкольного возраста в условиях реализации ФГОС ДО. Л.Г. Касьянова, г. Шадринск Л.А. Константинова, г. Нягань.

ustaxonalariga ekskursiya va sayohatlar tashkil etish mustaqil tasviriy faoliyat mazmunini yanada boyitadi. Kelajak avlod ongida vatanparvarlik tuyg'ularini quruq gaplar bilan shakllantira olmaymiz. Bu haqida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining takomillashtirilgan ikkinchi nashri II-bobida "Bolalarning o'z milliy madaniyati, tili, an'alarini hurmat bilan e'tirof etilganda ular yaxshiroq ta'lim oladilar va rivojlanadilar. Davlat o'quv dasturi milliy va mintaqaviy madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda tuziladi"- deyilgan."³¹

Mustaqil tasviriy faoliyatning mazmuni bolalarda o'z taassurotlarini mustaqil ravishda aks ettirish qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Mustaqil tasviriy faoliyat bolaning individual xususiyatlarini, uning atrofidagi dunyoga va o'ziga bo'lgan munosabatini ifodalash mumkin bo'lgan jarayondir. Mustaqil tasviriy faoliyat mustaqildir, chunki u bolalarning shaxsiy qiziqish va ehtiyojlari zarurati bilan yuzaga keladi. Bolalarning mustaqil tasviriy faoliyatining o'ziga xosligi - bu bolalar tashabbusi bilan yuzaga keladi, maqsadni bolaning o'zi belgilaydi, uning o'zi uni amalga oshirish uchun vositalarni topadi, kerakli natijaga erishish uchun faoliyatni rejalashtiradi. Mustaqil tasviriy faoliyat bolaning shaxsini rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega. Bu jarayon bolalarda:

- tashabbuskorlik, mustaqillik, faollikni rivojlantiradi;
- mustaqil tasviriy faoliyat jarayoni darsda va tarbiyachi bilan birgalikdagi faoliyatda olingan bilim, qobiliyat, ko'nikma, faoliyat usullarini mustahkamlaydi, ularni yangi turmush sharoitlariga o'tkazishni rag'batlantiradi;
- mustaqil tasviriy faoliyat- turli xil yorqin taassurotlar bolaning tasavvuriga va his-tuyg'ulariga ta'sir qiladigan, psixologik zo'rliqlashni yengillashtiradigan, uning ichki dunyosini yanada boyitadigan, o'ziga ishonchni oshiradigan tabiiy yo'lni topadi;
- faoliyatning ushbu shakli jarayonida jamoaviy faoliyat ko'nikmalari mustahkamlanadi va takomillashtiriladi: bolalar o'z fikrlarini bir-biri bilan muhokama qiladilar, maslahatlar bilan bo'lishadi, do'stona yordam beradilar, baholaydilar.

³¹ "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining takomillashtirilgan ikkinchi nashri. Toshkent- 2022 yil

Mustaqil faoliyat bolalarni tasvirlash usullaridan dadilroq foydalanishga odatlantiradi. Loy yoki plastilindan o'yinchoq yasash mustaqil tasviriy faoliyat uchun juda foydali mashg'ulot bo'lib, bolalar o'yinchoqni alohida yoki guruh bo'lib yasashlari mumkin. O'yinchoq yasash taklifi bolalardan chiqqani ma'qulroq, sababi bunday vaziyatda ular ishini yaxshi ko'rib o'z ixtiyorlari bilan bajaradilar. Kerakli materiallarni o'zlari oladilar. Bunday hollarda tarbiyachi mashg'ulotda faol bo'lmagan, yasashni yaxshi ko'rmaydigan bolalarni ham jalb etishi mumkin. Bunday mashg'ulotlarda bolalar o'z ijodiy imkoniyatlarini ochadilar va predmetni tasvirlash ko'nikmalarini mustahkamlaydilar. Katta guruhlar uchun kulolchilik ustaxonasi tashkil etish mumkin. Qo'g'irchoqlar uchun idish tovoqlar, milliy xalq o'yinchoqlarini yasash bolalar uchun zavqli mashg'ulot bo'ladi.

Guruhdagi mustaqil tasviriy faoliyat bolalarda ko'nikmalarining rivojlanish darajasini ko'rsatadi. Bu ularning mashg'ulotlarda ma'lum miqdorda ko'nikma, qobiliyat, badiiy- ijodiy tasavvurlar shakllanganligi va tarbiyachining yordamisiz harakat qilishni o'rganganligidan dalolat beradi. Bola o'z tashabbusi, qiziqishlari, istaklari, ehtiyojlariga muvofiq harakat qiladi, mashg'ulotda olgan ko'nikma va malakalarini ushbu yangi sharoit va vaziyatlarda qo'llay oladi. Bolaning tashabbusi bilan yuzaga keladigan mustaqil tasviriy faoliyat rivojlanadi va bolaning atrof-muhit bilan estetik munosabati yanada yaxshilanadi.

O'yin jarayonida yuzaga keladigan tasviriy faoliyat subordinatsiyaviy xususiyatga ega. Uning maqsadlari va mazmuni o'yin ehtiyojlari bilan belgilanadi. Masalan, "maktab" o'yini o'yin ishtirokchilari uchun daftar, kitob, sumka yasash zaruratini tug'diradi. Ba'zi bolalar qog'ozdan ushbu ob'ektlarni qurish bilan shug'ullanadilar. Bunday tadbirlar tashabbuskorlikni, ijodkorlikni rivojlantiradi va o'yin mazmunini boyitadi.

Bolalar mashg'ulotdan tashqari ishlash uchun zarur materiallar bilan ta'minlanishi kerak. Guruh xonalarida, burchaklarda yoki shkafdagi javonlardan bolalar erkin foydalanishi mumkin bo'lgan chizma va modellastirish materiallari saqlanishi kerak. Iloji boricha bolalar qo'li yetadigan joyga qo'yish lozim. Yosh guruhlarda bunday burchak bolalar materialdan foydalanishda boshlang'ich

ko'nikmalarga ega bo'lganda yaratiladi. To'g'ri, o'zini qalam bilan ishlashdan cheklash kerak, chunki bo'yoq va loy bilan ishlash qiyin va tarbiyachi tomonidan doimiy nazoratni talab qiladi. O'rta guruhda qalamlarga plastilin qo'shiladi. Katta yoshdagi bolalar guruhda foydalanadigan barcha materiallar bilan ta'minlanishi mumkin, faqat kichik cheklovlar bilan. Shunday qilib, loy o'rni uchun chinni xamir, kraxmalli yelim yoki ish rangli qog'oz va boshqa materiallari beriladi. Tabiiy va boshqa qo'shimcha materiallar bolalar uchun qulay bo'lgan bo'limlari bo'lgan qurtmalarida saqlanadi. Loy va plastilindan o'yinchoq yasashni o'rgatishning muvaffaqiyati ko'pchilikdan mashg'ulotda bolalarga rahbarlik qilish qanday amalga oshirilishiga bog'liqdir. Bunda asosiy vazifa bolalarni ishning umumiy borishini buzmay, g'oyani mustaqil holda hal qilishga yo'naltirishdan iboratdir. Bolalar bu materiallarning barchasidan bo'sh vaqtlarida foydalanadilar va o'qituvchining ruxsati bilan oladilar. Mashg'ulotning boshida tarbiyachi loyni stollarga tarqatib chiqmasligi, bolalarning o'zlariga kerakli miqdordagi loyni olishlarini aytishi mumkin. Bu harakat bolalarni mustaqil harakat qilishga o'rgatadi. Ish jarayonida tarbiyachi bolalarni kuzatadi, ularga maslahatlar beradi, boshlang'ich ishning tugallanganligiga ishonch hosil qiladi. Bunga tegishli jihozlardan yetarli foydalana olish, bolalarni ijodini yangi tajribalar, ko'nikmalar bilan boyitish, mohirona pedagogik rahbarlik ham juda katta rol o'ynaydi.

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar:

Subordinatsiya - lotinchadan "Subordinatio" — bo'yusunish

Kraxmalli yelim-yarim stakan suvga 2-3 oshqoshiq kraxmal solib qaynatib tayyorlanadigan qo'lbola yelim bo'lib, ishlatishtish davomiyligi 6-8 soat

Shablonlar- yunonchada "schablone" — namuna

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:

1. Tarbiyachi guruh xonalarida, burchaklarda yoki shkafdagi javonlardan bolalar erkin foydalanishi uchun nima qilish kerak?

A. Bolalarga materiallar iloji boricha xavfsizlik uchun yuqorida bo'lishi;

B. Iloji boricha bolalar qo'li yetadigan joyga qo'yishilishi;

C. Bolalar uchun qulay bo'lgan bo'limlari bo'lgan tortmalarda saqlanishi;

D. B va C javoblar to'g'ri;

2. Bolalarning mustaqil tasviriy faoliyatining o'ziga xosligi nimada?

A. Bolalar tashabbusi bilan yuzaga keladi, maqsadni bolaning o'zi belgilaydi, uning o'zi uni amalga oshirish uchun vositalarni topadi, kerakli natijaga erishish uchun faoliyatni rejalashtiradi

B. Uning mustaqilligida

C. Bolalar tarbiyachi nazoratida bo'lmaydi

D. B va C javoblar to'g'ri

Nazorat savollari:

1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida mashg'ulotlardan bo'sh vaqtlarda tarbiyachining faoliyati qanday bo'lishi kerak?

2. Bolalar mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda shug'ullanishlari uchun qanday materiallar bo'ladi?

3. Bolalarning mashg'ulotdan bo'sh vaqtlarida nima uchun ularning xohishiga qarash kerak?

4. Mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda tasviriy faoliyat bilan shug'ullanish nima uchun o'yin shaklda bo'lishi kerak?

5. Mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda tasviriy faoliyat bilan shug'ullanish orqali qanday ko'rgazmali buyumlar yasaydilar?

6. Mashg'ulotdan tashqari vaqtdagi loy ishi uchun qanday jihozlardan foydalanish ma'qul?

§19. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil tasviriy faoliyatiga rahbarlik qilish

Mustaqil faoliyat jarayonida bola o'z mahorati va ko'nikmalarini takomillashtiradi va mustahkamlaydi, o'ziga, o'z qobiliyatiga borgan sari ishonchni his qiladi. Bolalarning mustaqil tasviriy faoliyati

jarayonida o'z-o'zini rivojlantirish, boshqalarga taqlid qilish orqali o'z-o'zini o'rganish sodir bo'ladi, ularning qobiliyati ularning tasavvuriga ta'sir qiladi va shunga o'xshash tarzda harakat qilish istagini uyg'otadi. Ayniqsa yozgi vaqtlarda ochiq havoda rasm chizish, loydan o'yinchoqlar yasash, tasviriy faoliyatda bolalarning bilim, malaka va ko'nikmalarini mustahkamlash bolalarning bo'sh vaqtlarida ko'proq ularning xohishiga ko'ra amalga oshirilishi kerakligini tarbiyachi yodida tutishi kerak. Aksariyat hollarda vaqtning ko'p qismi o'yinlarga bag'ishlanadi. Ammo agar bolalardan biri chizish, haykaltaroshlik qilishni xohlasa, bunga to'sqinlik qilmaslik kerak. Bunday istak ba'zan bolada qobiliyatlar mavjudligini ko'rsatadi va ularni aniqlash va rivojlantirishga yordam berish kerak. Mustaqil faoliyat jarayonida bolalarning turli ko'nikmalari mustahkamlanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida mashg'ulotlardan bo'sh vaqtlarda bola uchun erkin ijodiy faoliyat va jamoa bo'lib ishlash uchun imkoniyat yanada ortadi. Bunday paytda faoliyat uchun tarbiyachining o'rni ikkinchi darajada bo'lishi kerak. Bolalarga tarbiyachi taklif berishi, ularning xohish istaklarini birinchi o'ringa qo'yishi kerak. MTTda o'tkaziladigan ko'ngil ochar tadbirlar uchun bezatish ishlari bo'lsin yoki biror mavzuda tasviriy faoliyat bo'yicha ijodiy ish bajarish bo'lsin, bolalar tarbiyachi bilan hamkorlikda bajarishi kerak. Tarbiyachi mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda bolalar uchun barcha sharoitni yaratib berishi lozim. Bolalarning mustaqil badiiy faoliyati turli xil badiiy tajribalar ta'sirida sezilarli darajada boyib boradi: bayramlar, o'yin-kulgilar, tasviriy san'at asarlari, musiqa, badiiy adabiyot bilan tanishish. Ssenariylari tarbiyachi va musiqa rahbari tomonidan puxta o'ylangan bayram ertaliklari va o'yin-kulgilar har bir bola uchun doimo hayajonli voqeadir. Ularda faol ishtirok etish bolalarning mustaqil faoliyatida ham namoyon bo'ladi

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq yaratilgan "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturining ikkinchi nashrida birinchi nashridan farqli ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyillari bolalarning qiziqishlariga ko'ra, mustaqil faoliyatlarini amalga oshirish

imkoniyatlarini ta'minlashda ta'lim muhiti imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan rivojlantiruvchi muhit to'g'risidagi ma'lumotlar bilan to'ldirildi. Dastur bo'yicha bolaning mustaqil faoliyati rejada aks ettiriladi, ammo tarbiyachi tomonidan yoritilmaydi, chunki bu vaqtda bolalar mustaqil faoliyatini o'zi tanlaydi. Dasturda ta'kidlanganidek "Pedagog bolalar uchun faol, mazmunli, xilma-xil va qiziqarli faoliyatlarni ta'minlashiga alohida e'tibor berish kerak: o'yinlar, mehnat, kuzatuvlar, ular davomida bolalar jamoasi shakllantiriladi, ijobiy xulq-atvor ko'nikmalari shakllanadi va tarbiyalanadi, bolalarning atrofdagi tabiat va jamoat hayoti haqidagi bilimlari to'planadi". Dastur talablariga muvofiq MTTda mustaqil tasviriy faoliyat kunning ikkinchi yarmida tashkil etiladi. Bolalar ta'limiy faoliyat jarayonida tugallay olmagan ijodiy ishlarini kunning ikkinchi yarmida davom ettirishlari mumkin. Tasviriy faoliyat bo'yicha ham mustaqil faoliyat bolalarning xohishiga qarab mavzu va kerakli materiallar tanlanishi kerak. Dastur talabi bo'yicha ham bolalarning mashg'ulotdan tashqari, vaqtdagi faoliyati bola organizmi tabiiy dam olishini ta'minlovchi, psixologik yengillik beruvchi o'yin, musobaqa shaklida bo'lishi maqsadga muvofiq. Tasviriy faoliyat bilan shug'ullanishni xohlovchi bolalarga ushbu faoliyat bo'yicha noan'anaviy usullar bo'yicha o'yin tarzida o'tkazilsa yana ham qiziqarliroq bo'ladi. Mustaqil faoliyatni to'g'ri tashkil etilishi ertangi kuni bolaning yaxshi kayfiyatda kelishi va ishtiyoq bilan mashg'ulotlarda qatnashishiga sabab bo'ladi.

Bolalarning faolligi jarayonida vujudga keluvchi mustaqil tasviriy faoliyati tarbiyachining shu ishga rahbarlik qilishida biroz qiyinchilik tug'diradi. Chunki tarbiyachi to'g'ridan to'g'ri rahbarlik qilmay, balki yuqorida ta'kidlaganimizdek ikkinchi darajali holatni egallaydi. Bola tevarak-atrof haqidagi taassurotlarini mustaqil ravishda tasvirlash uchun ular tasvirning vositalaridan keng va erkin foydalanishni bilishlari lozim. Bu esa mashg'ulotlar jarayonida tarbiyachi tomonidan berilib, bolalar tomondan egallangan bilim va malakalar hamda taassurotlarning ko'payib, boyib borishi bilan belgilanadi. Mustaqil ishlarni tashkil etish, uni boshqarish har bir tarbiyachining mas'uliyatli va mashaqqatli ishi hisoblanadi. Ijodiy faoliyat va mustaqillikni tarbiyalash bolalarni tarbiyalashning tarkibiy qismi sifatida qaralishi kerak. Bu vazifa har bir tarbiyachi

oldidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu vazifani bajarish tarbiyachidan topqirlik, bilim, tajriba va ijodkorlikni talab etadi.

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:

1. Bolalarning mustaqil tasviriy faoliyatining o'ziga xosligi nimada?

A. Bolalar tashabbusi bilan yuzaga keladi, maqsadni bolaning o'z belgilaydi, uni amalga oshirish vositalarini topadi, istalgan natijaga erishgan holda faoliyatni rejalashtiradi;

B. Bolalarda mustaqil fikrlarni yuzaga keltiradi;

C. Bola o'z xohishi bilan ijod qiladi;

D. Tarbiyachining shaxsiy nazorati va ko'rsatmasiga amal qiladi.

2. Nima uchun "Ilk qadam" dasturi bo'yicha bolaning mustaqil faoliyati rejada aks ettiriladi, ammo tarbiyachi tomonidan yoritilmaydi?

A. Tarbiyachining vaqti ketadi

B. Unchalik muhim narsa emas

C. Bu vaqtda bolalar mustaqil faoliyatini o'zi tanlaydi.

D. To'g'ri javob yo'q

Nazorat savollari:

1. Mustaqil tasviriy faoliyat bolaning shaxsini rivojlantirishda qanday ahamiyatga ega?

2. Bolalarning mustaqil tasviriy faoliyatining o'ziga xosligi nimalarda ifodalanadi?

3. Mustaqil tasviriy faoliyat bolalarda ijodiy qobiliyatlarning shakllanishida qay darajada ahamiyatga ega?

4. MTTda bolalarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etishda tasviriy faoliyatdagi noan'anaviy usullar qanday yordam beradi?

5. Bolalarning mustaqil tasviriy faoliyati jarayonida bolalarda qanday ijobiy o'zgarishlar bo'ladi?

6. Mustaqil tasviriy faoliyat majburiymi?

7. Mustaqil tasviriy faoliyatni tashkil etishda nima uchun tarbiyachi ikkinchi darajali bo'lishi kerak?

IX- BOB bo'yicha xulosa

Guruhdagi mustaqil tasviriy faoliyat bolalar ijodiy qobiliyatlarining rivojlanish darajasining ko'rsatkichlaridan biridir. Bu ularning mashg'ulotlar jarayonida qay darajada ko'nikma, qobiliyat, turli badiiy taassurotlar olganligi, tashqaridan yordamsiz harakat qilishni o'rganganligidan dalolat beradi.

Tasviriy faoliyatga pedagogik rahbarlik qilish mashg'ulotdan tashqari vaqtda asta-sekin o'zgarib boradi. Ya'ni harakatlarni ko'rsatib berishdan mustaqillikka o'tish, material tanlashda yoki o'z rejasini o'ylagan maqsadini tasvirlashda ham. Mashg'ulotdan tashqari vaqtda tasviriy faoliyatni ishning yordamchi shakliga aylantirib yuborish kerak emas. Shuningdek, tarbiyachi shuni esda tutmog'i lozimki, mashg'ulotdan tashqari tasviriy faoliyat bilan shug'ullanish hamma uchun majburiy emas, u bilan kim chizishini, loydan narsa yasashni, qirqishni yaxshi ko'rgan bolalar shug'ullanishi mumkin. Bolalar tasviriy faoliyat bilan mashg'ulotdan tashqari vaqtda 10—15 daqiqa davomida shug'ullanib, o'z rasmlarini, loy va applikatsiyani tugatishlarini yoki uni keyingi kunda ham davom ettirib, tugatishlari mumkin. Bu faoliyatga rahbarlik qilish tarbiyachidan juda katta sezgirlikni, diqqatni va bolalarning ijodiy qobiliyatlarining o'sishi uchun sharoit yaratib berishni talab etadi.

MTTda tabiiy materiallardan qurish-yasash ishlarini bajarish bolalar mashg'ulotdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda juda katta yordam beradi. Katta va tayyorlov guruhida tabiiy materiallardan turli kompozitsiyalar yasash bolalarda estetik didni, konstruktorlik qobiliyatini, ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

Kichik yoshdagi bolalarga mashg'ulotdan bo'sh vaqtlarida tasviriy faoliyatning no'an'anaviy usullari yordamida rasm chizish, applikatsiya, loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash mashg'ulotlarini o'tkazish bolalarga mashg'ulotlarga qiziqishini yanada oshiradi, eng muhimi ularda ijodkorlik qobiliyatini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.P.Yusupova."Maktabgacha tarbiya pedagogikasi"O'quv qo'llanma. Toshkent. O'qituvchi nashriyoti — 1993yil
- 2.B.X.Xodjayev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" darslik. «Sano-standart» nashriyoti Toshkent - 2017
- 3."Ilk qadam" davlat o'quv dasturining takomillashtirilgan ikkinchi nashri.Toshkent- 2022 yil
- 4.M.Sh. Nurmatova, Sh.T. Hasanova "Rasm-buyumlar yasash va tasviriy faoliyat metodikasi" Toshkent"Musika" nashriyoti. 2010yil
- 5."PEDAGOGIK MAHORAT" A'zam Xoliqov. Toshkent «IQTISOD-MOLIYA»nashri 2011yil
6. «Bolalar bog'chasida estetik tarbiya» (N.A.Vetlugina tahriri ostida).T., O'qituvchi, 1981.
- 7.Loginova V.I., Samarukova T.G. tahriri ostida. « Maktabgacha tarbiya pedagogikasi». 2 qismli. 1- qism. T., O'qituvchi, 1991.
- 8.T.S.Komarova. « Metodika obucheniya izobrazitel'noy devatel'nosti i konstruirovaniyu». M.: Prosveshenie, 1991.
- 9.T.S.Komarova «Teoriya i metodika izobrazitel'noy devatel'nosti v detskom sadu». M.: Prosvehenie. 1997.
10. Sakulina N.P. «Risunok. applikatsiya, rabota s glinoy v detskom sadu». M.: Prosveshenie, 1993.
- 11.L.V.Kutsakova. «Konstruirovaniye i ruchnoy trud v detskom Sadu. M.: «Prosveshenie», 1990.
- 12.Z.V.Lishtvan. «Konstruirovaniye» M.: «Prosveshenie». 198lg.
- 13.M.A.Gusakova. Applikatsiya. M. ., «Prosveshenie» 1977.
- 14.N.B.Xalezova, N.A.Kurochkina, G.B.Pantyuxina "Bolalar bog'chasida loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash" M.: «O'qituvchi». 1991yil O'zbek tiliga tarjima
15. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida applikatsiya mashg'ulotlari". G.A Amirova, A.P.Sulaymonov, B.R, Djurayeva. Toshkent. "Fan va texnologiya" nashriyoti 2014yil
16. L.S. Vygotskiy, Voprosy detskoy psixologii izdatel'stvo Yurayt, 2016 god

17.S. X. Jalilova, S. M. Aripova "Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi" o'quv qo'llanma «Faylasuflar» nashriyoti.Toshkent – 2017 yil

18.Nurmatova M.SH. Xasanova SH.T. D.Azimova. "Ustaxonada amaliy mashg'ulot". "Cho'lpon", T. 2010y.

Internet saytlari

19.<https://www.razumeykin.ru/publikatsii/tvorcheskie-sposobnosti-doshkolnikov>

20.<https://minikar.ru/uz/dengi/obrazovatel'naya-robototekhnika-v-detskom-sadu-proekt-obrazovatel'naya/>

21.<https://xn--80abmurbt.xn--p1ai/robotics>

22. https://europapier.ru/interesno_dlya_vas/art141.html

23.http://mbdou59.ucoz.ru/publ/masterim_vmeste/origami/chto_takoe_origami/41-1-0-140

24.<https://cyberleninka.ru/article/n/organizatsiya-samostoyatelnoy-hudozhestvenno-esteticheskoy-deyatelnosti-detey-doshkolnogo-vozrasta-v-usloviyah-realizatsii-fgos-do>

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

KIRISH..... 3

**I BOB. MAKTABGACHA TA'LIMDA TASVIRIY FAOLIYAT
FANINING PREDMETI, MAQSADI, VAZIFALARI VA
BOSHQA FANLAR BILAN BOG'LIQLIGI..... 6**

§1. Maktabgacha ta'limda tasviriy faoliyat - maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar badiiy-estetik tarbiyasini rivojlantirishning asosiy vositasi ekanligi..... 6

§2. Maktabgacha ta'limda tasviriy faoliyat fanining predmeti, maqsadi va vazifalari haqida..... 15

**II BOB MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI
BOLALARNING TASVIRIY QOBILIYATI VA
IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH..... 22**

§3.Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishida tasviriy va ijodiy faoliyatning ahamiyati..... 22

§4.Mashg'ulot jarayonida bolalarning tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish..... 33

**III BOB TARBIYACHINING BOLALARNI TASVIRIY
FAOLIYATGA O'RGATISH JARAYONIDAGI O'RNI.....**

§5.Tarbiyachining tasviriy faoliyat mashg'ulotlaridagi pedagogik va kasbiy mahorati..... 42

§6.Tarbiyachining mashg'ulotlarini tashkil qilishdagi kompetentligi..... 49

**IV BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI
TASVIRIY FAOLIYATGA O'RGATISHNING METOD VA
USULLARI..... 56**

§7. Tasviriy faoliyatga o'rgatishning ko'rgazmali, o'gzaki, amaliy va evristik metodlari. O'yin orqali o'rgatish usullari.... 56

§8.Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini yashkil etishda STEAM texnologiyasidan foydalanish..... 66

**V BOB. TURLI YOSH GURUHLARDA MAKTABGACHA
YOSHIDAGI BOLALARNI RASM CHIZISHGA O'RGATISH..... 75**

§9.Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni predmetli, mazmunli va dekorativ rasm chizishga o'rgatish..... 75

§10.MTTning turli yosh guruhlarida rasm chizishga o'rgatish metodikasi..... 86

VI BOB. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA

TURLI YOSH GURUHLARDA APPLIKATSIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI.....	102
§11. Applikasiya- amaliy san'at turi sifatida. Applikasiya turlari. Applikasiya mashg'ulotlari uchun kerakli xom ashyo va jihozlar.....	102
§12. Turli yosh guruhlarda applikasiya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi.....	113
VII BOB. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TURLI YOSH GURUHLARDA LOY MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI.....	128
§13. Xaykaltaroshlik va uning xususiyatlari. Loy ishi uchun xomashyo va jihozlar	128
§14. Loy va plastilindan o'yinchoqlar yashashning sensor asoslari. Loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash mashg'ulotlarida bolalar ijodkorligini rivojlantirish	138
§15. Turli yosh guruhlarda loy va xamirli qorishmalardan buyumlar yasashga o'rgatish metodikasi.....	151
VIII BOB. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURISH-YASASH MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA KONSTRUKTORLAR TO'PLAMLARIDAN FOYDALANISH.....	160
§16. MTTda bolalar uchun konstruktorlik to'plamlari haqida ma'lumot. Mashg'ulotlar jarayonida robototexnikadan foydalanish.....	160
§17. Tabiiy xom ashyo turlari. Turli yosh guruhlarda qog'oz va tabiiy materiallardan foydalanib qurish- yasash mashg'ulotlarida o'yinchoqlar yasash texnologiyasi.....	166
IX BOB. MASHG'ULOTLARDAN TASHQARI VAQTLARDA TASVIRIY FAOLIYATNI TASHKIL QILISH	184
§18. Mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda tasviriyl faoliyatning mazmuni.....	184
§19. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil tasviriyl faoliyatiga rahbarlik qilish.....	188

Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna

Boliyeva Lola Shukurovna

MAKTABGACHA TA'LIMDA TASVIRIY FAOLIYAT

O'QUV QO'LLANMA

Muharrir:	X. Taxirov
Tehnik muharrir:	S. Melikuziva
Musahhih:	M. Yunusova
Sahifalovchi:	A. Ziyamuhamedov

Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й

Bichimi 60x84¹/₁₆. "Cambria" garniturasl, kegli 16.

Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 8,75. Adadi
100 dona. Buyurtma № 1868614

City of book MCHJda chop etildi.

9 789101 751622

